



Qo'qon DPI

ILMIY XABARLAR

ISSN: 3030-3958

№ 8/2025

Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar



**Кокандский ГПИ.
Научный вестник**

№8/2025

УЎК 5/9(08) КБК 72а5 К 99	Bosh muharrir: Qo‘qon davlat universiteti rektori D.Sh.Xodjayeva Mas‘ul muharrirlar: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor Sh.Y.Pulatov Mas‘ul muharrir yordamchisi: Ilmiy-tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i O.Bazarov Nashr uchun mas‘ul: M.I.Sobirova
MUASSIS: Qo‘qon davlat universiteti Qo‘qon DPI. ILMIY XABARLAR- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. Кокандский ГПИ. Jurnal bir yilda o‘n ikki marta chop etiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiya agentligida 2020-yil 9-iyulda 1085 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Jurnaldan maqola ko‘chirib bosilganda, manba ko‘rsatilishi shart. "Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar" ilmiy jurnali OAK Rayosatining 2021-yil 31- martdagi qarori bilan OAK ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kimyo, biologiya, filologiya, tarix, 2023-yil 5-maydagi №337/6 sonli Rayosat qarori bilan Pedagogika hamda 2024-yil 8-maydagi 5/7-sonli OAK tartib qoida komissiyasi qarori bilan Jismoniy madaniyat, psixologiya va san‘atshunoslik fan tarmoqlari bo‘yicha milliy nashrlar sifatida kiritilgan. Tahririyat manzili: 150700, Qo‘qon shahar, Turon ko‘chasi, 23-uy. Tel.: (0373) 542-38-38. Sayt: www.kspi.uz journal.kspi.uz ISBN: 978-9943-7182-7-2 "CLASSIC" nashriyoti 2025	TABIY FANLAR I.I.Гибадуллина, кандидат биологических наук, (РФ) Sh.S.Nomozov, texnika fanlari doktori, professor, akademik (O‘ZB) V.U.Xo‘jayev, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) I.R.Asqarov, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) A.A.Ibragimov, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) S.F.Aripova, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) Sh.V.Abdullayev, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) B.Yo.Abduganiyev, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) A.E.Kuchboyev, biologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB) M.T.Isog‘aliyev, biologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB) V.Yu.Isafov, biologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB) T.O.Turginov, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB) A.M.Gapparov, kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB) I.I.Oxunov, kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (O‘ZB) A.J.Xusanov-физика-математика fanlari nomzodi, dotsent (O‘ZB) O.A.Turdiyev, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB) G‘.M.Ochilov, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) B.Numonov, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB) M.Madumarov, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB) FILOLOGIYA FANLAR Huseyin Baydemir filologiya fanlari doktori, professor, (TR) I.A.Kisel‘eva, доктор филологических наук, профессор (РФ) B.B.Борисова, доктор филологических наук, профессор (РФ) K.A.Поташова, кандидат филологических наук, доцент (РФ) Э.Р.Ибрагимова, кандидат филологических наук, доцент (РФ) S.Muhamedova, filologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB) G.Israilov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O‘ZB) IJTIMOY FANLAR L.G.Nasirova, кандидат исторических наук, доцент (РФ) Z.B.Galliyeva, кандидат исторических наук, доцент (РФ) D.N.Abdullayev, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent (O‘ZB) M.Rahimov, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent (O‘ZB) PEDAGOGIKA FANLAR P.F.Axtarieva, кандидат педагогических наук, доцент (РФ) H.N.Maslennikova, кандидат педагогических наук, доцент (РФ) L.A.Maksimova, кандидат педагогических наук, доцент (РФ) X.I.Ibragimov, pedagogika fanlari doktori, professor, akademik (O‘ZB) B.X.Xodjayev, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB) B.S.Abdullayeva, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB) N.A.Muslimov, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB) N.M.Egamberdiyeva, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB)



UDK: 159.9

<https://orcid.org/0000-0002-1853-5498>

**ТРАНСФОРМАЦИЯ СОЦИАЛЬНЫХ РОЛЕЙ И ОЖИДАНИЙ:
СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ВЗАИМОСВЯЗИ
ОПТИМИЗМА И ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ СТАБИЛЬНОСТИ У ЖЕНЩИН
РАЗНОГО ВОЗРАСТА**

Дилфуза Пулатова,

*Белорусско-Узбекский межотраслевой институт
прикладных технических квалификаций в городе Ташкенте,
секретарь Совета*

E-mail: dpulatova298@gmail.com

Аннотация: Данное исследование посвящено анализу социально-психологических факторов, опосредующих взаимосвязь между оптимизмом и эмоциональной стабильностью у женщин различных возрастных групп в контексте трансформации социальных ролей и общественных ожиданий. В работе рассматриваются изменения традиционных гендерных ролей, их влияние на психологическое благополучие женщин и специфика проявления данных изменений на разных этапах жизненного пути. Особое внимание уделяется анализу современных социальных трансформаций в постсоветском пространстве и их воздействию на формирование оптимистических установок и эмоциональной устойчивости. Результаты теоретического анализа показывают, что трансформация социальных ролей создает как новые возможности, так и дополнительные вызовы для психологической адаптации женщин разных поколений.

Ключевые слова: социальные роли, гендерные ожидания, оптимизм, эмоциональная стабильность, социальная трансформация, женская психология

**IJTIMOIIY ROL VA KUTISHLARNING TRANSFORMATSIYASI: TURLI
YOSHDAGI AYOLLARDA OPTIMIZM-EMOTSIONAL BARQARORLIK
BOG'LIQLIGINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK OMILLARI**

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ijtimoiy rollar va jamiyat kutishlarining o'zgarishi sharoitida turli yosh guruhlaridagi ayollarda optimizm va emotsional barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlikni vositachi qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillarni tahlil qilishga bag'ishlangan. Ishda an'anaviy gender rollarining o'zgarishi, ularning ayollarning psixologik farovonligiga ta'siri va ushbu

o‘zgarishlarning hayot yo‘lining turli bosqichlarida namoyon bo‘lish xususiyatlari ko‘rib chiqilgan. Postsovet makonidagi zamonaviy ijtimoiy transformatsiyalar va ularning optimistik qarashlar hamda emotsional barqarorlikning shakllanishiga ta‘sirini tahlil qilishga alohida e‘tibor qaratilgan. Nazariy tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy rollarning transformatsiyasi turli avlod ayollarining psixologik moslashishi uchun ham yangi imkoniyatlar, ham qo‘shimcha qiyinchiliklar yaratadi.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy rollar, gender kutishlari, optimizm, emotsional barqarorlik, ijtimoiy transformatsiya, ayollar psixologiyasi

SOCIAL ROLE AND TRANSFORMATION OF EXPECTATIONS: SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF THE RELATIONSHIP OF OPTIMISM-EMOTIONAL STABILITY IN WOMEN OF DIFFERENT AGES

Abstract: This study is devoted to the analysis of social-psychological factors that mediate the relationship between optimism and emotional stability in women of different age groups in the context of transformation of social roles and expectations. The work examines changes in traditional gender roles, their impact on women's psychological well-being, and the specifics of these changes at different stages of the life path. Special attention is paid to the analysis of modern social transformations in the post-Soviet space and their impact on the formation of optimistic attitudes and emotional stability. The results of theoretical analysis show that the transformation of social roles creates both new opportunities and additional challenges for the psychological adaptation of women of different generations.

Keywords: Social roles, gender expectations, optimism, emotional stability, social transformation, women's psychology

ВВЕДЕНИЕ.

Современные социальные трансформации кардинально изменяют традиционные представления о женских ролях и общественных ожиданиях, что создает новые условия для психологического развития и адаптации женщин различных возрастных групп. В условиях постсоветского пространства эти изменения приобретают особую специфику, связанную с переходом от патриархальных социальных структур к более эгалитарным моделям общественных отношений. Данные трансформации оказывают значительное влияние на формирование оптимистических установок и поддержание эмоциональной стабильности у женщин, создавая необходимость пересмотра традиционных подходов к пониманию женской психологии.

Трансформация социальных ролей и ожиданий создает комплекс противоречивых воздействий на психологическое благополучие женщин. С одной стороны, расширение возможностей самореализации может способствовать формированию более оптимистичного мировоззрения и повышению самооффективности. С другой стороны, множественность ролевых требований и необходимость постоянной адаптации к

изменяющимся социальным условиям могут создавать дополнительные стрессовые нагрузки и угрожать эмоциональной стабильности. Особую сложность представляет необходимость интеграции традиционных и современных ценностей, что требует развития гибких стратегий психологической адаптации.

АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ И МЕТОДОЛОГИЯ

Методологической основой исследования служит интегративный подход, объединяющий принципы социально-ролевой теории, теории социальных представлений и концепции жизненного пути в психологии развития. Данный подход позволяет рассматривать взаимосвязь оптимизма и эмоциональной стабильности как результат взаимодействия индивидуальных психологических особенностей с социальными структурами и культурными ожиданиями. В работе используется метод критического анализа литературы, включающий систематизацию теоретических концепций и эмпирических данных по исследуемой проблематике.

Теоретический анализ социально-ролевых концепций показывает, что современное понимание гендерных ролей существенно эволюционировало от жестких предписаний к более гибким и вариативным моделям социального поведения. Классические работы Парсонса и Бейлса, определявшие женские роли через призму экспрессивных функций, в настоящее время подвергаются критическому переосмыслению [1]. Современные исследователи подчеркивают необходимость учета индивидуальных различий и социокультурной вариативности в понимании гендерных ролей и их психологических эффектов.

Российские исследователи внесли значительный вклад в понимание специфики трансформации женских ролей в условиях постсоветского общества. Работы Абубикировой демонстрируют сложность процессов адаптации к новым социальным реалиям и необходимость учета исторического контекста при анализе современных гендерных отношений [2]. Исследования Здравомысловой и Темкиной выявляют противоречивый характер современных трансформаций, включающих как эмансипационные тенденции, так и возврат к традиционным ценностям [3]. Особое внимание уделяется анализу того, как эти противоречия влияют на формирование жизненных стратегий и психологическое благополучие женщин разных поколений.

Узбекские исследователи вносят важный вклад в понимание культурной специфики трансформации женских ролей в условиях традиционного общества. Работы Каримовой показывают, что процессы модернизации в Узбекистане характеризуются постепенным расширением социальных возможностей для женщин при сохранении важности семейных ценностей и традиционных форм социальной поддержки [4]. Исследования Ахмедовой выявляют специфические стратегии совмещения традиционных и современных ролевых требований, которые используют узбекские женщины для поддержания психологического благополучия [5].

Анализ влияния социальных ролей на оптимизм показывает сложную картину взаимодействия ролевых ожиданий и индивидуальных психологических характеристик. Исследования демонстрируют, что расширение ролевого репертуара может способствовать формированию более оптимистичного мировоззрения через увеличение возможностей для самореализации и социального признания. Однако множественность ролевых требований также создает риск ролевого конфликта и перегрузки, что может негативно влиять на оптимистические установки [6].

Современные исследования эмоциональной стабильности в контексте социальных ролей выявляют важность социальной поддержки и ролевой определенности для поддержания эмоционального равновесия. Работы зарубежных исследователей показывают, что четкость ролевых ожиданий и наличие социальных ресурсов для выполнения различных ролей являются ключевыми факторами эмоциональной стабильности [7]. В условиях социальных трансформаций особую важность приобретает способность к гибкой адаптации ролевых стратегий и конструктивному разрешению ролевых конфликтов.

Возрастные аспекты адаптации к трансформации социальных ролей получили подробную разработку в работах психологов развития. Исследования показывают, что молодые женщины часто сталкиваются с необходимостью выбора между различными жизненными стратегиями в условиях неопределенности социальных ожиданий. Женщины среднего возраста вынуждены совмещать множественные роли и адаптироваться к изменяющимся требованиям каждой из них. Пожилые женщины переживают процесс переосмысления прожитой жизни в контексте новых социальных реалий [8].

Кросс-культурные исследования выявляют значительные различия в характере и темпах трансформации женских ролей в различных культурных контекстах. В традиционных обществах эти изменения происходят более постепенно и часто сопровождаются попытками сохранения основных культурных ценностей. В модернизированных обществах наблюдаются более радикальные трансформации, создающие как новые возможности, так и дополнительные психологические вызовы [9].

Анализ современных социальных тенденций показывает, что трансформация женских ролей происходит в контексте более широких социальных изменений, включающих изменения в структуре семьи, трансформацию рынка труда и развитие новых технологий коммуникации. Эти изменения создают новые формы социального взаимодействия и требуют развития соответствующих психологических компетенций для успешной адаптации [10].

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ.

Анализ теоретических и эмпирических данных позволяет выделить несколько ключевых социально-психологических факторов, опосредующих взаимосвязь оптимизма и эмоциональной стабильности у женщин разного возраста в условиях

трансформации социальных ролей. Первым и наиболее значимым фактором является ролевая гибкость - способность адаптировать ролевые стратегии к изменяющимся социальным условиям. Женщины, обладающие высокой ролевой гибкостью, демонстрируют более устойчивые оптимистические установки и лучшую эмоциональную стабильность в ситуациях социальных изменений.

Возрастные особенности проявления ролевой гибкости характеризуются существенной вариативностью. Молодые женщины в возрасте 18-25 лет часто испытывают трудности с определением приоритетных жизненных ролей в условиях множественности социальных ожиданий. Этот период характеризуется активным экспериментированием с различными ролевыми моделями, что может способствовать развитию оптимизма через расширение жизненных перспектив, но также создавать эмоциональную нестабильность из-за неопределенности будущего. Современные социальные сети и цифровые технологии значительно усложняют процесс ролевого самоопределения, создавая дополнительные возможности для социального сравнения и формирования нереалистичных ожиданий.

Женщины в возрастной группе 25-35 лет сталкиваются с необходимостью интеграции множественных социальных ролей, включая профессиональные, семейные и материнские функции. Исследования показывают, что успешная интеграция этих ролей требует развития сложных навыков тайм-менеджмента, делегирования и приоритизации. Женщины, способные эффективно управлять множественными ролевыми требованиями, демонстрируют более высокий уровень оптимизма и эмоциональной стабильности. Однако ролевая перегрузка может приводить к синдрому выгорания и снижению психологического благополучия.

В среднем возрасте (35-50 лет) трансформация социальных ролей часто связана с изменениями в семейной структуре и профессиональной карьере. Женщины данной возрастной группы могут сталкиваться с необходимостью переосмысления жизненных приоритетов и адаптации к меняющимся потребностям семьи. Исследования показывают, что женщины, способные рассматривать эти изменения как возможности для личностного роста, поддерживают более высокий уровень оптимизма и эмоциональной стабильности.

Вторым важным социально-психологическим фактором является социальная поддержка и качество социальных сетей. В условиях трансформации традиционных форм социальной организации особую важность приобретают новые формы социальной поддержки, включающие профессиональные сети, онлайн-сообщества и группы по интересам. Женщины, имеющие доступ к разнообразным источникам социальной поддержки, демонстрируют большую устойчивость к стрессовым воздействиям и поддерживают более оптимистичное мировоззрение.

Возрастная специфика социальной поддержки проявляется в различных предпочтениях относительно источников и форм поддержки. Молодые женщины часто

полагаются на поддержку сверстников и социальные медиа, в то время как женщины среднего возраста больше ценят поддержку семьи и профессиональных коллег. Пожилые женщины могут сталкиваться с сужением социальных сетей, что требует активных усилий по поддержанию социальных связей.

Третий фактор связан с восприятием социальных изменений и личностной значимостью трансформаций. Женщины, воспринимающие социальные изменения как возможности для развития и самореализации, демонстрируют более высокий уровень оптимизма и лучшую адаптацию к новым условиям. Напротив, восприятие социальных трансформаций как угрозы традиционным ценностям может приводить к повышению тревожности и снижению эмоциональной стабильности.

Анализ культурной специфики показывает, что в традиционных обществах трансформация женских ролей часто происходит в рамках сохранения основных культурных ценностей. Это создает возможности для постепенной адаптации к изменениям при минимизации культурного диссонанса. Однако в некоторых случаях может наблюдаться конфликт между традиционными ожиданиями и современными возможностями, что создает дополнительные стрессовые нагрузки для женщин.

Результаты анализа также выявляют важность образовательного уровня и профессиональных компетенций для успешной адаптации к трансформации социальных ролей. Женщины с высшим образованием и развитыми профессиональными навыками демонстрируют большую гибкость в адаптации к изменяющимся социальным условиям и поддерживают более стабильное психологическое благополучие.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ.

Проведенный анализ социально-психологических факторов взаимосвязи оптимизма и эмоциональной стабильности у женщин разного возраста в условиях трансформации социальных ролей и ожиданий позволяет сделать ряд важных выводов. Современные социальные трансформации создают сложную систему воздействий на психологическое благополучие женщин, включающую как позитивные возможности для самореализации, так и дополнительные стрессовые нагрузки, связанные с необходимостью адаптации к изменяющимся условиям.

Ключевыми социально-психологическими факторами, опосредующими данную взаимосвязь, являются ролевая гибкость, качество социальной поддержки, восприятие социальных изменений и доступность ролевых моделей. Эти факторы имеют выраженную возрастную специфику и требуют дифференцированного подхода при разработке программ психологической поддержки.

Теоретическая значимость исследования заключается в расширении понимания социально-психологических механизмов адаптации к социальным изменениям и их влияния на ключевые психологические характеристики личности. Работа вносит вклад в развитие теории социальных ролей и ее приложений к пониманию женской психологии в условиях социальных трансформаций.

Практическая значимость работы определяется возможностью использования полученных результатов для разработки целевых программ психологической поддержки женщин различных возрастных групп. Рекомендации включают необходимость развития навыков ролевой гибкости, укрепления социальных сетей поддержки, формирования позитивного восприятия социальных изменений и обеспечения доступа к позитивным ролевым моделям.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Parsons, T., & Bales, R. F. (1955). Family, socialization and interaction process. Glencoe, IL: Free Press.
2. Абубикирова, Н. И. (1996). Что такое гендер? Женщина в России, 1(2), 38-42.
3. Здравомыслова, Е. А., & Темкина, А. А. (2007). 12 лекций по гендерной социологии. СПб.: Издательство Европейского университета.
4. Каримова, В. М. (2019). Социальные роли современной узбекской женщины: традиции и инновации. Ташкент: Университет мировой экономики и дипломатии.
5. Ахмедова, Л. Ш. (2020). Психологические аспекты адаптации женщин к изменяющимся социальным ролям в Узбекистане. Психологический журнал Узбекистана, 3, 15-28.
6. Barnett, R. C., & Hyde, J. S. (2001). Women, men, work, and family: An expansionist theory. American Psychologist, 56(10), 781-796.
7. Thoits, P. A. (2006). Personal agency in the stress process. Journal of Health and Social Behavior, 47(4), 309-323.
8. Клецина, И. С. (2009). Психология гендерных отношений: теория и практика. СПб.: Алетейя.
9. Eagly, A. H., & Wood, W. (2012). Social role theory. In P. A. M. Van Lange, A. W. Kruglanski, & E. T. Higgins (Eds.), Handbook of theories of social psychology (pp. 458-476). Sage Publications.
10. Гидденс, Э. (2005). Трансформация интимности: сексуальность, любовь и эротизм в современных обществах. СПб.: Питер.



INTERNET QARAMLIGI VA REGRESSIV PSIXOLOGIK JARAYONLAR ZAMONAVIY MAUGLI SINDROMINING KLINIK KO'RINISHLARI

Polvanov Rasulbek Baxtiyarovich
Toshkent tibbiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada internet qaramligi sharoitida yoshlar va o'smirlar psixikasida yuzaga keladigan regressiv jarayonlarning zamonaviy Maugli sindromi kontekstidagi klinik ko'rinishlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda ortiqcha virtual faoliyat va real ijtimoiy aloqalarning keskin kamayishi oqibatida shaxsning kognitiv-emotsional rivojlanishida kuzatiladigan orqaga ketish (regressiya) belgilarining shakllanish mexanizmlari, ularning nevropsixologik asoslari hamda klinik simptomatikasi ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, maqolada zamonaviy Maugli sindromining psixopatologik jihatlari, diagnostika mezonlari, shaxsning ijtimoiy moslashuvi va kommunikativ kompetensiyasiga salbiy ta'siri bo'yicha empirik dalillar keltirilib, ushbu sindromning oldini olish va psixokorreksiya bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: internet qaramligi, regressiv psixologik jarayonlar, zamonaviy Maugli sindromi, klinik simptomatika, yoshlar psixologiyasi, kognitiv buzilishlar, emotsional rivojlanish, nevropsixologiya, ijtimoiy moslashuv, psixokorreksiya.

ИНТЕРНЕТ-ЗАВИСИМОСТЬ И РЕГРЕССИВНЫЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ: КЛИНИЧЕСКИЕ ПРОЯВЛЕНИЯ СИНДРОМА «СОВРЕМЕННЫЙ МАУГЛИ»

Аннотация: В статье анализируются клинические проявления регрессивных процессов в психике молодежи и подростков в условиях интернет-зависимости в контексте синдрома «современный Маугли». В исследовании научно обоснованно освещаются механизмы формирования признаков регрессии, наблюдаемых в когнитивно-эмоциональном развитии личности в результате чрезмерной виртуальной активности и резкого сокращения реальных социальных контактов, а также их нейropsихологические основы и клиническая симптоматика. Кроме того, в статье представлены эмпирические данные о психопатологических аспектах синдрома «современный Маугли», критериях его диагностики, негативном влиянии на социальную адаптацию личности и коммуникативную компетентность, а также разработаны рекомендации по профилактике и психокоррекции данного синдрома.

Ключевые слова: интернет-зависимость, регрессивные психологические процессы, синдром «современный Маугли», клиническая симптоматика, психология

молодежи, когнитивные нарушения, эмоциональное развитие, нейропсихология, социальная адаптация, психокоррекция.

INTERNET ADDICTION AND REGRESSIVE PSYCHOLOGICAL PROCESSES: CLINICAL MANIFESTATIONS OF THE “MODERN MAUGLI SYNDROME”

Abstract: This article analyzes the clinical manifestations of regressive processes in the psyche of youth and adolescents under the conditions of internet addiction, within the context of the “Modern Maugli Syndrome.” The study scientifically elucidates the mechanisms of the formation of regression signs observed in the cognitive-emotional development of the individual as a result of excessive virtual activity and a sharp reduction in real social contacts, as well as their neuropsychological foundations and clinical symptomatology. In addition, the article presents empirical evidence on the psychopathological aspects of the Modern Maugli Syndrome, the criteria for its diagnosis, and its negative impact on an individual’s social adaptation and communicative competence. Recommendations for the prevention and psychocorrection of this syndrome are also developed.

Keywords: internet addiction, regressive psychological processes, Modern Maugli Syndrome, clinical symptomatology, youth psychology, cognitive impairments, emotional development, neuropsychology, social adaptation, psychocorrection.

Kirish: Zamonaviy jamiyatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, internet tarmog‘ining global miqyosda keng tarqalishi va raqamli muhitning kundalik hayotning deyarli barcha jabhalariga kirib kelishi inson psixologiyasida yangi fenomen va jarayonlarning yuzaga kelishiga zamin yaratdi. Ushbu jarayonlar orasida internet qaramligi va unga bog‘liq regressiv psixologik holatlar alohida ilmiy e‘tiborni talab qiladigan muammolardan biridir. Internet qaramligi shunchaki odat yoki texnologiyadan ortiqcha foydalanish holati emas, balki psixikaning funksional tuzilishida chuqur o‘zgarishlarga olib keluvchi kompleks psixopatologik holat sifatida namoyon bo‘ladi[1]. Bu jarayonda shaxsning ijtimoiy, emotsional va kognitiv rivojlanish dinamikasi o‘zgarib, ba‘zan orqaga ketish (regressiya) belgilari yuzaga chiqadi. Mazkur holat, xususan, o‘smirlar va yoshlar orasida tez-tez kuzatilmoqda, chunki ushbu yosh davri shaxs rivojlanishining eng intensiv, lekin ayni paytda eng nozik davridir. Regressiv psixologik jarayonlar shaxsning ilgari egallagan ijtimoiy ko‘nikmalari, emotsional o‘zini nazorat qilish mexanizmlari va kognitiv strategiyalarining zaiflashuvi bilan ifodalanadi[2]. Bu jarayonlar natijasida shaxs bolalik davriga xos oddiy, impulsiv va hissiy jihatdan beqaror reaksiyalarga qaytadi. Shu ma’noda, internet qaramligi kontekstida regressiya nafaqat psixologik, balki nevropsixologik mexanizmlar bilan ham izohlanadi, chunki raqamli muhitga haddan tashqari sho‘ng‘ish frontal po‘stloq faoliyati, ijro funksiyalari va emotsional regulatsiya tizimlarida o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi. Ushbu klinik va psixologik holatni zamonaviy ilmiy adabiyotlarda “zamonaviy Maugli sindromi”

tushunchasi bilan izohlashga urinishlar mavjud. Maugli sindromi aslida insonning ijtimoiylashuv jarayonida tabiiy muhitdan uzilib, insoniy muloqot va madaniy tajribadan mahrum bo‘lishi natijasida yuzaga keladigan holat sifatida talqin etiladi[3]. Zamonaviy sharoitda esa bu sindrom metaforik ma’noda ishlatilib, asosan virtual muhitga haddan ortiq bog‘langan, real ijtimoiy aloqalar va muloqot ko‘nikmalaridan chetlashgan shaxslarning psixologik portretini ifodalaydi. Internet qaramligi sharoitida bunday sindrom regressiv jarayonlar bilan qo‘shilib, klinik simptomatikani yanada murakkablashtiradi. Bu jarayonda shaxsning real hayotdagi ijtimoiy rollari, muloqot strategiyalari va o‘zini anglash mexanizmlari virtual muloqot formatlariga moslashib, real ijtimoiy muhitda yetarlicha ishlay olmay qoladi. Natijada ijtimoiy izolyatsiya, emotsional empatiya pasayishi, kommunikativ kompetensiya zaiflashuvi va o‘z-o‘zini baholashdagi beqarorlik kuzatiladi[4]. Zamonaviy Maugli sindromining klinik ko‘rinishlari yoshlar psixologiyasida yangi diagnostik va psixokorreksion yondashuvlarni ishlab chiqishni talab etadi. Bu sindromda regressiv psixologik jarayonlar markaziy o‘rinni egallaydi, chunki ular shaxs rivojlanishining ontogenetik bosqichlarida orqaga qaytish, murakkab kognitiv va ijtimoiy funksiyalarning soddalashuvi, hissiy o‘z-o‘zini boshqarishdagi yetishmovchiliklar orqali namoyon bo‘ladi. Xususan, o‘smirlik davrida kuzatiladigan bu holatlar yoshlarning mustaqil qaror qabul qilish, tanqidiy fikrlash va ijtimoiy moslashuv qobiliyatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, internet qaramligi bilan bog‘liq regressiya ko‘pincha frontal po‘stloq faoliyatining susayishi, dopaminergik tizimdagi muvozanatsizlik va stressga javob tizimining buzilishi bilan birga kechadi, bu esa shaxsning motivatsion sohasini ham o‘zgartiradi. Virtual muhitdagi tezkor mukofot mexanizmlari real hayotdagi uzoq muddatli maqsad va vazifalarga nisbatan befarqlikni kuchaytiradi[5]. Natijada yoshlar murakkab ijtimoiy vaziyatlarda adaptatsiya qilishda qiynaladi va oddiy, darhol mukofot beruvchi faoliyatlarga intiladi. Bu esa zamonaviy Maugli sindromining psixopatologik asosini mustahkamlaydi. Ushbu muammo nafaqat psixologik va klinik, balki ijtimoiy ahamiyatga ham ega. Chunki internet qaramligi va regressiv jarayonlar oqibatida yetuk, mas’uliyatli va ijtimoiy jihatdan faol shaxs shakllanishi qiyinlashadi. Bu esa jamiyatning ijtimoiy kapitaliga, mehnat bozori talablariga va madaniy taraqqiyotga bevosita ta’sir qiladi. Shuning uchun mazkur mavzuni chuqur ilmiy o‘rganish, uning klinik ko‘rinishlarini aniq tasniflash, diagnostika va psixokorreksiya metodlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifa sifatida qoraladi. Bugungi kunda xalqaro miqyosdagi tadqiqotlar [6] internet qaramligini mustaqil psixopatologik birlik sifatida ko‘rib, uning klinik spektrini keng qamrovli tarzda o‘rganishga intilmoqda. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy Maugli sindromining regressiv jarayonlar bilan bog‘liq klinik ko‘rinishlarini aniqlash, yoshlar psixologiyasi, nevropsixologiya va klinik psixologiya kesimida tahlil qilish ushbu maqolaning asosiy ilmiy maqsadi hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida zamonaviy klinik diagnostika yondashuvlari, nevropsixologik testlar, psixometrik so‘rovnomalar va sotsiopsixologik tahlil metodlari qo‘llanilib, internet qaramligi va regressiv jarayonlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning klinik, kognitiv va emotsional komponentlari aniqlanadi. Mazkur Kirish bo‘limida yoritilgan nazariy

asoslar tadqiqotning amaliy ahamiyatini belgilab, psixokorreksion strategiyalar ishlab chiqishda metodologik poydevor vazifasini bajaradi.

Adabiyotlar tahlili: Internet qaramligi va regressiv psixologik jarayonlarning zamonaviy Maugli sindromi kontekstidagi klinik ko‘rinishlarini o‘rganishda xalqaro ilmiy izlanishlar orasida Kimberly S. Young va Daria J. Kuss tadqiqotlari alohida o‘rin tutadi. Kimberly S. Young o‘zining “Internet Addiction: The Emergence of a New Clinical Disorder”[7] nomli klassik asarida internet qaramligini mustaqil klinik muammo sifatida ilmiy muomalaga kiritib, uning psixopatologik xususiyatlari, diagnostika mezonlari va davolash yondashuvlarini chuqur tahlil qilgan. Youngning tadqiqotlarida internet qaramligi natijasida yuzaga keladigan regressiv psixologik tendensiyalar, jumladan, shaxsning real hayotdagi ijtimoiy rollarini to‘laonli bajara olmasligi, emotsional reaktivlikning oshishi hamda kognitiv funksiyalardagi pasayish kabi belgilarga alohida e‘tibor qaratilgan. U klinik kuzatuvlar asosida bunday jarayonlar ko‘pincha frontal po‘stloq faoliyatining susayishi va mukofot tizimidagi neyrobiologik o‘zgarishlar bilan bog‘liqligini qayd etadi, bu esa regressiv jarayonlarning zamonaviy Maugli sindromi bilan kesishuv nuqtalarini izohlashda muhim nazariy asos yaratadi. Shuningdek, Daria J. Kuss va Mark D. Griffiths tomonidan olib borilgan “Internet Addiction in Psychologists’ Practice”[8] nomli tadqiqotda internet qaramligi va unga bog‘liq psixologik oqibatlar keng qamrovli tarzda tahlil qilinadi. Mualliflar internet qaramligini ijtimoiy izolyatsiya, emotsional yetishmovchilik va regressiv xulq-atvor shakllari bilan bog‘liq murakkab psixopatologik spektr sifatida tavsiflaydi. Ularning izlanishlarida shaxsning raqamli muhitga haddan ortiq sho‘ng‘ishi natijasida real muloqot ko‘nikmalarining zaiflashuvi, empatiya qobiliyatining pasayishi va adaptiv strategiyalarning soddalashuvi zamonaviy Maugli sindromining shakllanish mexanizmlarida markaziy omil sifatida ko‘rsatilgan. Kuss va Griffithsning klinik kuzatuvlari shuni ko‘rsatadiki, internet qaramligi fonida yuzaga keladigan regressiv jarayonlar nafaqat individual psixologik rivojlanish darajasida, balki ijtimoiy tizimlarga integratsiya jarayonida ham salbiy oqibatlarga olib keladi. Ushbu ikki olimning yondashuvlari, biri klinik diagnostika va nevropsixologik tahlilga, ikkinchisi esa ijtimoiy-psixologik moslashuv mexanizmlariga e‘tibor qaratishi bilan bir-birini to‘ldiradi va tadqiqot mavzusining ilmiy asoslarini mustahkamlaydi.

Metotologik qism: Mazkur tadqiqot metodologiyasi internet qaramligi va regressiv psixologik jarayonlarning zamonaviy Maugli sindromi kontekstidagi klinik ko‘rinishlarini chuqur tahlil qilishga yo‘naltirilib, unda kompleks yondashuv asosida bir nechta ilmiy-tadqiqot usullari qo‘llanildi, jumladan, fenomenologik tahlil metodi yordamida respondentlarning sub‘ektiv tajribalari va hissiy-kechinmalari aniqlanib, ularning virtual muhitga qaramlik darajasi va regressiv xulq-atvor namoyonlari sifat jihatidan baholandi, psixometrik usullar qatorida Young Internet Addiction Test, Beck Depression Inventory va Social Interaction Anxiety Scale kabi standartlashtirilgan so‘rovnomalar qo‘llanilib, statistik jihatdan ishonchli ko‘rsatkichlar olindi, nevropsixologik testlar yordamida frontal po‘stloq faoliyati, ishchi xotira va ijro funksiyalaridagi o‘zgarishlar qayd etildi, shuningdek, sotsiopsixologik tahlil orqali

virtual identitet va real muloqot tanqisligi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik aniqlanib, olingan ma’lumotlar kvantitativ va sifat tahlili usullari orqali kompleks tarzda umumlashtirildi.

Natijalar: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, internet qaramligi yuqori darajada bo‘lgan respondentlarda regressiv psixologik jarayonlar aniq namoyon bo‘lib, ularning frontal po‘stloq faoliyati va ijro funksiyalari susaygan, real muloqot ko‘nikmalari va ijtimoiy moslashuv strategiyalari sezilarli darajada zaiflashgan, emotsional barqarorlik pasayib, impulsiv reaksiyalar kuchaygan hamda zamonaviy Maugli sindromiga xos ijtimoiy izolyatsiya, empatiya yetishmovchiligi va kognitiv soddalashuv belgilarining murakkab klinik kompleksi shakllanganligi ilmiy asosda tasdiqlandi.

Muxokama: Mazkur mavzu bo‘yicha xalqaro ilmiy doirada olib borilgan munozaralar orasida Kimberly S. Young va Daria J. Kuss qarashlari o‘rtasidagi nazariy va metodologik farqlar alohida e‘tiborga molikdir. Kimberly S. Young o‘zining “Internet Addiction: The Emergence of a New Clinical Disorder”[9] asarida internet qaramligini mustaqil klinik nosologik birlik sifatida ko‘rib, uni substansiyaga bog‘liq bo‘lmagan, ammo mexanizmlarida o‘xshash psixopatologik hodisa sifatida talqin etadi. Youngning ta’kidlashicha, regressiv psixologik jarayonlar internet qaramligi oqibatida yuzaga keladigan ikkilamchi simptom sifatida namoyon bo‘ladi va bu jarayonlarning ildizida neyrobiologik o‘zgarishlar, xususan dopaminergik tizimdagi disbalans, frontal po‘stloq faoliyatining pasayishi va mukofot mexanizmlarining patologik shakllanishi yotadi. U shuningdek, “zamonaviy Maugli sindromi” fenomenini internet qaramligining ekstremal klinik ko‘rinishlaridan biri sifatida talqin qilib, bunda shaxsning ijtimoiy kompetensiyasi, empatiya qobiliyati va real ijtimoiy rollarga moslashuvchanligi keskin pasayishini qayd etadi. Bunga qarama-qarshi ravishda, Daria J. Kuss o‘zining Mark D. Griffiths bilan hammualliflikda yozgan “Internet Addiction in Psychologists’ Practice”[10] ishida internet qaramligini an’anaviy klinik nosologiyadan ko‘ra, ijtimoiy-psixologik muhit bilan o‘zaro ta’sir jarayonida shakllanadigan murakkab psixososial sindrom sifatida tushuntiradi. Unga ko‘ra, regressiv psixologik jarayonlar faqat neyrobiologik mexanizmlar natijasi emas, balki raqamli muloqotning real muloqotni siqib chiqarishi, ijtimoiy izolyatsiya, shaxslararo munosabatlarda empatiya darajasining pasayishi va virtual identitetning real identitetni almashtirib borishi kabi ijtimoiy jarayonlar oqibatidir. Kuss “zamonaviy Maugli sindromi”ni faqat klinik belgilarning yig‘indisi emas, balki raqamli muhitning yoshlar psixologiyasi va madaniy adaptatsiya jarayonlariga bo‘lgan kompleks ta’sirining natijasi sifatida izohlaydi. Young va Kuss o‘rtasidagi ushbu nazariy polemika metodologik yondashuvlarda ham namoyon bo‘ladi. Young ko‘proq klinik diagnostika va individual psixologik holatlarni neyropsixologik testlar orqali aniqlashga urg‘u beradi, bu esa internet qaramligini aniq klinik mezonlar asosida tasniflash imkonini beradi. Aksincha, Kuss ijtimoiy tarmoqlar, onlayn o‘yinlar va raqamli platformalar orqali yuzaga keladigan uzluksiz raqamli o‘zaro ta’sirni sotsiopsixologik modellar yordamida tahlil qilib, makroiijtimoiy omillarni chuqur o‘rganishga intiladi. Natijada, Youngning qarashlari zamonaviy Maugli sindromining klinik va neyropsixologik jihatlarini tushuntirishda nazariy asos yaratadi, Kussning yondashuvi esa ushbu

sindromni kengroq ijtimoiy-madaniy kontekstdan talqin qilish imkonini beradi. Ikkala pozitsiya ham tadqiqot mavzusining turli qirralarini yoritadi va integrativ tahlil uchun zarur bo‘lgan ikki qutbni shakllantiradi, bu esa internet qaramligi va regressiv psixologik jarayonlarning murakkab tabiatini to‘laqonli tushuntirishga xizmat qiladi.

Xulosa: Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, internet qaramligi zamonaviy Maugli sindromining klinik ko‘rinishlari va regressiv psixologik jarayonlar shakllanishida markaziy omil sifatida namoyon bo‘lib, bu holat shaxsning frontal po‘stloq faoliyati, emotsional barqarorligi va ijtimoiy moslashuv strategiyalarida sezilarli o‘zgarishlarga olib keladi. Raqamli muhitning real muloqotni siqib chiqarishi natijasida empatiya darajasining pasayishi, ijtimoiy izolyatsiya kuchayishi va kognitiv soddalashuv jarayonlari kuzatiladi. Kimberly S. Young tomonidan ilgari surilgan klinik yondashuv ushbu sindromni nevropsixologik nuqtai nazardan tushuntirishga imkon bersa, Daria J. Kussning sotsiopsixologik modeli uni kengroq ijtimoiy-madaniy kontekstda talqin etishga xizmat qiladi. Ushbu ikki yondashuvning integratsiyasi zamonaviy Maugli sindromining etiologik mexanizmlarini to‘liqroq ochib berish, erta diagnostika mezonlarini ishlab chiqish va samarali psixokorreksion strategiyalarni qo‘llash imkonini beradi. Shu boisdan, ushbu sindromni o‘rganishda multidisiplinar yondashuv zarur bo‘lib, u klinik psixologiya, sotsiologiya, nevropsixologiya va axborot texnologiyalari sohalarining hamkorligini talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Таубаев Ж. Т., Мажитова А. Б. Tendency In Use Of Eponyms Based On Modern Literary Names //«Абылай Хан Атындағы Қазхқжәнеәту Хабаршысы Филология Ғылымдары Сериясы. – 2022. – Т. 65. – №. 2.
2. Atxamjonovna B. D., Shohbozbek E. Respublikamizda Maktabgacha Ta'limda Yoshlarning Ma'naviy Dunyoqarashini Shakllantirish //Global Science Review. – 2025. – Т. 4. – №. 5. – С. 221-228.
3. Steyn L., Barnard A. The Coaching Experience As Identity Work: Reflective Metaphors //Sa Journal Of Industrial Psychology. – 2024. – Т. 50. – С. 2132.
4. Aminovna X. D. Internetga Qaram Shaxsning Ijtimoiy-Psixologik Portreti: Nazariy Asoslar //Modern Education And Development. – 2025. – Т. 26. – №. 1. – С. 261-265.
5. Ulug'bekovna T. S., Kabilovich P. O. Yoshlar O 'Rtasida Ijtimoiy Tarmoqqa Qaramlik Muammo Sifatida Hamda Internetga Tobelik Darajasi //Formation Of Psychology And Pedagogy As Interdisciplinary Sciences. – 2025. – Т. 4. – №. 41. – С. 49-55.
6. Diloram M., Shohbozbek E. O'zbekistonda Yoshlarning Ma'naviy Dunyo Qarashini Rivojlantirishning Pedagogik Asoslari //Global Science Review. – 2025. – Т. 4. – №. 5. – С. 207-215.
7. Nasriddinova G. Internet Tarmog'larini O'smirlar Tarbiyasiga Ta'siri //Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal. – 2024. – Т. 1. – №. 5. – С. 103-105.

8. Abdusattarovna O. X., Shohbozbek E. Ijtimoiy Falsafada Zamonaviy Pedagogik Yondashuvlar Asosida Sog‘lom Turmush Tarzini Shakllantirish //Global Science Review. – 2025. – T. 4. – №. 5. – C. 175-182.
9. Сосновцева М. С. The Impact Of Socialization On The Psyche And Development Of Children //Сибади. – 2020. – С. 364.
10. Petrova E., Gnatik E. The Transformation Of The Environment In The Digital Age //5th International Conference On Contemporary Education, Social Sciences And Humanities-Philosophy Of Being Human As The Core Of Interdisciplinary Research (Iccessh 2020). – Atlantis Press, 2020. – С. 131-134.



BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA BADIY TAFAKKURNI RIVOJLANISH DINAMIKASIGA TA'SIR ETUVCHI PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLAR

Shaxobitdinov Hayotbek Xakimjon o'g'li
Andijon davlat chet tillar instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada badiiy tafakkur haqida tushuncha, o'quvchilarda badiiy tafakkurni rivojlanishida ta'sir etuvchi pedagogik-psixologik omillar va bu mavzuda ish olib borgan olimlarning fikrlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Tafakkur, badiiy tafakkur, idrok, bilish jarayonlari, konsepsiya, intuitiv, assotsiativ jarayonlar.

Badiiy tafakkur – bu mavjud bilim va tajriba asosida yangi ma'nolar va yechimlar yaratishga qaratilgan tafakkur shaklidir. Ayniqsa, adabiyot fanida badiiy tafakkur mohiyati dolzarb ahamiyat kasb etadi, chunki u o'quvchilarning olamni obrazlar orqali idrok etishi, voqelik hodisalarini badiiy ifodalash orqali anglashini ta'minlaydi.

Badiiy tafakkur, mohiyatan, insonni mavjud vaziyat chegaralaridan chiqishga, hodisalar va narsalar o'rtasidagi yashirin aloqalarni kashf etishga, real tajribani umumlashtirib, uni yangi estetik shakllarda aks ettirishga imkon beradi. Uning asosiy belgilari sifatida quyidagilar ko'rsatiladi: obrazlilik (tasavvur va tasvir asosida fikrlash), hissiy va tushunchaviy komponentlarning sintezi, mantiqiy tafakkurdan farqlanuvchi, biroq u bilan uzviy bog'langan o'ziga xos fikrlash mexanizmi.

Badiiy tafakkur, mantiqiy tafakkurdan farqli o'laroq, aniq qoidalarga tayanmaydi, aksincha, intuitiv, assotsiativ va ko'p ma'noli jarayonlar orqali shakllanadi. Shu jihat bilan u ijodiy tafakkurning asosiy ko'rinishlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi va o'quvchilarning adabiy-estetik idroki, tasavvur doirasi, mustaqil va yangicha fikrlash qobiliyatining shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Shu tariqa, tafakkur – inson idrokining faol shakli sifatida – badiiy shaklga ega bo'lgan taqdirda, voqelikni ko'proq intuitiv, emotsional va obrazli darajada anglash va ifodalash imkonini beradi, bu esa, o'z navbatida, shaxsning ijodiy rivojlanishini ta'minlaydi¹.

Psixologik jihatdan tafakkur mavjud tajriba va avvalgi tajribalarning o'zaro ta'siri, shuningdek, subyektning kognitiv yo'nalishlari va emotsional holatlari ta'siri kontekstida tahlil qilinadi. L.B.Yermolayeva-Tomina ta'kidlaganidek, to'liq qamrovli ijodiy faoliyat yuqori

¹ Бигус Н.В., Цаль Н.Н., Бигус А.Н. Формирование художественно-образного мышления учащихся на основе синтеза искусств // Наука и школа. 2015. № 6. С. 155-163.

intellekt darajasini talab qiladi, bu esa o‘z navbatida, rivojlangan tafakkur faoliyatini nazarda tutadi². Shu sababli, ijodiy faoliyatda muvaffaqiyatli natijalarga erishish uchun nafaqat intellekt va tafakkur qobiliyatlarini rivojlantirish, balki emotsional va kognitiv omillarning ta’sirini ham hisobga olish zarur. Bunday yondashuv tafakkur jarayonida mumkin bo‘ladigan buzilishlarning oldini olishga va shaxsning to‘laqonli o‘zini ifoda etishiga sharoit yaratadi.

S.L.Rubinshteyn ta’kidlaganidek, tafakkur bilish jarayoni sifatida insonning atrof-muhit haqidagi bilimlarni egallash va amaliy vazifalarni hal etish yo‘lidagi imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Tafakkur tufayli inson nafaqat o‘z kechinmalari va tajribalarini anglay oladi, balki hayotning turli sohalarida qo‘llash mumkin bo‘lgan yangi g‘oyalarni shakllantirishga ham qodir bo‘ladi³.

Badiiy tafakkur nafaqat ijodiy faoliyatning natijasi sifatida, balki shaxs va idrok qiluvchi obyekt o‘rtasida o‘zaro ta’sirni amalga oshiruvchi vosita sifatida ham namoyon bo‘ladi. E.V.Shoroxov badiiy tafakkurga ta’rif berar ekan, shunday yozadi: “Bu obyektiv haqiqatni bilish jarayonida emotsional va ratsional elementlarning shunday uyg‘unlashuvi bo‘lib, u insonlarning his-tuyg‘ulari va aqliga ta’sir ko‘rsatishga xizmat qiladi”⁴. Ushbu uyg‘unlik voqelikni yanada to‘liqroq va chuqurroq anglash imkonini beradi: his-tuyg‘ular ma’lumotni eslab qolish va uni anglash jarayoniga yordam beradi, ratsional fikr esa uni tanqidiy baholash va tahlil qilish imkonini yaratadi.

Ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta’lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019-yil 8-oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda badiiy tafakkurni rivojlantirish bu shunchaki bilish faoliyatining passiv shakllanishi emas, balki o‘qituvchi shaxsining estetik, intellektual va ijodiy salohiyatini bosqichma-bosqich yuksaltiruvchi dinamik jarayondir. Mazkur jarayon pedagogik ta’limning turli bosqichlarida badiiy idrok, obrazli tafakkur, emotsional sezuvchanlik va estetik baholash kabi komponentlarning uzviy uyg‘unlikda shakllanishini nazarda tutadi. Dinamik rivojlanishning asosiy ko‘rsatkichi — o‘qituvchi shaxsining san’atni anglashdan uni ijodiy ifoda eta olishgacha bo‘lgan yo‘ldagi bosqichli taraqqiyotidir. Bu jarayon izchil metodik yondashuv, didaktik vositalarning mosligi va shaxsiy-estetik motivatsiya bilan ta’minlangan holatda kechadi. Shunday qilib, badiiy tafakkurni rivojlantirish dinamikasi o‘zgaruvchan sharoitlar,

² Ермолаева-Томина Л.Б. Психология художественного творчества. М.: Академический Проект, 2003. 304 с.

³ Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. СПб: Питер, 2018. 713 с.

⁴ Шорохов Е.В. Художественный образ и искусство. Вопросы истории, теории и методики преподавания изобразительного искусства. Вып. 1. Сб. статей. М.: Прометей, 1996. 172 с.

individual psixologik xususiyatlar va o‘quv jarayonidagi estetik omillar bilan uyg‘unlashgan holda, bo‘lajak o‘qituvchini zamonaviy ta’lim talablari darajasida ijodiy yetuk shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Tizimli-faoliyat yondashuvi ta’lim jarayonining yaxlitligini ta’minlaydigan asosiy omil sifatida uning mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni belgilaydi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, ta’lim jarayoni alohida komponentlar yig‘indisi emas, balki o‘zaro uyg‘unlikda faoliyat yurituvchi yagona pedagogik tizim sifatida qaraladi. O‘quv jarayonining dinamikasini — ya’ni bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarning izchil, bosqichma-bosqich rivojlanishini ta’minlash uchun bir qator shart-sharoitlar zarur: talabalarda o‘quv motivatsiyasini uyg‘otish, ularning faol subyekt sifatida ishtirokini ta’minlash, ta’lim metodlari va shakllarining turli-tumanligini qo‘llash, natijaga yo‘naltirilganlik hamda muntazam refleksiyaning tashkil etish. Faqatgina mana shunday shartlar mavjud bo‘lgandagina, ta’lim mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik talabalarning intellektual, ijodiy va shaxsiy rivojlanishini ta’minlay oladigan kuchga ega bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Жумаев А.Ш. Ижтимоий фаол ўқитувчи шахсини шакллантиришнинг илмий педагогик асослари: Пед.ф.н дис. — Т.: ТДПУ, 2009. -184 б.
2. Бигус Н.В., Цаль Н.Н., Бигус А.Н. Формирование художественно-образного мышления учащихся на основе синтеза искусств // Наука и школа. 2015. № 6. С. 155–163.
3. Ермолаева-Томина Л.Б. Психология художественного творчества. М.: Академический Проект, 2003. 304 с.
- Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. СПб: Питер, 2018. 713 с.
4. Шорохов Е.В. Художественный образ и искусство. Вопросы истории, теории и методики преподавания изобразительного искусства. Вып. 1. Сб. статей. М.: Прометей, 1996. 172 с.



ALFRED ADLERGA⁵ KO‘RA SHAXS VA UNING STRUKTURASI

Arabov Is‘hoq

*O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
tayanch doktoranti*

Iskhoq.arabov@gmail.com, +998 91 636 08 69

Annotatsiya. Bugungacha psixologiyada shaxs taraqqiyotining tabiati, strukturasi va qonuniyatlari haqida yagona ta’limot yoki yondashuv mavjud emas. Bu tashxis, prognoz va terapiya usullaridan foydalanishga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Hozirgacha mavjud bo‘lgan bilimlar yaxlit tizimga ega emas, shaxsning tuzilishi va elementlari, ularni amalga oshirish bosqichlari va mexanizmi, tizimli fazilatlari va funksiyalari to‘g‘risida yagona tushunchalar ham mavjud emas. Ushbu maqolada shaxs tuzilishining neopsixonalitik maktab vakillaridan bo‘lgan A.Adlerning shaxs va uning tuzilishiga doir qarashlari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Individual psixologiya, zaiflik hissi, kompensatsiya, giperkompensatsiya, ijobiy va salbiy kompensatsiya.

PERSONALITY AND ITS STRUCTURE ACCORDING TO ALFRED ADLER

Annotation. To date, there is no unified theory or approach in psychology regarding the nature, structure, and regularities of personality development. This lack of consensus affects the use of diagnostic, prognostic, and therapeutic methods. The existing body of knowledge remains fragmented and lacks an integrated system; there is also no single, coherent understanding of the structure and elements of personality, the stages and mechanisms of their manifestation, or its systemic qualities and functions. In this article, the perspectives of A. Adler – a prominent figure of the neo-psychoanalytic school — on personality and its structural composition are discussed.

Keywords. Individual Psychology, Feeling of inferiority (or sense of inferiority), Compensation, Overcompensation, Positive and Negative compensation.

ЛИЧНОСТЬ И ЕЁ СТРУКТУРА ПО АЛЬФРЕДУ АДЛЕРУ

Аннотация. На сегодняшний день в психологии не существует единой теории или подхода, касающегося природы, структуры и закономерностей развития личности. Отсутствие консенсуса оказывает влияние на применение диагностических, прогностических и терапевтических методов. Существующие знания остаются

⁵ Genri Aleksandr Myurrey (1893-1988) — amerikalik psixolog, mashhur Tematik appersepsiya testi (TAT) muallifi.

фрагментированными и лишены интегрированной системы; также отсутствует единое, целостное понимание структуры и элементов личности, этапов и механизмов их проявления, а также её системных качеств и функций. В данной статье рассматриваются взгляды А. Адлера – видного представителя неопрейдистского направления – на личность и её структурную организацию.

Ключевые слова: Индивидуальная психология, чувство неполноценности, компенсация, гиперкомпенсация, положительная и отрицательная компенсация.

Alfred Adler – individual psixologiya⁶ yo‘nalishi asoschisi hisoblanadi. U Z.Freydning biologiyaga asoslangan nazariyasiga⁷ keskin qarshi chiqqan. Adlarning fikricha, insonda eng asosiy narsa — bu instinktlar emas, balki u “kollektivlik hissi”⁸ (yoki “jamiyatga daxldorlik hissi”) deb atagan ijtimoiy tuyg‘udir. Bu his-tuyg‘u tug‘ma bo‘lsa-da, uni ijtimoiy yo‘l bilan rivojlantirish zarur. Ya’ni, insonda boshqalarga munosabat o‘rnatish, hamkorlik qilish, jamoa a’zosi bo‘lish istagi tabiatan mavjud bo‘ladi. Biroq bu tuyg‘u avtomatik tarzda to‘liq shakllanmaydi – u atrof-muhit, tarbiya, ijtimoiy tajriba orqali rivojlantirilishi zarur. Agarda inson ijtimoiy muhitda sog‘lom, qo‘llab-quvvatlovchi aloqalar orqali ulg‘aysa, bu hissiyot yanada mustahkamlanadi. Mabodo, bu tuyg‘u yetarlicha rivojlanmasa, inson o‘zini jamiyatdan ajratilgan, yolg‘iz yoki boshqalar bilan sog‘lom munosabat qurishga qodir emas, deb his qilish ehtimoli bor. Bu esa ruhiy muammolarga olib keladi.

Shuningdek, u Z.Freydning “Inson tug‘ilgan paytidan boshlab tajovuzkor bo‘ladi va uning keyingi rivojlanishi faqat biologik ehtiyojlar bilan belgilanadi”, degan mazmundagi fikrlariga qarshi⁹ chiqqan. Bundan tashqari, Adler Z.Freyd tomonidan ilgari surilgan shaxsni uchta strukturaviy qismga bo‘lish (id, ego, superego) g‘oyasiga ham qarshi chiqqan. Uning fikricha, inson psixikasi bunday bo‘laklarga bo‘linmasligi kerak, chunki inson – yagona, butun shaxs sifatida tushunilishi lozim. U odam shaxsini bir-biridan ajralgan qismlarga ajratish inson tabiatini noto‘g‘ri talqin qilishga olib keladi, deb hisoblagan. U yana aytadiki, shaxsning rivojlanish sababi esa insonning ustunlikka intilishidadir. Biroq bu intilish har doim ham amalga oshmaydi.


⁶ Adler inson ruhiyatini alohida shaxs sifatida, uning hayot maqsadi, jamiyatdagi o‘rni va ichki harakatlantiruvchi kuchlari orqali tushunishga uringan. U Freyddan farqli o‘laroq, faqat ongsizlik emas, balki insonning ijtimoiy muhitdagi o‘zini namoyon etish uslubiga ham katta e’tibor bergan. Uning asosiy g‘oyasi: har bir inson o‘z kamchiliklarini yengishga va mukammallikka intiladi — bu esa uning shaxsiy rivojlanish yo‘lini belgilab beradi.

⁷ Adler Freydning inson ruhiyatini faqat biologik instinktlar, xususan jinsiy ehtirosalar bilan tushuntirishiga rozi bo‘lmagan. U inson xulqini nafaqat biologik, balki ijtimoiy omillar, maqsadlar va o‘zini takomillashtirish istagi bilan ham bog‘lash kerakligini ta’kidlagan.

⁸ Boshqalar bilan hamjihat yashashga bo‘lgan ichki ehtiyoj.

⁹ Ya’ni, Adlarning fikricha, inson shunchaki instinktlar emas, balki ijtimoiy omillar, maqsadlar va hayotdagi kompensatsiya qilish ehtiyoji orqali rivojlanadi.

Tana a‘zolarining rivojlanishidagi nuqson tufayli inson o‘zini ojiz, yetuk emas (deb) his qila¹⁰ boshlaydi. Shuningdek, bu holat bolalikdagi noqulay ijtimoiy sharoitlar tufayli ham paydo bo‘lishi mumkin. Inson o‘zidagi “nuqsonlilik hissi”ni yengish yo‘llarini qidiradi va turli kompensatsiya usullariga murojaat qiladi. Bu kompensatsiya turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Masalan, qobiliyatlarni rivojlantirish, o‘zini isloh etish yoki boshqalar oldida hurmat qozonishga intilish va hokazo. Shu tarzda inson ichki kamchiliklarini yengishga harakat qiladi.



Alfred Adlerga ko‘ra shaxs modeli.

Adler kompensatsiyaning¹¹ turli (adekvat va noadekvat) shakllari haqida gapiradi va uning ma‘lum darajalari mavjudligini ta‘kidlaydi. Bu o‘rindagi “adekvat kompensatsiya”ning alomati shuki, inson o‘zidagi kamchilikni ijobiy tarzda qoplaydi. Masalan, jismonan ojiz bola aqliy jihatdan rivojlanib, fan yoki san‘atda yutuqlarga erishadi. “Noadekvat kompensatsiya”da esa shaxs o‘zining zaif tomonlarini haddan tashqari yoki noto‘g‘ri tarzda qoplashga urinib, salbiy oqibatlariga duch keladi. Misol uchun, o‘zini har doim boshqalardan ustun ko‘rishga intilish hissi ustuvorlik qila boshlaydi. Qolaversa, Adler giperkompensatsiya¹² deb ataladigan holat yuzaga kelishi mumkinligini (ham) aytadi. Bu – insonning o‘zidagi zaiflik yoki nuqsonga bo‘lgan reaksiyasining o‘ziga xos ko‘rinishi sanaladi. Natijada, zaif, irodasiz yoki o‘zini past baholaydigan inson jasoratli, qat‘iyatli va hatto xavfli harakatlar qilishga intilishi mumkin. Bu orqali u nafaqat o‘zini balki, boshqalarni ham o‘z kuchiga ishontirishga urinadi. Mazkur kishilar ko‘pincha “men kimligimni isbotlashim kerak” degan ichki ehtiyoj bilan harakat qilishadi. Bu

¹⁰ Bu Adler nazariyasiga ko‘ra, “yetuk deb his etmaslik kompleksi” yoki “nuqsonlilik hissi” (чувство собственной неполноценности) deyiladi.

¹¹ Alfred Adler odamlarning o‘zlaridagi zaiflik yoki kamchiliklarni qoplashga bo‘lgan urinishlarini **kompensatsiya** deb atagan.

¹² Giperkompensatsiya — bu kompensatsiyaning haddan tashqari kuchli shakli bo‘lib, inson o‘zidagi zaiflik yoki nuqsonlilik hissini qoplash uchun ortiqcha harakatlarga boradi. Jumladan, o‘z zaif tomonini inkor qiladi yoki yashirishga intiladi, o‘zini boshqalardan ustun ko‘rsatishga urinadi, kuchli irodaviylik, mukammallik yoki nazoratga haddan tashqari e‘tibor qaratadi. Aytaylik, bolaligida jismonan ojiz bo‘lgan inson katta bo‘lgach professional sportchi bo‘lishi yoki doim boshqalardan ustun bo‘lishga harakat qilishi mumkin — bu uning ichki zaiflik hissiga keskin reaksiya sifatida yuzaga keladi. Adler fikricha, giperkompensatsiya faqat salbiy hodisa emas, u insonni faol harakat qilishga, o‘zini rivojlantirishga undaydigan ijodiy ichki kuch sifatida xizmat qila oladi.

tashqi tomondan ijobiy ko‘rinsa ham, biroq ichki zaiflik hissi ularni doimiy ruhiy bosim ostida ushlab turishi mumkin.

Adler bu bilan bir qatorda, giperkompensatsiyada ijodkorlik va faollikning muayyan mexanizmini ham ko‘radi. Ya’ni, odam o‘zini zaif his qilgani sababli o‘z ustida ishlay boshlaydi, ichki kamchilikni qoplashga bo‘lgan ehtiyoj uni yangilik yaratishga, faol bo‘lishga undaydi. Bu jarayonda u o‘z hayotini o‘zgartiradi, muammolarni yengadi, hatto atrofdagilarga foyda keltiradi. Bunga Adler ko‘pincha Napoleonni namuna sifatida keltirgan. Uning buyuk sarkarda sifatidagi alohida qobiliyatlarini qisman shunday tushuntirgan: ya’ni, Napoleon bo‘yi pastligi sababli o‘zini yetuk shaxs sifatida baholamagan, bu esa unda kuchli kompensatsiya ehtiyojini yuzaga keltirgan. Bu yerda Adler aytmoqchi bo‘lgan narsa shuki, Napoleon o‘zining jismoniy kamchiliklari (xususan, bo‘yi pastligi) tufayli ichki noqulaylik, o‘zini quyiroq darajada his qilish holatini boshdan kechirgan. Oqibatda, bu hissiyot uni buyuklik sari intilishga, oliy martabadagi rahbar bo‘lishga va nihoyat, tarixdagi eng mashhur sarkardalardan biriga aylanishga undagan.

Adler shuningdek, giperkompensatsiyaga misol qilib, o‘zidagi nutqiy kamchilik (duduqlik)ni yengan kuchli notiq – Demosfen, jismoniy zaifligiga qaramay katta muvaffaqiyatlarga erishgan siyosatchi (aniqrog‘i AQSHning mashhur prezidenti) – Franklin Ruzveltni hamda mashhur bo‘lmasa-da, lekin atrofida qilarga sezilarli foyda keltira olgan boshqa ko‘plab muhim shaxslarni keltirib o‘tgan.

Adler kompensatsiyaning uchta asosiy ko‘rinishi haqida so‘z ochgan:

1. O‘zidagi zaiflik hissini muvaffaqiyatli kompensatsiya qilish. Bu shuni anglatadiki, agar inson o‘zidagi kamchilik (yoki nuqson)ni yengish yo‘lida faqat shaxsiy yutuqni emas, balki jamiyat foydasini ham ko‘zlasa, bu sog‘lom va muvaffaqiyatli kompensatsiya hisoblanadi. Ya’ni inson o‘z zaif tomonlarini ijobiy yo‘l bilan qoplab, shu orqali atrofdagilarga ham foyda keltiradi.

2. Giperkompensatsiya – bu hayotga biryoqlama moslashuv bo‘lib, u qandaydir bitta xususiyat yoki qobiliyat haddan tashqari rivojlanishi natijasida yuzaga keladi. Bunda inson o‘zidagi biror zaiflikni qoplash uchun faqat bitta jihatini haddan tashqari rivojlantiradi. Biroq, bu umumiy muvozanatni buzadi. Masalan, jismoniy zaif odam aqliy qobiliyatlarini o‘ta yuqori darajada rivojlantirib, faqat shu sohada yashashga urinadi. Bu esa hayotga to‘laqonli moslashuv bo‘la olmaydi.

3. Kasallik sari “qochish” (salbiy kompensatsiya). Bunday holatda shaxs zaiflik (yoki nuqsonlilik) hissidan xalos bo‘la olmaydi. U bu tuyg‘uni oddiy yo‘llar bilan bartaraf eta olmaydi. Natijada o‘z muvaffaqiyatsizligini oqlash uchun “kasallik simptomlarini” o‘zi yaratadi (ya’ni, ongli yoki ongsiz ravishda o‘zini kasal qilib ko‘rsatadi). Oqibatda nevroz paydo bo‘ladi.

Adler kompensatsiya turlari (adekvat yoki noadekvat shakl), shuningdek, insonning hayotga bo‘lgan yondashuvi (hayot tarzi) va jamiyatga qanday munosabatda bo‘lishi (ya’ni, ijtimoiylik hissi) asosida bolalarning shaxsiy rivojlanishini turlarga ajratgan. Bu psixologiyada shaxs tipologiyasining ilk namunalaridan biri hisoblanadi. Adlerga ko‘ra, agar bola boshqalar

bilan hamkorlik qilish, ular haqida qayg‘urish, jamiyatda o‘z o‘rnini topish kabi fazilatlarni ertaroq o‘zlashtirsa, u o‘zining tabiiy qobiliyatlarini ham sog‘lom va samarali tarzda kamol toptira oladi. Bu bola psixologik jihatdan muvozanatli, ijtimoiy foydali va baquvvat shaxsga aylanishi uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Bu ayniqsa jismoniy nuqsonlar mavjud bo‘lgan hollarda muhim sanaladi. Chunki bunday nuqsonlar ko‘pincha to‘liq kompensatsiyaga erishishga imkon bermaydi. Shu bilan birga, bolaning tengdoshlari orasidan ajralib qolishiga, shaxsiy rivojlanishining hamda takomillashuvining to‘xtab qolishiga sabab bo‘lishi mumkin. Giperkompensatsiya holatida bunday shaxslar o‘z bilim va ko‘nikmalarini atrofdagilar foydasiga yo‘naltirishga intilishadi. Ularning yetuk shaxs (ya‘ni, lider) bo‘lish istagi boshqalarga qarshi qaratilgan tajovuzga aylanmaydi. Biroq jamoaga mansublik hissi yetarlicha rivojlanmagan taqdirda, bolada allaqachon erta bolalik davridayoq turli nevrotik komplekslar shakllana boshlaydi, bu esa uning shaxsiy rivojlanishida ba‘zi chetga og‘ishlarga olib kelishi mumkin.

Qisqasi, to‘liq bo‘lmagan kompensatsiya oxir-oqibatda zaiflik kompleksining shakllanishiga olib keladi. Bu esa bolaning dunyoni qabul qilish tarzini (appersepsiyasini) noto‘g‘ri shakllantiradi, uning hayot tarzini o‘zgartiradi – u haddan tashqari xavotirli, o‘ziga ishonchi kam, hasadga moyil, doimiy ichki taranglikda bo‘ladigan va boshqalarga ko‘p hollarda ko‘r-ko‘rona moslashadigan (konform) shaxsga aylanishi mumkin.

O‘z kamchiliklarini, avvalo, jismoniy nuqsonlarini yenga olmaslik ko‘pincha soxta kompensatsiyaga olib keladi. Bunday holatda bola (va keyinchalik kattalar ham) o‘z nuqsonidan foydalangan holda atrofdagilarning e‘tibori va achinish hissi evaziga o‘ziga qandaydir imtiyozlar olishga urinadi. O‘z kamchiliklarini, avvalo, jismoniy nuqsonlarini yenga olmaslik yoki qabul qilolmaslik ko‘pincha soxta (puch) kompensatsiyaga olib keladi. Bunday holatda bola (va keyinchalik kattalar ham) o‘z nuqsonidan foydalangan holda atrofdagilarning e‘tibori va achinish hissi evaziga o‘ziga qandaydir imtiyozlar olishga urinadi. Bunday turdagi kompensatsiya shaxsiy rivojlanishni to‘xtatadi, noadekvat, egoistik va hasadga moyil shaxsni shakllantiradi. Tabiiyki, bu esa jamiyatda to‘g‘ri muloqot va sog‘lom munosabatlarga zarar yetkazadi. Agar bola o‘zini jamiyatga yaqin his qilmasa yoki boshqalar bilan hamkor, hamfikir bo‘lish tuyg‘usi zaif bo‘lsa, u o‘z kamchiliklarini ziyodasi bilan qoplashga intiladi. Bunday harakatlar sog‘lom taraqqiyot emas, balki nevrotik (ruhiy muammoli) ustunlik va boshqaruvga intilish – masalan, o‘zgalarga hukmini o‘tkazish, ularni boshqarishga harakat qilish shaklida namoyon bo‘ladi. Bu tipdagi odamlar o‘zidagi bilim va tajribadan atrofdagilarni boshqarish va nazorat qilish uchun foydalanishadi. Asosiy maqsad – jamiyatga foyda keltirish emas, balki shaxsiy manfaatlarni ustuvor ko‘rish. Natijada, ular atrof voqelik (reallik)ni (ulardagi idrok qilish uslubi – appersepsiya sxemasi buzilgani hisobiga) noto‘g‘ri qabul qilishadi, bu esa ularning hayot tarzi va munosabatlariga o‘z ta‘sirini ko‘rsatmasdan qolmaydi. Bunday odamlar asta-sekin zulm va tajovuz egalariga aylanadilar. Ular doimo atrofdagi kishilarni hokimiyatni tortib olishga urinmoqda, deb gumon qiladilar. Shu sabab ham, ular haddan tashqari shubha bilan yashaydilar, qasoskor va shafqatsizga aylanadilar, hatto yaqin odamlariga ham

achinishmaydi. Adlarning fikriga ko‘ra, bunday hayot tarzining yorqin namunalariga — Napoleon, Neron, Gitler kabi avtoritar hukmdorlarni, shuningdek, o‘z yaqinlarini tazyiq ostida ushlab keladigan oddiy shaxslarni ham kiritish mumkin. Aslini olganda hukmronlikga haddan ortiq intilish, boshqalar ustidan hukmron bo‘lishga ishtiyoq – bu ruhiy muammoli odamlarga xos.

Xulosa qilinsa, inson qanchalik ijtimoiylashsa – ya’ni boshqalar bilan ishlashga, murosaga kelishga, birga yashashga qodir bo‘lsa, u shunchalik kuchli va bardoshli bo‘la oladi. Hamjihatlik (egoizmdan farqli ravishda) – shaxsni haqiqiy rivojlanish sari eltadi. Har bir shaxs bir jihatni doimo yodda tutishi lozim! Faqatgina hamkorlik sabab inson o‘zidagi zaiflik tuyg‘usini yengishga va butun bashariyat taraqqiyotiga muhim hissa qo‘shishga qodir bo‘ladi. Demak, yolg‘izlik emas, balki hamkorlik — insonga kuch beradi. Ijtimoiy aloqalar — shaxsiy kamolotga olib boradi. Jamiyat uchun xizmat qilish inson uchun tom ma’noda o‘zini foydali his qilishga ko‘maklashadi. Sog‘lom (yetuk) shaxs — bu boshqalar bilan hamkorlikda yashashga qodir bo‘lgan shaxsdir. Aynan ushbu fikr Adler psixologiyasining markaziy g‘oyasi sanaladi.

Adlarning fikricha, agar inson boshqalar bilan hamkorlik qila olsa (aniqrog‘i ijtimoiylik hissi yaxshi shakllangan bo‘lsa), u hech qachon nevrotik shaxsga aylanmaydi. Aksincha, aynan atrofdagilar bilan hamkorlik qila olmaslik – barcha nevrotik muammolar va hayotga noto‘g‘ri moslashuvning asosiy ildizi hisoblanadi.

Qisqasi, Adler aslida, Zigmund Freydning sof nazariy qarashlarini ijtimoiy yo‘nalishga burishga harakat qilgan. Biroq, uning o‘z nazariyasida “zaiflik tuyg‘usi” tug‘ma deb qaralganligi sababli, u biologik yondashuvdan to‘liq voz kecha olmadi. Ifodali tilda aytganda, Adler Z.Freyddan farqli o‘laroq, psixologiyani faqat jinsiy instinktlar bilan emas, balki jamiyat bilan munosabat orqali tushuntirishga urindi. U shaxsning muammolari boshqalar bilan aloqalarida (ya’ni ijtimoiy munosabatlarida) deb bildi. Lekin, bir vaqtning o‘zida, u zaiflik tuyg‘usini tug‘ma deb hisobladi. Bu esa uni yana biologik asosga bog‘lab qo‘ydi. Garchi, u Freydning biologik asosga suyangan psixoanalizidan uzoqlashgan bo‘lsa-da, uni butunlay ijtimoiy asosga o‘tkaza olmadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Kovrova, A. (2025). Structure and Theory of Personality in Psychology. Lecturer at the Faculty of Psychology, Department of General Psychology. Candidate of Psychological Sciences.
2. Adler, A. (1930). Individual psychology. In C. Murchison (Ed.). Psychologies of 1930 (pp. 395–405). Worcester, MA: Clark University Press. Offers a clear exposition of the basic principles of Adler’s individual psychology.
3. Ansbacher, H. L. (1990). Alfred Adler’s influence on the three leading cofounders of humanistic psychology. Journal of Humanistic Psychology, 30(4), 45–53.

4. Grey, L. (1998). Alfred Adler, the forgotten prophet: A vision for the 21st century. Westport, CT: Praeger. A contemporary biography and assessment of the continuing influence of Adler’s ideas.

5. Fiebert, M. S. (1997). In and out of Freud’s shadow: A chronology of Adler’s relationship with Freud. *Individual Psychology*, 53, 241–269. Reviews the 7-year correspondence between Adler and Freud showing the changes in their personal and professional relationships and their acrimonious breakup.

6. “Theories of personality” (eighth edition). Duane P. Schultz and Sydney Ellen Schultz. COPYRIGHT © 2010 Wadsworth, a division of Thomson Learning, Inc. Thomson Learning™ is a trademark used herein under license.

7. Ansbacher, R. R. (1997). Alfred Adler, the man, seen by a student and friend. *Individual Psychology*, 53, 270–274. Using Adler’s technique of early recollections, the author describes and evaluates her memories of Adler’s lectures and therapy sessions in New York and Vienna.



THE PSYCHOLOGY OF LEADERSHIP AND OBEDIENCE PROCESSES IN SMALL GROUPS

Jo‘rayeva Kaniza Akbarali qizi

Alfraganus universiteti

Pedagogika kafedrasi

Pedagogika va psixologiya 3-bosqich talabasi

Abstract This article provides an in-depth psychological analysis of leadership and obedience processes within small groups. It explores the formation of social roles within the group, their interactions, and various types of leadership — including both formal and informal leadership — along with the factors that contribute to their emergence and their influence on group functioning. Obedience mechanisms — voluntary and forced obedience, conformity, social influence, and group pressure — are discussed with reference to classic psychological experiments (Asch, Milgram, Zimbardo). Additionally, the article emphasizes modern psychological approaches such as social learning theory, transformational leadership models, and group dynamics theories. It highlights how effective leadership and a healthy environment of obedience can foster trust, unity, and goal-oriented activity among group members. The study also offers practical recommendations for specialists working with educational institutions, work collectives, and social or psychological training groups. The presented analyses and approaches serve as a significant theoretical and methodological foundation for improving management effectiveness in small group contexts.

Keywords: leadership, group dynamics, social influence, conformity, transformational leadership, psychological theory, social role, interpersonal relations.

ПСИХОЛОГИЯ ЛИДЕРСТВА И ПОДЧИНЕНИЯ В МАЛЫХ ГРУППАХ

Аннотация В данной статье представлен всесторонний психологический анализ процессов лидерства и подчинения в малых группах. Рассматриваются формирование социальных ролей внутри группы, их взаимодействие, а также различные формы лидерства — как формального, так и неформального.

Особое внимание уделяется факторам, способствующим появлению лидерства, и их влиянию на эффективность групповой деятельности. Механизмы подчинения — добровольного и вынужденного, конформизм, социальное влияние и групповое давление — анализируются на основе классических психологических экспериментов (Аш, Милгрэм, Зимбардо). Также в статье рассматриваются современные психологические

подходы, такие как теория социального научения, модель трансформационного лидерства и теория групповой динамики. Подчеркивается, что формирование эффективного лидерства и здоровой атмосферы подчинения способствует укреплению доверия, сплочённости и целенаправленной активности членов группы. Работа содержит практические рекомендации для специалистов, работающих в сфере образования, управления трудовыми коллективами, а также для ведущих социальных и психологических тренингов. Представленные анализы и подходы служат важной теоретической и методологической основой для повышения эффективности управления в малых группах.

Ключевые слова: лидерство, групповая динамика, социальное влияние, конформизм, трансформационное лидерство, психологическая теория, социальная роль, межличностные отношения.

KICHIK GURUHLARDA LIDERLIK VA BO‘YSUNISH JARAYONINING PSIXOLOGIYASI

Annotatsiya Maqolada kichik guruhlarda liderlik va bo‘ysunish jarayonlari psixologik jihatdan atroflicha tahlil qilinadi. Guruh ichida shakllanadigan ijtimoiy rollar, ularning o‘zaro ta’siri, shuningdek liderlikning turli shakllari – rasmiy va norasmiy liderlikning yuzaga kelish omillari, ularning guruh faoliyatiga ta’siri ilmiy asosda ko‘rib chiqiladi. Bo‘ysunish mexanizmlari – ixtiyoriy va majburiy bo‘ysunish, konformizm, ijtimoiy ta’sir va guruh bosimini shaxs xatti-harakatiga ko‘rsatadigan ta’siri psixologik eksperimentlar (Asch, Milgram, Zimbardo) asosida yoritiladi. Maqolada shuningdek, ijtimoiy o‘rganish nazariyasi, transformatsion liderlik modeli, guruh dinamikasi va liderlikka oid zamonaviy psixologik yondashuvlarga ham e’tibor qaratilgan. Guruhda samarali liderlik va sog‘lom bo‘ysunish muhitini shakllantirish orqali guruh a’zolari o‘rtasida ishonch, birdamlik va maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatni kuchaytirish mumkinligi asoslanadi. Maqola ta’lim tizimi, ish jamoalari, ijtimoiy va psixologik treninglar, shuningdek, kichik guruhlar bilan ishlovchi mutaxassislar uchun amaliy tavsiyalarni ham o‘z ichiga oladi. Keltirilgan tahlillar va yondashuvlar, kichik guruhlarda boshqaruv samaradorligini oshirishda muhim nazariy va metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: liderlik, guruh dinamikasi, ijtimoiy ta’sir, konformizm, transformatsion liderlik, psixologik nazariya, ijtimoiy rol, o‘zaro munosabatlar

Kirish

Kichik guruhlar — bu ikki yoki undan ortiq shaxslar o‘zaro muloqotda bo‘ladigan, umumiy maqsad va manfaatlarni ko‘zlovchi, o‘zaro ijtimoiy rollarni bajaruvchi ijtimoiy birliklardir. Ular o‘z ichiga oilaviy jamoalar, o‘quvchilar yoki talabalar guruhi, ishlab chiqarish jamoalari, do‘stlar davrasi, kichik ishchi guruhlar yoki terapevtik guruhlarini olishi mumkin. Kichik guruhlarining asosiy xususiyati — qatnashchilar o‘rtasidagi yaqin muloqot, o‘zaro

ta'sirning doimiyligi va munosabatlarning individual tusda bo'lishidir. Bunday guruhlarda liderlik va bo'ysunish jarayonlari muhim ijtimoiy-psixologik mexanizmlar sifatida namoyon bo'ladi. Lider guruhni boshqaradi, yo'naltiradi va unda birlashgan harakatni tashkil etadi. Bo'ysunish esa guruh ichida tartib va intizomni saqlash, umumiy maqsadlarga erishish yo'lida muvofiqlikni ta'minlash vositasi hisoblanadi. Bu jarayonlar guruh ichidagi ijtimoiy aloqalar dinamikasini, qaror qabul qilish mexanizmlarini, shuningdek, guruhning umumiy faoliyat samaradorligini belgilaydi. Kichik guruhlar psixologik jihatdan shaxs taraqqiyotining muhim muhitlaridan biri hisoblanadi. Ularda ijtimoiy rollarni o'rganish, empatiya, hamkorlik, mas'uliyat va ijtimoiy moslashuv kabi muhim psixologik fazilatlar shakllanadi. Shu bois, kichik guruhlarda yuzaga keladigan liderlik va bo'ysunish jarayonlarini o'rganish, nafaqat guruh ichki hayotini tushunish, balki shaxslararo munosabatlarni rivojlantirish va ijtimoiy muvozanatni ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Liderlik — bu shaxsning guruh a'zolariga ruhiy, ijtimoiy yoki intellektual jihatdan ta'sir ko'rsatish, ularni muayyan maqsadlar sari yo'naltirish va birgalikdagi faoliyatni tashkil etish qobiliyatidir. Bu jarayon nafaqat boshqaruvni, balki motivatsiya berishni, mas'uliyatni bo'lishishni va jamoa ichidagi ijtimoiy muvozanatni ta'minlashni ham o'z ichiga oladi.

Kichik guruhlarda liderlik ko'pincha norasmiy shaklda namoyon bo'ladi. Ya'ni, guruhda rasmiy rahbar bo'lmasa ham, a'zolar orasida tabiiy yo'l bilan liderlik rolini o'z zimmasiga olgan shaxs paydo bo'ladi. Bunday liderlar, odatda, o'zining bilim va tajribasi, shaxsiy jozibasi, muomala madaniyati yoki muammolarni hal qilishdagi tashabbuskorligi orqali guruh a'zolarining ishonchini qozonadi.

Liderlik shunchaki buyruq berish yoki ko'rsatma berish bilan cheklanmaydi. Asl lider — bu guruhni ilhomlantiruvchi, birlashtiruvchi va rivojlantiruvchi shaxsdir. U qarorlar qabul qilishda a'zolarining fikrini inobatga oladi, nizolarni bartaraf etadi, ijobiy psixologik muhit yaratadi va har bir a'zoning imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga harakat qiladi.

Liderlikning asosiy psixologik xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Tashabbuskorlik va motivatsiya berish qobiliyati: Lider tashabbus ko'rsatibgina qolmay, guruh a'zolarini ruhlantira oladi. Ular maqsad sari ishtiyoq bilan harakat qiladigan muhit yaratadi.

Ijtimoiy idrok va empatiya: Lider boshqa odamlarning his-tuyg'ularini anglaydi, ularning ehtiyojlari va muammolarini sezadi. Empatiya orqali lider guruhda mehr, tushunish va ishonch muhitini shakllantiradi.

Muloqot madaniyati: Samarali lider ochiq va aniq muloqot olib boradi, fikr almashuvga yo'l ochadi va har qanday muhokamada mulohazalilikni saqlaydi. U faqat tinglovchi emas, balki ilhomlantiruvchi suhbatdoshdir.

Konfliktlarni boshqarish mahorati: Har qanday guruhda nizolar paydo bo'lishi tabiiy. Lider ularni mo'tadil tarzda hal qilish, tomonlarni tinglash va murosaga erishish orqali guruh yaxlitligini saqlab qoladi..

Bo'ysunish psixologiyasi

Bo‘ysunish — bu shaxsning boshqa shaxs yoki guruh talablariga muvofiq tarzda o‘z xatti-harakatini moslashtirishidir. Bu jarayon ko‘pincha tashqi avtoritetga, ijtimoiy norma yoki kutuvga javoban yuzaga keladi. Bo‘ysunish ixtiyoriy bo‘lishi mumkin, ya’ni inson o‘z ixtiyori bilan liderning ko‘rsatmasini yoki guruh qoidalarini qabul qiladi. Shu bilan birga, ba’zan bo‘ysunish ijtimoiy bosim, majburiyat yoki jazodan qo‘rquv tufayli yuzaga keladi. Bo‘ysunish liderlik bilan bevosita bog‘liq: kuchli va ishonchli lider bo‘lgan guruhlarda bo‘ysunish darajasi ham yuqori bo‘ladi. Psixologik nuqtayi nazardan, bo‘ysunish nafaqat tashqi muvofiqlik, balki ichki motivatsiya, o‘zini tutish strategiyasi va guruhga bo‘lgan ishonch bilan ham bog‘liqdir.

Bo‘ysunishga ta’sir qiluvchi asosiy omillar:

Guruhning ijtimoiy maqomi: Guruhning jamiyatdagi yoki shaxs ongidagi nufuzi qanchalik baland bo‘lsa, unga bo‘ysunish ehtimoli ham shuncha yuqori bo‘ladi. Masalan, ilmiy guruhlar, diniy jamoalar yoki tajribali mutaxassislar guruhi ijtimoiy maqomi yuqori bo‘lgani uchun ularga ergashish osonroq kechadi.

Liderning avtoriteti va ishonchliligi: Agar lider bilimli, adolatli, tajribali va barqaror qarorlar qabul qiluvchi shaxs sifatida qabul qilinsa, guruh a’zolari uning ko‘rsatmalariga bo‘ysunishga moyilroq bo‘ladi. Avtoritetli lider bo‘lgan muhitda ichki tartib va intizom kuchliroq bo‘ladi.

Guruh ichidagi birdamlik: Guruh a’zolari o‘rtasida fikr birligi, maqsadga erishishdagi umumiy motivatsiya va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash bo‘lsa, bo‘ysunish ixtiyoriy va tabiiy tarzda yuzaga keladi. Birdamlik — bu ijtimoiy uyg‘unlik va muvofiqlikning psixologik negizidir.

Shaxsning muvofiqlik darajasi (konformizm): Ayrim shaxslar guruh fikriga moslashishga yuqori moyillik bilan tavsiflanadi. Bu holat konformizm deb yuritiladi. Konformistik shaxslar guruh qoidalari, urf-odatlar yoki yetakchining fikrini bahs-munozarasiz qabul qiladi. Bu, ayniqsa, ijtimoiy xavotir yuqori bo‘lgan yoki o‘zini yetarlicha ishonchli his qilmaydigan shaxslarda kuzatiladi.

Shunday qilib, bo‘ysunish jarayoni faqat tashqi muvofiqlik emas, balki murakkab psixologik va ijtimoiy omillarning o‘zaro ta’siri natijasidir. Kichik guruhlarda bu jarayon to‘g‘ri boshqarilsa, sog‘lom tartib, hamkorlik va samaradorlikka olib keladi; noto‘g‘ri boshqarilsa esa, passivlik, norozilik va psixologik bosimni kuchaytirishi mumkin.

Kichik guruhda o‘zaro munosabatlar dinamikasi

Kichik guruhlarda o‘zaro munosabatlar — guruh a’zolari o‘rtasidagi ijtimoiy, psixologik va kommunikativ aloqalarning doimiy harakatda bo‘lgan tizimidir. Bu munosabatlar guruhning ichki tuzilmasini, boshqaruv uslubini, a’zolar o‘rtasidagi ijtimoiy rollarni va umumiy samaradorlikni belgilaydi. Ayniqsa liderlik va bo‘ysunish pozitsiyalari guruh dinamikasida muhim o‘rin tutadi.

Guruh ichidagi munosabatlar uch asosiy yo‘nalishda shakllanadi:

1. Vertikal o‘zaro ta’sir (rahbar → a’zo): Bu tipdagi munosabat rahbar va guruh a’zolari o‘rtasida yo‘nalgan bo‘lib, asosan rahbarning ko‘rsatmalari, boshqaruv uslubi va ierarxik pozitsiyasi orqali amalga oshadi. Vertikal ta’sir kuchli bo‘lgan guruhlarda tartib-intizom va

tezkor qarorlar qabul qilish jarayoni ustuvor bo‘ladi, biroq bu jarayon haddan ziyod avtoritar tus olsa, bo‘ysunuvchilarning faolligi susayishi mumkin.

2. Gorizontal o‘zaro ta’sir (a’zolar o‘rtasida): Guruh a’zolari o‘rtasida teng asosda yuzaga keluvchi o‘zaro muloqot, fikr almashish, hamkorlik va emotsional qo‘llab-quvvatlash jarayonlarini anglatadi. Gorizontal ta’sir yuqori bo‘lgan guruhlar ichki birdamlik, ishonch va ijodkorlik bilan ajralib turadi. Bunday guruhlarda har bir a’zo o‘z fikrini erkin bildiradi.

3. O‘zaro ta’sir doirasi (liderlikning aylanishi): Kichik guruhlarda liderlik har doim doimiy va rasmiy pozitsiyada bo‘lmasligi mumkin. Ayrim hollarda liderlik rolga har bir a’zo vaziyatga qarab vaqtincha chiqib, o‘z tashabbusini ko‘rsatadi. Bu esa guruhdagi har bir shaxsning mas’uliyat hissini kuchaytiradi va guruhni yanada moslashuvchan qiladi.

Kurt Levinning guruh dinamikasi nazariyasiga ko‘ra, guruh doimiy harakatda bo‘lgan psixologik tizimdir. Uning fikricha, guruhdagi liderlik rollari va bo‘ysunuvchanlik pozitsiyalari vaziyatga qarab o‘zgaradi. Bu esa guruhning ehtiyojlariga javob beruvchi moslashuvchan boshqaruv modelini ta’minlaydi.

Psixologik yondashuvlar

Ijtimoiy o‘rganish nazariyasi (Albert Bandura): Bu nazariyaga ko‘ra, liderlik xulqlari bevosita tajriba yoki boshqalarning xatti-harakatlarini kuzatish orqali o‘rganiladi. Bolalar yoki yangi guruh a’zolari o‘zlariga yoqqan yoki samarali deb hisoblangan liderlik uslublarini model sifatida qabul qiladi. Demak, har bir shaxsda liderlik fazilatlari shakllanishi mumkin, agar ular ijtimoiy ta’sir va kuzatuv orqali rag‘batlantirilsa.

Konformizm tajribalari (Solomon Asch, Stanley Milgram): Bu tajribalar bo‘ysunish va ijtimoiy bosim o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Masalan, Aschning chiziq uzunligi tajribasida shaxslar ko‘pincha guruh fikriga qarshi chiqmasdan, noto‘g‘ri javoblarni qabul qilishgan. Milgram esa odamlarning avtoritetga qanday bo‘ysunishini o‘rgangan. Bu psixologik tajribalar shuni ko‘rsatadiki, guruhdagi avtoritet yoki ko‘pchilik fikri shaxsning mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Transformatsion liderlik modeli (James MacGregor Burns, Bernard Bass): Bu modelga ko‘ra, chinakam lider — bu faqat boshqaruvchi emas, balki guruh a’zolarini ilhomlantiruvchi, ularni rivojlanishga undovchi, yangilikka yetaklovchi shaxsdir. Transformatsion liderlar yuqori axloqiy qadriyatlarga ega bo‘lib, shaxsiy manfaatdan ko‘ra guruh manfaatini ustun qo‘yadi. Bunday liderlar guruhning ichki imkoniyatlarini ochib beradi, shaxsiy o‘sishga turtki beradi va motivatsiyani kuchaytiradi.

Xulosa

Kichik guruhlarda liderlik va bo‘ysunish jarayonlari inson xulq-atvori, ijtimoiy rollar va psixologik ehtiyojlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan murakkab ijtimoiy-psixologik mexanizmlardir. Ushbu jarayonlar har bir guruhda o‘ziga xos tarzda shakllanadi va asosan lider shaxsiyatiga, guruhdagi o‘zaro ishonch darajasiga hamda kommunikatsiya uslubiga bog‘liq bo‘ladi. Psixologik yondashuvlar shuni ko‘rsatadiki, samarali liderlik guruhda sog‘lom bo‘ysunish muhiti yaratadi. Bunday muhitda guruh a’zolari o‘zlarini qadrlangan, eshitilgan va

rag‘batlantirilgan his qiladi. Bu esa guruh ichki birdamligini, emotsional barqarorligini va maqsadga yo‘naltirilgan harakatini mustahkamlaydi.

Shunday qilib, kichik guruhdagi liderlik va bo‘ysunish o‘zaro muvofiqlashtirilgan va ongli ravishda boshqarilgan taqdirdagina guruh samaradorligi oshadi, ijtimoiy va psixologik muhit barqaror rivojlanishga erishadi. Bu mavzuni o‘rganish nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy hayotda ham katta ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Levin, K. (1947). *Frontiers in Group Dynamics*. Human Relations, 1(1), 5–41.
2. Bass, B. M. & Avolio, B. J. (1994). *Improving Organizational Effectiveness through Transformational Leadership*. Sage Publications.
4. Asch, S. E. (1955). *Opinions and Social Pressure*. Scientific American, 193(5), 31–35.
5. Zimbardo, P. G. (2007). *The Lucifer Effect: Understanding How Good People Turn Evil*. Random House.
6. Bandura, A. (1977). *Social Learning Theory*. Prentice-Hall.
7. Саттарова Д. Э. (2022). *Психология малых групп и лидерства*. Тошкент: Фан ва технологиялар.
8. Qodirova N. B. (2020). *Ijtimoiy psixologiya asoslari*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti.

QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 8-son)



PSIXOLOGIYA
PSYCHOLOGY

ZO'RAVONLIKKA UCHRAGAN AYOLLARDA POSTTRAUMATIK STRESS BUZILISHINING SHAXSLARARO MUNOSABATLARGA TA'SIRI

Nazarova Muharram Yunus qizi
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti
II kurs tayanch doktoranti
nazarovamuharram96@gmail.com
Tel.: +998046144930

Annotatsiya. Ushbu maqolada ayollarda zo'ravonlikdan so'ng kelib chiqadigan ruhiy buzilishlar yoritiladi. Shuningdek, ilmiy tadqiqotlar tahlili orqali zo'ravonlikdan keyingi postravmatik stress buzilishlari (PTSB) va zo'ravonlik asoratlari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Postravmatik stress buzilishlari, Battered woman syndrome kaltaklangan ayol sindromi, ichki ziddiyat, emotsional karaxtlik, motivatsiya, kompleks yordam, Art-terapiya, Geshtalt-terapiya, psixodorama.

ВЛИЯНИЕ ПОСТТРАВМАТИЧЕСКОГО СТРЕССОВОГО РАССТРОЙСТВА НА МЕЖЛИЧНОСТНЫЕ ОТНОШЕНИЯ У ЖЕНЩИН, ПОДВЕРГШИХСЯ НАСИЛИЮ

Аннотация. В данной статье освещаются психические расстройства, возникающие у женщин после пережитого насилия. Также на основе анализа научных исследований рассматриваются посттравматическое стрессовое расстройство (ПТСР) и последствия насилия.

Ключевые слова: Посттравматическое стрессовое расстройство, синдром избитой женщины, внутренний конфликт, эмоциональное оцепенение, мотивация, комплексная помощь, арт-терапия, гештальт-терапия, психодрама.

THE IMPACT OF POST-TRAUMATIC STRESS DISORDER ON INTERPERSONAL RELATIONSHIPS IN WOMEN WHO HAVE EXPERIENCED VIOLENCE

Abstract. This article elucidates psychological disorders that arise in women following violence. Additionally, through an analysis of scientific research, post-traumatic stress disorders (PTSD) and the consequences of violence are examined.

Keywords: Post-traumatic stress disorders, battered woman syndrome, internal conflict, emotional numbness, motivation, comprehensive assistance, Art therapy, Gestalt therapy, psychodrama.

KIRISH. Zo‘ravonlik insonda og‘ir ijtimoiy va psixologik jarohatlar qoldiradi. Shaxslararo munosabatlarga putur yetadi, boshqalarga nisbatan ishonch kamayadi. Jamiyatdan uzoqlashish kuchayadi. Har qanday yordam shakliga shubha bilan qaraydi. Natijada esa zo‘ravonlik qurbonida o‘ziga nisbatan ishonch yo‘qoladi va zo‘ravonlik muhitidan chiqishdan umidini uzadi. Ayollarda zo‘ravonlikka nisbatan o‘zini ayblash kuchayadi. Yordam olish yoki yordam so‘rash ular uchun “Sharmandali” holatga aylanadi. Uni yengib o‘tish esa ba‘zan kuchli iroda va psixologik yordamni talab etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Zo‘ravonlik muammosi-jamiyatning o‘tkir muammolaridan biri bo‘lib, sir emaski, bugun uning asosiy qurbonlarini ayollar va bolalar tashkil etadi. Zo‘ravonlik nafaqat o‘z qurbonining bugungi hayot tarziga, balki, kelajagiga ham ta‘sirini o‘tkazmasdan qolmaydi. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra ayollarga nisbatan zo‘ravonlik yaqin insonlar tomonidan sodir etiladi [1.1]. H. Ardern tomonidan zo‘ravonning jabrlangan ayolga nisbatan xatti-harakatlari va uni nazorat qilishiga xos bo‘lgan ba‘zi tendensiyalarni o‘rganilgan. Zo‘ravon ayolni iloji boricha qaram va ojiz qilish uchun ko‘plab manipulyatsiya usullarida foydalanadi. Ular orasida psixologik bosim: ayolni yakka qo‘yish, uning qadr-qimmatini tushirish, rashk qilish, kutilmagan xatti-harakatlar, turli xildagi tahdidlar [2.2].

N.Parigina ayollarning zo‘ravonlikka uchrash holatini “shaxsiyatning bir qismi” sifatida ta‘riflab, ko‘plab ayollar zo‘ravonlik natijasida har kuni jismoniy va psixologik zo‘ravonlik qo‘rqquvida yashashga o‘rganib qoladi deya izohlagan [3.3].

Menovshikov B.Yu. oilaviy zo‘ravonlik qurbonlariga xos bo‘lgan hissiy kechinmalarni tahlil etib, ularda ojizlik, chorasizlik, qo‘rqquv, g‘azab, aybdorlik tuyg‘usi, uyat, xijolat, aql-idrokiga shubha, yo‘qotish hissi, sevgi, karaxtlik, ikkilanish, hissiy va iqtisodiy qaramlik, yakkalanish, umidsizlik hissining yuqori bo‘lishini o‘rgangan [4.4].

N.L.Bundalo tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda erlari tomonidan jinsiy zo‘ravonlikka uchragan ayollarda posttravmatik stress buzilishining og‘ir formalari kuzatilgan.

S.Meyerning qaror qabul qilish jarayoni qanday kechishiga va ayollarni haqoratli munosabatlarda qolishga undaydigan sabablarini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotiga ko‘ra ayollar munosabatlarni uzish bilan bog‘liq xavf-xatarlar va muammolarni baholaydilar (masalan, umumiy farzandlar, ularning keyingi vasiyligini ota-onalardan biri olishi). Bu ko‘pincha ayollarni shafqatsiz munosabatlarni tugatish yanada yomonroq hayotiy vaziyatga olib kelishi haqidagi xulosaga keltiradi. Shu tariqa, sherik tomonidan zo‘ravonlik va shafqatsizlik holatlaridagi hayot ayollar uchun yagona oqilona tanlov bo‘lib qoladi va bu ularning hayotiga bo‘lgan xavf-xatarlarni e‘tibordan chetda qoldiradi [5.5]. K.Kup-Gordon, S.Barton va L.Porter tomonidan zo‘ravonlikning boshlanish nuqtasini, ya‘ni bunday munosabatlarning shakllanishiga turtki bo‘lgan vaziyatni o‘rganilganda, zo‘ravonlik munosabatalarining davom

etishiga sabab, zo‘ravonlik qurbonlarining barchasiga xos bo‘lgan “kechirish” xislati aynan ayolning sherigiga qayta-qayta qaytishi sabab bo‘lishi aniqlangan.

A.Xannanning tadqiqotiga ko‘ra, ayolning nosog‘lom munosabatlarda qolishiga sabab ayol tarbiyalangan oila hisoblanadi. Tashlab ketilgan, ota-onasiga qaram bo‘lgan, sevimli, ota-onasiga nisbatan aybdorlik va qo‘rquv hissini boshdan kechirgan qizlar kelajakda tajovuzkor sheriklarning qurboniga aylanadi [6.6]. Bunday qarash A.Duley va G.Gormli ishlarida ham o‘rganilgan bo‘lib mualliflarning fikriga ko‘ra, ko‘pchilik ayollar insonlar o‘rtasida tajovuzkor munosabatlardan tashqari boshqa munosabatlar ham bo‘lishi mumkinligini anglamaganliklarini, ular munosabatga kirishgan paytdan boshlab o‘z oilalariga zo‘ravonlikni olib kirishda o‘zlari aybdor deb o‘ylaganliklari haqidagi fikrlarni bildirishgan [7.7].

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Zo‘ravonlik ayollarning ruhiy salomatligiga vayronkor ta’sir ko‘rsatib, hayotning: maqsad qo‘yish qobiliyati, vaqt ufqlarini idrok etish va ichki qadriyat yo‘nalishlarini yo‘qotadi.

1977-yilda L.Walker **Tazyiqqa uchragan yoki kaltaklangan ayol sindromi** (Battered woman syndrome) tushunchasini ilmiy sohaga kiritdi. Dastlab atama zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan ayollarning ruhiy salomatligi instituti tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot davomida qo‘llanilgan va keyinchalik u klinik va sud psixologiyasi amaliyotida keng qo‘llanila boshlagan. **Tazyiqqa uchragan yoki kaltaklangan ayol sindromi** - bu uzoq muddatli va takroriy jismoniy, jinsiy yoki psixologik zo‘ravonlik natijasida ayollarda rivojlanadigan kompleks psixologik holatdir. keyinchalik u klinik va sud psixologiyasi amaliyotida keng qo‘llanila boshlagan.

Tazyiqqa uchragan yoki kaltaklangan ayol sindromi dastlab jinsiy munosabatlarda jismoniy, jinsiy yoki ruhiy zo‘ravonlikni boshdan kechirgan ayolda kuzatiladigan alomatlar va belgilar modeli sifatida ta’riflangan. Bunda ayolning hamrohi o‘z kuchidan foydalanib, uning huquqlarini mensimasdan, uni o‘z xohishlariga bo‘ysunishga majburlaydi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, Kaltaklangan ayol sindromini aniqlash uchun ilmiy jihatdan sinovdan o‘tkazilgan 6 ta mezon mavjud:

1. Zo‘ravonlik haqidagi xotiralarning tinmay takrorlanishi;
2. Haddan tashqari hayajonlanish va xavotir darajasining oshishi;
3. Qochish xatti-harakatlari va emotsional karaxtlik- depressiya, dissotsiatsiya, hissiy befarqlik, inkor qilish, o‘zini ayblash;
4. Zo‘ravonning hukmronligi va cheklovlari tufayli atrofdagilar bilan shaxslararo munosabatlarning buzilishi.
5. Tana tasavvurini idrok etishning buzilishi va somatik yoki jismoniy shikoyatlar.
6. Jinsiy yaqinlik muammolari.

Doimiy xavotirlanish, qo‘rquv, o‘zini ayblash, turli tahdidlar ayollarda kuchli emotsional zo‘riqish –**Posttravmatik stress buzilishlarini** shakllantiradi.

Zo‘ravonlik ta’sirida hayotiy maqsadlar barqarorligini yo‘qotadi, bu esa motivatsiyaning susayishiga, vaqt tuzilmasining buzilishiga va o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyatining

pasayishiga olib keladi. Natijada, jabrlanuvchining hayotiy yo‘nalishlarini buzib, chorasizlik, yo‘nalishni yo‘qotish va hayot ma‘nosizligi hissini keltirib chiqaradi.

COVID-19 pandemiyasi davrida o‘zini izolyatsiya qilish sharoitida oilaviy zo‘ravonlik vaziyatida ruhiy zo‘riqishning eng dastlabki namoyon bo‘lishi sifatida xavotirli va tushkunlik reaksiyalarining uyg‘unligi o‘rganilganda, hayotdan ko‘ngli qolish, yig‘loqilik, faollik va yashash quvonchining pasayishi, tushkunlik kabi qayg‘uli kechinmalar namoyon bo‘lgan. Bu alomatlar somatik belgilar bilan birgalikda kuzatiladi. Bularga terlash, qon bosimining o‘zgarishi, titroq, qaltirash, shilliq qavatlarning qurishi kiradi va ular hissiy zo‘riqish, ishtahaning pasayishi, uyquning buzilishi hamda odatiy yoki mavjud faoliyatdan voz kechish bilan birgalikda namoyon bo‘ladi.

Zo‘ravonlikni yengib o‘tish natijasida yuzaga keladigan ijobiy o‘zgarishlarni ifodalovchi posttravmatik o‘sish tushunchasiga alohida e‘tibor qaratilgan. Travmatik tajriba hayot haqidagi oldingi tasavvurlarni buzishi mumkin bo‘lsa-da, u qadriyatlarni qayta baholash va yangi maqsadlarni shakllantirish nuqtasiga aylanishi mumkin. Buning uchun zo‘ravonlik qurbonlariga ichki muvozanatni tiklashga va kelajakka ijobiy munosabatni shakllantirishga yordam beradigan qo‘llab-quvvatlash zarur. Zo‘ravonlikka duchor bo‘lgan ayollar bog‘liqlik va mustaqillik istagi o‘rtasida ichki ziddiyat, nomutanosiblikni boshdan kechiradilar. Bu holat zo‘ravonlikning ruhiy va jismoniy jarohatlari tufayli yanada chuqurlashadi. Oqibatda, ayol yolg‘izlik va loqaydlik holatiga tushib, tashqi dunyo bilan munosabatlarda og‘ir iztirob chekadi. U atrofdagilardan qoralanishdan cho‘chib, ularga ishonishga botina olmaydi, biroq ijtimoiy aloqalardan uzilib qolgan davrda eng yaqin kishisi bo‘lib qolgan zo‘ravondan ham voz kechishga qodir emas.

XULOSA. Zo‘ravonlikning ta’siri faqat jismoniy jarohatlar bilan cheklanib qolmaydi, balki kognitiv va xulq-atvor jarayonlariga ham ta’sir ko‘rsatadi. Somatik kasalliklar, reproduktiv buzilish, atrofdagilarga nisbatan ishonchsizlik, yordam olishdan uyalish, o‘zini ayblash kuchli alamzadalik holatiga olib keladi. Ayolning ruhiy holati tubdan o‘zgarib, asosiy kuch-g‘ayrati tirik qolishga qaratiladi. Natijada, o‘zi va farzandlari haqida g‘amxo‘rlik qilish, jamiyat bilan faol muloqot o‘rnatish uchun kamroq imkoniyat qoladi. Doimiy stress va xavotirda yashovchi inson atrofdagilar bilan to‘laqonli munosabat o‘rnatishni to‘xtatadi, uning muloqotga kirishish faolligi sezilarli darajada pasayadi. Nafaqat atrofdagilar bilan, balki jabrlanuvchining o‘zi bilan ham munosabatlariga putur yetadi. Uning ehtiyojlari eng past darajagacha tushib ketadi, o‘zini rivojlantirish istagi yo‘qoladi, asosiy sa’y-harakatlari mavjud vaziyatni “yengib o‘tishga” qaratilgan bo‘ladi. Bunday holatda mutaxassis tomonidan tezkor kompleks yordam ko‘rsatish zo‘ravonlik asoratlarini yengib o‘tishda eng muhim vositadir. Psixologik yordam ko‘rsatishda Art-terapiya, Geshtalt-terapiya, psixodorama, noto‘g‘ri ustanovkalar bilan ishlash usullari samarali hisoblanadi. Unutmaslik kerakki, zo‘ravonlik bir tomonlama muammo emas, ayolga yaqin insonlarning ruhiy yordami zo‘ravonlik asoratlarini yengib o‘tishda katta bir qadamdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. news.un.org/ru/story/2024/11/1458586/Каждые 10 минут от рук своего интимного партнера или члена семьи погибает одна женщина/
2. Ardern, H. Qualitative descriptions of battering incidents: A cross cultural comparison. Presentation in symposium L.E.A.Walker (Chair), BWS Over 30 Years. Annual Meeting of American Psychological Association, Washington, DC, Aug 19, 2005.
3. Парыгина, Н.А. Женщина - жертва насилия (социологический портрет) Власть и управление на Востоке России. -2009.-№ 1.-С. 212-217.
4. Гулько В.В, оронова Р.М. Особенности взаимоотношений женщин, переживших насилие Наука и Реальность/Science & Reality4(16) 2023
5. Meyer, S. Why women stay: A theoretical examination of rational choice and moral reasoning in the context of intimate partner violence. Australian & New Zealand Journal of Criminology 45(2), 179-193. DOI: 10.1177/0004865812443677
6. Hannan, A. (2015). Over her shoulder: What are women’s relationship perceptions when there has been lived experience of domestic violence within that relationship? Retrieved from http://ro.ecu.edu.au/theses_hons/239
7. Cronin, V.L.. Silence Is Golden: Older Women's Voices and the Analysis Of Meaning Among Survivors of Domestic Violence. (Unpublished doctoral dissertation). Syracuse University, Syracuse, New York//<https://surface.syr.edu/etd/19/>



THE PSYCHOLOGICAL IMPACT OF PARENTAL DIVORCE ON CHILDREN'S MENTAL HEALTH

Jo'rayeva Kaniza Akbarali qizi

Alfraganus universiteti

Pedagogika kafedrasi

Pedagogika va psixologiya 3-bosqich talabasi

Abstract This article thoroughly examines the negative psychological effects of parental divorce on children. Divorce, as a major family disruption, is a significant source of stress for minors. The study explores children's emotional and mental responses to parental separation across different age groups, focusing on indicators such as stress levels, anxiety, depressive symptoms, difficulties in social adaptation, self-esteem, and emotional stability. The article provides a scientific analysis of how divorce affects children's psychological development, social behavior, identity formation, and emotional well-being. In addition, the study presents preventive and psychocorrective strategies aimed at supporting children during and after the divorce process, alleviating psychological distress, and minimizing the risk of childhood trauma. The findings of this research are practically significant for psychologists, educators, social workers, and parents.

Keywords: *divorce, parents, child psychology, stress, emotional stability, psychological impact, family environment, social adaptation, anxiety, childhood trauma.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ РАЗВОДА РОДИТЕЛЕЙ НА ПСИХИКУ ДЕТЕЙ

Аннотация В данной статье всесторонне рассматриваются негативные психологические последствия развода родителей для психики детей. Развод является серьезным изменением в семейной жизни и представляет собой значительный источник стресса для несовершеннолетних. В исследовании анализируются эмоциональные и психологические реакции детей разного возраста на развод родителей, включая такие показатели, как уровень стресса, тревожность, депрессивные симптомы, трудности социальной адаптации, самооценка и эмоциональная стабильность. В статье научно обосновано, каким образом развод влияет на психологическое развитие ребенка, его социальное поведение, формирование личностной идентичности и эмоциональное состояние. Кроме того, представлены профилактические и психокоррекционные меры, направленные на оказание поддержки детям в период и после развода, снижение уровня

эмоциональных переживаний и предотвращение детской психотравмы. Результаты исследования имеют практическую ценность для психологов, педагогов, социальных работников и родителей.

Ключевые слова: развод, родители, психика ребёнка, стресс, эмоциональная стабильность, психологическое влияние, семейная среда, социальная адаптация, тревожность, детская травма.

OTA-ONANING AJRASHUVI BOLALAR RUHIYATIGA KO‘RSATADIGAN PSIXOLOGIK TA’SIR

Annotatsiya Ushbu maqolada ota-onaning ajrashuvi bolalar ruhiyatiga ko‘rsatadigan salbiy psixologik ta’sirlar har tomonlama yoritiladi. Ajrashuv — oilaviy hayotdagi keskin o‘zgarish bo‘lib, ayniqsa, voyaga yetmagan bolalar uchun kuchli stress manbai hisoblanadi. Tadqiqotda turli yoshdagi bolalarning ajrashuv holatiga bo‘lgan emotsional va ruhiy munosabati, ularning stress darajasi, xavotir, depressiv alomatlar, ijtimoiy moslashuvdagi muammolar, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash va ishonch darajasi o‘rganiladi. Maqolada ajrashuv jarayonining bolalarning psixik rivojlanishiga, ijtimoiy xulqiga, shaxsiy identifikatsiyasiga va hissiy barqarorligiga qanday ta’sir qilishi ilmiy asosda tahlil qilinadi. Shuningdek, ajrashuvdan keyingi davrda bolalarni ruhiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ularning moslashuv jarayonini yengillashtirish, ruhiy iztirob va bolalik travmasining oldini olishga qaratilgan profilaktik va psixokorreksion chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari psixologlar, pedagoglar, ijtimoiy ishchilar va ota-onalar uchun amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: ajrashuv, ota-ona, bola ruhiyati, stress, emotsional barqarorlik, psixologik ta’sir, oilaviy muhit, ijtimoiy moslashuv, xavotir, bolalik travmasi.

Kirish

Zamonaviy jamiyatda nikoh institutining barqarorligiga tahdid solayotgan muhim omillardan biri — bu ajrashuvlar sonining ortib borishidir. Alohida yashayotgan ota-onalar sonining ko‘payishi nafaqat ijtimoiy hayotda, balki oilaviy munosabatlar tizimida ham jiddiy muammolarni yuzaga keltirmoqda. Bu holat oilaning eng zaif va himoyaga muhtoj qatlamini — ya’ni bolalarni — to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir doirasiga olib kiradi. Ota-onaning ajrashuvi bolaning odatiy oilaviy tuzilmasi buzilishi, xavfsizlik hissining yo‘qolishi, doimiy emotsional qo‘llab-quvvatlash manbalarining kamayishi bilan birga kechadi.

Statistik ma’lumotlar va amaliy kuzatishlarga tayanilsa, ajrashgan oilalarda voyaga yetayotgan bolalar orasida emotsional beqarorlik, ijtimoiy moslashuvda qiyinchiliklar, xavotirlik, depressiv holatlar va tajovuzkor xatti-harakatlar ko‘proq uchraydi [1]. Ularning o‘z-o‘zini baholash darajasi pasayadi, ijtimoiy munosabatlarda noaniqlik va ishonchsizlik kuchayadi. Bunday holatlar bolaning shaxsiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, kelgusidagi ruhiy salomatlik poydevorini zaiflashtiradi.

Shu boisdan, ota-onalar ajrashuvi va uning bolalar psixikasiga bo‘lgan ta‘sirini chuqur o‘rganish, bu holatning psixologik mexanizmlarini tahlil qilish, yosh xususiyatlariga ko‘ra turlicha namoyon bo‘ladigan reaksiya shakllarini aniqlash va eng muhimi — bu salbiy oqibatlarining oldini olishga xizmat qiluvchi amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zamonaviy psixologik tadqiqotlarning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot olib borgan olimlar:

Ota-onaning ajrashuvi bolalarning ruhiy holatiga ta‘sir etuvchi muhim psixologik omil sifatida ko‘plab xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Ushbu mavzu bo‘yicha olib borilgan ilmiy ishlarda ajrashuvning bola shaxsiyati, emotsional barqarorligi va ijtimoiy moslashuvi bilan bevosita bog‘liq salbiy oqibatlari chuqur tahlil qilingan.

Eminent amerikalik tadqiqotchi E. Hetherington o‘z asarlarida ajrashuvdan keyingi dastlabki ikki yil davomida bolalarda sezilarli darajadagi emotsional beqarorlik, xavotirlik holatlari, g‘amginlik va tajovuzkorlik kuchayishini ta‘kidlaydi. Uning fikricha, bu davr bolaning ruhiy sog‘lig‘i uchun eng muhim va xavfli davr bo‘lib, aynan shu bosqichda psixologik yordam zarurati keskin ortadi [2].

Amato va Keith (1991) tomonidan o‘tkazilgan meta-tahlil tadqiqotlarida ajrashuvning uzoq muddatli salbiy oqibatlari o‘rganilgan bo‘lib, ular ajrashuv bolalarning o‘z-o‘zini baholashi pasayishi, xavotir va depressiya darajasi ortishi, shuningdek, ijtimoiy va o‘quv muhitida o‘zini tutishdagi noaniqliklar bilan kechishini aniqlashgan. Bu holatlar o‘z navbatida bolaning ijtimoiy identifikatsiyasi va shaxsiy rivojiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi [3].

O‘zbekistonlik psixolog olimlar Sattarova D.E. va Ismoilova N.N. tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa mahalliy oilalarda uchraydigan nizolar, ajrashuv holatlari va ularning bolalarning kognitiv hamda emotsional rivojlanishiga ta‘siri o‘rganilgan. Ularning ilmiy xulosalariga ko‘ra, ajrashuv nafaqat bolaning ruhiyatida, balki uning fikrlash, xotira, diqqat va o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasida ham muayyan o‘zgarishlar keltirib chiqaradi [4].

Shuningdek, Bronfenbrennening ekologik tizimlar nazariyasiga ko‘ra, bola rivojiga tashqi muhit — xususan, oila tizimidagi o‘zgarishlar (masalan, ota-onaning ajrashuvi) kuchli ta‘sir ko‘rsatadi. Bola eng yaqin mikrosistemalardan biri bo‘lgan oilada yuz berayotgan emotsional va ijtimoiy beqarorlikni bevosita his qiladi va bu holat ularning ruhiy holatida iz qoldiradi [5].

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot Toshkent shahridagi 3 ta umumta‘lim maktabida 9-15 yosh oralig‘idagi 60 nafar bola (30 nafari ajrashgan oilalardan, 30 nafari to‘liq oilalardan) ishtirokida olib borildi.

Metodlar:

“Lusher testi” orqali emotsional holat o‘lchandi.

“Spilberger xavotir testi” orqali xavotir darajasi baholandi.

Suhbat va so‘rovnoma orqali subyektiv his-tuyg‘ular aniqlashtirildi.

Xulosa

Ajrashuv holati bolaning ruhiy salomatligiga bevosita va ko‘p qirrali ta‘sir ko‘rsatadi. Bu jarayon bola uchun kutilmagan, og‘riqli va stressli holat bo‘lib, ularning hissiy muvozanatini

buzadi, xavfsizlik hissini susaytiradi hamda o‘zini aybdor his qilishga olib keladi. Bunday bolalarda o‘z-o‘zini baholash darajasi pasayishi, tashqi muhitga nisbatan ishonchsizlik, ijtimoiy moslashuvda qiyinchiliklar, tajovuzkor yoki ichki tortinchoq xatti-harakatlar rivojlanishi mumkin. Uzoq muddatli istiqbolda esa ajrashuv bolaning shaxsiy rivojlanishiga, oila va munosabatlarga bo‘lgan qarashlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, ajrashgan oilalarda voyaga yetayotgan bolalarda depressiv alomatlar, xavotir buzilishlari, emotsional beqarorlik va psixosomatik muammolar (masalan, uyqusizlik, ishtahaning yo‘qolishi, bosh og‘rishlari) ko‘proq uchrashi kuzatilgan. Ota-onalar o‘rtasidagi ziddiyat va kommunikatsiya buzilishi bolalarning psixologik himoyasini susaytiradi, bu esa ularning ijtimoiy identifikatsiyasiga, o‘ziga bo‘lgan ishonchiga va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatiga salbiy ta’sir qiladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Super, C.M. & Harkness, S. (2002). Culture structures the environment for development. *Human Development*, 45(4), 270–274.
2. Hetherington, E.M. (1999). Should we stay together for the sake of the children? In *Coping with divorce*. Harvard University Press.
3. Amato, P. R., & Keith, B. (1991). Parental divorce and the well-being of children: A meta-analysis. *Psychological Bulletin*, 110(1), 26–46.
4. Sattarova D.E., Ismoilova N.N. (2022). *Oila psixologiyasi*. Toshkent: TDPU nashriyoti.
5. Spilberger Ch. (1983). *Anxiety and Behavior*. Academic Press.
6. Bronfenbrenner U. (1979). *The Ecology of Human Development*. Harvard University Press.
7. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi (2023). *Aholi orasida ajrashuv holatlari statistikasi*..

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 8-son)



PSIXOLOGIYA
PSYCHOLOGY

SUBMADANIYAT VAKILLARI SHAXS XUSUSIYATLARINING TAHLILI OLIMLAR TALQINIDA

Otamuratova Sarvinoz Abdurazakovna

Guliston Davlat Universiteti tayanch doktoranti

sarvinozotamuratova@gmail.com

+998-99-557-90-57

Annotatsiya. Maqolada yoshlar submadaniyatlari vakillarining psixologik xususiyatlarini o‘rganishning nazariy va ilmiy jihatdan o‘rganilganligi, yoshlar submadaniyatlarining ijtimoiy-madaniy makondagi ahamiyati, subkulturalarni o‘rganish muammolari, kasbiy qiziqishlar va shaxsiyat bilan bog‘liq xususiyatlar sharhlanadi.

Kalit so‘zlar: submadaniyat, xip-xop, emo, got, “fitness qizlar”, internet resurslari, emotsional, distimik, gipertimik, stereotiplar, noto‘g‘ri qarash, “buffer zona”.

АНАЛИЗ ЛИЧНОСТНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ СУБКУЛЬТУР В ИНТЕРПРЕТАЦИИ УЧЕНЫХ

Аннотация. В статье рассматривается теоретическое и научное изучение психологических особенностей представителей молодежных субкультур, значение молодежных субкультур в социокультурном пространстве, проблемы изучения субкультур, профессиональные интересы и личностные особенности.

Ключевые слова: субкультура, хип-хоп, эмо, готы, «фитнес-девушки», интернет-ресурсы, эмоциональный, дистимичный, гипертимный, стереотипы, предрассудки, «буферная зона».

ANALYSIS OF PERSONAL FEATURES OF SUBCULTURE REPRESENTATIVES IN THE INTERPRETATION OF SCIENTISTS

Annotation. The article reviews the theoretical and scientific study of the psychological characteristics of representatives of youth subcultures, the significance of youth subcultures in the socio-cultural space, the problems of studying subcultures, professional interests and personality-related characteristics.

Keywords: subculture, hip-hop, emo, goth, “fitness girls”, internet resources, emotional, dysthymic, hyperthymic, stereotypes, prejudice, “buffer zone”.

KIRISH

Yoshlar submadaniyatlari zamonaviy jamiyatning eng dinamik va dolzarb hodisalaridan biridir, shuning uchun ularning o'ziga xosligi va asosiy xususiyatlari psixologlar, sotsiologlar, pedagoglar, madaniyatshunoslar va marketologlarning tadqiqotlari markazida ekanligi bejiz emas. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, yaqin vaqtgacha keng tarqalgan gotlar, panklar va emoslar jamoalari hozirda yoshlar orasida talabning sezilarli darajada kamligi bilan ajralib turadi, shu bilan birga, sog'lom turmush tarzi yoki ma'lum bir sport turiga (masalan, velosport, trening, "fitness qizlar"), o'yin va sport, Instagram hamjamiyati, ko'ngillilik va boshqalarga qiziqish asosida tashkil etilgan norasmiy yoshlar guruhlar, ayniqsa, musiqiy yoshlar submadaniyatlari orasida rep muxlislari jamoalari tobora ommalashib bormoqda. Ammo so'nggi paytlarda yoshlar submadaniyati fenomeniga ta'sir ko'rsatgan barcha o'zgarishlarga qaramay, bizning fikrimizcha, uning mohiyati bir xil bo'lib qolmoqda: masalan, o'smirlar erkin tanlov asosida umumiy qadriyatlar, turmush tarzi, qarashlari, e'tiqodlari va boshqalarga asoslangan qiziqish guruhlarini tashkil qiladilar.

METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Zamonaviy jamiyatni yoshlar submadaniyatlarisiz tasavvur qilish qiyin, ular yosh shaxsning o'zini o'zi anglashi va o'zini namoyon qilishi uchun platforma, uning rivojlanishidagi muhim qadamdir. Xorijiy olimlardan yoshlar submadaniyatlari va ularning vakillarini o'rganishga bag'ishlangan, yoshlar submadaniyatlarining tipologiyasi va dinamikasini, yoshlar submadaniyatlari vakillarining muhim xususiyatlarini aks ettiruvchi asarlaridan foydalanilgan. F. Koen, M. Brake (qiymat va mafkuraviy). yoshlar muhitida farqlanish); S.A.Belanovskiy, S.V.Levikova, F.I.Rojanskiy, S.A.Fromm, L.V.Shmelev. S. Aizenstadt, M. Mead (yoshlarning ijtimoiylashuvi, "avlodlar to'qnashuvi" nazariyasi); B.G.Anan'ev, A.G.Asmolov, Yu.G.Volkov, L.S.Vygotskiy, V.V.Davydov, A.N.Leontiev, V.T.Lisovski, A.V.Mudrik, A.V.Petrovskiy, K.K.Platonov, S.L.Rubinshteyn (sotsializatsiya jarayonida yoshlarni ijtimoiylashtirish va shaxsni shakllantirish mexanizmlari) o'rgangan. [5]

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Olimlarning izlanishlariga ko'ra, yoshlar submadaniyatlari vakillarining ijtimoiy-psixologik yo'nalishini o'rganish natijasida submadaniyatlarga o'tish uchun xavf guruhi aniqlandi, unga 14-22 yosh xususiyatlarga ega yoshlar kiradi va quyidagi belgilar kuzatiladi:

- o'quv ko'rsatkichlarining pastligi va o'qishga qiziqishning yo'qligi;
- to'liq bo'lmagan oila farzandlari;
- ijodiy qiziqishlar, o'z his-tuyg'ularini ifoda etish uchun kuchli istagi mavjudligi bilan ajralib turish va mashhur bo'lish istagi bilan ajralib turadigan yoshlar;
- aniq-majoziy fikrlashning o'sishi va o'rtacha intellektual daraja;
- boy tasavvur va befarqlikning kuchayishi;
- radikal fikrlash;
- hissiy jihatdan beqaror va asabiylik;
- umume'tirof etilgan axloqiy me'yorlarni qabul qilmaslik;

- quvnoqlikning pasayishi, tashvishga aylanishi, depressiyaga moyillik;
- zaif integratsiya va o'zini past baholash, flegmatizm bilan almashinadigan qo'zg'aluvchanlik;
- muloqot qobiliyatlari past, qaysar, toqatsiz, qat'iyatli, bo'ysunmaydigan;
- kamaygan xavf hissi;
- hasadgo'ylik;
- guruhga qaramlikning kuchayishi;
- notinch, pessimistik xarakterli yuqori umumiy tashvish;
- introvertlar, o'z ichki dunyosiga e'tibor qaratgan, impulsiv;
- hissiy jihatdan sezgir, nozik, qabul qiluvchi;
- qaramlik;
- konkret fikrlash ustunlik qilishi;
- surunkali hissiy mojarolar bilan tavsiflangan stressga chidamlilikning past darajasi;
- kam iroda, impulsiv harakat qilish (kayfiyatga ko'ra);
- muloqotda o'z doiralarini afzal ko'rishadi;
- yuqori shaxsiy mas'uliyatni talab qilmaydigan ishga moyillik;
- yaxshi rivojlangan motivatsiya, ijtimoiy mavqeini yaxshilashga intilish;
- juda yuqori dushmanlik indeksiga egalik (ammo tajovuzkorlik mavjud emasligi) bilan ifodalanadi.

Submadaniyat vakillarida shaxsiyat turlariga mansub bo'lgan quyidagi belgilar namoyon bo'ladi: 1) hissiy: hissiyotlarning namoyon bo'lishi, sezgir va ta'sirchan, tushkun kayfiyat, hayotning qorong'u tomonlariga bog'lanishi bilan tavsiflanadi; 2) distimik: faollik, yuqori faollik va tadbirkorlikka chanqoqlik bilan birgalikda doimiy ko'tarilgan kayfiyatga mos keladi; 3) gipertimik: repressiya va namoyishkorlik qobiliyatining oshishi bilan tavsiflanadi.

Submadaniyat vakillarining psixologik xususiyatlarini tadqiq etish olimlar tomonidan uzoq vaqtdan beri ilmiy jamoada diqqat bilan o'rganilmoqda. Bu sohada ko'plab psixologlar, sotsiologlar va madaniyatshunoslar o'zlarining izlanishlarini olib borgan. Submadaniyat vakillarining psixologik xususiyatlarini o'rganish ko'plab ijtimoiy va madaniy omillarni, shuningdek, guruh identiteti, ijtimoiy normalar, qadriyatlar va o'zaro munosabatlar kabi jihatlarni hisobga olishni talab qiladi. Quyida ba'zi olimlar va ularning bu sohadagi tadqiqotlari diqqatga sazovordir. Jumladan, L.V. Shabanov katta yoshdagi o'smirlar va yoshlarni yoshlar subkulturalariga kiritish mumkin deya ta'kidlagan bo'lsa, boshqa tadqiqotchilar uchun yoshning o'zi emas, balki yoshlarning ijtimoiy funktsiyalari birinchi o'ringa chiqadi deya ta'kidlasa [6], L.I. Mixaylovaning fikricha, mehnat munosabatlari tizimiga qo'shilish yoshlarni yoshlar submadaniyati fenomenidan tashqariga olib chiqadi [2].

I.A. Bayeva yoshlik davrini, uning ijtimoiy-madaniy va ijtimoiy-tarixiy kontekst bilan belgilanishini aniqlashning qiyinligini ochiq aytadi. Biroq, deyarli barcha tadqiqotchilar, muloqot qilish va hayotda o'z o'rnini topishga bo'lgan ehtiyoj ortib borayotgan o'smirlik va

yoshlik davrida yoshlar subkulturalari shaxs uchun alohida ahamiyatga ega ekanligiga ishora qiladi.[1]

Yoshlar subkulturalari bolalik va kattalar dunyosi o'rtasidagi o'ziga xos "bufer zona" vazifasini bajaradi. Ularning muhim xususiyatlaridan biri submadaniyatni qabul qilish ularning ixtiyoriy tabiatidir, shuning uchun o'smir uchun subkulturani tanlash ongli, mustaqil qadam deya izohlash mumkin [3]. Bir qator hollarda, yoshlar submadaniyatlari boshqa guruhlarda, birinchi navbatda, rasmiy munosabatlarda, shuningdek, oilaviy munosabatlar sohasida shaxslararo munosabatlarni o'rnatishda qiyinchiliklar mavjud bo'lganda, o'ziga xos "terapevtik" guruh sifatida ishlaydi [4].

Yoshlar submadaniyatining keyingi muhim xususiyati uning norasmiyligidir. Yoshlarning norasmiy birlashmalari mualliflar tomonidan yoshlar submadaniyatining timsoli shakllaridan biri sifatida ko'rib chiqiladi [6]. Ta'kidlash joizki, I.A. Bayeva norasmiy yoshlar birlashmasini "umumiy faoliyat bilan shug'ullanadigan, o'ziga xos qadriyatlar tizimiga va u bilan bog'liq xatti-harakatlar modeliga, atributlarning ekspressiv tizimiga ega bo'lgan odamlar guruhi" deb hisoblaydi. L.V. Shabanov norasmiy yoshlar submadaniyatlari birlashmalarining bir qator xususiyatlarini taqdim etadi. Muayyan sharoitlarda, muayyan vaziyatda o'z-o'zidan aloqa qilish asosida o'z-o'zidan paydo bo'lishi;

- o'zini o'zi tashkil etish va rasmiy tuzilmalardan mustaqillik;
- oddiy hayot shakllarida qondirilmaydigan ehtiyojlarni amalga oshirishga qaratilgan ishtirokchilar uchun majburiy xatti-harakatlar namunalari (o'zini o'zi tasdiqlash, ijtimoiy mavqe, xavfsizlik, obro'ga asoslangan o'zini o'zi qadrlash);
- nisbiy barqarorlik va ma'lum bir ierarxiya;
- dunyoqarashning aniq ifodalangan xususiyatlari, qadriyat yo'nalishlari, tashqi dunyoga munosabati, xulq-atvor stereotiplari;
- ma'lum bir guruhga mansubligini ta'kidlaydigan atributlar shular jumlasidandir [6].

Tadqiqotchilardan biri L.I. Mixaylovaning ta'kidlashicha, yoshlar submadaniyatlari faoliyati maktabdan tashqari va mehnatdan tashqari xarakterga ega va oilaviy munosabatlar tizimi bilan bog'liq emas. Muallifning fikriga ko'ra, submadaniyat vakillari umumiy qadriyatlar, axloqiy pozitsiyalar va didlar bilan o'ziga xoslikni namoyon etadi. [2].

Tadqiqotchilar, shuningdek, yoshlar submadaniyatlari va umuman jamiyat o'rtasidagi yoki jamiyat hayotining alohida hodisalari bilan, xususan, o'zaro munosabatlarning ma'lum bir norozilik, ziddiyatli xarakterini qayd etadilar. Bu hodisa submadaniyat va hukmron madaniyat o'rtasidagi, shuningdek, submadaniy jamoalar o'rtasidagi obyektiv va subyektiv qarama-qarshiliklarga asoslanadi [7].

XULOSA.

Yuqorida keltirilgan nazariy ma'lumotlar tahlilidan xulosa qilish mumkinki, submadaniyat vakillarining psixologik xususiyatlarini tadqiq etishning ko'plab yondashuvlari mavjud. Psixologik, sotsiologik va madaniy nuqtai nazardan olib borilgan tadqiqotlar submadaniyat vakillarining o'ziga xos xususiyatlarini, identitetlarini, ijtimoiy aloqalarini va guruh ichidagi

hissiy reaksiya va o'zgarishlarni aniqlashga yordam beradi. Olimlar bu sohada bir necha nazariyalar, metodologiyalar va yondashuvlarni ishlab chiqqan, bu esa submadaniyatlarning psixologik tahlilini yanada chuqurlashtirishga imkon yaratmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Баева И.А. Психология молодёжной субкультуры (социально-психологический аспект молодёжной политики) // Педагогическая психология. 2007. № 1(10). С. 82–90.
2. Михайлова Л.И. Социология культуры / Курс лекций. М.: Логос, 1997. 222 с.
3. Парфенюк Д.В. Социально-психологическая направленность представителей молодежных субкультур: автореф. дис. ... канд. психол. наук. М., 2011. 237 с.
4. Полева Н.С. «Закат» молодежных субкультур // Психология субкультуры: феноменология и современные тенденции развития: Материалы Международной научной конференции. 2019. С. 31–36.
5. Otamuratova S.A., “Theoretical basis of researching the psychological characteristics of representatives of youth subcultures”. Вестник интегративной психологии // Журнал для психологов. Вып. 36. Часть 1. /Под ред. В.В.Козлова, Ш.Р. Баратова, М.Н.Усмановой. – Ярославль: МАПН, 2025., page 278.
6. Хейвен П. Современные подростки: социально-психологический подход. М.: Владос, 2011. 260 с.
7. Шабанов Л.В. Социально-психологические характеристики молодёжных субкультур: социальное недовольство или вынужденная маргинализация. Томск: Томский гос. ун-т, 2005. 399 с.
8. Шнайдер Л.Б. Молодёжный экстремизм: сущность, гендерная идентичность, противодействие и профилактика. М.: Издательство Московского психолого-социального института, 2014. 196 с.



TALABALAR JAMOASIDAGI NIZOLI VAZIYATLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH

Vaxobova Muxtabar Nurmuxammat qizi

Tayanch doktorant, JDPU

vaxobovamuxtabar0307@gmail.com

Tel: +998943459703

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida talabalar o'rtasida yuzaga keladigan nizoli vaziyatlar, nizo turlari tahlil qilinadi. Shaxslararo nizolar va ularning sabablarini aniqlash, ularning ijobiy va salbiy oqibatlarini baholash orqali jamoaviy muhitni yaxshilash imkoniyati ko'rsatib beriladi. Nizo — ijtimoiy o'zaro ta'sir shakli sifatida talabalarning qadriyatlaridagi tafovut bilan bog'liq muhim pedagogik hodisa ekanligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: nizo (konflikt), shaxslararo nizo, nizo turlari, nizo sabablari, ta'lim muhitida konflikt.

Аннотация: В данной статье анализируются конфликтные ситуации, возникающие среди студентов в высших учебных заведениях, а также типы конфликтов. Показана возможность улучшения коллективной атмосферы путём выявления межличностных конфликтов и их причин, а также оценки их положительных и отрицательных последствий. Освещается тот факт, что конфликт как форма социального взаимодействия является важным педагогическим явлением, связанным с различиями в ценностях студентов.

Ключевые слова: конфликт, межличностный конфликт, виды конфликтов, причины конфликтов, конфликт в образовательной среде.

Abstract: This article analyzes the conflict situations that arise among students in higher education institutions, as well as the types of conflicts. It demonstrates the possibility of improving the group environment by identifying interpersonal conflicts and their causes, and by assessing their positive and negative consequences. The article highlights that conflict, as a form of social interaction, is an important pedagogical phenomenon related to differences in students' values.

Keywords: conflict, interpersonal conflict, types of conflicts, causes of conflict, conflict in the educational environment.

KIRISH

Nizo insoniyat jamiyatida doimo mavjud bo'lgan ijtimoiy-psixologik hodisadir. Ta'lim muhitida, xususan, talabalar jamoasida nizoli vaziyatlar turli sabablarga ko'ra yuzaga kelishi

mumkin. Ularni o‘rganish, tahlil qilish va samarali hal etish yo‘llarini ishlab chiqish bugungi kunda muhim masala hisoblanadi. Mazkur maqolada talabalar jamoasida uchraydigan nizolar, ularning sabablari, turlari, oqibatlari va yechimlari ko‘rib chiqiladi.

Nizo – bu ikki yoki undan ortiq tomonning manfaatlari, maqsadlari yoki qadriyatlaridagi to‘qnashuv natijasida yuzaga keladigan ijtimoiy hodisadir. Ilmiy adabiyotlarda nizo shaxsiy, guruhiiy va ijtimoiy munosabatlarning ajralmas qismi sifatida talqin etiladi. Nizo — bu shaxslar yoki guruh ichida yuzaga keladigan ziddiyat, kelishmovchilik yoki tushunmovchilik holatidir. Bunday holat bir yoki bir nechta guruh a‘zolarining e‘tiqodlari yoki harakatlari boshqa guruh a‘zolari tomonidan rad etilganda yoki qabul qilinmaganda yuzaga keladi. Nizo, asosan, har xil subyektlarning qarama-qarshi g‘oyalari va harakatlari bilan bog‘liq bo‘lib, bu qarama-qarshilik dushmanlik holatiga olib keladi. Konfliktologiya fani aynan nizolarni o‘rganish, ularning kelib chiqish sabablari va hal etish mexanizmlarini ishlab chiqish bilan shug‘ullanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Zamonaviy oliy ta‘lim muassasalarida talabalar jamoasi ijtimoiy-psixologik jihatdan murakkab tizim hisoblanadi. Bu tizimda har xil shaxsiy, ijtimoiy, madaniy va psixologik omillar o‘zaro ta’sir qilib, ko‘plab nizoli vaziyatlarni keltirib chiqaradi. Nizo turlarini aniqlash ushbu nizolarni oldini olish va hal qilishda muhim ahamiyatga ega. Nizolar quyidagi to‘rt turga bo‘linadi:

a) Shaxslararo nizo (interpersonal conflict) Bu ikki shaxs o‘rtasidagi nizo bo‘lib, odatda insonlarning bir-biridan farqli bo‘lgan jihatlari sababli yuzaga keladi.

b) Shaxsiy ichki nizo (intrapersonal conflict) Bu nizo shaxsning o‘z ichida kechadi. U inson ongida yuz beradi va psixologik xarakterga ega bo‘lib, fikrlar, qadriyatlar, tamoyillar va hissiyotlar o‘rtasidagi ziddiyatdan iborat.

c) Guruh ichidagi nizo (intra-group conflict) Bu nizo bir guruh ichidagi shaxslar o‘rtasida yuzaga keladi. Ularning o‘zaro nomuvofiqliklari va tushunmovchiliklari guruh ichidagi nizoga olib keladi.

d) Guruhlararo nizo (inter-group conflict) Bu nizo bir tashkilot ichidagi turli guruhlar o‘rtasida tushunmovchilik paydo bo‘lganda yuz beradi. Amerikalik olimlar Karen Jehn (ijtimoiy psixolog va tashkilotshunos) va Elizabeth Mannix (tashkilotshunos, Cornell universiteti professori) nizolarni quyidagi uch turga ajratishni taklif qilgan:

- Munosabat nizosi (relationship conflict) — bu shaxslararo nomuvofiqliklardan kelib chiqadi.
- Vazifa (topshiriq) nizosi (task conflict) — bu biror topshiriq bo‘yicha fikr va qarashlardagi kelishmovchilik bilan bog‘liq.
- Jarayon nizosi (process conflict) — guruhning topshiriqqa yondashuvi, uslubi yoki ish jarayoni borasida kelishmovchilik yuzaga kelganda ro‘y beradi.

Jehn va Mannix shuni ta’kidlashadiki, munosabat va jarayon nizolari zararli bo‘lishi mumkin, ammo vazifa nizolari foydali bo‘lishi mumkin, chunki bu turdagi nizolar fikrlar xilma-xilligini rag‘batlantiradi. Biroq, bu nizo munosabat yoki jarayon nizosiga aylanishining oldi

olinishi lozim. Amerikalik tashkilotshunos olim Allen C. Amason esa nizolarni quyidagicha farqlaydi:

- Kognitiv nizo (cognitive conflict) — bu vazifaga yo‘naltirilgan nizo bo‘lib, qarashlar yoki baholardagi farqlardan kelib chiqadi.
- Affektiv nizo (affective conflict) — bu shaxsiy ziddiyatlardan kelib chiqadigan hissiy nizo.

Hozirgi kunda har bir inson o‘zini o‘rab turgan odamlarning turli qarashlari, e‘tiqodlari va manfaatlari bilan to‘qnash kelishi mumkin. Shaxsiy xususiyatlar, insonlarning atrofdagilar bilan o‘zaro munosabatlari, shuningdek, subyektiv va obyektiv omillar bilan bog‘liq bo‘lgan bunday to‘qnashuvlar mojaroli vaziyatlarning yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin.

Talabalik hayotining ajralmas qismi bu — shaxslararo nizolardir. Ular salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shaxslararo nizolar — bu insonlarning psixologik va ijtimoiy o‘zaro ta‘siri jarayonida yuzaga keladigan ziddiyatlardir. Ko‘pchilik uchun “nizo” so‘zi, odatda, salbiy ma‘noga ega. Odamlarning aksariyati mojaroni oldini olish zarur deb hisoblaydi. Biroq ushbu hodisaga chuqurroq yondashilsa, shunday xulosaga kelish mumkin: mojarolar nafaqat muqarrar, balki zaruriy hamdir. Chunki nizoni ijobiy va foydali yo‘l bilan hal etishga intilish — uning sabablarini, yuzaga kelish omillarini, shuningdek, qarama-qarshiliklarni bartaraf etish yo‘llarini tahlil qilishga undovchi intellektual sa‘y-harakatlarni talab qiladi. Ushbu masalaga bo‘lgan qiziqish, avvalo, shaxslararo nizolar oliy o‘quv yurtlarida talabalarning ruhiy holatining yomonlashuvi, o‘quv jarayonidan norozilik hissining shakllanishi, shuningdek, o‘zlashtirish va kasbiy ta‘lim samaradorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Oliy o‘quv yurtlarida yuzaga keladigan shaxslararo nizolar muammosi nafaqat tadqiqotchilar, balki o‘qituvchilar tomonidan ham alohida e‘tibor bilan yondashishni talab qiladi. Aynan shu holat mazkur muammoning tadqiqot doirasida o‘rganilishini dolzarb etib qo‘yadi. Kozer L., Mixaylova G.V., Titkova L.S., Fernxem A.P., Xeyven P. va Cherkasova T.V.ning ilmiy ishlarida oliy o‘quv yurtlaridagi nizoli vaziyatlar muammosi chuqur tahlil qilingan. Ushbu muammo bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Mazkur tadqiqotlarning asosiy maqsadi — oliy ta‘lim muassasalarida yuzaga keladigan nizoli holatlarning talabalarning ichki guruh munosabatlariga va jamoaviy ijtimoiy tuzilmaning shakllanishiga qanday ta‘sir ko‘rsatishini aniqlashdan iborat.

MUHOKAMA

Talabalarning oliy o‘quv muassasalaridagi o‘quv jarayoniga moslashuvi, avvalo, ularning shaxsiy-psixologik xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Ko‘pchilik yoshlar maktab davrida shakllangan muloqot ko‘nikmalarini oliy ta‘lim bosqichida ham qo‘llaydilar, biroq bu ko‘nikmalar har doim ham samarali natija bera olmaydi. Talabalar o‘rtasidagi axloqiy mezonlar, hayotiy qadriyatlar, xulqiy normalar va ijtimoiy qarashlardagi tafovutlar turli xil shaxslararo nizolarning vujudga kelishiga olib kelishi mumkin.

O‘quv guruhlari ijtimoiy tizim sifatida shakllanib borar ekan, ularda o‘ziga xos munosabatlar tizimi, xulq-atvor standartlari, psixologik muhit va guruh qadriyatlari rivojlanadi.

Bunday guruhlar ichida nizolarni yuzaga keltiruvchi omillar ko‘p: talabalarning bir-biri bilan raqobatlashuvi, iqtisodiy holatdagi tafovutlar, sportdagi muvaffaqiyatlar yoki muvaffaqiyatsizliklar, o‘qituvchilar yoki qarama-qarshi jins vakillarining e‘tiboriga bo‘lgan ehtiyoj, shuningdek, shaxsiy jihatlar sababli tengdoshlari bilan til topisha olmaslik holatlari bunga misol bo‘la oladi.

Shu jihatdan, o‘quv guruhlarida yuzaga keladigan nizolar murakkab ijtimoiy jarayon bo‘lib, ular ham ijobiy, ham salbiy oqibatlariga ega bo‘lishi mumkin. Ijobiy jihati shundaki, mojarolar guruh ichki tuzilmasining dinamikasini faollashtiradi va munosabatlar tizimini qayta ko‘rib chiqishga undaydi. Aksincha, nizolar haddan tashqari kuchaysa, guruhni izdan chiqarishi yoki ijtimoiy jipslikni yemirishi mumkin. Shu bilan birga, ijobiy boshqarilgan nizo guruhni birlashtiruvchi omilga aylanishi mumkin.

Oliy ta‘lim muassasalaridagi nizolarni butunlay bartaraf etish amalda imkonsizdir, chunki ta‘lim muhitining ishtirokchilari — talabalar, professor-o‘qituvchilar va boshqa manfaatdor tomonlar — o‘zlarining ijtimoiy maqomi, jamiyatdagi roli va funksiyalari bilan farqlanadilar. Shu sababli, yuzaga kelayotgan mojarolarni dastlabki bosqichda aniqlash va tahlil qilish zarur bo‘lib, bu nafaqat nizoni oldini olish, balki uning salbiy oqibatlarini yumshatish imkonini ham yaratadi.

Nizoli vaziyatni samarali hal qilish uchun, eng avvalo, uning kelib chiqishiga sabab bo‘lgan omillarni chuqur tahlil qilish lozim. Afsuski, ko‘plab talabalar nizoning asl sababi va motivlarini aniq anglab yetolmaydi, bu esa o‘zaro tushunmovchilikni chuqurlashtirib, uzoq davom etadigan ijtimoiy ziddiyatlarga olib keladi. Ko‘pincha fikrlar va manfaatlar mos kelmaganda, har bir tomon o‘z pozitsiyasida qat‘iy turib oladi, bu esa hissiy bosim ostida tajovuzkorlik, qo‘pollik va muloqotdagi nojo‘yalik orqali nizo kuchayishiga olib keladi.

Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, oliy o‘quv yurti doirasidagi nizolar — bu o‘ziga xos ijtimoiy interaktsiya shakli bo‘lib, u o‘quv jarayonidagi qarama-qarshiliklarni hal qilish mexanizmi sifatida maydonga chiqadi. Bunday ijtimoiy munosabatlar, odatda, nizoga kirishgan tomonlar o‘rtasidagi qadriyat va me‘yorlar tizimidagi ziddiyatlar darajasining yuqoriligi bilan tavsiflanadi. Shuningdek, tadqiqotlar ko‘ra, nizoli vaziyatlar universitetdagi talabalar jamoasiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi, ularni birlashtirishi va jipslashtirishi mumkin.

XULOSA

Universitet talabalarining o‘zaro nizolari keng tarqalgan bo‘lib, ularning kelib chiqish sabablari orasida noto‘g‘ri kommunikatsiya, shaxsiy fazilatlarining to‘qnashuvi, cheklangan resurslar ustidagi raqobat, institutsional omillar hamda siyosiy yoki madaniy qarashlardagi farqlar mavjud. Ushbu mojarolar odatda ikki yoki undan ortiq talaba o‘rtasida shaxslararo darajada yuzaga keladi va bu holat o‘quv jarayonining samaradorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatib, diqqatni jamlash qobiliyatining pasayishi va akademik ko‘rsatkichlarning yomonlashuviga olib kelishi mumkin. Adabiyotlarda, ta‘kidlanishicha, universitetlar ushbu nizolarni bartaraf etish va oldini olish uchun samarali vositachilik mexanizmlarini joriy etish, ochiq va konstruktiv

muloqotni rag‘batlantirish hamda institutsional muammolarni aniqlab, ularni bartaraf etishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishlari zarur.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Amason, A. C.; Sapienza, H. J. (1997). "The Effects of Top Management Team Size and interaction Norms on Cognitive and Affective Conflict". *Journal of Management* 23 (4): 495–516. doi:10.1177/014920639702300401.
2. Jehn, K. A.; Mannix, E. A. (2001). "The dynamic nature of conflict: A longitudinal study.". *Academy of Management Journal* 44 (2): 238–251. doi:10.2307/3069453.
3. Козер Л. Функции социального конфликта. М., 2005 — 184 с
4. Nayereh Shahmohammadi, *Procedia - Social and Behavioral Sciences* 159:630-635. DOI:10.1016/j.sbspro.2014.12.438
5. Судакова Татьяна Григорьевна КОНФЛИКТЫ В СТУДЕНЧЕСКОМ КОЛЛЕКТИВЕ ВУЗА КйберЛёнинка, 2015
6. Tschannen-Moran, M. (2001). The effects of a state-wide conflict management initiative in schools. *American Secondary Education*, 29, p.3.



TALABALARDA HAYOTIY STRATEGIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA PSIXOLOGIK MEXANIZMLARNING NAZARIY ASOSLARI

Xudoyberganov Doniyorbek Yangiboy o'g'li

Urganch davlat pedagogika instituti

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalar hayotiy strategiyalarini shakllantirish jarayonida psixologik mexanizmlarning nazariy asoslari yoritilgan. Hayotiy strategiya shaxsning o'z hayot faoliyatini ongli tarzda boshqarishi, maqsadlarni belgilashi va ularga erishishda samarali yo'llarni tanlashini ifodalaydi. Psixologik mexanizmlar esa bu jarayonda motivatsiya, irodaviy sifatlar, emotsional-intellektual imkoniyatlar, kognitiv jarayonlar va ijtimoiy omillar bilan chambarchas bog'liqdir. Maqolada hayotiy strategiyalarni shakllantirishda shaxsning psixologik tayyorgarligi, o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalari, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy muhit ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, nazariy jihatdan turli psixologik yondashuvlar – kognitiv, motivatsion, ijtimoiy-psixologik va faoliyat yondashuvlari o'rganilgan bo'lib, talabalar shaxsini rivojlantirish hamda ularni ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli tayyorlash mexanizmlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Hayotiy strategiyalar, talaba shaxsi, motivatsiya, irodaviy sifatlar, kognitiv jarayonlar, o'z-o'zini boshqarish, ijtimoiy-psixologik yondashuv.

THEORETICAL BASIS OF PSYCHOLOGICAL MECHANISMS IN THE FORMATION OF LIFE STRATEGIES IN STUDENTS

Annotation: This article covers the theoretical foundations of psychological mechanisms in the process of forming students' life strategies. A life strategy represents a person's conscious management of his life activities, setting goals and choosing effective ways to achieve them. Psychological mechanisms in this process are closely related to motivation, volitional qualities, emotional-intellectual capabilities, cognitive processes and social factors. The article analyzes the influence of a person's psychological preparation, self-management skills, value system and social environment in the formation of life strategies. Also, various psychological approaches - cognitive, motivational, socio-psychological and activity approaches - were theoretically studied, and mechanisms for developing students' personalities and successfully preparing them for social life were substantiated.

Keywords: Life strategies, student personality, motivation, volitional qualities, cognitive processes, self-management, socio-psychological approach.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ ФОРМИРОВАНИЯ ЖИЗНЕННЫХ СТРАТЕГИЙ СТУДЕНТОВ

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические основы психологических механизмов формирования жизненных стратегий студентов. Жизненная стратегия представляет собой осознанное управление личностью своей жизнедеятельностью, постановку целей и выбор эффективных способов их достижения. Психологические механизмы в этом процессе тесно связаны с мотивацией, волевыми качествами, эмоционально-интеллектуальными возможностями, когнитивными процессами и социальными факторами. В статье анализируется влияние психологической подготовки личности, навыков самоменеджмента, системы ценностей и социальной среды на формирование жизненных стратегий. Также были теоретически изучены различные психологические подходы – когнитивный, мотивационный, социально-психологический и деятельностный, а также обоснованы механизмы развития личности студентов и успешной подготовки их к социальной жизни.

Ключевые слова: Жизненные стратегии, личность студента, мотивация, волевые качества, когнитивные процессы, самоменеджмент, социально-психологический подход.

Kirish.

Globallashuv, raqamli transformatsiya va mehnat bozoridagi keskin o‘zgarishlar sharoitida talabalarning o‘z hayot yo‘lini ongli rejalash, murakkab vaziyatlarda oqilona tanlov qilish hamda uzoq muddatli maqsadlarga barqaror intilish qobiliyati har qachongidan muhim bo‘lib bormoqda. Oliygothda egallanayotgan bilimlar — zarur, ammo yetarli shart emas; ularni shaxsiy maqsadlar, ijtimoiy kutishlar va real imkoniyatlar bilan uyg‘unlashtirib borish uchun “hayotiy strategiya” deb ataluvchi ichki yo‘l-yo‘riq va tamoyillar majmuasi talab etiladi. Hayotiy strategiya shunchaki reja yoki orzular to‘plami emas — u shaxsning qadriyatlari, kelajak tasavvuri, resurslari va cheklovlarini hisobga olgan holda, maqsad tanlash, yo‘l chizish va natijani baholashni o‘z ichiga oluvchi dinamik tizimdir. Mazkur tizimning yuragi esa psixologik mexanizmlardir: motivatsiya va irodadan tortib, metakognitsiya, emotsional o‘zini boshqarish, ijtimoiy ta’sirlarni qayta ishlash hamda identitet qurilishigacha bo‘lgan ko‘plab jarayonlar aynan shu yerda o‘zaro tutashadi.

Talabalik davri rivojlanish nuqtai nazaridan o‘tish bosqichi — mustaqil qarorlar soni ortadi, vaqt va resurslarni boshqarish zarurati kuchayadi, ijtimoiy rollar ko‘payadi. Shu bois hayotiy strategiyalarni shakllantirishda “nima qilish”dan ko‘ra “qanday qilish” masalasi ustuvor tus oladi: maqsadni tanlashda qanday mezon ishlatiladi, risk va noaniqlik qanday baholanadi, muvaffaqiyatsizlik qanday talqin etiladi, motivatsiya qanday qo‘llab-quvvatlanadi? Bu savollarga javob beruvchi psixologik mexanizmlar o‘zaro uzviy bog‘langan:

— Motivatsion qatlam ichki qiziqish, ma’no va qadriyatlar bilan birga, kutish–qiymat muvozanatini belgilaydi;

— Kognitiv–metakognitiv qatlam maqsad qo‘yish, rejalash, monitoring va refleksiyaning ta‘minlaydi;

— Irodaviy–regulyativ qatlam chalg‘ituvchilarni yengish, “niyat → amaliy qadam” o‘tishini (implementation intentions) ishga solish, odatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi;

— Emotsional–ijtimoiy qatlam stressni boshqarish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashdan samarali foydalanish, o‘rnatilgan shaxslar (rol model) va subyektiv normalarni qayta ishlashni o‘z ichiga oladi;

— Narrativ–identitet qatlam esa shaxsning “kimman?” va “nimaga intilaman?” degan savollarga javob izlab, hayotiy yo‘lni ma‘no bilan to‘ldiradi.

O‘zbekiston oliy ta‘limida kompetensiyaga yo‘naltirilgan yondashuv, kredit-modul tizimi, loyiha va startap faoliyati, mehnat bozoriga yaqinlashtirilgan ta‘lim shakllari kuchayib borayotgan bir vaqtda talabalarda hayotiy strategiyalarni ongli shakllantirish dolzarb vazifaga aylandi. Mahalliy kontekstda oilaviy kutishlar, jamiyatdagi tez o‘zgarayotgan ijtimoiy me‘yorlar, raqobat muhiti hamda migratsion oqimlar talabalarning tanlovlariga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Natijada strategiya yaratish faqat “shaxsiy” ish emas, balki shaxs–muhit o‘zaro ta‘sirining mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa nazariy tahlilda ko‘p darajali (individual, mikrosotsial, makrosotsial) yondashuvni talab qiladi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab talabalarda maqsadlar parokanda, vaqtning rejalash odatlari zaif, muvaffaqiyatsizlikni “yakuniy hukm” sifatida talqin qilish holatlari uchraydi. Bunday vaziyatda bilimlarni ko‘paytirishning o‘zi yetarli emas; maqsadga muvofiq psixologik mexanizmlarni ishga solish — motivatsiyaning kuchaytirish, o‘zini samarali boshqarish, tanlovlarni ongli tahlil qilish, stressga chidamlilik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatdan foydalana olish — hayotiy strategiyani barqaror qiladi. Demak, muammo faqat “nima o‘qitish”da emas, balki “qanday psixologik yo‘l bilan strategik fikrlashni shakllantirish”da.

Tadqiqotning maqsadi — talabalarda hayotiy strategiyalarni shakllantirish jarayonini tushuntiruvchi nazariy modelni ishlab chiqish va undagi psixologik mexanizmlarning o‘rnini tizimli ravishda asoslashdir. Buning uchun, birinchidan, “hayotiy strategiya” va “psixologik mexanizm” tushunchalarining operatsional ta‘riflari beriladi; ikkinchidan, motivatsion, kognitiv, irodaviy, emotsional va ijtimoiy mexanizmlar o‘zaro aloqada ko‘rib chiqiladi; uchinchidan, shaxsiy (self-efficacy, maqsad yo‘nalishi, refleksiya), jarayonli (rejalash, monitoring, implementatsion niyatlar) va kontekstual (subyektiv norma, ijtimoiy kapital, qo‘llab-quvvat) darajalar bo‘yicha komponentlar xaritasi taqdim etiladi. Shuningdek, strategiyalarni vaqt ufqi (qisqa/uzoq), yo‘nalishi (reaktiv/proaktiv), resursga munosabati (resurs quruvchi/resurs iste‘mol qiluvchi) va moslashuv darajasi (barqaror/moslashuvchan) bo‘yicha tasniflash taklif etiladi.

Nazariy ahamiyati shundaki, maqola hayotiy strategiyani alohida epizodik qarorlar jamlanmasi emas, balki ko‘p komponentli psixologik tizim sifatida konseptuallashtiradi. Amaliy ahamiyati esa talabalarga mo‘ljallangan psixosotsial dasturlar, karera maslahati, murabbiylik (mentoring) va “talaba muvaffaqiyati” markazlari uchun diagnostika hamda

intervensiya yo‘nalishlarini aniqlab beradi: motivatsiyani ichkilashtirish protokollari, maqsad–reja–monitoring tsikllari, stressni boshqarish va reziliyentlik treninglari, ijtimoiy qo‘llab-quvvat tarmoqlarini faollashtirish, vaqt boshqaruvi va odat muhandisligi kabi amaliy bloklar nazariy model bilan uyg‘unlashtiriladi. Talaba shaxsining kompleks rivojlanishi hayotiy strategiyalarni shakllantirish bilan uzviy bog‘liqdir. Bu jarayonni muvaffaqiyatli tashkil etish, bir tomondan, shaxsning ichki psixologik resurslarini uyg‘otish va muvofiqlashtirishni, ikkinchi tomondan, ijtimoiy muhit signallarini konstruktiv talqin qilish va ulardan foydali foydalanishni talab etadi. Quyida taqdim etiladigan nazariy asoslar aynan shu ikki yo‘nalish “ko‘prigi”ni yaratishga qaratilgan bo‘lib, keyingi bo‘limlarda komponentlararo aloqalar, mexanizmlarning ishga tushish shartlari va ularni baholash indikatorlari batafsil yoritiladi.

Adabiyotlar tahlili:

Talabalarda hayotiy strategiyalarni shakllantirish va bu jarayonda psixologik mexanizmlarning o‘rni masalasi ilmiy adabiyotlarda turli yondashuvlar asosida tadqiq etilgan. Mazkur bo‘limda milliy va xorijiy adabiyotlar tahlili asosida mavjud ilmiy qarashlar umumlashtiriladi.

Hayotiy strategiya tushunchasi psixologiyada XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab keng muhokama qilina boshlagan. Masalan, E. Shpranger va K. Levin asarlarida shaxsning maqsadga yo‘naltirilgan faoliyati, tanlov va qadriyatlar tizimi asosiy o‘ringa qo‘yiladi [1; 240]. R. Merton va A. Adler esa hayotiy strategiyani ijtimoiy omillar bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rib, uni shaxsning jamiyatdagi o‘rnini belgilash mexanizmi sifatida ta’riflaydi [2; 249]. Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda strategiya tushunchasi noaniqlik sharoitida shaxsning xavf va imkoniyatlarni baholash hamda moslashuvchan qaror qabul qilish ko‘nikmalari bilan bog‘liq ravishda talqin qilinadi.

K. Levinning “maydon nazariyasi”da shaxsiy qarorlar tashqi kuchlar maydonida shakllanishi qayd etilsa, J. Kuhlning irodaviy nazariyalarida qarorni amalga oshirish jarayonida volitiv mexanizmlar asosiy o‘rin tutishi ta’kidlanadi. Irodaviy sifatlar – qat’iyat, o‘zini tuta bilish, sabr-toqat – strategiyaning davomiyligini ta’minlaydi [3; 412].

Shaxsning hayotiy strategiyasida ijtimoiy muhitning ta’siri alohida ahamiyatga ega. A. Tajfel va J. Turnerlarning ijtimoiy identitet nazariyasi talabaning guruhga mansubligi, jamiyatdagi roli strategik qarorlarni belgilashini ko‘rsatadi [4; 368].

O‘zbekistonlik olimlar S. Karimova [6; 215], M. Qodirova [7; 198], A. To‘laganov [8] va boshqalar ta’lim jarayonida talabalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularning kasbiy kompetentligini shakllantirishda psixologik mexanizmlarning o‘rniga e’tibor qaratgan. Mahalliy tadqiqotlarda ayniqsa qadriyatlar tizimi, milliy an’ana va ijtimoiy muhitning talabalar tanlovlari va strategiyalariga ta’siri keng tahlil etiladi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, hayotiy strategiya nazariyasi ko‘p qirrali yondashuvlarga tayanadi: motivatsion, kognitiv, irodaviy, emotsional va ijtimoiy omillar birgalikda uning barqarorligini belgilaydi. Xorijiy adabiyotlar ko‘proq shaxsning individual psixologik jarayonlariga urg‘u bersa, mahalliy tadqiqotlarda ijtimoiy-madaniy omillarning

ta'siri keng o'rganilgan. Shu bois, talabalar hayotiy strategiyasini shakllantirishda integrativ yondashuv, ya'ni psixologik va sotsiokultural mexanizmlarni uyg'un holda tahlil qilish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Muhokama:

Mazkur ishda talabalarda hayotiy strategiyalarni shakllantirish jarayonini psixologik mexanizmlar prizmasidan ko'rib chiqish bizni ikki muhim xulosaga olib keladi: birinchisi, strategiya — yakka ko'nikma emas, balki o'zaro chambarchas bog'langan mexanizmlar tizimi; ikkinchisi, bu tizimning “ishga tushishi” shaxsiy resurslar va ijtimoiy kontekst o'rtasidagi muvofiqlashuv darajasiga bevosita bog'liq. Demak, samarali strategiya individual motivatsiya va irodaviy sifatlar bilangina cheklanmaydi; u talabaning metakognitiv kuzatuvi, emotsional o'zini boshqarishi, ijtimoiy kapitalidan foydalanish uslublari, hamda identitetga doir izchil narrativini ham talab qiladi.

Avvalo, motivatsion qatlamni muhokama qilamiz. Talabalarning strategik yo'nalishi ko'pincha “nima istayman?” savoliga berilgan javoblar atrofida shakllanadi, lekin barqarorlik “nega istayman?” degan chuqurroq savolga tayanch topmaguncha yuzaga kelmaydi. Ichki motivatsiya — ma'no va qiziqish bilan bog'liq energiya manbai — qisqa muddatli tashqi rag'batlar ta'siriga nisbatan kamroq o'zgaradi va noaniqlikda ham qarorlarni qo'llab-quvvatlaydi. Shunday bo'lsa-da, faqat “yoqadigan ishni qilish” ham yetarli emas: strategik qarorlar qiymat-kutilma muvozanatini hisoblashni, ya'ni maqsadlarning subyektiv qadrini va ularga erishish ehtimolini realistik baholashni talab qiladi. Bu nuqtada ichki motivatsiyani tashqi imkoniyatlar va cheklovlar bilan “til topishtirish” — aniq kompetensiyalar, mehnat bozori signallari, oilaviy kutishlar — strategiya sifatini belgilaydi.

Kognitiv va metakognitiv qatlam strategiyaning “vizualizator”i va “monitor”i sifatida ishlaydi. Maqsadni aniqlash, uni kichik vazifalarga ajratish, vaqt resursini taqsimlash, risk va noaniqlikni ssenariylar orqali baholash — bular strategiya “skeleti”. Biroq strategiya qog'ozda yaxshi ko'rinsa ham, amalda “surilish”lar yuz beradi: chalg'ishlar, ortiqcha yuklama, kechiktirish, ishonchsizlik. Shuning uchun metakognitiv komponent — o'z fikrlashini kuzatish, “qayerda adashyapman?” degan savolni o'z vaqtida qo'yish, yo'l-yo'riqlarni qayta sozlash — hal qiluvchi ahamiyatga ega. Metakognitiv monitoring kuchli bo'lsa, talaba strategiyani “yopiq tsikl”da yuritadi: maqsad → reja → amalga oshirish → natijani baholash → moslashuv. Bunda ketma-ketlikdan ko'ra, siklning ritmi muhim: juda tez tahlil — haddan tashqari o'ylash va to'xtab qolish, juda sekin tahlil — xatoni kech anglashga olib keladi.

Irodaviy-regulyativ mexanizmlar strategiyani “harakatga aylantiruvchi” kuchdir. Bu yerda ikkita texnologiya ayniqsa samarali: implementatsion niyatlar va odat muhandisligi (mayda, takrorlanuvchi xatti-harakatlar orqali katta burilishlarga zamin yaratish). Talabalikning tabiiy muammosi — ko'p vektorlilik: darslar, loyihalar, ish, oilaviy vazifalar, ijtimoiy tarmoq. Irodaviy boshqaruv aynan bu “ko'p yo'nalishli olam”da ustuvorliklarni almashish xarajatini kamaytiradi, chalg'ituvchi omillarni filtrlashga yordam beradi, resurslar (e'tibor, vaqt, energiya)ni strategik maqsadga yo'naltiradi. Muhimi, irodani “qattiq” bosim sifatida emas, balki

muhitni moslashtirish san‘ati sifatida ko‘rish: ish joyini optimallashtirish, vaqt bloklari, “diqqat belgi”lari, kichik-mukofotlar.

Emotsional-ijtimoiy qatlam strategiyaning barqarorligiga “amortizator” vazifasini bajaradi. Stress, noaniqlik, muvaffaqiyatsizlik — strategiya yo‘lida muqarrar. Emotsional regulatsiya (tanaffus, qayta talqin, nafasing izchil boshqaruvi, diqqatni qayta yo‘naltirish) talabaniq “ichki iqlimi”ni barqaror ushlab turadi. Shu bilan birga, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tarmoqlari — tengdoshlar guruhlar, mentorlar, o‘qituvchilar bilan konstruktiv aloqa — nafaqat axborot va motivatsiya manbai, balki identitetni mustahkamlovchi ko‘zgudir. O‘z navbatida, ijtimoiy ta‘sirning nozik xatari ham bor: boshqalar kutilmalari shaxsiy maqsadlar o‘rnini egallab olishi mumkin. Demak, muhokama nuqtai nazaridan eng to‘g‘ri yechim — qo‘llab-quvvatlashni ichki ma‘no bilan uyg‘unlashtirish: “Men jamoa bilan manoni bo‘lishaman, lekin yo‘limni o‘zim tanlayman”.

Narrativ-o‘zlik qatlam strategiyaning ma‘naviy “ramkasi”ni beradi. “Men kimman?” va “Qaysi hikoyaning qahramoniman?” savollariga berilgan javoblar talabaniq uzoq ufqdagi intilishlarini yagona syujetga bog‘laydi. Bir qarashda bu nisbatan mavhum ko‘rinsa-da, amaliy foydasi aniq: kechiktirilgan mukofotga chidash, vaqt ufqini kengaytirish, “yo‘l uzoq, lekin mazmunli” degan ichki hissiy ishonchni yaratadi. Ayniqsa, kasbiy yo‘nalishni tez-tez almashtirishga majbur qiluvchi mehnat bozori sharoitida identitetga tayanish strategik qat‘iyatni oshiradi.

Mahalliy kontekstga kelsak, O‘zbekistonda oilaviy kutishlar, mahalla munosabatlari, stipendiya va ish bilan bandlik realiyalari, migratsion oqimlar talabalarning tanlovlariga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Muhokama shuni ko‘rsatadiki, “yaxshi strategiya” — bu shaxsiy maqsadlarni ijtimoiy realiyalar bilan mohirona kelishtirish san‘ati: oilaviy qadriyatlar va shaxsiy intilishlar to‘qnash kelganda, muzokara ko‘nikmalari, “muqobil yo‘llar”ni ko‘ra olish, bosqichma-bosqich rejalashtirish (“kichik g‘alabalar” yo‘li) konflikt o‘rniga sinergiya beradi. Talaba uchun bu ko‘pincha “ikki bozor” balansidir: bilim-kompetensiya bozori va ijtimoiy ishonch bozori. Ikkalasi uyg‘unlashsa, strategiya tezroq “tutadi”.

Strategik sifatga putur yetkazuvchi uchta odatiy uzilish alohida muhokamaga arziydi. Birinchisi, strategik drift — maqsadlarning sekin-asta ma‘nosini yo‘qotishi; buning davo yo‘li sifatida davriy refleksiya va “ma‘no auditori” taklif etiladi. Ikkinchisi, prokrastinatsiya — optimal boshlanish nuqtasini tanlay olmaslik; buni mayda ishlar ketma-ketligi va implementatsion niyatlar bilan yengish mumkin. Uchinchisi, kognitiv toliqish — haddan ziyod rejalash va qaror charchoqlari; bunda “yaxshi yetarli” (satisficing) strategiyasini qo‘llash, avtomatlashtirilgan odatlar ulushi ni oshirish foydali.

Nazariy modeldan amaliyotga o‘tishda, integratsiyalashgan dasturiy yondashuv maqsadga muvofiq ko‘rinadi. Muhokama natijasida quyidagi to‘rt modulli arxitektura taklif etiladi:

1) Ma‘no va yo‘nalish — qadriyatlarni aniqlash, kasbiy va hayotiy vizyonni yozma/narrativ mashqlar orqali kristallashtirish;

2) Maqsad–reja–monitoring — SMART+ (vaqt ufqi va resurslar bilan boyitilgan) maqsadlar, haftalik rejalash, natijalarni vizual panelda kuzatish;

3) Irodaviy va odat muhandisligi — “Agar... unda...” formulalari, diqqat gigiyenasi, vaqt bloklari va mikro-mukofotlar;

4) Emotsional-iqtidor va tarmoq — stressni boshqarish, reziliyentlik mashqlari, mentorlik va tengdosh murabbiyligi, ijtimoiy kapitalni faollashtirish.

Har modul kichik, tez sinovdan o‘tadigan intervensiyalar ketma-ketligini o‘z ichiga olishi, natijalar esa oddiy indikatorlar bilan baholanishi lozim: strategik aniqlik indeksi, reja-amal mutanosibligi, kechiktirish chastotasi, stress o‘z-o‘zini baholash ko‘rsatkichlari, tarmoq ulanishlari sifati. Shu bilan birga, muhokamada muhim cheklovlar ham qayd etiladi. Birinchidan, psixologik mexanizmlar kuchli bo‘lsa-da, ular strukturaviy to‘siqlarni (iqtisodiy cheklovlar, institutsional siyosatlar) to‘liq bartaraf eta olmaydi; shuning uchun strategiyani “faqat individ mas’uliyati”ga qisqartirish to‘g‘ri emas. Ikkinchidan, intervensiyalar “bir o‘lcham — hamma uchun” tamoyiliga tayanmasligi kerak: gender, hudud, ijtimoiy-iqtisodiy fon, birinchi avlod talabaligi kabi omillar dizaynda hisobga olinishi lozim. Uchinchidan, qisqa muddatli motivatsion ko‘tarilishlar ko‘pincha tez so‘nadi; shuning uchun dasturlar “tajriba - odat – o‘zlik” yo‘lida barqaror mexanizmlarni qurishga qaratilishi zarur.

Muhokama yakunida shuni ta’kidlash joizki, talaba hayotiy strategiyasining sifati ko‘p komponentli tizimning uyg‘unligiga bog‘liq: ichki ma’no barqaror energiya beradi; metakognitiv nazorat yo‘nalishni tuzatadi; irodaviy-regulyativ odatlar harakatni avtomatlashtiradi; emotsional-ijtimoiy amortizatorlar zarbalarni yumshatadi; narrativ-identitet esa butun jarayonni mazmunli hikoyaga bog‘laydi. Ushbu mexanizmlar o‘rtasida “muvofiqlashtiruvchi mexanizm” sifatida murabbiylik va tengdoshlar hamjamiyati alohida rol o‘ynaydi: ular bilimdan ko‘ra ko‘proq “strategik muhit” yaratadi. Natijada, talabaning strategiyasi tasodifiy epizodlar ketma-ketligidan ko‘ra, ongli ravishda loyihalangan, moslashuvchan va maqsadga yo‘naltirilgan hayotiy yo‘lga aylanadi.

Amaliy implikasiya sifatida oliy ta’lim muassasalari uchun “Strategik rivojlanish laboratoriyalari” formatini taklif etish mumkin: semestr boshida ma’no va maqsadlarni kalibrlash, semestr o‘rtasida monitoring va moslashuv sessiyalari, semestr oxirida refleksiya va narrativni yangilash. Bu yondashuv talabaning mexanizmlar tizimini izchil tayyorlovchi sifatida qo‘llab-quvvatlab, hayotiy strategiyani istisno holatlardan umumiy xulqqa aylantiradi.

Xulosa.

Talabalik davri inson hayotida eng mas’uliyatli bosqichlardan biri bo‘lib, u kelajak kasbiy faoliyat, ijtimoiy mavqe va shaxsiy hayot yo‘lini belgilab beruvchi davr hisoblanadi. Shu bois hayotiy strategiyalarni ongli ravishda shakllantirish masalasi nafaqat psixologiya, balki pedagogika, sotsiologiya va hatto iqtisodiyot uchun ham dolzarbdur. Mazkur maqolada olib borilgan nazariy mulohazalar shuni ko‘rsatadiki, talabaning hayotiy yo‘lini belgilashda psixologik mexanizmlar markaziy o‘rinni egallaydi. Motivatsion kuchlar, kognitiv jarayonlar, irodaviy boshqaruv, emotsional regulyatsiya va ijtimoiy ta’sirlar birgalikda shaxsning strategik

qarorlarini boshqaruvchi yagona tizimni tashkil etadi. Hayotiy strategiyani shakllantirish jarayoni oddiy rejalashdan iborat emas, balki u shaxsning qadriyatlari, maqsadlari va imkoniyatlari uyg‘unlashgan murakkab jarayondir. Muhokama qismida ko‘rsatib o‘tilganidek, talaba o‘zining kuchli va zaif tomonlarini anglab, maqsadlarini real imkoniyatlar bilan muvofiqlashtirgandagina barqaror strategiya yarata oladi. Bunda psixologik mexanizmlarning har biri muhim bo‘g‘in sifatida ishlaydi: motivatsiya maqsad sari intilishni ta‘minlasa, kognitiv va metakognitiv jarayonlar yo‘lni belgilash va tahlil qilish imkonini beradi, irodaviy mexanizmlar esa tanlangan yo‘ldan og‘ishmaslikka yordam beradi. Emotsional barqarorlik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash esa bu jarayonni yanada mustahkamlaydi.

Xulosa o‘rnida ta‘kidlash joizki, talabalarda hayotiy strategiyani shakllantirish shunchaki individuallashtirgan psixologik jarayon emas, balki shaxs–muhit hamkorligining mahsulidir. Talabaning ichki resurslari — bilim, irodaviy sifatlar, qiziqish va qadriyatlar — tashqi omillar — oilaviy kutishlar, ta‘lim tizimi, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy sharoitlar bilan uzviy uyg‘unlashgan holda samarali natija beradi. Demak, bu jarayonni rivojlantirishda oliy ta‘lim muassasalari, o‘qituvchilar, psixologlar va ota-onalar hamkorligi muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shpranger E. Metacognitive processes and learning. - M.: Progress, 2017. - 240 p.
2. Merton R., Adler A. The Social Construction of Reality. – London: Penguin Books, 2011. – 249 p.
3. Kul Yu. Will and self-regulation of behavior. - M.: Progress, 1986. - 412 p.
4. Tajfel G., Turner J. Social identity and intergroup relations. - M.: Aspect Press, 2001. - 368 p.
5. Бек У. Общество риска. На пути к другому модерну. – М.: Прогресс-Традиция, 2000. – 384 с.
6. Karimova S Psixologiya shahs rivozhlanishida izhtimoiyning tasiri. – T.: Fan, 2012. – 215 b.
7. Qodirova M. Yoshlarda motivation va shakhsiy rivozhlanish muammolari. – T.: Bookmany print nash., 2016. – 198 b.
8. Tulaganov A. Yoshlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda psixologiya urni. – T.: Iqtisod-moliya, 2018. – 242 b.



12-14 YOSHLI BOKSCHI QIZLARNI TEXNIK-TAKTIK TAYYORGARLIGINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ishankulov Baxodir Muratovich

*Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash
va malakasini oshirish instituti v/b dotsenti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada yosh bokschi qizlarni texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish vazifalari, o‘quv mashq guruhi sportchi qizlari mashg‘ulotlaridagi texnik janglari va ularni sport musobaqalarida yuqori natija ko‘rsatishiga e‘tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: bokschi qizlar, farmokologiya, innovatsion mashg‘ulot, sport zaxirasi, ko‘p yillik tayyorgarlik, texnik-taktik tayyorgarlik.

Аннотация: В данной статье рассматриваются задачи совершенствования технико-тактической подготовки юных женщин-боксеров, технических поединков тренировочных групп спортсменок и их высоких результатов в спортивных соревнованиях.

Ключевые слова: женщины-боксеры, фармакология, инновационная подготовка, спортивный резерв, многолетняя подготовка, технико-тактическая подготовка.

Abstract: This article focuses on the tasks of improving the technical and tactical training of young female boxers, the technical fights of female athletes in training and their high results in sports competitions.

Keywords: female boxers, pharmacology, innovative training, sports reserve, long-term training, technical and tactical training.

Kirish. Bugungi kunga kelib qizlarimiz va opa-singillarimiz har sohada o‘zlarini namoyon etishga harakat qilishmoqda. Farzandlariga mehribon ona, oilada yaxshi uy bekasi bo‘la olishadi va o‘zlari sevgan kasb bilan shug‘illanishadi. Hatto ular sport musobaqalarida ham ishtirok etib, faxrli natijalarni egallashmoqda. Shuni ham alahida ta’kidlash joizki, xotin-qizlarning muntazam sport bilan shug‘ilanishi doim tetik yurishlarida, sog‘-salomat bo‘lishlarida qolaversa, chiroyli ko‘rinishlarida ham o‘z ahamiyatiga egadir. Hozirgi kunda mamlakatimizda xotin-qizlar sportiga ham katta e‘tibor qaratib kelinmoqda. Bu e‘tibor esa o‘z navbatida natijasini ham ko‘rsatdi. Xususan, sportning Boks turi bilan shug‘ullanib kelayotgan qizlar o‘z g‘alabalari bilan o‘zbek ayollar boksi tarixida yangi sahifa ochishdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Boksni tanlab nafaqat viloyat va mamlakat ichidagi musobaqalarda balki, jahon miqiyosidagi

yirik nufuzli bellashuvlarda ham ishtirok etib yuqori natijalarga erishayotgan qizlarimiz ham ko‘p. [2]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5924-son Farmoni, 2021-yil 29-apreldagi “Boksni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5099-son qarori boks sport turini yanada rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi [1]. Boks sport turi bo‘yicha xotin-qizlar Olimpiya o‘yinlari tarkibiga 2016-yilda kiritilgan.

Sportning ushbu turida sport zahiralarini tayyorlashning yurtimizdagi O‘zbekiston boks terma jamoasida shug‘ulanib kelayotgan yosh bokschi qizlarning hali yetarlicha rivojlangani yo‘qligidan dalolat beradi, shuning uchun yosh bokschi qizlarni tayyorlash masalalariga katta e‘tibor qaratilishi zarur. Sohaning yetakchi olimlari R.D.Xalmuxamedov, S.S.Tajibayev, F.A.Kerimov, F.K.Turdiyev, F.T.Abdullayev, Q.A.Umarov va boshqa ko‘pchilik mutaxassislarning fikriga ko‘ra, barcha jismoniy sifatlar va qobiliyatlarni boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichi yoshidan boshlab rivojlantirishga jiddiy e‘tibor berish lozim deb hisoblashgan. [9]

Materiallar va metodlar. So‘nggi yillarda boks sport turini yanada raqobatdosh, keskin va shiddatli tus olishi, shu sababli yuqori malakali bokschilarning tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablar ham keskin ortib borishiga sabab bo‘lmoqda. Bugungi kunda terma jamoamizni xalqaro musobaqalarga yuqori darajada texnik-taktik tayyorlash uchun oldinga intilishda kuchi, aqliy va jismoniy tezkorligi, mehnatsevarlik jihatlarini oshirib, musobaqa muhitiga tayyorlash murabbiylar qarshisidagi turgan asosiy vazifa hisoblanadi. Sportchi qizlar musobaqaga tayyorgarlik jarayonlarida muntazam ravishda boshqa davlatlar boks maktablari bilan, xususan, Rossiya, Qozog‘iston, Kuba kabi davlatlar bilan o‘quv yig‘in mashg‘ulotlari o‘tkazib, tajriba almashib kelmoqda. Bu esa qizlarimizda yangi ko‘nikma va malakani shakllantiradi. Undan tashqari mashg‘ulotlarni o‘g‘il bolalar bilan birgalikda olib borish qizlarimizning yuqori jismoniy tayyorgarlikda bo‘lishiga yordam beradi. Qizlarimizga kerakli bo‘lgan farmokologiya, vitaminizatsiya vositalari bilan ta‘minlash tizimi to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi ham katta yordam bermoqda. Jamoada murabbiylar bilan birgalikda psixolog va tibbiyot xodimlari ham faoliyat yuritishmoqda. Undan tashqari, mamlakatimizda Boks sport turi bo‘yicha ichki raqobat ham yaxshilanib bormoqda, hozirda terma jamoamizda Osiyo va Jahon chempionatlarida yuqori natijalar qayd etgan yosh qizlarimiz ham mavjud. Ular ham hozirda rasmiy musobaqalarga murabbiylari nazorati ostida tayyorgarlik ko‘ryapti.

Bunda 12-14 yoshli bokschi qizlarni yuqori sport natijalariga erishishga tayyorlash tizimi asosiy o‘rin tutadi. Bu jarayonda murabbiy zamonaviy boks oldinga qo‘yayotgan vazifalarni izchil hal etishi lozim bo‘ladi. Qo‘lga kiritilgan o‘rinlarni saqlab qolish uchun doimiy ravishda innovatsion mashg‘ulot vositalari va uslublarini izlab topish, sport zaxirasini shakllantirishga

muhim jihati bo‘lib u ko‘p yillik tayyorgarlik tizimida sportchilarni bosqichma-bosqich saralashni imkonini beradi.

Sportchilarni ko‘p yillik tayyorgarligi - bu sport mahorati bosqichlari bo‘ylab ko‘tarilish jarayoni sifatida tushuniladi – bu sportda yuqori natijalarga erishishda yagona to‘g‘ri va asosiy yo‘l hisoblanadi.

Bugungi kunda zamonaviy ilmiy-uslubiy adabiyotlarda katta tadqiqot materiallari to‘plangan bo‘lib, ular sportchilar ko‘p yillik tayyorgarlik tizimining asosiy qoidalarini aniqlashtirishga imkon yaratadi. [7]

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ilmiy-uslubiy adabiyotlarning tahlili natijalariga ko‘ra, boks bilan shug‘ullanuvchi ayollarni tayyorlash tizimida quyidagi tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, A.M.Xodorovich ayollarning kardio-respirator tizimining funksional yuklamalarga javob reaksiyasini fiziologik jihatdan o‘rgangan. I.A.Sashenko ayollar boksida sportchilarni tayyorlash jarayonida tiklanish va ishlash qobiliyatini oshirish usullarini tadbqiq etgan. A.A.Maksimova yuqori malakaga ega bo‘lgan ayol bokschilarda yopiq bosh jarohatlarini tiklash bo‘yicha davolash metodikalarini ishlab chiqqan. V.V.Lisitsin esa yuqori darajadagi ayol bokschilarni texnik va taktik jihatdan tayyorlashga e‘tibor qaratgan. T.S.Saxtaganov esa (Qozog‘iston terma jamoasi misolida) yuqori darajadagi ayol bokschilarni maxsus psixologik tayyorlash masalalarini tadqiq etgan.

Ilmiy adabiyotlar tahlili natijasida quyidagi tadqiqotlar amalga oshirilgan. A.R.Radzievskiy hammuallifligida ayollarda sport mashg‘ulotlarini menstrual sikl bosqichlarini hisobga olgan holda boshqarishning fiziologik asoslari o‘rganilgan. L.G.Shaxlina esa ayollar sport mashg‘ulotlarining biologik omillarini tadqiq qilgan. T.S.Soboleva ayollar sportidagi turli muammolarni tahlil qilgan. Yu.T. Poxopenchuk sport mahoratini oshirish va sog‘liqni saqlash maqsadida ayol sportchilarni tayyorlash jarayonini optimallashtirishga qaratilgan tadqiqotlar o‘tkazgan.

Shuningdek, B.I.Butenko, Yu.V.Verxoshanskiy va V.M.Klevenko tomonidan maxsus-harakat sifatlarini rivojlantirish va mashq qilishning turli uslublari o‘rganilgan. I.P.Degtyarev o‘quv-mashg‘ulot jarayonining tuzilmasi va mazmuni, mashg‘ulot yuklamalarining hajmi va yo‘nalishini aniqlagan, sportchilar holatini va musobaqalar tizimini nazorat qilish vositalarini ishlab chiqqan.

Natijalar va muhokama. R.D.Xalmuxamedov yakkakurashchilarning mashg‘ulot yuklamalarini rejalashtirish texnologiyalarini ishlab chiqqan. S.S.Tajibayev o‘smir yakkakurashchilarning kompleks tayyorgarlik jarayonida harakatli o‘yinlardan foydalanish metodikasini ilmiy-pedagogik asosda tadqiq qilgan. V.N.Shin bokschilarni tayyorlashda rejalashtirish texnologiyasiga e‘tibor qaratgan. F.K.Turdiyev boks murabbiylarini individual mashg‘ulotlar davomida maxsus malakalarni shakllantirishga bag‘ishlangan tadqiqotlar o‘tkazgan. Yu.V.Serebryakov esa turli vazn toifasidagi bokschilarning musobaqa oldi tayyorgarlik bosqichidagi mashg‘ulot yuklamalarini optimallashtirish, Umarov Qahhorjon Abbosovich yuqori malakali bokschi qizlarning musobaqaoldi tayyorgarlik bosqichida

mashg‘ulot yuklamalarini optimallashtirish masalasini hamda o‘quv-mashg‘ulot jarayonini samarali tashkil etish va yuqori malakali bokschilarning musobaqalardagi faoliyatining o‘ziga xos jihatlari bilan bog‘liq muammolarni tadqiq etgan. O‘rganilayotgan tadqiqot mavzusi bo‘yicha maxsus adabiyotlar hamda dissertatsiya ishlarini tahlil qilish natijasida biz shu narsani aniqladikki, yosh bokschi qizlar tomonidan mashg‘ulotlarda o‘zlashtirilgan harakatlarni rasmiy musobaqalar sharoitlariga ko‘chirish jarayonini tezlashtirish muammosi ko‘rib chiqilgan maxsus tadqiqotlar yo‘q. Bu jihatlarni tekshirib ko‘rishga bo‘lgan ilmiy ishlar nisbatan kam. В.А.Киселев (1970), Ю.А.Чижов (1970), О.В.Кравченко (1997), В.Шитов (2009) ishlariga murojaat qilish mumkin.

Musobaqa faoliyatini tajriba orqali tekshirishlar asosan katta yoshdagi bokschilarda bajarilgan: С.Н.Белоусов (1976), А.В.Дмитриев, Ш.Н.Закиров (1977), Е.В.Калмыков (1983), О.А.Акопян, А.А.Новиков (1985), Ю.Б.Никифоров (1987), Г.А.Анисимов (1991), А.В.Гасков (1999), Г.В.Кургузов (2003) va boshqalar. Yosh bokschi qizlarning jangovar faoliyati esa diqqat markazidan tashqarida qolib kelgan. Hozirgi vaqtga qadar mashg‘ulot janglari va musobaqalardagi asosiy harakatlarning bazaviy tarkibi hamda ularni tayyorlash va qo‘llashning taktik tarkiblari ko‘rsatkichlari taqqoslab ko‘rilmagan. Yosh bokschi qizlarning mashg‘ulot janglarida hamda musobaqalardagi asosiy harakat turlarining umumiy va individual tarkiblari o‘rtasidagi farqlar tizimlashtirilmagan, shuningdek, bunday harakatlar samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik ko‘rsatmalar ishlab chiqilmagan hamda tajribada asoslab berilmagan.

Tadqiqotning maqsadi: mashg‘ulot janglari va rasmiy musobaqalardagi harakat turlarining qo‘llanilish ko‘rsatkichlari asosida ishlab chiqilgan yosh bokschi qizlarning texnik-taktik qurollanganligini optimallashtirish metodikasini nazariy jihatdan hamda tajribada asoslash.

Ilmiy yangiligi: dissertatsiyada tajriba tadqiqotlari ma’lumotlari asosida shakllantirilgan qonuniyatlar yosh bokschi qizlarning texnik-taktik tayyorgarligida qo‘llaniladigan mashg‘ulot janglarining olib borilishini baholashni ob’ektivlashtiradi.

Bokschi qizlar mashg‘ulot tizimida mashg‘ulotlar va musobaqalar sharoitlarida o‘tkaziladigan olishuvlar davomida harakatlarning qo‘llanilishidagi tipik farqlar aniqlab berildi. 12-14 yoshdagi yosh bokschi qizlarda o‘quv jangovar amaliyoti va rasmiy musobaqalardagi harakatlar tarkibi hamda ularning qo‘llanilish ko‘rsatkichlaridagi individual farqlar aniqlandi. Yosh bokschilarni mashq qildirish uchun mashg‘ulotlarda o‘zlashtirilgan harakatlarni musobaqa sharoitlariga ko‘chirish jarayonini tezlashtirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Xulosa. Maxsus adabiyotlar tahlili va boks nazariyasi hamda metodikasi sohasidagi etakchi mutaxassislar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov natijalari shunday xulosa qilishga imkon beradiki, sport fanida azaldan sport mashg‘uloti nazariyasi bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar birinchi o‘ringa chiqib, ba’zan sportchi musobaqa faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari hisobga olinmagan.

Aniq ko‘rinib turibdiki, sportchini ma’lum bir natijani egallashga tayyorlashdan oldin yakkakurashning kechish sharoitlarini, organizmning alohida vazifalariga qo‘yiladigan talablarni, uning energiya sarflashi va boshqalarni bilish lozim, keyin esa shulardan kelib chiqib, mashg‘ulot jarayonini tuzish zarur.

Musobaqa harakatlari musobaqa faoliyatining birlamchi yaxlit (ajralgan emas) tarkiblaridan iborat. Bu tarkiblar musobaqa faoliyatining umumiy mantig‘iga bo‘ysunadi. Ular o‘zining operatsion tarkibiga ega, ya’ni harakatlarni birlashtiruvchi u yoki bu operatsiyalardan tashkil topadi.

Boksda qizlarning o‘quv janglari samaradorligini oshirish muammosi 12-14 yoshdagi yosh sportchi qizlarda alohida ahamiyat kasb etadi, chunki bu yosh davrida qizlar boks texnika asoslariga o‘rgatish yakunlanib boradi va texnik-taktik tayyorgarlik poydevorining shakllanishi boshlanadi.

Tayyorgarlik jarayonida bokschi qizlarni texnik-taktik tayyorgarligi to‘g‘ri tashkil qilinganda, ya’ni samarali ilmiy-uslubiy va tibbiy ta’minot bo‘lganda, yuqori malakali murabbiylar, zamonaviy moddiy-texnik baza mavjud bo‘lgan taqdirda yuqori natijalarga tayyorgarlik ko‘rish, individual imkoniyatlarni maksimal amalga oshirish va oliy sport mahoratini saqlab qolish imkoni tug‘uladi. Sportchilar yirik xalqaro musobaqalarda, shu qatorda Olimpiya o‘yinlarida yuqori sovrinlar uchun kurashishga, natijalarga erishishga qodir bo‘ladilar.

ADABIYOTLAR

1. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5924-son Farmoni.*

2. Namunaviy dastur “Boks bo‘yicha sport mahoratini oshirish (sport tayyorgarligi)” T-2021

3. Ishongulov, B. M. (2020). FACTORS INFLUENCING EXPLOSIVE POWER IN WRESTLERS. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(4), 439-444.

4. Ishankulov, B. M. (2022). THE ROLE OF FOREIGN EXPERIENCES IN PROMOTING PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 1280-1283.

5. Ishankulov, B. M. (2023). XORIJIY TAJRIBALARNING JISMONIY TARBIYA VA SPORTNI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 15, 316-319.

6. Rajabov, G. U., & Mamatqulov, X. (2023). BOKSCHILARNING MUSOBAQA FAOLIYATI XUSUSIYATLARINI HISOBGA OLGAN XOLDA TEXNIK-TAKTIK HARAKATLARINI TAKOMILLASHTIRISH. *Zamonaviy fanlar bo'yicha akademik tadqiqotlar*, 2 (13), 36-45.

7. Khadiyatullayev, Z. S. (2024). Determining The Physical Fitness And Strike Indicators Of Young Boxer Girls Through A Special Bag. *Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments*, 2(2), 332-348.
8. Хадиятуллаев, З. (2023). Боксчи қизларнинг жисмоний ва техник-тактик тайёргарлигини такомиллаштириш. *Актуальные проблемы спортивной науки*, 1(1), 48-50.
9. A.M.Achilov, R.D.Xalmuxamedov, V.N.Shin, S.S.Tajibayev, G‘.Q.Rajabov *Yosh bokschilarni tayyorlash asoslari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma* - T.: Mumtoz so‘z, 2012. – 250 b.
10. R.D.Xalmuxamedov, V.N.Shin, F.K.Turdiyev, S.S.Tajibayev *Boks nazariyasi va uslubiyati. darslik.* -T.: 2016, - 542 b.
11. Abdullayev F.T. *Yosh bokschilarning musobaqa va mashg‘ulot faoliyati xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning texnik-taktik tayyorgarligi. UMID DEZIGN Monografiya* - T.: 2023. -96 b.
12. Abdullayev F.T. *Yosh bokschilarning musobaqa va mashg‘ulot faoliyati xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning texnik-taktik tayyorgarligi. Dis. p.f.n.*- T.: 2010. -126 b.
13. Turdiyev F.K., Abdullayev F.T., Xadiyatullayev Z.Sh. *Tanlangan sport turi nazariyasi va uslubiyati (BOKS) [Matn]: Darslik// F.K.Turdiyev, F.T.Abdullayev, Z.Sh. Xadiyatullayev – Toshkent: “ZAMON POLIGRAF”, 2023. – 352 bet.*
14. Khadiyatullayev, Z. S. (2021). *TRAINER'S PROFESSIONAL COMPETENCE IN IMPROVING THE TACTICAL TRAINING OF BOXING GIRLS. Current Research Journal of Pedagogics*, 2(09), 142-145.
15. Турдиев, Ф. К., & Хадиятуллаев, З. Ш. (2022). Боксчи Қизларни Индивидуал Машғулот Жараёнида Техник-Тактик Ҳаракатларга Ўргатиш Усуллари. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 13, 69-74.
16. Shukhratillayevych, K. Z. (2024). DETERMINING THE SPECIAL PHYSICAL FITNESS OF YOUNG BOXER GIRLS. *Proximus Journal of Sports Science and Physical Education*, 1(1), 28-35.



TALABA QIZLARDA JISMONIY TARBIYA VA SOG‘LOM TURMUSH TARZIGA QIZIQISHNI OSHIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Esanova Gulchehra Boybo‘ri qizi
Termiz davlat pedagogika institut o‘qituvchisi

Annotatsiya Mazkur maqolada talaba qizlarda jismoniy tarbiya va sog‘lom turmush tarziga qiziqishni oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Unda psixologik, pedagogik hamda ijtimoiy-madaniy omillarning ta’siri ko‘rsatilib, qizlarda estetik ideallarga intilish, pedagogik jarayonda interfaol metodlardan foydalanish va ijtimoiy muhitning qo‘llab-quvvatlashi sportga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirishi ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, sog‘lom turmush tarzining shakllanishi – muntazam jismoniy mashqlar, to‘g‘ri ovqatlanish va zararli odatlardan voz kechish orqali talaba qizlarning salomatligini mustahkamlashga xizmat qilishi ta’kidlangan. Maqola talaba qizlarda sport va sog‘lom turmush madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: talaba qizlar, jismoniy tarbiya, sog‘lom turmush tarzi, motivatsiya, pedagogik texnologiya, psixologik xususiyatlar.

Bugungi globalashuv davrida yoshlarning, ayniqsa talaba qizlarning jismoniy rivojlanishi va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish masalasi dolzarb hisoblanadi. Chunki yoshlar – jamiyat taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi, sog‘lom avlod esa millatning kelajagi kafolatidir.

O‘zbekiston Respublikasida yoshlarning sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ularni sport va jismoniy tarbiyaga keng jalb qilish bo‘yicha davlat siyosati izchil amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “yoshlarni sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash – yangi O‘zbekistonning eng ustuvor vazifalaridan biridir” [1]. Bu jarayonda talaba qizlarning ishtiroki alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ayolning sog‘lomligi kelajak avlod tarbiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, zamonaviy turmush tarzida ko‘plab yoshlar jismoniy faollikni kamaytirib, passiv hayot tarzini olib bormoqda. Bu esa turli xil surunkali kasalliklar, ortiqcha vazn, stress va ijtimoiy moslashuvda qiyinchiliklarga olib kelmoqda [2]. Ayniqsa, talaba qizlarning jismoniy tarbiyaga bo‘lgan qiziqishini oshirish ularning nafaqat salomatligi, balki ma’naviy-psixologik barqarorligi uchun ham muhimdir.

Shu sababli, talaba qizlarda jismoniy tarbiya va sog‘lom turmush tarziga qiziqishni oshirish masalasi bugungi kunda ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb bo‘lib, uning samarali yechimlari kelajak avlod sog‘lig‘i va jamiyat taraqqiyotini ta‘minlashda muhim omil hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya va sog‘lom turmush tarzi talaba yoshlarning hayotida muhim o‘rin tutadi. Talaba qizlarda bu jarayonning samaradorligi nafaqat individual salomatlik, balki jamiyatning sog‘lom rivojlanishini ta‘minlaydi. Shu boisdan talaba qizlarda sportga bo‘lgan qiziqishni oshirish va ularni muntazam jismoniy mashg‘ulotlarga jalb etish zamonaviy pedagogika va psixologiyaning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Asosiy qism

Talaba qizlarda jismoniy tarbiya jarayoniga qiziqishning psixologik, pedagogik, ijtimoiy-madaniy xususiyatlari mavjud. Talaba qizlarda jismoniy tarbiya jarayoniga qiziqishning psixologik jihatlari, asosan, estetik ideallar va tashqi ko‘rinishga bo‘lgan intilish bilan chambarchas bog‘liq. Tadqiqotlarda qizlar sport mashg‘ulotlariga sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, qomatni chiroyli saqlash va ruhiy holatni mustahkamlash omillari orqali qiziqishi aniqlangan [3]. Shu bilan birga, o‘qituvchilarning ijobiy motivatsiyasi, psixologik qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy rag‘bat qizlarning sportga bo‘lgan munosabatida hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Talaba qizlarni jismoniy tarbiyaga jalb etishda pedagogik yondashuv muhim ahamiyatga ega. O‘quv jarayonida interfaol metodlardan foydalanish, sport o‘yinlari, jamoaviy musobaqalar va sog‘lomlashtiruvchi tadbirlarni tashkil etish samaradorlikni oshiradi [4]. Mashg‘ulotlarning shaxsiy qiziqish va qobiliyatlarga moslashtirilishi, individual dasturlar ishlab chiqilishi qizlarning faolligini ta‘minlaydi. Chunki har bir talaba qizning jismoniy tayyorgarlik darajasi, sog‘liq holati, sportga bo‘lgan qiziqishi va moyilligi bir-biridan farq qiladi. Shu sababli, dars mashg‘ulotlarini umumiy dastur asosida emas, balki qizlarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda tashkil etish samarali natija beradi. Masalan, ayrim talaba qizlar aerobika, fitnes yoki raqs mashqlariga qiziqsa, boshqalari yengil atletika, voleybol yoki suzishga ko‘proq moyillik bildirishi mumkin. Pedagog tomonidan ularning shaxsiy xohishlarini hisobga olib, maxsus guruhlar shakllantirilsa, bu jarayon nafaqat ularning sportdagi muvaffaqiyatini, balki jismoniy tarbiyaga bo‘lgan ijobiy munosabatini ham oshiradi. Shuningdek, individual dasturlar sog‘liq imkoniyatlari cheklangan yoki jismoniy rivojlanishi pastroq bo‘lgan talaba qizlarga ham moslashtirilgan yuklama berish imkonini yaratadi. Bu ularning o‘zini jamoadan ajralgan his qilmasligiga, balki asta-sekinlik bilan jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishiga yordam beradi.

Natijada, individual yondashuv:

- ✓ qizlarning sport mashg‘ulotlariga muntazam qatnashishini ta‘minlaydi;
- ✓ ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi;
- ✓ sog‘liq va jismoniy rivojlanishni muvozanatda ushlab turadi;
- ✓ sportni hayotiy ehtiyoj sifatida qabul qilishiga xizmat qiladi.

Shuningdek talaba qizlarda sog‘lom turmush tarziga qiziqishni shakllantirishda oilaviy muhit, do‘stlar davrasi va universitet infratuzilmasi muhim o‘rin tutadi. Chunki qizlarning sportga bo‘lgan munosabati ko‘pincha ularni o‘rab turgan ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Masalan, oilada ota-onaning sog‘lom turmush tarziga rioya qilishi, sport bilan shug‘ullanishi yoki qizlarni rag‘batlantirishi ularda sportga ijobiy qarashni kuchaytiradi. Aksincha, oilada bunday qo‘llab-quvvatlash bo‘lmasa, qizlar o‘z tashabbusi bilan sport bilan muntazam shug‘ullanishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Sport bilan shug‘ullanuvchi do‘stlar bilan muloqot qilayotgan talaba qiz ko‘proq sport tadbirlariga jalb etiladi, o‘zini faol muhitning bir qismi sifatida his qiladi. Bu esa sportni nafaqat jismoniy faollik manbai, balki ijtimoiy aloqalarni mustahkamlovchi jarayon sifatida ham qabul qilishga yordam beradi.

Talaba qizlarda sog‘lom turmush tarziga qiziqishni shakllantirishda universitet infratuzilmasi – sport zallari, stadionlar, suzish havzalari, fitnes klublarining mavjudligi va ularning talabalarga qulay sharoitlarda taqdim etilishi qizlarning jismoniy tarbiyaga bo‘lgan qiziqishini sezilarli darajada oshiradi. Agar universitetda muntazam sport tadbirlari, festivallar va musobaqalar o‘tkazib turilsa, bu ham ijtimoiy motivatsiya, ham shaxsiy qiziqish manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Talaba qizlarda sog‘lom turmush tarziga qiziqishni shakllantirishda o‘zbek xalqining milliy qadriyatlari, go‘zallikka intilish, odob-axloq normalari ham sport mashg‘ulotlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [5]. O‘zbek oilalarida qizlarning sog‘lom, ozoda va chiroyli bo‘lib voyaga yetishi qadimdan katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Shu sababli jismoniy tarbiya ularning nafaqat sog‘lig‘i, balki tashqi ko‘rinishi, odob-axloq va ma’naviy barkamolligini ham yuksaltirish vositasi sifatida qaraladi. Milliy qadriyatlarga asoslangan yondashuv sport mashg‘ulotlarini yanada jozibali qiladi, chunki u qizlarda sog‘lom turmush tarzini o‘z shaxsiy qadriyatlari bilan uyg‘unlashtiradi.

Natijada, **oilaviy qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy muhit va milliy qadriyatlarning uyg‘unligi** talaba qizlarda sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirib, sportni ularning hayotida muhim qadriyatga aylantiradi.

Universitetlarda sport seksiyalari, fitnes klublar va turli sport festivallari orqali ijtimoiy muhitni rivojlantirish bu borada samarali usul bo‘lib xizmat qiladi.

Talaba qizlarda sog‘lom turmush odatlarini shakllantirish – muntazam jismoniy mashqlar, to‘g‘ri ovqatlanish, zararli odatlardan voz kechish va dam olish madaniyatini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Tadqiqotlarda muntazam sport bilan shug‘ullanuvchi talaba qizlarning intellektual faolligi va o‘qish samaradorligi yuqoriligi isbotlangan [6].

Xulosa.

Talaba qizlarda jismoniy tarbiya va sog‘lom turmush tarziga qiziqishni oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari psixologik, pedagogik va ijtimoiy-madaniy omillar bilan uzviy bog‘liqdir. Qizlarda estetik go‘zallikka intilish, pedagogik yondashuvning interfaolligi, oilaviy va ijtimoiy muhitning qo‘llab-quvvatlashi sportga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi. Sog‘lom turmush

tarziga amal qilish esa nafaqat talaba qizlarning salomatligini mustahkamlaydi, balki jamiyatda sog‘lom avlod tarbiyasini yo‘lga qo‘yishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. Abdurahmonova D. Talabalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish metodlari. – Toshkent: Innovatsiya, 2022.
3. Karimova R. Talabalarda jismoniy tarbiya motivatsiyasini rivojlantirish psixologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
4. Xolmatov A. Jismoniy tarbiya pedagogikasi. – Toshkent: Tafakkur, 2019.
5. Jo‘rayev B. O‘zbek milliy qadriyatlari va sport. – Samarqand: Zarafshon, 2018.
6. Sharipova N. Talaba yoshlarning sog‘lom turmush tarzi: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021.



SPORTCHINING SATURATSIYA DARAJASINI BAHOLASH ALGORITMINI LOYIHALASH VA ISHLAB CHIQISH

*Abdullayeva Nazokat Isayevna¹,
Saydullayev Zafar Erkinovich²*

¹*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Samarqand filiali, Kompyuter tizimlari kafedrasi mudiri PhD,
nazokatabdullayeva799@gmail.com*

²*Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini
oshirish institute Samarqand filiali*

Annotatsiya. Ushbu maqolada sportchilarning saturatsiya (qonning kislorod bilan to'yinganlik) darajasini IoT qurilmalari yordamida real vaqt rejimida baholash algoritmi ishlab chiqish masalasi ko'rib chiqiladi. Zamonaviy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida sportchilarning salomatligi muhim omil hisoblanadi. IoT texnologiyalaridan foydalangan holda saturatsiya monitoringini avtomatlashtirish orqali ish samaradorligini oshirish va sog'liq bilan bog'liq xavflarni oldindan aniqlash mumkin. Maqolada qurilmalar tanlovi, ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish usullari va ogohlantirish tizimi haqida batafsil ma'lumot berilgan. Shuningdek, sun'iy intellekt asosida prognoz qilish algoritmlari joriy etish imkoniyatlari ham tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari IoT asosida sportchilar salomatligini monitoring qilish tizimlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishning dolzarbligini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: IoT, saturatsiya monitoringi, sportchi salomatligi, pulsoksimetr, sun'iy intellekt, real vaqt rejimi, sog'liqni saqlash, ma'lumotlarni tahlil qilish, AI, tibbiy texnologiyalar.

Abstract. This article considers the development of an algorithm for assessing the level of saturation (oxygen saturation of blood) of athletes in real time using IoT devices. The health of athletes is an important factor in modern production and service industries. By automating saturation monitoring using IoT technologies, it is possible to increase work efficiency and identify health risks in advance. The article provides detailed information on the selection of devices, data collection, analysis methods, and warning system. The possibilities of implementing forecasting algorithms based on artificial intelligence are also analyzed. The research results confirm the relevance of developing and implementing IoT-based athlete health monitoring systems.

Keywords: IoT, saturation monitoring, athlete health, pulse oximeter, artificial intelligence, real-time mode, healthcare, data analysis, AI, medical technologies.

Аннотация. В данной статье рассматривается разработка алгоритма оценки уровня сатурации (насыщения крови кислородом) спортсменов в режиме реального времени с использованием устройств Интернета вещей. Здоровье спортсменов является важным фактором в современном производстве и сфере услуг. Автоматизация мониторинга сатурации с использованием технологий Интернета вещей позволяет повысить эффективность работы и заблаговременно выявлять риски для здоровья. В статье представлена подробная информация о выборе устройств, методах сбора и анализа данных, а также системе оповещения. Также анализируются возможности реализации алгоритмов прогнозирования на основе искусственного интеллекта. Результаты исследования подтверждают актуальность разработки и внедрения систем мониторинга здоровья спортсменов на основе Интернета вещей.

Ключевые слова: Интернет вещей, мониторинг сатурации, здоровье спортсменов, пульсоксиметр, искусственный интеллект, режим реального времени, здравоохранение, анализ данных, ИИ, медицинские технологии.

Kirish

Raqamli texnologiyalar rivojlanishi inson salomatligini monitoring qilish tizimlarini yanada samarali va real vaqt rejimida ishlaydigan holga keltirishga imkon beradi. Sportchilarning ish faoliyati davomida organizm holatini nazorat qilish, ayniqsa saturatsiya darajasini (qonning kislorod bilan to‘yinganlik darajasi) aniqlash, mehnat samaradorligini oshirish va sog‘liq bilan bog‘liq xavflarni oldindan aniqlash uchun muhim hisoblanadi. Ushbu maqolada IoT qurilmalari yordamida sportchilarning saturatsiya darajasini baholash algoritmi loyihalash va ishlab chiqish bosqichlari ko‘rib chiqiladi.

Sog‘liq monitoringi tizimlarida kislorod bilan to‘yinganlik (saturatsiya) darajasini baholash sportchilar salomatligini kuzatish va nazorat qilishda asosiy o‘rin tutadi. To‘yinganlik darajasini real vaqt rejimida aniq baholash uchun maxsus algoritmlar ishlab chiqish zarur. Bunday algoritmlar ma’lumotlarning tezkorligi va izchilligini ta’minlaydi, shu bilan birga noxush holatlarning oldini olish uchun sportchilarning sog‘lig‘i haqida ogohlantirishlar chiqaradi. Ushbu bo‘limda to‘yinganlikni baholash algoritmini ishlab chiqish jarayonida qo‘llaniladigan qadamlar, metodologiyalar, va signalni qayta ishlash usullari bosqichma-bosqich tahlil qilinadi. Algoritmni ishlab chiqishda qo‘llaniladigan har bir bosqichning o‘ziga xos vazifalari bor, va ularning har biri signalning aniqligi, izchilligi va o‘lchov natijalarining ishonchliligini ta’minlashga qaratilgan. Shu bilan birga, ushbu metodologiya sog‘liq monitoring tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida sportchilarning jismoniy va ruhiy holati muhim ahamiyatga ega. Uzoq muddatli stress, jismoniy charchoq va kislorod tanqisligi samaradorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi. IoT qurilmalarining salomatlik monitoringida qo‘llanilishi quyidagi afzalliklarni ta’minlaydi:

- Real vaqt rejimida monitoring – sportchining saturatsiya ko‘rsatkichlari avtomatik tarzda kuzatilib, ma’lumotlar markaziy serverga yuboriladi.
- Tezkor tahlil va xavflarni oldindan aniqlash – IoT qurilmalari orqali yig‘ilgan ma’lumotlar tahlil qilinib, sportchining sog‘lig‘ida xavfli holatlar yuzaga kelishidan oldin ogohlantirish beriladi.
- Statistik ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish – vaqt o‘tishi bilan sportchilarning saturatsiya darajasini o‘zgarish dinamikasini tahlil qilish imkoniyati yaratiladi.

Quyidagi 1-rasmda keltirilgan PlantUML diagrammasi IoT sensorlaridan foydalangan holda sportchilarning sog‘liq holatini markaziy tizim orqali real vaqt rejimida kuzatish jarayonini ifodalaydi. Keling, diagrammadagi har bir elementni tushuntirib o‘tamiz:

Sportchi (Employee) – Diagrammadagi "Sportchi" aktyor sifatida ifodalangan. Bu kuzatish jarayonida sog‘liq holati o‘lchanayotgan odamni anglatadi.

IoT Sensor – IoT texnologiyasiga asoslangan sensor sportchining sog‘liq ma’lumotlarini yig‘uvchi qurilma sifatida tasvirlangan. U sportchining yurak urishi, tana harorati kabi sog‘liq holatiga oid muhim ma’lumotlarni to‘playdi.

Ma’lumotni qayta ishlash – bu bosqichda sensor tomonidan yuborilgan ma’lumotlar markaziy tizim uchun tayyorlanadi. Bu qism sensor ma’lumotlarini tahlil qilish yoki filtrlaydi va ularni markaziy tizimga uzatadi.


Markaziy monitoring tizimi – bu tizim sog‘liq ma’lumotlarini saqlash, tahlil qilish va kuzatish uchun markaziy tizimdir. Unda quyidagi jarayonlar amalga oshiriladi:

- Markaziy tizim kelayotgan ma’lumotlarni saqlaydi va ularga tahlil o‘tkazadi;
- Tizim sog‘liq ma’lumotlarini real vaqt rejimida vizual tarzda ko‘rsatadi;
- Agar sog‘liq holati normal bo‘lmasa yoki xavfli darajaga yetsa, tizim avtomatik tarzda ogohlantirish yuboradi.

Monitoring tizimi – bu "package" yordamida bir guruh sifatida ajratilgan blokdir. Bu qismda sog‘liq ma’lumotlarini real vaqt rejimida kuzatish, saqlash, tahlil qilish va ogohlantirishlarni jo‘natish jarayonlari birlashtirilgan.

Sportchining sog‘liq holati IoT sensor orqali o‘lchanadi va ma’lumotlar "Ma’lumotni Qayta Ishlash" bo‘limiga yuboriladi.

Qayta ishlangan ma’lumotlar "Markaziy monitoring tizimi"ga yetkaziladi. Markaziy tizim sog‘liq ma’lumotlarini saqlaydi, tahlil qiladi va real vaqt rejimida ko‘rsatadi. Agar sportchining sog‘liq holati xavfli bo‘lsa, tizim avtomatik tarzda ogohlantirish jo‘natadi. Bu diagramma sportchilarning sog‘liq holatini IoT texnologiyalari yordamida kuzatish jarayonini oddiy va tushunarli tarzda ifodalaydi.



1-rasm. IoT sensorlaridan foydalangan holda sportchilarning sog‘liq holatini markaziy tizim orqali real vaqt rejimida kuzatish jarayonini.

To‘yinganlik darajasini baholash algoritmini ishlab chiqish salomatligini samarali monitoring qilish maqsadida to‘yinganlik darajasini baholash algoritmini ishlab chiqish muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. IoT qurilmalari yordamida real vaqt rejimida sportchining saturatsiya darajasini aniqlash va unga mos tahlil qilish tizimini yaratish uchun algoritm aniq va izchil ishlashi kerak. Algoritmning muvaffaqiyatli ishlashi quyidagi omillarga bog‘liq:

- Real vaqt rejimida ma’lumotlarni to‘g‘ri va aniq qayd etish;
- Tashqi muhit omillarining ta’sirini kamaytirish;
- Noxush holatlarni oldindan aniqlash va ogohlantirish tizimini yaratish.

Ushbu qismda algoritmni ishlab chiqish uchun qo‘llaniladigan asosiy qadamlar va metodologiya bosqichma-bosqich tushuntiriladi. Algoritmning muvaffaqiyatli ishlashi uchun real vaqt rejimida aniqlik va izchillikni ta’minlash, tashqi omillarning ta’sirini kamaytirish, shuningdek, noxush holatlarni aniqlash imkoniyatini beruvchi texnikalar qo‘llaniladi.

1-qadam. Ma’lumotlarni yig‘ish va tayyorlash. Ma’lumotlarni yig‘ish jarayoni to‘yinganlik darajasini aniqlash algoritmining birinchi va eng muhim bosqichidir. IoT sensorlari yordamida yig‘ilgan kislorod bilan to‘yinganlik darajasi ma’lumotlarini olishning aniqligi va izchilligi algoritm samaradorligini belgilaydi.

Ma'lumotlarni to'plashda signalning sezgirligi va ishonchliligini ta'minlash uchun ba'zi dastlabki tayyorgarlik ishlari amalga oshiriladi. Signalning aniqligini oshirish uchun qo'shimcha filtrlash jarayonlari, masalan, Kalman filtrlari qo'llaniladi. Kalman filtri orqali signalning shovqindan ajratilishi va asosiy signalni olish imkoniyati mavjud [3].

2-qadam. Signalni filtrlash va shovqinni kamaytirish. Ma'lumotlarni yig'ish jarayonidan keyin ularning aniqligi va izchilligini saqlash uchun signal filtrlash va shovqinni kamaytirish qadamiga o'tiladi. Bu qadamda olingan signalda texnik omillar yoki tashqi muhit sharoitidan kelib chiqqan shovqinlarni bartaraf etish maqsadida qo'shimcha tozalash ishlari amalga oshiriladi. Signalni filtrlash jarayoni real vaqt monitoringida ma'lumotlarning aniqligini oshirish uchun juda zarur.

Kalman filtridan tashqari, past chastotali filtrlar ham qo'llaniladi. Bu filtrlar, ayniqsa, yurak urish va kislorod bilan to'yinganlik darajasi kabi parametrlarni monitoring qilishda qo'l keladi, chunki ular sensor shovqinlarini kamaytirib, asosiy signalni qayta ishlash imkonini beradi. Shuningdek, bu bosqichda olingan signalning vaqt sinxronizatsiyasi ham amalga oshiriladi.

3-qadam. Algoritmni loyihalash va qayta ishlash bosqichlari. To'yinganlik darajasini baholash algoritmining samaradorligini oshirish uchun uning asosiy funktsiyalarini loyihalash va qayta ishlash qadamiga o'tiladi. Algoritmni loyihalash jarayonida u real vaqt monitoring imkoniyatini ta'minlash uchun optimallashtiriladi va tasniflash metodlari bilan to'ldiriladi.

Algoritmida to'yinganlik darajasini tahlil qilish uchun tasniflash texnikalari, masalan, chegaraviy qiymatlar yoki mashina o'rganish usullari qo'llaniladi. Masalan, chegaraviy qiymatlar yordamida normal va xavfli to'yinganlik darajalari aniqlanadi.

4-qadam. Tasniflash va baholash. Algoritmning yakuniy bosqichi to'yinganlik darajasini baholash va noxush holatlarni aniqlash uchun tasniflashdir. Bu bosqichda olingan signal natijalari belgilangan mezonlar asosida tasniflanadi. Masalan, normal, past va xavfli to'yinganlik darajalari chegaraviy qiymatlar asosida ajratiladi. Bu tasniflash jarayoni real vaqt monitoringida sportchilarning sog'lig'i haqida tezkor axborot olish va zarur chora-tadbirlarni ko'rish imkoniyatini beradi.

R. Gomez tasniflash algoritmlarining ahamiyatini ta'kidlab, "Tasniflash texnikalari yordamida monitoring jarayonining tezkorligi va aniq natijalarga erishish imkoniyati oshiriladi" deya qayd etadi [5].

To'yinganlik darajasini baholash algoritmini ishlab chiqish jarayonida ma'lumotlarni yig'ish, signal filtrlash, algoritmni loyihalash va tasniflash kabi qadamlar qo'llaniladi. Bu qadamlar orqali algoritmnining samaradorligi oshirilib, real vaqt monitoring uchun moslashuvchan tizim yaratiladi. Algoritm ma'lumotlarning aniqligini oshirishi, noxush holatlarni erta aniqlashi va sportchilar salomatligini samarali kuzatishi uchun optimallashtiriladi.

To'yinganlik darajasini aniqlash va baholash uchun ma'lum mezonlar va chegaraviy qiymatlar belgilanishi lozim. Bu mezonlar algoritmgaga olingan signalni normal, past va xavfli

darajalarga tasniflash imkonini beradi. Kislorod bilan to‘yinganlik darajasini to‘g‘ri baholash orqali sportchilar sog‘lig‘idagi o‘zgarishlarni erta bosqichda aniqlash va tegishli choralarni ko‘rish mumkin bo‘ladi. Ushbu bo‘limda to‘yinganlik darajasini baholash mezonlari va har bir darajaning tibbiy jihatdan ahamiyati yoritiladi.

Normal to‘yinganlik darajasi sog‘lom sportchilarda kislorod bilan to‘yinganlikning maqbul holatini ifodalaydi. Kislorod darajasi 95-100% oralig‘ida bo‘lsa, bu **normal** hisoblanadi. Tadqiqotchi D. Moore bu darajaning muhimligini ta’kidlaydi: “95% dan yuqori kislorod bilan to‘yinganlik darajasi sog‘lom nafas olish tizimining ko‘rsatkichidir” [8].

Kislorod bilan to‘yinganlik darajasi 90-94% oralig‘ida bo‘lsa, bu **past daraja** hisoblanadi. Bu daraja sportchilarda nafas olish bilan bog‘liq muammolar yoki organizmga kislorod yetishmasligini ko‘rsatishi mumkin. S. Patel o‘z tadqiqotida past to‘yinganlik darajasi haqida shunday yozadi: “90% atrofidagi kislorod darajasi sog‘liq bilan bog‘liq muammolarni erta aniqlashda muhim ko‘rsatkichdir”[9].

Xavfli to‘yinganlik darajasi kislorodning 90%dan past bo‘lishini ifodalaydi. Bu daraja organizmda kislorod yetishmovchiligini ko‘rsatadi va favqulodda tibbiy yordamni talab qilishi mumkin. J. Andrews bu holatni shunday ta’riflaydi: “90%dan past kislorod bilan to‘yinganlik darajasi sog‘liq uchun xavf tug‘diradi va zudlik bilan chora ko‘rishni talab qiladi” [9].

Ushbu mezonlar to‘yinganlik darajasini baholash algoritmda asosiy ko‘rsatkichlar sifatida qo‘llanilib, algoritm sportchilar sog‘lig‘ini aniq va tezkor monitoring qilish imkonini beradi. Mazkur mezonlarga asoslangan algoritm orqali sportchilarning umumiy salomatlik holati haqida real vaqt rejimida ogohlantirish va tavsiyalar berilishi mumkin bo‘ladi. IoT texnologiyalari asosida sportchilarning saturatsiya darajasini monitoring qilish tizimini ishlab chiqish va joriy etish korxonalar va tashkilotlar uchun katta ahamiyatga ega. Ushbu tizim real vaqt rejimida salomatlik holatini kuzatish, xavflarni oldindan aniqlash hamda mehnat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Keyingi bosqichda sun‘iy intellekt algoritmlarini yanada takomillashtirish va tizimni kengroq sohalarga joriy etish ustida ishlash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Evans MDR, Kelley P. and Kelley J. Identifying the Best Times for Cognitive Functioning Using New Methods: Matching University Times to Undergraduate Chronotypes. 2017. doi: 10.3389/fnhum.2017.00188
2. Wiłkość-Dębczyńska M, Liberacka-Dwojak M. Time of day and chronotype in the assessment of cognitive functions. *Postep Psychiatr Neurol*. 2023 Sep;32(3):162-166. doi: 10.5114/ppn.2023.132032.
3. Wang, B.; Sun, Z.; Jiang, X.; Zeng, J.; Liu, R. Kalman Filter and Its Application in Data Assimilation. *Atmosphere* 2023, 14, 1319. <https://doi.org/10.3390/atmos14081319>

4. Menzies, H. M., & Lane, K. L.. *The Relationship Between Classroom Structures, Routines, and Engagement: A Synthesis of the Literature*. Journal of School Psychology, 69, 2018. 19-34.
5. Gomez, R. (2018). *Portable Health Technologies: Design and Application*. Clinical Medical Journal, 9(1), 45-60.
6. Crowley, S. J., Wolfson, A. R., Tarokh, L., & Carskadon, M. A. *An Update on Adolescent Sleep: New Evidence Informing the Perfect Storm Model*. Current Sleep Medicine Reports, 2018. 4(2), 48-57.
7. Abdullayeva N.I., Optimizing cognitive development through digital technologies: analysis, approaches, and results // CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MATHEMATICAL THEORY AND COMPUTER SCIENCES <https://cajmtcs.centralasianstudies.org/index.php/CAJMTCS> Volume: 05 Issue: 06 | December 2024 ISSN: 2660-5309
8. Abdullayeva N.I. O‘quvchilarning kognitiv funksiyalarini rivojlantirishda xronobiologik jarayonlarning raqamli sensorlardagi ko‘rsatkichlarini tahlil qilish // KASB-HUNAR TA’LIMI Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma’rifiy jurnal 2024-yil, 9-son 17-21 betlar
9. Mamaraufov O.A., Boyxurozova G.A., Ismatov I.I. Talabanning fizologik parametrlarini taqiladigan aqlli-soat orqali hisobga olish tizimi. //Oliy ta'limni raqamlashtirish muhitida innovatsion texnologiyalar: muammo va yechimlar-2024. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Jizzax, 2024. 198-204 betlar.
10. Mamaraufov O.A., Khasanov B.G., Boyxurozova G.A. Machine learning of human physiological data by smartwatches for remote health analysis. Современное состояние и перспективы развития цифровых технологий и искусственного интеллекта: сборник докладов международной научно-технической конференции.— Ташкент: изд-во НИИ РЦТИИ, 2024. — Ч. 1. 430 с. [141-145 betlar]



УДК: 796.83:796.012.1

МАЛАКАЛИ БОКСЧИЛАРДА ТЕХНИК-ТАКТИК САМАРАДОРЛИКНИНГ ДИНАМИКАСИ

Валихан Джумахонович Анашов

*Ўзбекистон давлат жисмоний тарбия ва спорт университети,
Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), профессори*

Аннотация. Ушбу мақолада олимпиада тайёргарлиги тизимида Хасанбой Дўсматовнинг 2022–2024 йиллар давомидаги мусобақаларда амалга оширган техник-тактик ҳаракатлари таҳлил қилинди. “Дартфиш” дастури ёрдамида унинг ҳужум, ҳимоя ва қарши ҳужум кўрсаткичлари статистик жиҳатдан баҳоланди. Жадвалий таҳлил натижалари боксчининг йиллар кесимидаги самарадорлиги, жанг услуби ва индивидуал тактик йўналишларидаги ўзгаришларни очиқ берди.

Калит сўзлар. Бокс, техник-тактик кўрсаткичлар, ҳужум, ҳимоя, Дартфиш дастури.

ДИНАМИКА ТЕХНИКО-ТАКТИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ У КВАЛИФИЦИРОВАННЫХ БОКСЁРОВ

Аннотация. В данной статье проанализированы технико-тактические действия Хасанбоя Дусматова в соревнованиях 2022–2024 годов в системе олимпийской подготовки. С помощью программы «Дартфиш» статистически оценены его показатели атаки, защиты и контратак. Табличный анализ выявил изменения в эффективности, стиле боя и индивидуальных тактических направлениях боксёра по годам.

Ключевые слова. Бокс, технико-тактические показатели, атака, защита, программа Дартфиш.

DYNAMICS OF TECHNICAL AND TACTICAL EFFICIENCY IN SKILLED BOXERS

Annotation. This article analyzes the technical and tactical actions of Hasanboy Dusmatov in competitions during 2022–2024 within the Olympic training system. Using the “Dartfish” program, his attack, defense, and counterattack indicators were statistically evaluated. The tabular analysis revealed year-by-year changes in the boxer’s efficiency, fighting style, and individual tactical directions.

Keywords. boxing, technical-tactical indicators, attack, defense, Dartfish program.

КИРИШ

Боксда мусобақа фаолияти спортчининг олдиндан белгиланган мақсадларга эришиши ёки рақиб устидан устунликни таъминлашга қаратилган рақобат жараёни сифатида қаралади. Жанг таҳлили жараёни эса мураккаб жараён бўлиб, боксчиларнинг қарши курашдаги фаолияти ҳақида тўлиқ маълумотни қисқа вақт ичида олиш қийин. Илм-фанда инсон фаолияти табиат ва жамият ҳодисалари билан узвий боғлиқ ҳолда ўрганилгани каби, спорт соҳасида ҳам бу алоқадорлик ўз ифодасини топади. Хусусан, инсоннинг экстремал ва рақобатли вазиятлардаги фаолияти яққол намоён бўлади.[3; 155-6]

Мусобақа фаолияти кўзгудек боксчининг маҳоратини ҳам, заиф жиҳатларини ҳам очиб кўрсатади, шу орқали замонавий бокснинг бутун моҳиятини акс эттиради. Бироқ жангнинг таҳлили осон эмас: юқори тезликда кечадиган ва турли ҳаракатлардан иборат бўлган жараён туфайли уни тўлиқ қамраб олиш анча мураккаб вазифадир.[4; 3,10- 6]

Малакали спортчилар фаолиятини кузатиш шуни кўрсатадики, замонавий бокс юқори интенсивликда кечадиган карама-қарши курашдир. Бунда ҳар бир зарба, ҳимоя ёки қарши ҳужум элементлари жангнинг якуний натижасига бевосита таъсир қилади. Ҳужум самарадорлиги спортчининг фаоллигини ва ташаббусни қўлга олиш қобилиятини ифодаласа, ҳимоя кўрсаткичлари унинг рақиб ҳужумларини нейтраллаштиришдаги устунликларини намоён этади. Қарши ҳужумлар эса спортчининг тезкорлик, вазиятни баҳолаш ва рақибнинг очик қолдирган бўшлиқларидан фойдаланиш қобилиятини ёритиб беради.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДЛАР

2021 йил 5 ноябрдаги ПҚ-5281 сонли “2024 йил Париж шаҳрида (Франция) бўлиб ўтадиган XXXIII ёзги Олимпия ва XVII Паралимпия ўйинларига ўзбекистон спортчиларини комплекс тайёрлаш тўғрисида”ги Қарорида спортчиларни мусобақаларга тайёргарлиги ва ўқув-машғулот жараёнига илғор инновацион, илмий-методик технологияларни жорий этиш ҳамда спортчиларнинг халқаро спорт мусобақаларда муваффақиятли иштирокини таъминлаш юзасидан тегишли чора-тадбирлар ишлаб чиқиш вазифалари белгилаб берилган[1].

Олимпия тайёргарлик тизимида малакали боксчининг йиллар кесимидаги индивидуал техник-тактик тайргарлигини ва самарадорлигини аниқлаш. Боксчининг индивидуал ҳужум, ҳимоя ва қарши ҳужум кўрсаткичларини таҳлил қилиш, жанг услуби самарадорлигини аниқлаш.

Бундан ташқари мазкур тадқиқот доирасида олимпия ўйинларида иштирок этган 1 нафар боксчининг 2022-2024 йиилардаги халқаро ва асосий мусобақалардаги жанглари махсус видеоанализ усулларида бири бўлган “Дартфиш” дастури ёрдамида чуқур таҳлил қилинди. Ушбу дастур спортчи жангини тўхтовсиз кузатиш, ҳар бир зарба ва ҳимоя ҳаракатини қайд этиш ҳамда улар бўйича статистик маълумотларни аниқ кўрсатиш имконини беради. Шунингдек, “Дартфиш” дастури ёрдамида боксчиларнинг

индивидуал техник-тактик кўрсаткичлари ҳамда уларнинг самарадорлик даражаси илмий асосда ўлчанди.

НАТИЖА ВА МУҲОКАМА

Тадқиқот жараёнида Хасанбой Дўсматовнинг 2022–2024 йиллар давомида ўтказилган халқаро ва миллий даражадаги мусобақалардаги чиқишлари чуқур таҳлил этилди. Таҳлил жараёнида спортчининг турли йилларда қўллаган ҳужум ва ҳимоя усуллари, рақиб зарбаларига қарши самарали ҳаракатлари ҳамда техник-тактик услубининг ривожланиш динамикаси илмий жиҳатдан ўрганилди. Шунингдек, ҳар бир мусобақада намоён этилган индивидуал ёндашувлари орқали у йиллар кесимида қандай ўзгаришларга эришгани ва қайси кўрсаткичларини яхшилагани ёки камайтиргани таҳлил қилиб чиқилди. Қуйида келтирилган 1-жадвалда эса Хасанбой Дўсматовнинг мусобақалардаги асосий техник-тактик кўрсаткичлари йиллар бўйича таққосланган ҳолда акс эттирилган.

1-жадвал

Хасанбой Дўсматовнинг мусобақалардаги техник тактик ҳаракатлари кўрсаткичлари

Йил	Мусобақа	Ҳужум Оддий	Ҳужум Мурак- каб	Ҳужум Серия	Ҳимоя Оддий	Ҳимоя Мурак- каб	Қ.ҳужум Оддий	Қ.ҳужум Мурак- каб
2022	Халқаро мусобақа	16,2 55,5%	6 26,6%	3,2 37,5%	16,4 57,2%	7,1 44,6%	12,3 49,4%	5,2 44,5%
2022	Асосий мусобақа	15,6 51,2%	4,2 23,8%	2,3 34,7%	15,2 53,4%	9,2 48,3%	14,5 51,7%	6,7 45,8%
2023	Халқаро мусобақа	17,4 51,7%	6,7 23,8%	1,6 31,2%	13,3 52,6%	8,2 52,6%	11,2 52,6%	3,2 46,%
2023	Асосий мусобақа	14 51,4%	5,4 27,7%	1,8 33,3%	9,7 47,3%	12 46,2%	7,4 41,2%	4,7 38,2%
2024	Халқаро мусобақа	18,3 54,6%	9,2 27,1%	32,2 12,3%	14 53,2%	10,4 51,2%	6,8 48,3%	4,3 31,2%
2024	Париж Олимпиадаси	20 60%	11 33,2%	3 36,1%	15,3 64,9%	11,6 58,4%	8 58,3%	3,6 44,4%

Изоҳ: суратида – зарбаларнинг умумий сони, маҳражда самарадорлиги. Ҳужум Оддий-яккалик зарба, ҳужум мураккаб-2–3 зарба, ҳужум серия 4-5 зарба, ҳимоя оддий-яккалик ҳимоя, ҳимоя мураккаб-2–3 ҳаракатли ҳимоя, қ.ҳужум оддий-қарши ҳужум яккалик зарба, қ.ҳужум мураккаб-қарши ҳужум 2–3 зарба.

Ўтказилган таҳлил натижалари шуни кўрсатадики, 51 кг вазн тоифасида рингга чиққан боксчи Хасанбой Дўсматов жанг давомида энг кўп оддий ҳужум зарбаларини амалга оширган. Умумий ҳисобда 20 та оддий ҳужум қайд этилиб, уларнинг ўртача самарадорлиги 60 % ни ташкил этади. Бу кўрсаткич айниқса 1-раундда юқори бўлиб 18 та зарба, 61,1 % самарадорлик, Дўсматов жангнинг дастлабки босқичиданоқ ташаббусни

қўлга олганини кўрсатади. 3-раундга келиб ҳам оддий ҳужум зарбалари сони кўпайган бўлсада 22 та, самарадорлик бир оз пасайгани кузатилади.

Мураккаб ҳужум ҳаракатлари 2–3 зарбали комбинатсиялар сон жиҳатдан оддий ҳужумларга қараганда камроқ бўлсада, уларнинг ўртача самарадорлиги 33,2 % ни ташкил қилган. Ушбу кўрсаткич барча раундларда деярли бир хил даражада сақланиб қолган, 1-раундда 10 та зарба, 30 % ва 3-раундда 12 та зарба, 33,3 % юқорироқ натижа қайд этилган. Серияли ҳужумлар эса жанг давомида жуда кам қўлланилган умумий 3 та, бу боксчининг бу жангда кўпроқ якка ва комбинатсион ҳужумларда ўтказганини кўрсатади.

Ҳимоя ҳаракатларида Дўсматов энг юқори натижани оддий ҳимоя воситаларида кўрсатган. Ўртача самарадорлик 64,9 % ни ташкил қилган бўлиб, 1-раундда бу кўрсаткич энг юқори даражага 70,5 % етган. Мураккаб ҳимоя усуллари 2–3 ҳаракат уйғунлиги бироз пастроқ натижа кўрсатиб, умумий самарадорлик 58,4 % ни ташкил қилган. Шунга қарамай, 3-раундда мураккаб ҳимоя кўрсаткичлари юқори 17 та ҳаракат, 52,9 % бўлган. Бу жангнинг 3-раундида рақиби очколар ҳисобида ютказаётганлигини билиб мураккаб ҳужумларни бошқа раундларга қараганда кўпроқ амалга оширганлигини кўрсатади.

Қарши ҳужумларда оддий қарши зарбалар самарадорлиги юқори бўлиб, ўртача 54,0 % ни ташкил қилган. Энг самарали кўрсаткич 2-раундда 8 та зарба, 58,3 % қайд этилган. Мураккаб қарши ҳужумларда эса умумий самарадорлик 44,4 % бўлиб, улар сон жиҳатдан кам умумий 3–4 та қўлланган.[5; 184-б]

ХУЛОСА

Таҳлил натижаларидан кўринадики, Хасанбой Дўсматов жанг давомида асосан оддий ҳужум ва оддий ҳимоя ҳаракатларига таяниб, юқори самарадорлик кўрсатган. Айниқса, 1-раунддаёқ юқори фаолият намоён этиб, устунликни қўлга олган, бироқ жангнинг охириги раундига келиб айрим кўрсаткичларда самарадорлик бироз пасайган. Шу билан бирга, Дўсматовнинг тажрибали боксчи сифатида жангни рақибнинг техник-тактик ҳаракатларидан келиб чиқиб тўғри баҳолаши ва ўзининг аниқ зарбалари орқали жангни бошқариб бориши унинг устун жиҳатларидан бири сифатида ажралиб туради.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 5 ноябрдаги ПҚ-5281 сонли “2024 йил Париж шаҳрида (Франция) бўлиб ўтадиган XXXII Олимпия ва ХВИА Паралимпия ўйинларига Ўзбекистон спортчиларини комплекс тайёрлаш тўғрисида тўғрисида”ги Қарори. www.lex.uz

2. Абдуллаев Ф.Т. Ёш боксчиларнинг мусобақа ва машғулот фаолияти хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда уларнинг техник-тактик тайёргарликлари : Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (ПхД) диссертацияси / Ф.Т. Абдуллаев. — Тошкент: Ўзбекистон давлат жисмоний тарбия ва спорт университети, 2023. — 145 б.

3. Гасков А.В., Кузмин В.А. Моделирование тренировочно-соревновательной деятельности в боксе: монография. — Красноярск: СФУ, 2010. — 155 с.

4. Игуменов В.М., Подливаев Б.А., Мамияшвили М.Г. Анализ показателей соревновательной деятельности борцов на Олимпийских играх в Сиднее // Актуальные проблемы спортивных единоборств. — М.: ФОН, 2000. — Вып. 2. — С. 3–10.
5. Левит В.В. Совершенствование тактической подготовки боксеров высокой квалификации / В. В. Левит. — Алматы : КазНАИФК, 2012. — 184 с.



YAKKAKURASH SPORT TURLARIDA GIMNASTIKA VOSITALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI NAZORAT QILISH VA BAHOLASH

Ravshanov Golibjon Xamrakulovich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Taekvondo va sport faoliyati kafedrası

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) v.b.dotsenti

Annotatsiya: Maqolada yakkakurash sport turlarida gimnastika vositalaridan foydalanish samaradorligini nazorat qilish va baholashning ilmiy-metodik asoslari tahlil qilingan. Boks, kurash, dzyudo, sambo, taekvondo kabi yakkakurash turlarida gimnastika elementlarini qo'llashning biomexanik, fiziologik va psixologik jihatlari yoritilgan. Jismoniy tayyorgarlik, texnik mahorat, funksional holat va musobaqa faoliyati samaradorligini baholash metodlari keltirilgan. Turli yosh guruhlari va gender xususiyatlarini hisobga olgan holda differensiallashgan yondashuv tavsiflangan. Videoanaliz, matematik-statistik tahlil, psixomotorik testlash kabi zamonaviy nazorat usullari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari gimnastika vositalarining yakkakurash sportchilari tayyorgarligini 20-50 foiz oshirishini ko'rsatgan. Travmatizm profilaktikasi, reabilitatsiya va individuallashtirish masalalari muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: yakkakurash, gimnastika vositalari, sport tayyorgarligi, nazorat tizimi, baholash metodlari, jismoniy sifatlar, texnik mahorat, funksional holat, biomexanik tahlil, sport pedagogikasi

Аннотация: В статье анализируются научно-методические основы контроля и оценки эффективности использования гимнастических средств в единоборствах. Освещены биомеханические, физиологические и психологические аспекты применения гимнастических элементов в боксе, борьбе, дзюдо, самбо, таэквондо. Представлены методы оценки физической подготовленности, технического мастерства, функционального состояния и эффективности соревновательной деятельности. Описан дифференцированный подход с учетом возрастных групп и гендерных особенностей. Рассмотрены современные методы контроля: видеоанализ, математико-статистический анализ, психомоторное тестирование. Результаты исследования показывают повышение подготовленности спортсменов-единоборцев на 20-50 процентов при использовании гимнастических средств. Обсуждаются вопросы профилактики травматизма, реабилитации и индивидуализации.

Ключевые слова: единоборства, гимнастические средства, спортивная подготовка, система контроля, методы оценки, физические качества, техническое мастерство, функциональное состояние, биомеханический анализ, спортивная педагогика

Abstract. The article analyzes the scientific and methodological foundations of monitoring and evaluating the effectiveness of using gymnastic tools in combat sports. Biomechanical, physiological and psychological aspects of applying gymnastic elements in boxing, wrestling, judo, sambo, and taekwondo are highlighted. Methods for assessing physical fitness, technical skills, functional state and competitive performance effectiveness are presented. A differentiated approach considering age groups and gender characteristics is described. Modern control methods are examined: video analysis, mathematical-statistical analysis, psychomotor testing. Research results show a 20-50 percent improvement in combat athletes' preparedness when using gymnastic tools. Issues of injury prevention, rehabilitation and individualization are discussed.

Keywords: combat sports, gymnastic tools, sports training, control system, evaluation methods, physical qualities, technical skills, functional state, biomechanical analysis, sports pedagogy

Zamonaviy sport tayyorgarligi tizimida turli sport turlari o‘rtasida integratsion jarayonlar kuchayib bormoqda. Yakkakurash sport turlarida gimnastika vositalaridan foydalanish bu integratsiyaning yorqin namunasi bo‘lib, sportchilarning texnik-taktik, jismoniy va psixologik tayyorgarligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Boks, kurash, dzyudo, sambo, taekvondo, karate kabi yakkakurash turlarida gimnastika elementlarini qo‘llash sportchilarning muvozanat, koordinatsiya, egiluvchanlik va kuchlilik sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Gimnastika vositalarining yakkakurashga integratsiyasi ilmiy asoslangan yondashuvni talab qiladi. Biomexanik tahlillar ko‘rsatadiki, gimnastikadagi aylanish harakatlari, sakrashlar va muvozanat mashqlari yakkakurash texnikasining bazaviy elementlari bilan o‘xshash harakat strukturasiga ega. Masalan, dzyudoda tashlash texnikasi ijro etilganda tanani aylantirish va muvozanatni saqlash gimnastikadagi aylanma harakatlarga o‘xshash biomexanik prinsiplarga asoslanadi. Bu o‘xshashliklar gimnastika vositalarini yakkakurash tayyorgarligida samarali qo‘llash imkonini yaratadi.

Nazorat va baholash tizimining metodologik asoslari sport pedagogikasi va sport metrologiyasi prinsiplariga tayanadi. Samaradorlikni baholashda kompleks yondashuv qo‘llanilib, quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha nazorat olib boriladi: jismoniy tayyorgarlik dinamikasi, texnik mahorat darajasi, funksional holat ko‘rsatkichlari va musobaqa faoliyati natijaviyligi. Har bir yo‘nalish bo‘yicha maxsus test va nazorat mashqlari ishlab chiqilgan bo‘lib, ular gimnastika vositalarining ta’sir darajasini ob’ektiv baholash imkonini beradi.

Jismoniy tayyorgarlikni baholashda egiluvchanlik, koordinatsiya va kuchlilik sifatlariga alohida e’tibor qaratiladi. Egiluvchanlikni o‘lchash uchun goniometriya usuli qo‘llanilib, bo‘g‘imlardagi harakat amplitudasi graduslarda o‘lchanadi. Gimnastik stretching mashqlaridan

foydalanish natijasida ko‘pchilik sportchilarda to‘qqiz-o‘n ikki hafta davomida egiluvchanlik ko‘rsatkichlari o‘rtacha yigirma-o‘ttiz foizga oshganligi qayd etilgan. Koordinatsiya qobiliyatlarini baholashda Romberg sinamasi, Starosta testi va maxsus koordinatsion mashqlar kompleksi qo‘llaniladi.

Texnik mahoratni baholash videotahlil va ekspert baholash usullarini o‘z ichiga oladi. Zamonaviy videotahlil dasturlari yordamida harakat traektoriyasi, burchak tezligi, kinematik zanjir elementlarining o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilinadi. Gimnastika elementlarini o‘zlashtirgan sportchilarda texnik harakatlar aniqligi o‘n besh-yigirma foizga yuqori ekanligi aniqlangan. Ekspertlar tomonidan o‘n ballik shkala bo‘yicha beriladigan baholar texnikaning silliqqligi, tezkorligi va samaradorligini kompleks ifodalaydi.

Funksional tayyorgarlik darajasini baholashda kardiorespirator tizim ko‘rsatkichlari, neyromuskulyar koordinatsiya va vestibulyar barqarorlik parametrlari o‘rganiladi. Spirometriya, veloergometriya, stabilografiya kabi zamonaviy diagnostika usullari qo‘llaniladi. Gimnastika mashqlari kompleksini muntazam bajargan sportchilarda maksimal kislorod iste‘moli ko‘rsatkichi o‘n-o‘n ikki foizga, anaerob bosqich davomiyligi yigirma-yigirma besh foizga oshganligi kuzatilgan.

Pedagogik nazorat tizimi yillik makrosikl davomida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Tayyorgarlik davrida haftalik mikrosikllarda operativ nazorat, oylik mezosikllarda joriy nazorat, makrosikl bosqichlarida etapli nazorat o‘tkaziladi. Har bir nazorat turida maxsus protokollar to‘ldirilib, ma‘lumotlar elektron bazaga kiritiladi. Bu ma‘lumotlar asosida individual tayyorgarlik dasturlariga tuzatishlar kiritiladi.

Psixomotorika va kognitiv funksiyalarni baholash yakkakurash sportchilari tayyorgarligining muhim komponenti hisoblanadi. Gimnastika mashqlari murakkab koordinatsion vazifalarni bajarishni talab qilib, markaziy nerv tizimining faoliyatini faollashtiradi. Reaksiya tezligi, harakat differentsiatsiyasi, fazoviy orientatsiya kabi psixomotorik sifatlarni baholashda maxsus kompyuter dasturlari qo‘llaniladi. Teping-test, sensomotorik reaksiya testi, vizual-motorik koordinatsiya sinamalari o‘tkaziladi. Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, gimnastika elementlarini muntazam bajargan sportchilarda oddiy sensomotorik reaksiya vaqti o‘rtacha o‘n besh millisekundga, murakkab reaksiya esa yigirma besh-o‘ttiz millisekundga qisqargan.

Bioenergetik ta‘minot mexanizmlarini baholash energetik tizimlar faoliyatining optimallashtiruvini ko‘rsatadi. Laktat bosqichi, aerob va anaerob ish qobiliyati parametrlari Wingate testi, PWC170 sinamasi, laktat konsentratsiyasini o‘lchash orqali aniqlanadi. Gimnastik akrobatika elementlari anaerob-glikolitik mexanizmni rivojlantirishga yordam berib, yakkakurash uchun zarur bo‘lgan tezkor kuchli harakatlarni bajarish imkonini oshiradi. O‘n ikki haftalik trenirovka siklidan so‘ng anaerob quvvat ko‘rsatkichi o‘rtacha yigirma foizga, anaerob sig‘im esa o‘ttiz foizga oshganligi qayd etilgan.

Travmatizm profilaktikasi va reabilitatsiya jarayonida gimnastika vositalarining roli alohida baholanadi. Maxsus profilaktik gimnastika komplekslari mushak-pay apparatini

mustahkamlab, jarohatlanish xavfini kamaytiradi. Statistik ma’lumotlar ko‘rsatadiki, gimnastika elementlarini tizimli qo‘llagan sportchilarda jarohatlanish chastotasi qirq foizga past. Reabilitatsiya davrida qo‘llaniladigan korrekktiv gimnastika tiklanish jarayonlarini tezlashtirib, sportga qaytish muddatini o‘rtacha yigirma kun qisqartiradi.

Jadval 1. Yakkakurash sportchilarining gimnastika vositalari ta’sirida jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi

Ko‘rsatkichlar	Boshlang‘ich daraja	6 haftadan so‘ng	12 haftadan so‘ng	O‘sish (%)
Egiluvchanlik (sm)	12.3±2.1	15.8±1.9	18.7±1.6	52.0
Koordinatsiya indeksi (ball)	6.4±0.8	7.8±0.6	8.9±0.5	39.1
Muvozanat barqarorligi (sek)	18.5±3.2	24.3±2.8	31.2±2.4	68.6
Tezkor kuch (Vt/kg)	11.2±1.4	12.9±1.2	14.1±1.0	25.9
Reaksiya tezligi (ms)	186±15	171±12	158±10	15.1
Texnik mahorat (ball)	6.8±0.7	7.6±0.6	8.4±0.4	23.5
Aerob quvvat (ml/kg/min)	48.3±4.2	51.7±3.8	54.9±3.3	13.7
Anaerob sig‘im (kJ)	8.7±1.1	10.2±0.9	11.3±0.8	29.9

Ilmiy-metodik ta’minot tizimi murabbiylar va sportchilarning bilim darajasini oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etishni o‘z ichiga oladi. Maxsus seminarlar, master-klasslar, onlayn kurslar o‘tkazilib, gimnastika vositalarini yakkakurashga integratsiyalash metodikasi o‘rgatiladi. Video-ta’lim materiallari, metodik qo‘llanmalar, elektron resurslar yaratiladi. Murabbiylarning kvalifikatsiyasini oshirish kurslarida gimnastika asoslari, biomexanika, sport fiziologiyasi modullari o‘qitiladi.

Yosh kategoriyalari bo‘yicha differentsiatsiya nazorat va baholash tizimining ajralmas qismidir. Bolalar-o‘smirlar sportida (7-14 yosh) gimnastika vositalari asosiy harakat madaniyatini shakllantirishga, o‘spirinlar sportida (15-17 yosh) maxsus jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirishga, kattalar sportida esa texnik-taktik mahoratni takomillashtirishga yo‘naltiriladi. Har bir yosh guruhi uchun maxsus test batareyalari ishlab chiqilgan bo‘lib, ular morfofunktsional o‘zgarishlar dinamikasini kuzatish imkonini beradi.

Jadval 2. Turli yosh guruhlarida gimnastika vositalarining hajmi va yo‘nalishi

Yosh guruhi	Umumiy yuklamadagi ulushi (%)	Asosiy yo‘nalish	Nazorat chastotasi
7-10 yosh	45-50	Umumiy koordinatsiya, egiluvchanlik	Haftasiga 2 marta
11-14 yosh	35-40	Maxsus koordinatsiya, kuchlilik	Haftasiga 1 marta
15-17 yosh	25-30	Tezkor-kuch sifatleri	2 haftada 1 marta
18-23 yosh	20-25	Texnik mahorat	Oyda 2 marta
24+ yosh	15-20	Funksional tayyorgarlik	Oyda 1 marta

Gender xususiyatlarini hisobga olish ayol sportchilar tayyorgarligida muhim ahamiyatga ega. Ayollarda egiluvchanlik tabiiy ravishda yuqori bo‘lganligi sababli, gimnastika vositalari kuchlilik va tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishga ko‘proq yo‘naltiriladi. Erkak sportchilarda esa egiluvchanlik va koordinatsiyaga alohida e’tibor qaratiladi. Homiladorlikdan keyingi davrda maxsus reabilitatsion gimnastika komplekslari qo‘llaniladi.

Mavsumiy tayyorgarlik sikllarida gimnastika vositalarining o‘rni va hajmi o‘zgarib turadi. Umumiy tayyorgarlik davrida gimnastika mashqlari umumiy yuklamaning qirq foizini, maxsus tayyorgarlik davrida yigirma besh foizini, musobaqa davrida o‘n foizini tashkil qiladi. Tiklanish davrida esa yengil gimnastika komplekslari mushak tonusini saqlash va ruhiy kuchlanishni kamaytirish uchun qo‘llaniladi.

Nutritsionik qo‘llab-quvvatlash va gimnastika vositalari o‘rtasidagi bog‘liqlik ham baholanadi. Oqsil, uglevodlar, vitaminlar va minerallar balansini optimallashtirish gimnastik yuklamalarga adaptatsiyani yaxshilaydi. Maxsus sport ovqatlanishi dasturlari ishlab chiqilib, gimnastika mashg‘ulotlari oldi va keyingi ovqatlanish rejimi belgilanadi. Kaloriyaj sarfi hisob-kitoblari asosida individual ovqatlanish rejalarini tuziladi.

Pedagogik kuzatuv va videoanaliz integratsiyasi zamonaviy texnologiyalarning samarali qo‘llanilishiga misol bo‘ladi. Yuqori tezlikdagi kameralar (240-1000 kadr/sek) yordamida harakatlar detallari tahlil qilinadi. Dartfish, Kinovea kabi dasturlar yordamida biomexanik parametrlar hisoblanadi. Uch o‘lchovli moushn-kapchur tizimlari harakat traektoriyasini aniq qayd etadi. Bu ma’lumotlar asosida individual texnik xatolar aniqlanib, ularni tuzatish uchun maxsus gimnastik mashqlar tanlanadi.

Psixologik tayyorgarlik komponenti gimnastika vositalari samaradorligini baholashda alohida o‘rin tutadi. O‘z-o‘zini nazorat qilish, diqqatni jamlash, stressga chidamlilik kabi psixologik sifatlar gimnastik mashqlar jarayonida rivojlanadi. Psixologik testlar - Spilberger-Xanin sinamasi, POMS (Profile of Mood States), diqqat konsentratsiyasi testi qo‘llaniladi. Mental trening va vizualizatsiya texnikalari gimnastika elementlarini o‘zlashtirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, yakkakurash sportida gimnastika vositalaridan foydalanish samaradorligini nazorat qilish va baholash tizimi doimiy takomillashuvni talab qiladi. Ilmiy tadqiqotlar natijalari, amaliy tajriba va zamonaviy texnologiyalarning uyg‘unlashuvi sportchilar tayyorgarligini yangi sifat darajasiga ko‘tarish imkonini yaratadi. Kompleks nazorat va baholash tizimi nafaqat natijalarni qayd etish, balki trenirovka jarayonini optimallashtirish, individuallashtirish va prognozlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Матвеев Л.П. Общая теория спорта и ее прикладные аспекты. – 5-е изд., испр. и доп. – М.: Советский спорт, 2010. – 340 с.
2. Платонов В.Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. Общая теория и ее практические приложения. – К.: Олимпийская литература, 2015. – 680 с.
3. Туманян Г.С. Спортивная борьба: теория, методика, организация тренировки: Учебное пособие. В 4-х кн. – М.: Советский спорт, 2018. – Кн. 1. Пропедевтика. – 288 с.
4. Керимов Ф.А. Спорт кураши назарияси ва услубияти. – Тошкент: УЗДЖТИ нашриёти, 2019. – 425 б.

5. Шестаков В.Б., Ерегина С.В. Теория и практика дзюдо: учебник. – М.: Советский спорт, 2011. – 448 с.
6. Холодов Ж.К., Кузнецов В.С. Теория и методика физического воспитания и спорта: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – 13-е изд., стер. – М.: Издательский центр «Академия», 2016. – 480 с.
7. Усмонходжаев Т.С., Меликузиев А.А. Спорт гимнастикаси назарияси ва услубияти. – Тошкент: УзДЖТИ нашриёти, 2020. – 316 б.

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 8-son)



JISMONIY MADANIYAT
PHYSICAL CULTURE

OLIIY TA‘LIM MUASSASALARI TALABALARINING JISMONIY TAYYORGARLIGI DARAJASI VA UNI BAHOLASH USULLARI

Samadov Sardor Sodiqovich

Buxoro davlat universiteti

Jismoniy tarbiya va sport fakulteti

Sport nazariya va metodikasi kafedrası dotsenti

s.s.samadov@buxdu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro viloyatidagi universitet talabalari orasida jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlashga qaratilgan eksperimental tadqiqot natijalari yoritilgan. Tadqiqot jarayonida nazorat va tajriba guruhları shakllantirilib, ularga qator nazorat testlari – chaqqonlik, kuch, chidamlilik, egiluvchanlik va tezlikni baholovchi mashqlar qo‘llanildi. Olingan natijalar o‘rtacha qiymatlar, variatsiya koeffitsienti, t-student statistik ko‘rsatkichlar orqali tahlil qilindi. Natijalar tajriba guruhi a‘zolarining jismoniy tayyorgarligida muayyan barqarorlik va o‘sish mavjudligini, shu bilan birga dastlabki bosqichda statistik farqlarning ahamiyatsiz ekanligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: talabalar, jismoniy tayyorgarlik, dinamik tahlil, nazorat testi, tajriba guruhi, statistika, sog‘lom turmush tarzi.

Уровень физической подготовки студентов высших учебных заведений и методы его оценки

Аннотация: В данной статье представлены результаты экспериментального исследования, направленного на определение уровня физической подготовки студентов университетов Бухарской области. В ходе исследования были сформированы контрольная и экспериментальная группы, которым предлагались ряд контрольных тестов — упражнения на ловкость, силу, выносливость, гибкость и скорость. Полученные данные анализировались с использованием средних значений, коэффициента вариации и статистических показателей t-критерия Стьюдента. Результаты показали наличие определенной устойчивости и роста физической подготовки у участников экспериментальной группы, при этом на начальном этапе статистические различия оказались незначительными.

Ключевые слова: студенты, физическая подготовка, динамический анализ, контрольный тест, экспериментальная группа, статистика, здоровый образ жизни.

THE LEVEL OF PHYSICAL FITNESS OF UNIVERSITY STUDENTS AND METHODS OF ITS ASSESSMENT

Abstract: This article presents the results of an experimental study aimed at determining the level of physical fitness among university students in the Bukhara region. During the research, control and experimental groups were formed, and a series of control tests — exercises assessing agility, strength, endurance, flexibility, and speed — were conducted. The obtained results were analyzed using mean values, the coefficient of variation, and Student’s t-test statistical indicators. The findings revealed certain stability and improvement in the physical fitness of the experimental group members, while at the initial stage, statistical differences were insignificant.

Keywords: students, physical fitness, dynamic analysis, control test, experimental group, statistics, healthy lifestyle.

Kirish: Oliy ta’lim tizimida ta’lim olayotgan talabalar salomatligi va jismoniy tayyorgarligi zamonaviy ta’limning muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Talabaning jismoniy holati uning kasbiy faoliyatga tayyorlik darajasini, hayotiy faolligini va ruhiy barqarorligini belgilovchi omillardan hisoblanadi. Ayniqsa, jismoniy tarbiya darslari va sport mashg‘ulotlari orqali talabada sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, harakat faolligi orqali ijtimoiy-psixologik ijobiy o‘zgarishlarga erishish mumkin. Ushbu tadqiqot Buxoro viloyatidagi universitetlarda o‘qiyotgan 240 nafar o‘g‘il va 196 nafar qiz talabalar ishtirokida amalga oshirildi. Tajriba davomida 7 turdagi nazorat testlari qo‘llanildi va ularning statistik ko‘rsatkichlari orqali jismoniy holat dinamikasi baholandi. Buxoro davlat universiteti o‘g‘il bolalarining chaqqonlik, koordinatsiya sifatleri rivojlanish dinamikasini aniqlash maqsadida 3×10 metr masofaga mokusimon yugurish testi bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich natijalari tajriba boshida $8,09 \pm 1,29$ soniyani, tashkil etdi. Ya’ni, bolalarning testni bajarish vaqti o‘rtacha 8,09 soniya atrofida bo‘lib, natijalar o‘zgaruvchanligi 1,29 soniya oraliqda bo‘lgan. Ushbu guruhda test natijalari o‘rtasidagi farq 15,9 % ekanligi aniqlandi.

Tajriba guruhidagi bolalarning ushbu testni bajarish bo‘yicha ko‘rsatgan o‘rtacha natijasi tajriba boshida $8,27 \pm 1,26$ soniyani tashkil etdi. Ya’ni, testni bajarish bo‘yicha o‘rtacha natija 8,27 soniya, natijalar tarqalishi 1,26 soniya oraliqda bo‘ldi. Tajriba guruhi natijalari o‘rtasidagi farq esa 15,2 %ni tashkil etdi. Ikki guruh natijalari taqqoslanganda, $t=1,09$ qiymati aniqlandi. Statistik ishonchlilik darajasi esa $p>0,05$ bo‘lib, bu natijalar orasidagi farq ahamiyatli emasligini ko‘rsatadi. Test natijalari bo‘yicha nazorat va tajriba guruhlarining ko‘rsatkichlari bir-biriga yaqin ekanligi va ular orasida jiddiy statistik tafovut mavjud emasligi namoyon bo‘ldi.

Jismoniy tayyorgarlik darajasi dinamikasini aniqlash maqsadida gavdani ko‘tarib bukish (1-min) nazorat testi bo‘yicha tajriba boshi nazorat guruhi a‘zolarining ko‘rsatgan o‘rtacha natijasi $29,38 \pm 5,93$ martani tashkil etdi. Ya’ni, bolalarning testni bajarish davomiyligi o‘rtacha 29,38 marta atrofida bo‘lib, natijalar o‘zgaruvchanligi 5,93 marta oraliqda bo‘ldi. Ushbu guruhda test natijalari o‘rtasidagi farq variatsiya koeffitsienti 20,1 % ekanligini ko‘rsatdi.

Tajriba guruhidagi o‘g‘il bolalarning 1 min da gavdani ko‘tarib bukish testini bajarish bo‘yicha ko‘rsatgan o‘rtacha natijasi tajriba boshida $28,47 \pm 5,88$ martani tashkil etdi. Ya‘ni, testni bajarish bo‘yicha o‘rtacha natija 28,47 marta, natijalar tarqalishi 5,88 marta oraliqda bo‘ldi. Tajriba guruhi natijalari o‘rtasidagi farq variatsiya koeffitsienti esa 20,6 % ni tashkil etdi. Ikki guruh natijalari taqqoslanganda, $t=1,19$ qiymati aniqlandi. Statistik ishonchlilik darajasi esa $p>0,05$ bo‘lib, bu natijalar orasidagi farq ahamiyatli emasligini ko‘rsatadi. Qayd etilgan natijalardan shuni yaqqol ko‘rishimiz mumkinki, har ikki guruhning ko‘rsatkichlari o‘zaro yaqin bo‘lib, deyarli uncha farq qilmaydi.

Tadqiqotimiz davomida tezkor- kuch sifati dinamikasini aniqlash maqsadida turgan joydan uzunlikka sakrash bo‘yicha nazorat guruhi a‘zolari tadqiqot boshida $160,92 \pm 28,15$ smni tashkil etdi. Ya‘ni, bolalarning testni bajarish masofasi o‘rtacha 160,92 sm atrofida bo‘lib, natijalar o‘zgaruvchanligi 28,15 sm oraliqda bo‘ldi. Ushbu guruhda test natijalari o‘rtasidagi farq 17,4 % ekanligi aniqlandi.

Tajriba guruhidagi bolalarning ushbu testni bajarish bo‘yicha ko‘rsatgan o‘rtacha natijasi tadqiqot boshida $155,24 \pm 29,47$ sm ni tashkil etdi. Ya‘ni, testni bajarish bo‘yicha o‘rtacha natija 155,24 sm, natijalar tarqalishi 29,47 sm oraliqda bo‘ldi. Tajriba guruhi natijalari o‘rtasidagi farq esa 18,9 %ni tashkil etdi. Ikki guruh natijalari taqqoslanganda, $t=1,52$ qiymati aniqlandi. Statistik ishonchlilik darajasi esa $p>0,05$ bo‘lib, bu natijalar orasidagi farq ahamiyatli emasligini ko‘rsatadi. Qayd etilgan natijalardan shuni yaqqol ko‘rishimiz mumkinki, har ikki guruhning ko‘rsatkichlari deyarli uncha farq qilmaydi va natijalar o‘zaro yaqin.

Buxoro davlat universiteti o‘g‘il bolalarining chidamlilik jismoniy sifati rivojlanish dinamikasini aniqlash maqsadida 1000 metr masofaga yugurish testi bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich natijalari tajriba boshida $265,16 \pm 53,43$ soniyani tashkil etdi. Ya‘ni, bolalarning testni bajarish vaqti o‘rtacha 265,16 soniya atrofida bo‘lib, natijalar o‘zgaruvchanligi 53,43 soniya oraliqda bo‘lgan. Ushbu guruhda test natijalari o‘rtasidagi farq variatsiya koeffitsienti 20,1% ekanligi aniqlandi.

Tajriba guruhidagi bolalarning ushbu testni bajarish bo‘yicha ko‘rsatgan o‘rtacha natijasi tajriba boshida $273,19 \pm 54,62$ soniyani tashkil etdi. Ya‘ni, testni bajarish bo‘yicha o‘rtacha natija 273,19 soniya, natijalar tarqalishi 54,62 soniya oraliqda bo‘ldi. Tajriba guruhi natijalari o‘rtasidagi farq variatsiya koeffitsienti esa 19,9 %ni tashkil etdi. Ikki guruh natijalari taqqoslanganda, $t=1,15$ qiymati aniqlandi. Statistik ishonchlilik darajasi esa $p>0,05$ bo‘lib, bu natijalar orasidagi farq ahamiyatli emasligini ko‘rsatadi. Test natijalari bo‘yicha nazorat va tajriba guruhlarining ko‘rsatkichlari bir-biriga yaqin ekanligi va ular orasida jiddiy statistik tafovut mavjud emasligi namoyon bo‘ldi.

Olib borilgan tadqiqot davomida Buxoro davlat universiteti o‘g‘il bolalarida tezlik jismoniy sifatining rivojlanishini baholash maqsadida 100 metr masofaga yugurish nazorat testi qo‘llanildi. Ushbu test bolalarning reaksiya tezligi, tezkor harakatlanish qobiliyatini rivojlantirishga baholashga xizmat qiladi.

Tadqiqot boshida nazorat guruhiga mansub o'g'il bolalarning 100 metrga yugurish bo'yicha o'rtacha natijasi $15,28 \pm 1,98$ soniyani tashkil etdi. Ya'ni, bolalarning testni bajarish vaqti o'rtacha 15,28 soniya atrofida bo'lib, natijalar o'zgaruvchanligi 1,98 soniya oraliqda bo'lgan. Ushbu guruhda test natijalari o'rtasidagi farq 12,9 % ekanligi aniqlandi.

Tajriba guruhidagi bolalarning ushbu testni bajarish bo'yicha ko'rsatgan o'rtacha natijasi esa $15,57 \pm 2,01$ soniyani tashkil etdi. Ya'ni, testni bajarish bo'yicha o'rtacha natija 15,57 soniya, natijalar tarqalishi 2,01 soniya oraliqda bo'ldi. Tajriba guruhi natijalari o'rtasidagi farq esa 12,9 %ni tashkil etdi. Ikki guruh natijalari taqqoslanganda, $t=1,12$ qiymati aniqlandi. Statistik ishonchlilik darajasi esa $p>0,05$ bo'lib, bu natijalar orasidagi farq ahamiyatli emasligini ko'rsatadi. Ya'ni, ushbu test natijalari bo'yicha nazorat va tajriba guruhlarida jiddiy statistik tafovut mavjud emas.

Jismoniy tayyorgarlik darajasi dinamikasini aniqlash maqsadida turnikda tortilish nazorat testi bo'yicha tajriba boshi nazorat guruhi a'zolarining ko'rsatgan o'rtacha natijasi $6,71 \pm 1,18$ martani tashkil etdi. Ya'ni, bolalarning testni bajarish davomiyligi o'rtacha 6,71 marta atrofida bo'lib, natijalar o'zgaruvchanligi 1,18 marta oraliqda bo'ldi. Ushbu guruhda test natijalari o'rtasidagi farq variatsiya koeffitsienti 17,5 % ekanligini ko'rsatdi.

Buxoro talabalarining tajriba boshi jismoniy tayyorgarligi dinamikasi o'g'il bolalar (n=240)


№	Nazorat testlari	NG (n=120) ($\bar{x} \pm \sigma$)	V%	TG (n=120) ($\bar{x} \pm \sigma$)	V%	t	p
1	3x10 m moksimon yugurish, s	$8,09 \pm 1,29$	15,9	$8,27 \pm 1,26$	15,2	1,09	$>0,05$
2	Gavdani ko'tarib bukish (1 min,)	$29,38 \pm 5,93$	20,1	$28,47 \pm 5,88$	20,6	1,19	$>0,05$
3	Turgan joydan uzunlikka sakrash, sm	$160,92 \pm 28,15$	17,4	$155,24 \pm 29,47$	18,9	1,52	$>0,05$
4	1000 m yugurish, s	$265,16 \pm 53,43$	20,1	$273,19 \pm 54,62$	19,9	1,15	$>0,05$
5	100 m yugurish, s	$15,28 \pm 1,98$	12,9	$15,57 \pm 2,01$	12,9	1,12	$>0,05$
6	Turnikda tortilish, marta	$6,71 \pm 1,18$	17,5	$6,49 \pm 1,20$	18,4	1,43	$>0,05$
7	Tik turgan holda oldinga egilish, sm	$7,65 \pm 1,25$	16,3	$7,44 \pm 1,29$	17,3	1,28	$>0,05$

Izoh: m-metr, s-soniya, min-minut, sm-santimetr.

Tajriba guruhidagi o'g'il bolalarning turnikda tortilish testini bajarish bo'yicha ko'rsatgan o'rtacha natijasi tajriba boshida $6,49 \pm 1,20$ martani tashkil etdi. Ya'ni, testni bajarish bo'yicha o'rtacha natija 6,49 marta, natijalar tarqalishi 1,20 marta oraliqda bo'ldi. Tajriba guruhi natijalari o'rtasidagi farq variatsiya koeffitsienti esa 18,4 % ni tashkil etdi. Ikki guruh natijalari taqqoslanganda, $t=1,43$ qiymati aniqlandi. Statistik ishonchlilik darajasi esa $p>0,05$ bo'lib, bu natijalar orasidagi farq ahamiyatli emasligini ko'rsatadi. Qayd etilgan natijalardan shuni yaqqol

ko‘rishimiz mumkinki, har ikki guruhning ko‘rsatkichlari o‘zaro yaqin bo‘lib, deyarli uncha farq qilmaydi.

Olib borilgan tadqiqotimiz davomida talabalarning egiluvchanlik jismoniy sifati dinamikasini aniqlash maqsadida tik turgan holda oldinga egilish bo‘yicha nazorat guruhi a‘zolari tadqiqot boshida $7,65 \pm 1,25$ sm natijani tashkil etdi. Ya‘ni, bolalarning testni bajarish masofasi o‘rtacha 7,65 sm atrofida bo‘lib, natijalar o‘zgaruvchanligi 1,25 sm oraliqda bo‘ldi. Ushbu guruhda test natijalari o‘rtasidagi farq 16,3 % ekanligi aniqlandi.



1-rasm Buxoro talabalarining tajriba boshi jismoniy tayyorgarligi dinamikasi (o‘g‘il bolalar)

Tajriba guruhidagi bolalarning tik turgan holda oldinga egilish testini bajarish bo‘yicha ko‘rsatgan o‘rtacha natijasi tadqiqot boshida $7,44 \pm 1,29$ sm ni tashkil etdi. Ya‘ni, testni bajarish bo‘yicha o‘rtacha natija 7,44 sm, natijalar tarqalishi 1,29 sm oraliqda bo‘ldi. Tajriba guruhi natijalari o‘rtasidagi farq esa 17,3 %ni tashkil etdi. Ikki guruh natijalari taqqoslanganda, $t=1,28$ qiymati aniqlandi. Statistik ishonchlilik darajasi esa $p>0,05$ bo‘lib, bu natijalar orasidagi farq ahamiyatli emasligini ko‘rsatadi. Qayd etilgan natijalardan shuni yaqqol ko‘rishimiz mumkinki, har ikki guruhning ko‘rsatkichlari deyarli uncha farq qilmaydi va natijalar o‘zaro yaqin bo‘lganligini namoyon etdi.

Buxoro davlat universiteti qiz bolalarining chaqqonlik, koordinatsiya sifatlari rivojlanish dinamikasini aniqlash maqsadida 3×10 metr masofaga moksimon yugurish testi bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich natijalari tajriba boshida $9,58 \pm 1,91$ soniyani, tashkil etdi. Ya‘ni, bolalarning testni bajarish vaqti o‘rtacha 9,58 soniya atrofida bo‘lib, natijalar o‘zgaruvchanligi 1,91 soniya oraliqda bo‘lgan. Ushbu guruhda test natijalari o‘rtasidagi farq 19,9 % ekanligi aniqlandi.

Tajriba guruhidagi bolalarning ushbu testni bajarish bo‘yicha ko‘rsatgan o‘rtacha natijasi tajriba boshida $9,93 \pm 1,97$ soniyani tashkil etdi. Ya‘ni, testni bajarish bo‘yicha o‘rtacha natija 9,93 soniya, natijalar tarqalishi 1,97 soniya oraliqda bo‘ldi. Tajriba guruhi natijalari o‘rtasidagi farq esa 19,8 %ni tashkil etdi. Ikki guruh natijalari taqqoslanganda, $t=1$, qiymati aniqlandi. Statistik ishonchlilik darajasi esa $p>0,05$ bo‘lib, bu natijalar orasidagi farq ahamiyatli emasligini ko‘rsatadi. Test natijalari bo‘yicha nazorat va tajriba guruhlarining ko‘rsatkichlari bir-biriga yaqin ekanligi va ular orasida jiddiy statistik tafovut mavjud emasligi namoyon bo‘ldi.

Jismoniy tayyorgarlik darajasi dinamikasini aniqlash maqsadida gavdani ko‘tarib bukish (1 min) nazorat testi bo‘yicha tajriba boshi nazorat guruhi a‘zolarining ko‘rsatgan o‘rtacha natijasi $28,62 \pm 4,85$ martani tashkil etdi. Ya‘ni, bolalarning testni bajarish davomiyligi o‘rtacha 28,62 marta atrofida bo‘lib, natijalar o‘zgaruvchanligi 4,85 marta oraliqda bo‘ldi. Ushbu guruhda test natijalari o‘rtasidagi farq variatsiya koeffitsienti 16,9 % ekanligini ko‘rsatdi.

Tajriba guruhidagi qiz bolalarning 1 min da gavdani ko‘tarib bukish testini bajarish bo‘yicha ko‘rsatgan o‘rtacha natijasi tajriba boshida $29,09 \pm 4,59$ martani tashkil etdi. Ya‘ni, testni bajarish bo‘yicha o‘rtacha natija 29,09 marta, natijalar tarqalishi 4,59 marta oraliqda bo‘ldi. Tajriba guruhi natijalari o‘rtasidagi farq variatsiya koeffitsienti esa 15,7 % ni tashkil etdi. Ikki guruh natijalari taqqoslanganda, $t=0,69$ qiymati aniqlandi. Statistik ishonchlilik darajasi esa $p>0,05$ bo‘lib, bu natijalar orasidagi farq ahamiyatli emasligini ko‘rsatadi. Qayd etilgan natijalardan shuni yaqqol ko‘rishimiz mumkinki, har ikki guruhning ko‘rsatkichlari o‘zaro yaqin bo‘lib, deyarli uncha farq qilmaydi.

Tadqiqotimiz davomida tezkor- kuch sifati dinamikasini aniqlash maqsadida turgan joydan uzunlikka sakrash bo‘yicha nazorat guruhi a‘zolari tadqiqot boshida $155,32 \pm 23,48$ smni tashkil etdi. Ya‘ni, bolalarning testni bajarish masofasi o‘rtacha 155,32 sm atrofida bo‘lib, natijalar o‘zgaruvchanligi 23,48 sm oraliqda bo‘ldi. Ushbu guruhda test natijalari o‘rtasidagi farq 15,1 % ekanligi aniqlandi.

Tajriba guruhidagi qiz bolalarning ushbu testni bajarish bo‘yicha ko‘rsatgan o‘rtacha natijasi tadqiqot boshida $151,18 \pm 22,93$ sm ni tashkil etdi. Ya‘ni, testni bajarish bo‘yicha o‘rtacha natija 151,18 sm, natijalar tarqalishi 22,93 sm oraliqda bo‘ldi. Tajriba guruhi natijalari o‘rtasidagi farq esa 15,1 %ni tashkil etdi. Ikki guruh natijalari taqqoslanganda, $t=1,24$ qiymati aniqlandi. Statistik ishonchlilik darajasi esa $p>0,05$ bo‘lib, bu natijalar orasidagi farq ahamiyatli emasligini ko‘rsatadi. Qayd etilgan natijalardan shuni yaqqol ko‘rishimiz mumkinki, har ikki guruhning ko‘rsatkichlari deyarli uncha farq qilmaydi va natijalar o‘zaro yaqin.

Buxoro davlat universiteti qiz bolalarining chidamlilik jismoniy sifati rivojlanish dinamikasini aniqlash maqsadida 1000 metr masofaga yugurish testi bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich natijalari tajriba boshida $281,60 \pm 51,28$ soniyani tashkil etdi. Ya‘ni, bolalarning testni bajarish vaqti o‘rtacha 281,60 soniya atrofida bo‘lib, natijalar o‘zgaruvchanligi 51,28 soniya oraliqda bo‘lgan. Ushbu guruhda test natijalari o‘rtasidagi farq variatsiya koeffitsienti 18,2% ekanligi aniqlandi.

Tajriba guruhidagi bolalarning ushbu testni bajarish bo‘yicha ko‘rsatgan o‘rtacha natijasi tajriba boshida $295,53 \pm 53,09$ soniyani tashkil etdi. Ya’ni, testni bajarish bo‘yicha o‘rtacha natija 295,53 soniya, natijalar tarqalishi 53,09 soniya oraliqda bo‘ldi. Tajriba guruhi natijalari o‘rtasidagi farq variatsiya koeffitsienti esa 17,9 %ni tashkil etdi. Ikki guruh natijalari taqqoslanganda, $t=1,86$ qiymati aniqlandi. Statistik ishonchlilik darajasi esa $p>0,05$ bo‘lib, bu natijalar orasidagi farq ahamiyatli emasligini ko‘rsatadi. Test natijalari bo‘yicha nazorat va tajriba guruhlarining ko‘rsatkichlari bir-biriga yaqin ekanligi va ular orasida jiddiy statistik tafovut mavjud emasligi namoyon bo‘ldi.

Buxoro talabalarining tajriba boshi jismoniy tayyorgarligi dinamikasi qiz bolalar (n=196)


№	Nazorat testlari	NG (n=98) ($\bar{x} \pm \sigma$)	V%	TG (n=98) ($\bar{x} \pm \sigma$)	V%	t	p
1	3x10 m moksimon yugurish, s	$9,58 \pm 1,91$	19,9	$9,93 \pm 1,97$	19,8	1,26	$>0,05$
2	Gavdani ko‘tarib bukish (1 min,)	$28,62 \pm 4,85$	16,9	$29,09 \pm 4,59$	15,7	0,69	$>0,05$
3	Turgan joydan uzunlikka sakrash, sm	$155,32 \pm 23,48$	15,1	$151,18 \pm 22,93$	15,1	1,24	$>0,05$
4	1000 m yugurish, s	$281,60 \pm 51,28$	18,2	$295,53 \pm 53,09$	17,9	1,86	$>0,05$
5	100 m yugurish, s	$16,24 \pm 2,03$	12,5	$16,55 \pm 2,08$	12,5	1,05	$>0,05$
6	Past turnikda tortilish, marta	$5,01 \pm 1,04$	20,7	$4,85 \pm 1,01$	20,8	1,09	$>0,05$
7	Tik turgan holda oldinga egilish, sm	$7,38 \pm 1,32$	17,8	$7,22 \pm 1,29$	17,8	0,85	$>0,05$

Izoh: m-metr, s-soniya, min-minut, sm-santimetr.

Olib borilgan tadqiqot davomida Buxoro davlat universiteti qiz bolalarida tezlik jismoniy sifatining rivojlanishini baholash maqsadida 100 metr masofaga yugurish nazorat testi qo‘llanildi. Ushbu test bolalarning reaksiya tezligi, tezkor harakatlanish qobiliyatini rivojlantirishga baholashga xizmat qiladi.

Tadqiqot boshida nazorat guruhiga mansub qiz bolalarning 100 metrga yugurish bo‘yicha o‘rtacha natijasi $16,24 \pm 2,03$ soniyani tashkil etdi. Ya’ni, bolalarning testni bajarish vaqti o‘rtacha 16,24 soniya atrofida bo‘lib, natijalar o‘zgaruvchanligi 2,03 soniya oraliqda bo‘lgan. Ushbu guruhda test natijalari o‘rtasidagi farq 12,5 % ekanligi aniqlandi.

Tajriba guruhidagi bolalarning ushbu testni bajarish bo‘yicha ko‘rsatgan o‘rtacha natijasi esa $16,55 \pm 2,08$ soniyani tashkil etdi. Ya’ni, testni bajarish bo‘yicha o‘rtacha natija 16,55 soniya, natijalar tarqalishi 2,08 soniya oraliqda bo‘ldi. Tajriba guruhi natijalari o‘rtasidagi farq esa 12,5 %ni tashkil etdi. Ikki guruh natijalari taqqoslanganda, $t=1,05$ qiymati aniqlandi. Statistik ishonchlilik darajasi esa $p>0,05$ bo‘lib, bu natijalar orasidagi farq ahamiyatli emasligini ko‘rsatadi. Ya’ni, ushbu test natijalari bo‘yicha nazorat va tajriba guruhlari orasida jiddiy statistik tafovut mavjud emas.



2-rasm Buxoro talabalarining tajriba boshi jismoniy tayyorgarligi dinamikasi (qiz bolalar)

Jismoniy tayyorgarlik darajasi dinamikasini aniqlash maqsadida past turnikda tortilish nazorat testi bo'yicha tajriba boshi nazorat guruhi a'zolarining ko'rsatgan o'rtacha natijasi $5,01 \pm 1,04$ martani tashkil etdi. Ya'ni, bolalarning testni bajarish davomiyligi o'rtacha 5,01 marta atrofida bo'lib, natijalar o'zgaruvchanligi 1,04 marta oraliqda bo'ldi. Ushbu guruhda test natijalari o'rtasidagi farq variatsiya koeffitsienti 20,7 % ekanligini ko'rsatdi.

Tajriba guruhidagi qiz bolalarning past turnikda tortilish testini bajarish bo'yicha ko'rsatgan o'rtacha natijasi tajriba boshida $4,85 \pm 1,01$ martani tashkil etdi. Ya'ni, testni bajarish bo'yicha o'rtacha natija 4,85 marta, natijalar tarqalishi 1,01 marta oraliqda bo'ldi. Tajriba guruhi natijalari o'rtasidagi farq variatsiya koeffitsienti esa 20,8 % ni tashkil etdi. Ikki guruh natijalari taqqoslanganda, $t=1,09$ qiymati aniqlandi. Statistik ishonchlilik darajasi esa $p>0,05$ bo'lib, bu natijalar orasidagi farq ahamiyatli emasligini ko'rsatadi. Qayd etilgan natijalardan shuni yaqqol ko'rishimiz mumkinki, har ikki guruhning ko'rsatkichlari o'zaro yaqin bo'lib, deyarli uncha farq qilmaydi.

Olib borilgan tadqiqotimiz davomida talabalarning egiluvchanlik jismoniy sifati dinamikasini aniqlash maqsadida tik turgan holda oldinga egilish bo'yicha nazorat guruhi a'zolari tadqiqot boshida $7,38 \pm 1,32$ sm natijani tashkil etdi. Ya'ni, bolalarning testni bajarish masofasi o'rtacha 7,38 sm atrofida bo'lib, natijalar o'zgaruvchanligi 1,32 sm oraliqda bo'ldi. Ushbu guruhda test natijalari o'rtasidagi farq 17,8 % ekanligi aniqlandi.

Tajriba guruhidagi qiz bolalarning tik turgan holda oldinga egilish testini bajarish bo'yicha ko'rsatgan o'rtacha natijasi tadqiqot boshida $7,22 \pm 1,29$ sm ni tashkil etdi. Ya'ni, testni bajarish bo'yicha o'rtacha natija 7,22 sm, natijalar tarqalishi 1,29 sm oraliqda bo'ldi. Tajriba guruhi natijalari o'rtasidagi farq esa 17,8 %ni tashkil etdi. Ikki guruh natijalari taqqoslanganda, $t=0,85$ qiymati aniqlandi. Statistik ishonchlilik darajasi esa $p>0,05$ bo'lib, bu natijalar orasidagi farq ahamiyatli emasligini ko'rsatadi. Qayd etilgan natijalardan shuni yaqqol ko'rishimiz mumkinki,

har ikki guruhning ko‘rsatkichlari deyarli uncha farq qilmaydi va natijalar o‘zaro yaqin bo‘lganligini namoyon etdi.

Xulosa: Olib borilgan tajriba ishlari asosida aniqlanishicha, nazorat va tajriba guruhlari orasida dastlabki ko‘rsatkichlar deyarli farq qilmasligi, ammo metodik yondashuv qo‘llanilgan tajriba guruhida mashg‘ulotlar natijasida jismoniy tayyorgarlik darajasi sezilarli darajada oshganini ko‘rsatdi. Shuningdek, variatsiya koeffitsientining kamayishi ham o‘zgaruvchanlik darajasining pasayganini bildiradi. Bu esa ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini va amaliyotga joriy etish imkoniyatlarini asoslaydi. Natijalar asosida oliy ta’limda jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini tizimli va individual yondashuv asosida tashkil etish lozim degan xulosaga kelinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Klimov E.A. *Psixologiya professional'nogo samoopredeleniya*. – M., 2004.
2. Gurevich K.M. *Problemi professional'noy prigodnosti*. – L., 1982.
3. Zatsiorskiy V.M. *Sportivnaya metrologiya*. – M.: Fizkultura i sport, 1982.
4. Xodjaev N.X. *Talabalarining jismoniy tayyorgarligini oshirish metodikasi*. – Toshkent, 2018.
5. Abdukarimov A. *Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021.
6. Usmonov A. *Jismoniy mashqlar va sport turlari asoslari*. – Buxoro, 2019.
7. Mirzayev Sh. *Statistik tahlil asoslari*. – Samarqand, 2020.
8. Mahmudov N. *Talabalar sog‘lom turmush tarzini shakllantirish yo‘llari*. – Andijon, 2017.
9. Turdiev B. *Kasbiy tanlov va psixofiziologik yondashuvlar*. – Nukus, 2016.
10. Normatov A. *Harakatli o‘yinlar va ularning jismoniy tayyorgarlikdagi o‘rni*. – Qarshi, 2021.



SOG'LOMLASHTIRUVCHI MASHG'ULOT JARAYONIDA TURLI YOSHDAGI AYOLLARNING SALOMATLIK HOLATIGA FITNES-AEROBIKA MASHQLARINI TA'SIRI

Shaxriddinova Laylo Nurxonovna

*Navoiy davlat universiteti San'at va sport fakulteti
"Sport faoliyati turlari" kafedrası p.f.b.f.d(PhD).,prof.v.b*

Annotatsiya Mazkur maqolada sog'lomlashtiruvchi mashg'ulot jarayonida turli yoshdagi ayollar salomatligiga fitnes-aerobika mashqlarining ta'siri tahlil etiladi. Adolesent davridan to menopauza va undan keyingi bosqichlargacha bo'lgan vaqt oralig'ida ayollarda kuzatiladigan gormonal, fiziologik va psixologik o'zgarishlar inobatga olingan. Fitnes-aerobika mashqlari yurak-qon tomir tizimini mustahkamlash, modda almashinuvini yaxshilash, vaznni nazorat qilish hamda bo'g'imlar harakatchanligini saqlashda samarali ekani ta'kidlanadi. Shuningdek, muntazam ravishda ritmik musiqaga hamohang ijro etiladigan aerobik va anaerobik harakatlar stresni kamaytirish, kayfiyatni yaxshilash va ruhiy barqarorlikni oshirishga xizmat qiladi. Maqolada mashg'ulot metodikasi, xavfsizlik choralari, yosh va sog'liq holatidan kelib chiqib yuklamani moslashtirish hamda motivatsiyani saqlab turish usullari yoritilib, fitnes-aerobika barcha yosh toifasidagi ayollar uchun sog'lom turmush tarzining muhim tarkibiy qismi ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: fitnes-aerobika, ayollar salomatligi, turli yosh, sog'lomlashtirish, gormonal o'zgarishlar, yurak-qon tomir tizimi, jismoniy tayyorgarlik, mashg'ulot metodikasi, motivatsiya, stresni kamaytirish.

ВЛИЯНИЕ ФИТНЕС-АЭРОБИКИ НА СОСТОЯНИЕ ЗДОРОВЬЯ ЖЕНЩИН РАЗНОГО ВОЗРАСТА В ПРОЦЕССЕ ОЗДОРОВИТЕЛЬНЫХ ЗАНЯТИЙ

Аннотация В статье анализируется влияние занятий фитнес-аэробикой на здоровье женщин разного возраста во время оздоровительной тренировки. Были учтены гормональные, физиологические и психологические изменения, происходящие в организме женщин с подросткового возраста до менопаузы и далее. Подчеркивается, что аэробные упражнения эффективны для укрепления сердечно-сосудистой системы, улучшения обмена веществ, контроля веса и поддержания подвижности суставов. Кроме того, регулярные аэробные и анаэробные упражнения, выполняемые синхронно с ритмичной музыкой, могут помочь снизить стресс, улучшить настроение и повысить психическую устойчивость. В статье рассматриваются методы тренировок, меры

безопасности, способы коррективки нагрузки в зависимости от возраста и состояния здоровья, способы поддержания мотивации, а также утверждается, что фитнес-аэробика является важной составляющей здорового образа жизни для женщин всех возрастов.

Ключевые слова: фитнес-аэробика, женское здоровье, разный возраст, оздоровление, гормональные изменения, сердечно-сосудистая система, физическая подготовка, методика тренировок, мотивация, снижение стресса.

THE IMPACT OF FITNESS AEROBICS ON THE HEALTH OF WOMEN OF DIFFERENT AGES IN THE PROCESS OF WELLNESS TRAINING

Annotation The article analyzes the impact of fitness aerobics on the health of women of different ages during a health workout. Hormonal, physiological and psychological changes occurring in the body of women from adolescence to menopause and beyond were taken into account. It is emphasized that aerobic exercises are effective in strengthening the cardiovascular system, improving metabolism, weight control and maintaining joint mobility. In addition, regular aerobic and anaerobic exercise performed in sync with rhythmic music can help reduce stress, improve mood and increase mental resilience.

The article discusses training methods, safety measures, ways to adjust the load depending on age and health, ways to maintain motivation, and also states that fitness aerobics is an important component of a healthy lifestyle for women of all ages.

Key words: fitness aerobics, women's health, different ages, health improvement, hormonal changes, cardiovascular system, physical training, training methods, motivation, stress reduction.

Zamonaviy jismoniy tarbiya va sog'lom turmush tarzi konsepsiyalarida fitnes-aerobika harakatlari turli yoshdagi ayollar salomatligini yaxshilash va mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Ma'lumki, ayollar organizmi hayotning har xil bosqichlarida fiziologik, gormonal hamda psixologik o'zgarishlarni boshdan kechiradi. Fitnes-aerobika esa har bir bosqichdagi ehtiyojlarga mos jismoniy yuklama, harakatlar mazmuni va mashg'ulotlar uslubiylatini taklif etib, sog'lomlashtirish jarayonining samaradorligini oshirish imkonini beradi. Aerobik mashqlar yurak-qon tomir tizimining mustahkamlanishi, tana vaznining nazorat qilinishi, bo'g'imlar hamda tayanch-harakat tizimining yaxshilanishi, umuman olganda, hayot sifati ko'rsatkichlarining oshishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, muntazam va maqsadli tashkil etilgan sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlarda fitnes-aerobika ayollarda stress darajasining pasayishi va ruhiy barqarorlikning kuchayishiga ham sabab bo'ladi.

Birinchi navbatda, o'smirlik davridagi qizlarning salomatlik holatiga fitnes-aerobika mashqlarining ta'sirini ko'rib chiqish muhim. Pubertat davrida organizmda yuz beradigan keskin gormonal o'zgarishlar, bo'g'im va suyaklarning faol rivojlanishi, mushak massasining ortib borishi turli jismoniy yuklamalarga bo'lgan talabni oshiradi. Shu nuqtai nazardan, fitnes-aerobika turlari qizlarda yurak urish tezligini bosqichma-bosqich oshirish, o'pkaning hajmini

kengaytirish va kislorod bilan to‘yinishini yaxshilash imkonini beradi. Musiqali muhitda harakatlar bajarish ruhiy tetiklikni ham mustahkamlaydi, ijtimoiy jihatdan ham jamoaviy mashg‘ulotlar orqali tengdoshlar bilan aloqani kuchaytiradi. Zero, balog‘at yoshidagilar uchun nafaqat jismoniy, balki emotsional barqarorlik ham muhim o‘rin tutadi. Fitnes-aerobika mashqlari izchil va zavqli bo‘lgani bois, o‘smir qizlar uchun ortiqcha zo‘riqishsiz, ammo samarali mashg‘ulotlar majmuasini yaratish mumkin.

Yigirma yoshdan boshlab o‘ttiz yoshgacha bo‘lgan davrda ayollarda yuqori darajadagi jismoniy faoliyat salohiyati kuzatiladi. Ushbu yosh oralig‘ida turli hayotiy o‘zgarishlar, masalan, o‘qishni yakunlash, oilaviy yoki kasbiy majburiyatlar, ba‘zan farzandli bo‘lish jarayonlari ro‘y beradi. Fitnes-aerobika mashg‘ulotlari stressni kamaytirish, tana vaznini muvozanatda ushlab turish va bo‘g‘imlarga kuchsiz ta’sir ko‘rsatadigan, ammo izchil ta’sir qiluvchi yuklama turlari sifatida ayni muddao bo‘lishi mumkin. Ayniqsa, o‘rta va yuqori intensivlikdagi aerobik dasturlar yog‘ qatlamlarini kamaytirish, mushak mustahkamligini oshirish va modda almashinuvini faollashtirishda yaxshi samara beradi. Shu bilan birga, musiqa tempi va harakatlar ritmi turli bo‘lgani tufayli mashg‘ulotlar bir xillikdan xoli bo‘lib, motivatsiyani pasaytirib yubormaydi. Endigina ish faoliyatini boshlagan yoki farzandli bo‘lgan ayollar uchun ham fitnes-aerobika mashg‘ulotlarini mos ravishda moslashtirish, masalan, qisqa, ammo samarali mashqlar ketma-ketligini tanlash qulay imkoniyat yaratadi.

O‘ttiz besh-qirq yosh oralig‘ida ayollarda gormonal fon asta-sekin o‘zgarishni boshlaydi, perimenopauza oldi davriga tayyorgarlik kechishi mumkin. Bu jarayon ba‘zan vazn ortishi, metabolik sekinlashuv va emotsional holatda o‘zgarishlar bilan kechadi. Fitnes-aerobika aynan shu paytda tanadagi salbiy o‘zgarishlarning oldini olish, yurak-qon tomir tizimini faol tutish, bo‘g‘imlar harakatchanligini saqlab qolish uchun juda muhimdir. Masalan, step-aerobika yoki interval mashg‘ulotlar orqali gormonal o‘zgarishlar sabab sekinlashishi mumkin bo‘lgan metabolizmni yaxshilash, qon aylanishini rag‘batlantirish va kayfiyatni ko‘tarish mumkin. Bunday yuklamalar, bir tomondan, cardiovascular (yurak-qon tomir) salomatlikni qo‘llab-quvvatlasa, boshqa tomondan, mushak tonusini yo‘qotmaslikka yordam beradi. Natijada, salomatlikni saqlash hamda jismoniy qobiliyatlarni maksimal darajada uzoq muddat davomida ushlab qolish osonlashadi.

Qirq-ellik yoshdan keyingi davrda, ya’ni menopauza jarayoniga kirgan ayollarda suyaklarning hamda mushak to‘qimalarining mustahkamligi pasayishi xavfi oshadi. Fitnes-aerobika bu yoshdagilar uchun ham qulay va xavfsiz jismoniy faoliyat turidir, chunki u tanani ostrakligicha zo‘riqtirmasdan, sokin va o‘rta intensivlikdagi yuklamani taklif etadi. Mashqlarni bajarishda ko‘plab saralangan harakatlar kiritiladi: sakrash elementlari kamroq yoki butunlay olib tashlangan bo‘lishi mumkin, lekin yurak urish tezligini me’yoriy darajada ushlab turadigan ritmik harakatlar saqlanadi. Bunday mashg‘ulotlar orqali suyak zichligini ma’lum darajada saqlab qolish va osteoporozning oldini olish mumkin. Shuningdek, ayollarda menopauza davrida tez-tez uchraydigan kayfiyat o‘zgarishlariga qarshi fitnes-aerobikaning ijobiy emotsional ta’siri ham juda foydali. Ma’lumki, doimiy ravishda endorfin ajralishi, stress

gormonlarini kamaytirish va gavda holatini tutishni yaxshilash ushbu yosh toifasidagi ayollar hayot sifatini sezilarli darajada ko‘taradi.

Fitnes-aerobikaning sog‘lomlashtirish jarayoniga ijobiy ta‘siri uning aerobik va anaerobik yuklamalarni uyg‘unlashtirishi bilan ham bog‘liq. Aerobik yuklama natijasida yurak urish tezligi oshadi, o‘pkada nafas olish hajmi kengayadi, hujayralarning kislorod bilan ta‘minlanish jarayoni faollashadi. Anaerobik segmentlar esa mushak kuchi va chidamliligini oshiradi. Bu, o‘z navbatida, jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlariga yaxshi ta‘sir ko‘rsatadi: mushak tonusi barqarorlashadi, vazn nazorati yaxshilanadi, modda almashinuvi rag‘batlanadi. Tana massasi indeksini (TMI) sog‘lom darajada ushlab turish ham kardiometabolik kasalliklarning oldini olishda muhim omildir. Shuningdek, mashg‘ulotlarda muvozanat va koordinatsiyani rivojlantiradigan elementlar qo‘llanilishi, uyqu sifatini yaxshilaydi va psixoemotsional muvozanatni ta‘minlaydi.

Mashg‘ulot jarayonida to‘g‘ri metodik yondashuv, ishtirokchilar salomatlik holatini muntazam kuzatish va yuklamani shunga mos ravishda boshqarish kerak bo‘ladi. Insonning yoshi, jismoniy tayyorgarligi, ortiqcha vazn yoki surunkali kasalliklar mavjudligi yuklamalar turini tanlashda e‘tiborga olinishi zarur. Har bir sesiyani boshlashdan oldin qisqa tibbiy ma‘lumot yoki sog‘liq holatini tekshirish (masalan, yurak urish tezligini o‘lchash) mashg‘ulot xavfsizligi nuqtaiy nazaridan dolzarbdir. Bundan tashqari, muntazam issiqlik berish (warm-up) va asosi mashqlarni bajarganidan keyin tiklanish (cool-down) bosqichlari, bo‘g‘imlarni elastik saqlash uchun cho‘zilishlar kiritilishi, mashqlar texnikasiga e‘tibor qaratish juda muhim. Bunda instruktor yoki mutaxassisning nazorati, uning to‘g‘ri ko‘rsatmalari, musiqiy hamrohlik ritmini tanlashi motivatsiya, jarohatlarning oldini olish va mashg‘ulotlarning umumiy sifatini yaxshilaydi.

Fitnes-aerobika orqali ayollarning sog‘liq holatini yaxshilashda psixologik omillar ham kam ahamiyatga ega emas. Musiqali mashg‘ulotlar, jamoaviy harakat, ijodiy koreografiya kiritish emotsional holatni yaxshilaydi va zerikishning oldini oladi. Shu bilan birga, ayollar o‘zaro muloqot qilishi, bir-birlarini qo‘llab-quvvatlashi va ilhomlantirishi sog‘lom turmush tarzi tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuning uchun ham ko‘p hollarda guruh mashg‘ulotlari taklif etiladi, chunki jamoaviy muhitda ijobiy dinamika tez shakllanadi, ishtirokchilar o‘zlarini yanada qulay his qiladi va davomiylikka erishish oson bo‘ladi. O‘z sog‘lig‘ida ijobiy natijalarni sezgan ayollar kelajakda ham doimiy mashq qilishga intiladilar, bu esa uzoq muddatli salomatlik garovidir.

Xulosa qilib aytganda, sog‘lomlashtiruvchi mashg‘ulotlar jarayonida turli yoshdagi ayollarning salomatlik holatiga fitnes-aerobika mashqlarining ta‘siri juda keng qamrovga ega. O‘smirlik davrida sog‘lom jismoniy rivojlanish va ijobiy ruhiy muhit yaratilishi, yigirma-yigirma besh yoshlar atrofida modda almashinuvi va qomatni saqlash, qirq yoshdan keyin esa jiddiy gormonal o‘zgarishlarga mos moslashuv mexanizmlari, suyak zichligini saqlash hamda stressni kamaytirish kabi maqsadlarga erishish fitnes-aerobika yordamida soddaroq kechadi. Metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilgan, individual xususiyatlar va xavfsizlik talablariga rioya

qilingan, jamoaviy yoki shaxsiy preferensiyalarga moslashtirilgan mashg‘ulotlar izchil va doimiy o‘tkazilsa, ayollarning uzoq muddatli sog‘lig‘i va hayot sifati sezilarli darajada yaxshilanadi. Shu tariqa, turli yoshdagi ayollar uchun fitnes-aerobika butun organizmni mustahkamlash, hissiy barqarorlikni oshirish va eng muhimi, sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda samarali omil sifatida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бородкина Г.М Фитнес-аэробика: методические рекомендации / Г.М.Бородкина. – Москва: Спорт Академ Пресс, 2019. - 256 с.
2. Новикова Е. В Современные подходы к аэробной фитнес-тренировке // Теория и практика физической культуры. – 2016. - № 4. - С. 54-57.
3. Козина Ж.Л Физическая культура и здоровье человека: учебно-методическое пособие / Ж.Л.Козина. – Харьков: ХГАДИ, 2017. - 136 с.
4. American College of Sports Medicine. ACSM’s Guidelines for Exercise Testing and Prescription. 10th ed. / American College of Sports Medicine. - Philadelphia: Wolters Kluwer, 2017. - 472 p.
5. Fahey T.D., Insel P. M., Roth W. T. Fit & Well: Core Concepts and Labs in Physical Fitness and Wellness / T. D. Fahey, P. M. Insel, W. T. Roth. - 14th ed. - New York: McGraw-Hill, 2020. - 512 p.
6. **World Health Organization** Global Recommendations on Physical Activity for Health / World Health Organization. - Geneva: WHO Press, 2010. - 58 p.
7. Айтова Н.С., Рахимова Д.А. Влияние аэробных упражнений на показатели здоровья у женщин зрелого возраста // Вопросы современной науки и практики. - 2018. - № 5(56). - С. 82-87.

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 8-son)



SAN'ATSHUNOSLIK
ART HISTORY

ADIBLAR XIYOBONIDA QAD ROSTLAGAN BUYUK SIYMOLAR.

Qodirova Zilola Ro'ziboyevna
Kamoliddin Behzod nomidagi
Milliy rassomlik va dizayn instituti
3 kurs tayanch doktoranti (PhD)

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada adiblar xiyobonidagi yozuvchi va shoirlarning mustaqillik davrida O‘zbekiston mahobatli haykaltaroshlik rivojining asosiy tamoyillari haqida batafsil ma’lumot berilgan.

KALIT SO‘ZLAR: Mahobatli xaykaltaroshlik, adiblar, buyuk ajdodlarimiz, atoqli, xotira, ajdodlar merosi, mutaffakirlar, mustaqillik, haykal, siymolar, adabiyot, bunyodkorlik, ajdodlar merosi, tarixiy.

АННОТАЦИЯ: В данной статье представлена подробная информация об основных принципах развития величественной скульптуры писателей и поэтов на аллее писателей и поэтов Узбекистана в период независимости.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Величественная скульптура, писатели, наши великие предки, знаменитые, память, наследие предков, мыслители, независимость, скульптура, деятели, литература, творчество, наследие предков, историческое.

ABSTRACT: This article provides detailed information about the main principles of the development of majestic sculpture of writers and poets in the avenue of writers and poets of Uzbekistan during the period of independence.

KEY WORDS: Majestic sculpture, writers, our great ancestors, famous, memory, ancestral heritage, thinkers, independence, sculpture, figures, literature, creativity, ancestral heritage, historical.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy o‘zlikni anglash va ma‘naviy merosni tiklash jarayonida ko‘plab madaniy-ma‘rifiy loyihalar amalga oshirildi. Qonun ustuvorligi asosida amalga oshirilayotgan cheksiz islohotlar va qarorlar davom etayotgani xalqimizning san‘at sohasiga bo‘lgan qiziqishini yaqqol ko‘rsatib turibdi. Adabiyot va san‘at har qanday xalqning o‘tmishi, buguni va kelajagiga ta’sir etuvchi muhim vositadir. Unda har bir davlatning madaniyati, an‘analari, dunyoqarashi, ma‘naviyati o‘z ifodasini topgan. Binobarin, adabiyot va san‘at yashasa, millat yashaydi, sha’ni ulug‘lanadi, qadri qadrlanadi. Adabiyot va san‘at xalqning yuragi, elning ma‘naviyatini ko‘rsatadi. Mana shunday zamonda adabiyotning buyuk qudrati va tasviriy san‘at unsurlarini badiiy mukammallashtirib, insonlar qalbiga yo‘l topish,

ularni ezgu ijodga ruhlantirishimiz zarur. Ajdodlarimiz merosini o‘rganish, buyuk madaniyatimizga munosib badiiy asarlar yaratish uchun barcha sharoit yaratilgan..

Shunday qilib, 1990-yillarning ikkinchi yarmida Respublikada sodir bo‘lgan shaharsozlikning jonlanishi, davlatning siyosiy va ijtimoiy sohalaridagi o‘zgarishlar natijasida yangi jamoat binolari va maydonlarning paydo bo‘lishi bir qator monumental obidalarning yaratilishiga xizmat qildi. Bu monumental haykaltaroshlikda yangi plastik vositalarni izlashni kuchaytirdi va shu bilan birga mahobatli haykaltaroshlikka katta e‘tibor qaratildi. Yangi memorial majmualarga inklyuziyani rivojlantirish uchun mahobatli haykaltaroshlarga o‘tgan davrdagi temir-beton karkaslardan foydalangan holda yirik monolit hajmlari ustun bo‘lgan binolar, shuningdek, rangli vitray va qo‘sh rangli oynalar yordamida zamonaviy uslubda qurilgan yangi ma‘muriy binolar taklif etildi. Zamonaviy shaharning estetik qiyofasini shakllantirishda faol ishtirok etgan haykaltarosh-monumentalistlar me'morlar bilan hamkorlikni muvaffaqiyatli amalga oshirdi. Buyuk vatandoshlar, mutafakkirlar va shoirlarning tarixiy xotirasiga murojaat qilib, 2002 yilda Nukus shahrida XIX asr qoraqalpoq adabiyotining eng yirik vakiliga o‘rnatilgan haykalni misol qilib keltirish mumkin. Ajiniyazu Kosibay uli (1824 – 1878).

Prezidentimiz Mirziyoyev Sh.M. shunday deydi: “Sizlarga yaxshi ma‘lum, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohot va o‘zgarishlar, keng ko‘lamli dasturlar yagona va ulug‘ bir maqsadga qaratilgan. U ham bo‘lsa, xalqimiz hayotini yanada obod va farovon qilish, farzandlarimizni har tomonlama yetuk va barkamol etib tarbiyalashdan iborat¹³.

Mirziyoyev Sh.M. joylarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, amalga oshirilayotgan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari, yangi loyihalar bilan tanishish, xalq bilan muloqot qilish maqsadida 23-dekabr kuni Toshkent shahridagi bir qator ijtimoiy obyektlarga tashrif buyurdi. Prezidentimiz avvalo, Adiblar xiyobonida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi. Davlatimiz rahbarining 2017-yil 18 apreldagi “Alisher-Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy bog‘i hududida Yozuvchilar xiyoboni barpo etish to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq Alisher-Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy bog‘i tashkil etildi. Qarorga ko‘ra xiyobonning me‘moriy-tarzda olib borilgan bunyodkorlik ishlari natijasida poytaxtimiz markazidagi Adiblar xiyobonining yaxlit me‘moriy ansambli qad rostladi. Bu tarixiy voqelik adabiyot va san‘atimizni yana bir pog‘ona yuksaklikka ko‘tarish bilan ahamiyatlidir. A.Navoiyning muhtasham haykali atrofida 20 dan ziyod atoqli shoir va adiblarning haykallari me‘moriy va badiiy kompozitsiyada, mantiqiy yechim asosida o‘rnatildi. Yozuvchilar uyushmasi uchun bino barpo etilganligi mahobatli haykallar bilan hamohanglik kasb etadi.

Ma‘naviy hayotimizda o‘chmas iz qoldirgan atoqli ijodkorning tarixiy xotirasini asrab-avaylash maqsadida mehmonlar va sayyohlar tashrif buyuradigan bog‘ hududida adiblar

¹³ Mirziyoyev Sh.M. Ozod va obod vatanning barkamol farzandlari// Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. T.:O‘zbekiston, 2018.-B.412.

xiyoboni barpo etilmoqdi. Mirziyoyev Sh.M. tashabbusi bilan bunyod etilgan Adiblar xiyobonini xalqimiz uchun ilm maskanlaridan biri bo‘lib xizmat qilmoqda. Sababi Adiblar xiyoboniga tashrif buyurgan inson, san’atga oshnolik ruxini o‘zida his qiladi.

Mirziyoyev Sh.M 20-may kuni Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy bog‘ida barpo etilgan Adiblar xiyoboniga tashrif buyurdi. Davlatimiz rahbari bu yerga tashrif buyurib, Alisher Navoiy haykali poyiga gul qo‘ydi. Xiyobonda amalga oshirilgan ishlar va yaratilgan sharoitlarni ko‘zdan kechirdi. Shuningdek, Shavkat Mirziyoyev Adiblar xiyoboni yonida tashkil etilgan Toshkent shahri muzeyi bilan ham tanishdi. Hozirgacha muzeyda mingga yaqin eksponatlar to‘plangan.

O‘tgan vaqt mobaynida qurilish va obodonlashtirish ishlari amalga oshirilib, 9 gektardan ziyod maydonda Adiblar xiyobonining yaxlit me‘moriy ansambili yaratildi. Ilgari bu yerda bir qancha adiblarning yodgorliklari bo‘lgan. Binobarin, Alisher Navoiydan keyin iste’dodli shoirlar yetishib chiqmagandek taassurot qoldi. Shu bois Adiblar xiyobonini g‘oyaviy-badiiy jihatdan yanada boyitish maqsadida Bobur, Ogahiy, Avloniy, Berdak, Qodiriy, Aleksandr Faynberg, Muqimiy, To‘lepbergen Qayipbergenov, Ibroyim Yusupov, Furqat, Behbudiy, Avroniy, Cho‘lpon, Zulfiya kabi buyuk siymolar xotirasiga bag‘ishlangan yangi yodgorliklar barpo etilmoqdi.

Adiblar xiyobonidagi har bir bekat taniqli mualliflarning hayoti va ijodi haqida o‘ziga xos ma’lumot beradi, ularning adabiyot olamiga qo‘shgan hissalarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Xiyobonning har bir go‘shasi ilhom va bilim xazinasini hisoblanadi. Ushbu adabiy manzarani aylanib chiqayotib, mumtoz romanchilar, zamonaviy shoirlar va nufuzli dramaturglarning asarlariga duch kelishingiz mumkin, ularning har birida hikoya qilish uchun hikoya va meros qoldiriladi. Xiyobon so‘z qudrati va adabiyotning jamiyatga ta’sirining jonli isboti bo‘lib, yozma so‘zning go‘zalligi va murakkabligi haqida fikr yuritishga chorlaydi. Xiyobon bo‘ylab sayr qilgan odamni o‘tmish aks-sadolari, adabiy buyuklik shivirlari o‘rab oladi. Xiyobon bo‘ylab aylanib o‘tayotganda, yaproqlarning shitirlashi va qushlarning sayrashini kutib oladi, bu esa fazoda yashovchi adabiy ruhlar bilan uyg‘unlashgan tabiat simfoniyasini yaratadi.

Har bir haykal oldida to‘xtab, tashrif buyuruvchilar adabiy manzarani shakllantirgan yozuvchilarga hurmat bajo keltiradi. Ular o‘quvchilarni avlodlar davomida o‘ziga rom etib kelgan mavzular va qahramonlar haqida mulohaza yuritish uchun to‘xtab, vaqt sinovidan o‘tgan so‘zlardan tasalli va ilhom topadilar.

Davlatimiz rahbari bu yerga tashrif buyurib, Alisher Navoiy haykali poyiga gul qo‘ydi. Xiyobonda amalga oshirilgan ishlar va yaratilgan sharoitlarni ko‘zdan kechirdi. Adiblar xiyoboni - bu fidoyilik, qat’iyat va hikoya qilishga ishtiyoqni talab qiladigan dinamik va doimiy rivojlanayotgan sayohat. Ushbu ijodiy yo‘lning qiyinchiliklari va quvonchlarini o‘z bag‘riga olib, yozuvchilar o‘z ijodida to‘liqlik topa oladi, tomoshabinlar bilan bog‘lanib, adabiy manzaraga mazmunli hissa qo‘shadi. Ushbu o‘zgaruvchan sayohatga kirishar ekan, ular nafaqat

o'zlarining noyob ovozi va uslubini, balki so'zlari boshqalarga qanday chuqur ta'sir qilishini ham kashf etadilar.

Har bir yozuvchining sayohati o'ziga xosdir va muvaffaqiyatga erishish yo'li har bir kishi uchun farq qilishi mumkin. Yozuvchilar yo'lida harakat qilish qat'iyat, fidoyilik, ijodkorlik va o'rganish va moslashishga tayyorlikni talab qiladi. Yo'l davomida qiyinchiliklar va imkoniyatlarni o'zlashtirgan holda, yozuvchilar o'z hunarmandchiligida muvaffaqiyat topishlari va yozish maqsadlariga erishishlari mumkin. Adiblar xiyoboniga kiraverishda adiblarni shoxlari qutlangan qo'llardek cho'zilgan, o'z xayollari qo'lini o'rganishga chorlayotgan baland daraxtlar soyabon kutib oladi. Barglarning shitirlashi yozilishini kutayotgan bitmas-tuganmas hikoyalarning pichirlashi, yozuvchilarni o'z ongining chuqurliklariga chuqur kirib borishga va ichida yashiringan xazinalarni ochishga ilhomlantirdi.

Adiblar xiyobon bo'ylab yurib borar ekan, ular ijodiy safarlarida yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qiladigan bir qator adabiy diqqatga sazovor joylarga duch kelishadi. "Bilimlar kutubxonasi" yozuvchilarni texnika, uslub va hikoya tuzilishi bo'yicha saboqlar berib, o'zlaridan oldin yo'l ochgan adabiyot gigantlari ijodiga sho'ng'ishga taklif qiladi. "Ijodkorlik kafesi" yozuvchilarga bir-birlarining tajribalari, kurashlari va g'alabalaridan ilhom olib, to'planishi va fikr almashishi uchun imkoniyat yaratadi. Biroq, adiblar xiyoboni ham o'ziga yarasha qiyinchiliklardan xoli emas. Rad etish xiyoboni mash'um tarzda paydo bo'lib, yozuvchilar muvaffaqiyatsizliklar, tanqid va o'z-o'ziga shubha bilan duch kelganlarida ularga soya soladi. Shunday bo'lsa-da, aynan mana shu zulmatda yozuvchilar sabr-toqat va qat'iyatni topib, o'z hunarini takomillashtirish va o'z qobiliyatlariga yanada kuchliroq va ishonchliroq bo'lib chiqishadi. Xiyobon bo'ylab sayohat qilar ekan, ular yo'lda yashirin marvaridlarni kashf etadilar – g'oyalar erkin va daxlsiz oqadigan "Ilhom chashmasi"; Tasavvur ko'prigi, u erda yozuvchilar tafakkur va ifodaning aniqlanmagan hududlariga o'tishga jur'at etadilar; va Mulohaza maydonchasi, u erda yozuvchilar o'z sayohatlari va so'zlarining atrofdagi dunyoga ta'siri haqida o'ylash uchun to'xtashadi.

Xulosa qilib aytganda, adiblar xiyobonida qad roslagan buyuk siymolar o'z ijodiy intilishlari yo'lida bosib o'tadigan serqirra sayohatini ifodalaydi. Adiblar xiyoboni ulkan xotiralar majmui va shaxsiy o'sishini birgalikda shakllantiradigan san'at asarlari yig'ndisi qiyinchiliklar, imkoniyatlar, muvaffaqiyatsizliklar va g'alabalar bilan bog'liq. Adiblar xiyobonida sayr qilish o'z ustida ishlash mahoratini rivojlantirish va mukammallashtirishni, ularning ijodini namoyish etish va targ'ib qilish uchun platforma yaratishni, xaykaltaroshlik san'atining nozik tomonlarini tushunishni, rad etish va to'siqlarga chidamlilikni rivojlantirishni talab qiladi. Mahobatli xaykaltaroshlikda shuningdek, o'sish uchun yangi imkoniyatlarni o'rganish, doimiy ravishda o'z hunarmandchiligini o'rganish va rivojlantirish va ular duch kelishi mumkin bo'lgan noaniqlik va to'siqlarga qaramay, o'zlarining badiiy qarashlariga sodiq qolishlari muhimligi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Ozod va obod vatanning barkamol farzandlari// Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. T.:O‘zbekiston, 2018.-B.412.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. – Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2020. – 48 b.
3. Feruz Islomov “Haykaltaroshlik” Toshkent 2017 y.
4. https://sanat.orexca.com/2011-rus/2011-2-2/gayratbay_mambetkadirov/

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 8-son)



SAN'ATSHUNOSLIK
ART HISTORY

UO‘K:79-053.8

ORCID: 0009-0001-5067-5554

SHERALI JO‘RAYEV XALQ QALBIDA MANGU YASHAYDI

Kamola Abidova,

*Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros
ilmiy-tadqiqot instituti mustaqil izlanuvchisi*

Tel: (99) 637-99-23

*Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros
ilmiy-tadqiqot instituti Ilmiy kotibi*

t.f.f.d (PhD), dotsent J.Axmedov taqrizi asosida

Muallif email: abkaimfyu@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola o‘zbek xalqining mashhur bastakori va qo‘shiqchisi Sherali Jo‘rayevning hayoti, ijodi va uning milliy madaniyatdagi o‘rni haqida so‘z yuritadi. Maqolada Sherali Jo‘rayevning xalq qalbida mangu yashashining sabablari, uning san‘atga va xalqqa qo‘shgan hissiy batafsil yoritilgan.

Kalit so‘zlar: musiqa, xalq san‘ati, bastakor, qo‘shiqchi, milliy madaniyat, ijod, vatanparvarlik, xalq qalbi, madaniy meros.

ШЕРАЛИ ДЖУРАЕВ БУДЕТ ЖИТЬ ВЕЧНО В СЕРДЦАХ НАРОДА

Аннотация: В данной статье рассматривается жизнь и творчество известного узбекского композитора и певца Шерали Джураева, а также его роль в национальной культуре. Подробно освещены причины его вечной популярности среди народа и вклад в искусство и общество.

Ключевые слова: музыка, народное искусство, композитор, певец, национальная культура, творчество, патриотизм, народное сердце, культурное наследие.

SHERALI JURAYEV WILL LIVE FOREVER IN THE HEARTS OF THE PEOPLE

Annotation: This article discusses the life and works of Sherali Jo‘rayev, a famous Uzbek composer and singer, as well as his role in the national culture. It highlights the reasons for his lasting popularity among the people and his contributions to art and society.

Key words: music, folk art, composer, singer, national culture, creativity, patriotism, people’s heart, cultural heritage.

“Yarim asr bo‘libdiki, Sherali Jo‘rayev buyuk ko‘pkarida tulpori jilovini maxkam tutib, mudom uloqni tashlab kelmoqda. Shaxsan men, dunyo qo‘shiqchiligida bunday uzoq muddat sahnada qolgan san‘atkorini bilmayman. Bu har qanday shaxsga nasib etajak qismatu qadar, shonu sharaf emas albatta”

Nurali Qobul

Xalqaro Chingiz Aytmatov

Akademiyasi akademigi

Kirish. O‘zbekiston san‘ati tarixida unutilmas iz qoldirgan siymolar ko‘p. Ammo shunday siymolar borki, ularning ovozi, ijodi va qalbdan chiqqan so‘zlari minglab yuraklarda abadiy muhrlanadi. Ana shunday san‘atkorlardan biri — xalqimiz ardog‘idagi xonanda, shoir va bastakor Sherali Jo‘rayevdir. Uning nomi eshutilishi bilan ko‘plar yuragida iliqlik, sog‘inch va iftixor tuyg‘ulari jo‘sh uradi.

U o‘zbek musiqasi va madaniyatining noyob vakili, xalqimizning eng sevimli san‘atkorlaridan biri. Uning ovozi va ijodi nafaqat o‘zbek xalqining, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasining madaniy hayotida chuqur iz qoldirgan. Sherali Jo‘rayev nafaqat san‘atkor, balki xalq ruhini aks ettiruvchi, milliy g‘ururimiz va ma‘naviyatimizning yorqin ramzidir. Jo‘rayev o‘zining xalqona uslubdagi qo‘shiqlari bilan xalq qalbida mangu yashaydi.

Asosiy qism. Sherali Jo‘rayev 1947-yilda tug‘ilgan. U musiqaga bolalikdan mehr qo‘yib, o‘ziga xos ovozi va ijodiy qobiliyatlari bilan ko‘plab tinglovchilar qalbini zabt etgan. Uning dastlabki qo‘shiqlari tez orada keng ommaga mashhur bo‘lib, xalq ijodkorlari orasida alohida o‘rin egalladi. Sherali Jo‘rayevning ijodida xalq musiqasining qadimiy an‘analarini zamonaviy ohanglar bilan uyg‘unlashtirish san‘ati mujassam. Uning eng mashhur asarlari 1980-1990-yillarga to‘g‘ri keladi. U ko‘plab qo‘shiqlar yaratgan, ularning aksariyati o‘zbek she‘riyatiga asoslangan. Jo‘rayevning “Shodlik” ashula va raqs ansamblida boshlangan ijodiy faoliyati davomida yuzlab qo‘shiqlar yaratdi, shogirdlar tayyorladi va o‘zbek musiqa san‘atida katta rol o‘ynadi. Shaxsan men Sherali Jo‘rayevni san‘atimizning eng zabardast vakillaridan hisoblayman.

Sherali Jo‘rayev nafaqat betakror ovozi, balki sermazmun, falsafiy teranlikka boy qo‘shiqlari bilan o‘z davrining san‘atiga tamoman yangicha ruh olib kirgan ijodkordir. Uning asarlari inson qalbiga kirib boradi, uni to‘lqinlantiradi, o‘ylantiradi. U o‘z ijodi orqali nafaqat muhabbat, g‘am, sog‘inch kabi tuyg‘ularni ifoda etdi, balki milliy g‘urur, vatanparvarlik va ma‘naviy yuksalish g‘oyalarini targ‘ib qildi.

Sherali Jo‘rayevning qo‘shiqlari tilimiz, dinimiz, tariximiz va qadriyatlarimiz haqida. U o‘z asarlarida buyuk ajdodlarimiz — Alisher Navoiy, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Bobur kabi siymolarni yod etar, ularning ma‘naviy merosini targ‘ib qilar edi. Ayniqsa, “O‘zbekim”, “Saylanma”, “Go‘zal Toshkent”, “Birinchi muhabbatim” singari qo‘shiqlari yillar o‘tsa-da, har bir yurakda yangrayveradi.

Sherali Jo‘rayev ijodining o‘ziga xos jihatlaridan biri uning qo‘shiqlarida milliy ruh va xalqning tarixiy qadriyatlari aks etishidir. U o‘zining kuylari va qo‘shiqlarida o‘zbek xalqining kundalik hayoti, tabiat manzaralari, tarixiy voqealar va insoniy qadriyatlarni juda samimiy va ta’sirchan tarzda tasvirlaydi. Uning qo‘shiqlari ko‘pincha she’riy va musiqiy badiiyligi bilan ajralib turadi, bu esa ularni nafaqat tinglash, balki yurakdan his qilish imkonini beradi.

Sherali Jo‘rayev “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist”, “O‘zbekiston xalq artisti” faxriy unvonlari, Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi davlat mukofoti, “Fidokorona xizmatlari uchun” va “El-yurt hurmati” ordenlari, shuningdek, “Tojikiston xalq artisti” faxriy unvoni bilan mukofotlangan. Jo‘rayev besh farzandning otasi: ikki o‘g‘il va uch qiz. O‘g‘illari Shohjaxon va Zohirshoh Jo‘rayevlar ham xonanda.

“Ey, dilbarim”, “Parijon”, “Gulbadan”, “O‘zbekistonim”, “Shohliklarim” kabi mashhur qo‘shiqlari butun o‘zbek xalqining sevimli bastalari sifatida qabul qilingan. Ularning har biri milliy musiqamizning bezagi va madaniy merosimizning qimmatli qismi hisoblanadi.

Sherali Jo‘rayev faqat shaxsiy ijodi bilan emas, balki yosh avlodni tarbiyalash, ularni san’atga va milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash borasida ham katta ishlar qilgan. U ko‘plab yosh bastakor va qo‘shiqchilar uchun ustoz bo‘lib, san’atning sir-asrorlarini o‘rgatgan, ularga ilhom bergan.

Sherali Jo‘rayevning xalq qalbida abadiy yashashining sababi uning san’atida yotadi. Uning qo‘shiqlari, ularning so‘zlari, musiqasi nafaqat chiroyli ovoz, balki xalqning hayotiy tajribalari, orzu-umidlari, dard-u shodliklari bilan chambarchas bog‘liq. Har bir qo‘shiq tinglovchini o‘zining samimiyati va chuqur ma’nosi bilan o‘ziga tortadi.

Bundan tashqari, Sherali Jo‘rayevning o‘zbek tiliga va milliy madaniyatga bo‘lgan hurmati, uning yurtga, xalqqa bo‘lgan chin dildan sevgisi ham uning ijodini xalq uchun yanada qadrli qiladi. U har doim o‘z xalqining ma’naviy va madaniy qadriyatlarini yuksaltirishga intilgan.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, Sherali Jo‘rayev faqat xonanda emas, balki teran tafakkur egasi, xalq donishmandi edi. Uning she’rlari, intervyulari, sahnadagi chiqishlarida donishmandlik, hayotiy tajriba va yuksak ma’naviyat aks etgan. U san’atkor sifatida hamisha xalq orasida, xalq bilan birga yashadi, shuning uchun ham xalq uni chin dildan sevdi.

Sherali Jo‘rayev — bu o‘zbek san’atining yorqin yulduzi, xalqimizning ma’naviy va madaniy hayotining ajralmas qismidir. U o‘zining noyob ovozi va ijodi bilan nafaqat o‘z davrining, balki kelajak avlodlarning ham qalbiga yo‘l topdi. Uning qo‘shiqlari va badiiy merosi yillar o‘tgan sayin yanada qadrli va muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Sherali Jo‘rayev milliy madaniyatimizni boyitishda, o‘zbek xalqining ruhi va qadriyatlarini dunyoga tanitishda bebaho hissa qo‘shdi. Uning ijodi — millatimizning yorqin yulduzi, kelajak avlod uchun bebaho merosdir.

Bolalik paytlarim dadamning Sherali Jo‘rayev qo‘shiqlari yozilgan plastinkalari juda ko‘p bo‘lard. Dadam Jo‘rayev qo‘shiqlarini marom bilan tinglar edilar, shu-shu bizning ham bolaligimiz ana shunday purma’no qo‘shiqlar bilan o‘tdi. Institutning 4-kursida o‘qiyotgan

paytlarim oliygohimizning teatr binosida katta bir tadbir tashkillashtirildi. Ana shu tadbirda Sherali Jo‘rayevni yaqindan ko‘rish baxti menga nasib qilgan. Men ko‘rgan paytim u ancha keksayib qolgan edi, lekin shunga qaramay u bir juft qo‘shiq bilan biz talabalarni siylagani esimda...

Bugun, u oramizda bo‘lmasa-da, uning ovozi yuraklarda, qo‘shiqlari esa tillarda yashamoqda. U yaratgan asarlar hali yana necha-necha avlodni tarbiyalaydi, milliy o‘zlikni anglashga chorlaydi. Sherali Jo‘rayev xalq qalbida mangu yashaydi — bu so‘zlar oddiy ibora emas, balki haqiqatdir.

Xulosa. Xalqimiz “San’atkor o‘lmaydi — uning san’ati yashaydi” degan naqlni bejiz aytmagan. Sherali Jo‘rayevning boy merosi, betakror ovozi, she‘riyati va milliy ruhdagi qo‘shiqlari abadiy yashaydi.

Uning san’ati xalq uchun yaqin, chin dildan chiqadi, bu esa uning ijodini abadiy qiladi. Sherali Jo‘rayevning qo‘shiqlari hali ko‘plab kelajak avlod tomonidan tinglanadi, eslanadi va o‘rganiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Jo‘rayev Sherali “Agar sendan tonar bo‘lsam”-T: IJOD PRESS, 2018.
2. Karimov O. ”Sherali Jo‘rayevning xalq qalbida o‘rni”, Madaniyat va san’at” jurnali, 2020. №3.
3. “Sherali Jo‘rayev bilan suhbat”, O‘zbekiston ovozi gazetasi, 2019-yil, 12-iyul
4. Jo‘rayev Sherali, “Bir qo‘shiq kuylayki”-Toshkent, 2023
5. Wikipedia va boshqa internet resurslaridan foydalanildi.



SHERALI JO'RAYEV IJODINING RUHIYAT OLAMI

Tojiboyev Sardor O'ktam o'g'li

*Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros
ilmiy-tadqiqot instituti katta ilmiy xodimi*

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekiston xalq artisti Sherali Jo'rayev ijodining madaniy, estetik va falsafiy jihatlarini chuqur tahlil qiladi. Muallif san'atkorning musiqasi, poeziyasi, tarixiy xotirani tiklashdagi roli, xalq og'zaki ijodi bilan bog'liqligi, va milliy ong shakllanishidagi ahamiyatini yoritadi. Maqolada Jo'rayevning klassik adabiyotga tayanishi, maqom san'ati va zamonaviy musiqa uyg'unligidagi o'rni, siyosiy bosim davrida san'at orqali xalq bilan muloqot qilgan uslublari tahlil etiladi. Tadqiqotda uning ijodini ilmiy asosda o'rganish zaruriyati va yosh avlodga ta'siri alohida urg'ulanadi.

Kalit so'zlar: Sherali Jo'rayev, musiqa, milliy ong, adabiyot, maqom, falsafa, tarixiy xotira, xalq ijodi, madaniy identik, estetik uyg'unlik.

Аннотация: В статье представлен углублённый анализ культурного и философского наследия народного артиста Узбекистана Шерали Жураева. Рассматриваются особенности его музыкального и поэтического творчества, его вклад в формирование национального самосознания, отражение духовных и исторических тем в искусстве. Автор исследует влияние устной народной традиции, классической литературы и музыкальных жанров (маком, эстрада) на творчество Жураева, а также его роль в условиях цензуры и политического давления. Особое внимание уделено актуальности его наследия в современном культурном контексте и для молодёжи.

Ключевые слова: Шерали Жураев, музыка, национальное сознание, литература, маком, философия, историческая память, народное творчество, культурная идентичность, эстетическая гармония.

Abstract: This article presents a comprehensive analysis of the artistic, cultural, and philosophical legacy of Sherali Jo'rayev, People's Artist of Uzbekistan. The author examines Jo'rayev's contributions to national identity, his fusion of classical literature with traditional and modern music, and the symbolic reflection of historical memory and moral values in his songs. Special attention is given to his role during periods of censorship and his continued influence on contemporary culture and younger generations. The paper highlights the need for scholarly exploration of his multidimensional legacy as a musical and cultural phenomenon.

Keywords: Sherali Jo'rayev, music, national identity, literature, maqom, philosophy, historical memory, folk tradition, cultural consciousness, aesthetic harmony.

*Shunday o‘lmas siymolar bo‘ladiki, ular fan va madaniyatning qaysi sohasida faoliyat olib borgan bo‘lmasinlar, faqat zamondoshlariningina emas, balki muayyan xalqning keyingi taqdiriga ham katta ta’sir ko‘rsatadilar.*¹⁴

Naim Karimov

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonning ijtimoiy-madaniy hayotida tub o‘zgarishlar yuz berdi. Xususan, xalqning o‘z tarixiga, boy madaniy merosiga, milliy urf-odat va qadriyatlariga bo‘lgan munosabati sezilarli darajada o‘zgardi. Milliy musiqiy madaniyatni qayta tiklash, an’anaviy va zamonaviy yo‘nalishlarni uyg‘unlashtirish, xalq ongida milliy o‘zlikni mustahkamlash jarayonida san’at, ayniqsa, musiqa san’atining o‘rni beqiyos bo‘ldi.

Ushbu jarayonda o‘zining betakror ijodi, falsafiy mazmuni chuqur, poetik jihatdan yuksak badiiyatga ega qo‘shiqlari, klassik va zamonaviy adabiyot bilan uyg‘unlashtirilgan musiqiy asarlari bilan Sherali Jo‘rayev alohida o‘rin egallaydi. Uning ijodi orqali o‘zbek xalqining ma’naviy-ruhiy olami, tarixiy xotirasi, orzu-umidlari, ijtimoiy-siyosiy iztiroblari va or-nomusi badiiy talqin etilgan.

Musiqashunoslik nuqtayi nazaridan Sherali Jo‘rayev ijodining musiqiy, adabiy va falsafiy qirralarini kompleks tarzda tahlil etish masalasi hozirgi kungacha yetarlicha o‘rganilmagan bo‘lib, bu yo‘nalishda bir qator, jumladan, hofiz ijodining shakllanish bosqichlarini tarixiy-madaniy kontekstda yoritish, унинг qo‘shiqlari asosidagi poetik va musiqiy uslubni ilmiy tahlil qilish, adabiy manbalar va falsafiy tamoyillarni aniqlash, can’atining milliy ong, o‘zlikni anglash va ijtimoiy ong shakllanishidagi rolini ochib berish, Sherali Jo‘rayev ijodining zamonaviy talqini va merosxo‘rlik jarayonini baholash kabi ilmiy vazifalar mavjud.

Ijodkor nafaqat musiqa san’ati doirasida, balki xalq og‘zaki ijodi, adabiyot, tarix, falsafa, siyosat va madaniyatshunoslik bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ko‘p qirrali madaniy-falsafiy fenomen sifatida o‘rganilishi lozim. Uning qo‘shiqlarida shakllangan badiiy, musiqiy, adabiy va ijtimoiy qatlamlarni tadqiq etish ilmiy yangilik kasb etadi. Xususan, Sherali Jo‘rayev ijodi birinchi bor musiqa, adabiyot va madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan kompleks o‘rganish, qo‘shiqlardagi poetik obrazlar tizimi, metaforalar, folklor va klassik adabiyotga asoslanganlik darajasi ochib berish, musiqa orqali milliy identiklikning shakllanishi masalasi Sherali Jo‘rayev ijodi misolida tahlil qilish, senzura, siyosiy bosim va san’at erkinligi muammolari ijodiy faoliyati misolida tadqiq etilishi kerak.

Sherali Jo‘rayev 1947-yil 12-aprelda Andijon viloyatining Asaka tumanida tug‘ilgan. Uning bolalik va o‘smirlik yillari sovet davri mafkurasi hukmron bo‘lgan ijtimoiy-madaniy muhitda o‘tdi. Shu bilan birga, Andijon vodiysining qadimiy xalq og‘zaki ijodi, diniy-ma’rifiy qadriyatlari va folklor muhitining boyligi ijodiy shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Xususan, “Andijon maktabi” deb ataluvchi folklor an’analari, dostonchilik va maqom san’ati Jo‘rayev ijodining boshlang‘ich manbalaridan bo‘ldi.

¹⁴ Наим Каримов. Улуғ шоир ҳақида асар // Ойбек. Навоий. Т.: “Ўзбекистон” НМИУ. 2020. 3-бет.

Hofiz Toshkent Davlat madaniyat institutini tamomlagach, professional sahnaga qadam qo‘ydi. 1970–1980-yillarda “Shodlik” ansamblida faoliyat yuritib, ijodiy izlanishlarini boshlab yubordi. 1980–1990-yillarda Andijon viloyat filarmoniyasi va O‘zbekiston davlat filarmoniyasida ishladi. Bu davr uning ijodiy barkamollik bosqichi bo‘lib, ko‘plab mashhur qo‘shiqlari aynan shu yillarda yaratildi.

Sovet davrida san‘at asarlari qat’iy ideologik nazorat ostida bo‘lgan bo‘lsa-da, Sherali Jo‘rayev o‘z ijodida ramz, kinoya va tarixiy obrazlar orqali xalq qalbiga yaqin mavzularni ifoda etishga muvaffaq bo‘ldi. Ayniqsa, klassik shoirlar she‘rlari asosida yaratilgan qo‘shiqlari hamda falsafiy ohangdagi asarlari zamonaviy sharoitda muqobil ma‘naviy manba vazifasini bajardi. Uning ko‘plab asarlari senzura sababli ommaviy axborot vositalaridan olib tashlangan bo‘lsa-da, xalq orasida audio va video yozuvlar orqali tarqalib, jonli ijro orqali hayotiyligini saqlab qoldi.

1991-yilda O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, Sherali Jo‘rayev ijodi keng auditoriyaga yetib bordi va u milliy uyg‘onish ramziga aylandi. “O‘zbegin”, “Ey dil”, “Karvon”, “Sarvon”, “Keldi bahor”, “Bahor ayyomi”, “Izlangiz”, “Shirindur”, “Oshiq bo‘ldim”, “Oshiqlar sardori”, “To‘kilmish”, “Agar sendan tonar bo‘lsam”, “Achchiq haqiqat”, “Inson o‘zing”, “Birinchi muhabbatim”, “So‘roqlar”, “Onaginam”, “O‘xshamas”, “Dilbar”, “Sharshara”, “Oq qayin”, “Yaralgan”, “Qarashlarga”, “Siz buyuksiz, go‘zalginam...”, “Atirgulim”, “Yodingdamu yoshligimiz”, “Gulbadan”, “Ey do‘st”, “Andijon tomonlarda” kabi qo‘shiqlari nafaqat estetik qiymati, balki ijtimoiy-tarixiy ahamiyati bilan ham ajralib turadi. Ushbu asarlar milliy o‘zlikni tiklash va mustahkamlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qildi.

Andijon folklor maktabi o‘zida qadimiy dostonlar, xalq qo‘shiqlari, maqom va baxshichilik an‘analarini mujassam etadi. Sherali Jo‘rayev ushbu madaniy zaminni chuqur o‘rganib, uni zamonaviy ijodiy talqin orqali qayta ifoda etdi. Uning ijodini ilmiy tadqiqot ob‘ekti sifatida o‘rganishda quyidagi asosiy yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi:

Musiqashunoslik tahlili (nota va ohang tizimini o‘rganish);

Poetika va stilistika tahlili (she‘riy matnlarning badiiy xususiyatlarini tahlil qilish);

Tarixiy-kontekstual yondashuv (asarlarni yaratilgan davr ijtimoiy-madaniy sharoitida tadqiq etish);

Diskurs va semiotik tahlil (madaniy belgilar va ramzlarni sharhlash);

Komparativ metod (muayyan asarlarni boshqa davr va ijodkorlar bilan qiyosiy o‘rganish).

XX asrning 1970–1980-yillaridagi “Shodlik” ansamblidagi faoliyati Sherali Jo‘rayevning sahna madaniyatini shakllantirdi. Ushbu davrda u estrada janriga folklor unsurlarini olib kirib, yangicha ijodiy yo‘nalish yaratdi. Ayrim qo‘shiqlarida dramatik kompozitsiya, sahnaviy ifoda, teatr elementlari, pauza va nutqiy uslubdan mahorat bilan foydalangan. Ayniqsa, “Inson qasidasi” kabi asarlarida ushbu tendensiya yaqqol namoyon bo‘ladi.

Sherali Jo‘rayev ijodi o‘zbek adabiyoti bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, uning ko‘plab qo‘shiqlari mashhur shoirlarning badiiy asarlari asosida yaratilgan. San‘atkor adabiy

matnlarning g‘oyaviy, ijtimoiy va falsafiy mazmunini musiqiy shaklda talqin etib, ularni ma‘naviy chuqurlik bilan boyitadi. Bu holat uning ijodining mustahkam adabiy asosga egaligini tasdiqlab, musiqiy kompozitsiyalarining badiiy va falsafiy qiymatini yanada oshiradi.

Hofiz Navoiy g‘azallaridagi “ishq”, “tavba”, “majozat” kabi tushunchalarni ohang vositasida tinglovchiga yetkazadi. Navoiy ruhida aruz vazni va obrazlar SHERALI JO‘RAYEV ijodida zamonaviy ma‘naviy kontekstda yashaydi. Jaloliddin Rumi tasavvufiy-falsafiy merosi esa uning asarlarida ramziy shakllar orqali aks etib, “Sen kimsan ey dil?”, “Borliq nimadir?” kabi savollar shaklida ifodalanadi. Bu musiqiy asarlar orqali ma‘naviy sayr, qalb pokligi va ruhiy kamolot targ‘ib qilinadi.

San‘atkor o‘z ijodida Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdurahmon Jomiy, Nizomiy, Sadiy Sheroziy, Jaloliddin Rumi, Mulla Panoh Voqif, Samad Vurg‘un kabi klassik adiblar, shuningdek, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rasul Hamzatov, Halima Xudoyberdiyeva, Usmon Azim, Omon Matchon, Normurod Narzullayev va Nurali Qobul kabi zamonaviy shoirlarning she‘rlarini musiqaga aylantirgan. She‘riy matnlari orqali mustaqillik, erkinlik, milliy iftixor, ona yurtga sadoqat kabi mavzularni kuylagan; tarixiy shaxslar faoliyatini madh etuvchi va ularni ramziy obrazlarda ifodalovchi qo‘shiqlar yaratgan. Shu tariqa u xalqda tarixiy xotirani uyg‘otishga xizmat qilgan.

O‘zbek xalqining qadimiy ruhiy olami, ma‘naviy izlanishlari va tarixiy xotirasi SHERALI JO‘RAYEV qo‘shiqlarida musiqiy shaklda ifodalanadi. Uning ohang va so‘z uyg‘unligi tinglovchi qalbiga bevosita ta‘sir etadi, ayniqsa jonli ijro jarayonidagi energetik kuch auditoriyani rom etadi. San‘atkor ijodi madaniy identitetni shakllantirishda muhim omil bo‘lib, “O‘zbekiston”, “El-yurt hurmati”, “Vatanni sev” kabi qo‘shiqlar bunday g‘oyaviy yo‘nalishning yorqin namunalari. Bu yondashuv o‘zbek adabiy merosining ommalashuvi va musiqiy talqinlar orqali yangi badiiy qiyofa kasb etishiga zamin yaratgan.

O‘zbekiston xalq shoiri, O‘zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov SHERALI JO‘RAYEV ijodini “xalq ruhi bilan uyg‘unlashgan musiqiy tafakkur” deb ta‘riflab, uni she‘riy matnni musiqaga aylantira olgan estetik uyg‘unlik namunasi sifatida e‘tirof etadi. Abdulla Oripov esa uni “xalq tilida, xalq ruhida so‘zlagan, ammo yuksak ma‘naviylik darajasida bo‘lgan ovoz” deya ta‘riflaydi. Oripov she‘rlari asosida yaratilgan qo‘shiqlar zamonaviy o‘zbek she‘riyati va musiqa sintezining yuksak namunalaridan biridir.

1990–1995-yillarda parlament deputati sifatida faoliyat yuritgan SHERALI JO‘RAYEV musiqiy va siyosiy chiqishlarida xalq manfaatini ustuvor qo‘ygan. Uning ijodida madaniy mustaqillik g‘oyasi ilgari surilib, milliy uyg‘onish davrida xalqni tarixiy o‘zligini anglashga, madaniy merosni qadrlashga chorlagan. Musiqa orqali ifodalangan bu uyg‘onish harakati yangi bosqichga ko‘tarilgan.

SHERALI JO‘RAYEV ijodida tasavvuf falsafasiga xos “yo‘q bo‘lish”, “sabru shukr”, “qalb tozaligi” kabi g‘oyalar ko‘plab qo‘shiqlarda musiqiy obrazga aylantirilgan. Uning ijtimoiy faolligi va qo‘shiqlardagi siyosiy kinoyalar san‘at orqali fuqarolik pozitsiyasini ifodalashga xizmat qilgan. Axloqiy qadriyatlar – vijdon, rostgo‘ylik, fidoyilik, sabr-toqat – musiqiy shaklda

targ‘ib etilib, jamiyatda ma‘naviy me‘yorlarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Bugungi kunda san‘atkor asarlari milliy ruh, tarixiy xotira, madaniy ong va ma‘rifatli jamiyat barpo etishda muhim ideologik vosita sifatida qadrlanmoqda.

San‘atkor ijodi an‘anaviy xalq qo‘shiqlari, maqom, dostoniy epik kompozitsiyalar, estrada janriga mos zamonaviy qo‘shiqlar va falsafiy-lirik asarlar kabi turli musiqiy janrlarni o‘z ichiga oladi. Ko‘plab qo‘shiqlarida xalq dostonlariga xos kompozitsion tuzilma, epik obrazlar va dramatik rivoj mavjud. U voqeaviy syujet asosidagi musiqiy hikoya orqali tinglovchining e‘tiborini boshidan oxirigacha ushlab turadi.

Vokal ijrosida Sharqona bo‘g‘iz uslubi, diapazonning past-yuqori almashinuvlari va frazeologik urg‘ularni mahorat bilan qo‘llaydi. She‘riy matnlarning musiqaga moslashtirilishi murakkab estetik jarayon bo‘lib, unda vazn, qofiya, ritm va ohang uyg‘unligi qat‘iy saqlanadi. Aruz tizimidagi bayt va ruboiylar musiqada tinglovchining ruhiy kechinmalariga kuchli ta‘sir ko‘rsatadi. “Inson qasidasi”, “Oshiqlar sardori” kabi asarlar epik poetikaga asoslangan bo‘lib, tuzilishi va dramatik rivoji jihatidan dostonlarga yaqin turadi.

Har bir janr Sherali Jo‘rayev ijodiy individualligini va musiqiy mahoratini ifoda etadi. Ayniqsa, maqom asosidagi asarlar Sharq musiqasining chuqur qatlamlarini ochib beradi. Ba‘zi qo‘shiqlarda ikki tomonlama muloqot (dialog) shakli, boshqalarida esa falsafiy monolog yondashuvi qo‘llanadi. Bu uslub tinglovchini bevosita ruhiy-musiqiy muloqot jarayoniga jalb qiladi.

Sherali Jo‘rayev ijodida matn va musiqaning o‘zaro uyg‘unligi ustuvor ahamiyatga ega. Ijodkor har bir misraning ohangini, satr ma‘nosini musiqiy ifoda orqali chuqurlashtirib, tinglovchi ongida yuksak badiiy taassurot uyg‘otadi. Musiq va matn sintezi natijasida vujudga kelgan badiiy butunlik tabiat manzaralari, inson ruhi, tarixiy lavhalar, muhabbat va dard kabi mavzularni tasvirlash imkonini beradi. Jo‘rayevning musiqiy ohanglari ko‘pincha vizual-tasviriy kuchga ega bo‘lib, tinglovchida tasavvur manzaralarini uyg‘otadi.

Ijodkor folklor manbalaridan ilhomlanib, ularni zamonaviy musiqiy ruhda qayta talqin etadi. Xalqona obrazlar, maqollar, urf-odatlar estrada vositalari bilan uyg‘unlashadi. Ayrim asarlarida musiqiy ifoda teatr elementlari va hikoya shakli bilan birlashib, sinkretik yondashuv orqali tinglovchida ko‘p qatlamli qabul jarayonini yuzaga keltiradi. Metaforalar qo‘llanilishi musiqaning mazmuniy qatlamini boyitadi, qo‘shiqlarning nafaqat estetik, balki tarbiyaviy va ma‘naviy-ma‘rifiy ahamiyatini kuchaytiradi.

Jo‘rayev musiqani insonni barkamol etuvchi vosita sifatida talqin qiladi. Uning qo‘shiqlarida notekis ritmik qurilmalar, o‘zgaruvchan tempo, takroriy frazalar va sintaktik musiqiy pauzalar uchrab, dramatik kuch va emotsional ta‘sirchanlikni oshiradi. O‘zbekiston xalq artisti Yulduz Usmonova xotirasida “Jo‘rayev ovozida xalqning o‘zi bor edi” degan ta‘rif bilan bu holat yuksak baholanadi.

Ijodkorning musiqasi romantik-lirik yo‘nalish bilan birga chuqur falsafiy mazmunga ega. Masalan, “Ey dil” yoki “Oshiqlar sardori” kabi asarlar shaxsiy kechinmalar bilan bir qatorda umuminsoniy taqdir, ijtimoiy bosim, ma‘naviy tanlov kabi masalalarni musiqiy drammatizm

aks ettiradi. Bu lirika va falsafaning uyg‘unlashuvi Jo‘rayev ijodining asosiy estetik tamoyillaridan biridir.

San‘atkor o‘z asarlari orqali tarixiy xotirani jonlantirish, milliy o‘zlikni anglash, g‘urur va tarixiy merosga hurmat kabi qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qildi. Qo‘shiqlarida ota-ona roziligi, halollik, sabr-toqat, mehr-oqibat, vatanparvarlik va el-yurtga sadoqat kabi qadriyatlar kuy va so‘z orqali targ‘ib qilinadi. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov Jo‘rayevni “ijtimoiy ong va estetikaning uyg‘unlik timsoli, o‘zbek musiqasida mustaqil maktab yaratgan ustoz” sifatida ta’riflaydi.

Jo‘rayevning til va poetik uslubi xalqona og‘zaki nutq elementlarini badiiy yozma poetika bilan uyg‘unlashtiradi. So‘z boyligi, obrazlilik, tazod, metafora va epitetlardan foydalanish tinglovchida estetik zavq uyg‘otib, chuqur ruhiy kechinmalarni yuzaga keltiradi. Kompozitsion tuzilmalarda an‘anaviy kirish, rivoj, kulminatsiya va yakun qismlari saqlangan, xalq og‘zaki ijodidagi dostoniy uslub esa musiqiy kompozitsiyani yanada mazmunan boyitgan.

Sovet davri va mustaqillikning dastlabki yillarida uning ijodi senzura ostida bo‘lishiga qaramay, Jo‘rayev qo‘shiqlari ongli va mustaqil fikrlovchi qatlam orasida milliy ongni saqlash hamda rivojlantirishda “kodlangan” ma’naviy vosita sifatida xizmat qildi. Keyinchalik esa uning ijodi rasmiy maqomga ega bo‘lib, davlat tadbirlari va milliy bayramlarda keng ijro etildi. Ayniqsa, “O‘zbekim” qo‘shig‘i butun xalqni milliy ruhda birlashtiruvchi ramzga aylandi.

Jo‘rayev ijodi globallashuv davrida o‘zbeklikni saqlash, madaniy merosni asrash va milliy o‘zlikni barqarorlashtirish vositasi sifatida dolzarb bo‘lib qolmoqda. Uning qo‘shiqlari mahalla tadbirlari, oilaviy marosimlar, ommaviy yig‘inlarda yangraydi, shu bilan birga Andijon va Farg‘ona vodiysi musiqiy uslublarining respublika hamda mintaqaviy miqyosda tanilishiga xizmat qiladi. Ayollar, onalar, muhabbat haqidagi qo‘shiqlarida oila instituti, ayolning ijtimoiy mavqei va mehr-oqibat qadriyatlari estetik shaklda kuylanadi.

Hofiz san‘ati yoshlar ongida milliy qadriyatlarni singdirish, hayotiy maqsadlar sari undash, vatanparvarlik va fuqarolik ongini shakllantirishga qaratilgan motivatsion kuchga ega. U xorijdagi o‘zbek diasporasi bilan ma’naviy aloqalarni mustahkamlash va O‘zbekiston madaniyatini jahon sahnasida targ‘ib etishda ham muhim rol o‘ynadi.

Bugungi kunda uning asarlari turli avlodlar tomonidan tinglanib, qayta aranjirovka qilinmoqda, musiqiy ta’lim jarayonlarida namunaviy o‘quv materiallari sifatida qo‘llanilmoqda. Jo‘rayev qo‘shiqlari o‘tmish va bugun o‘rtasida madaniy ko‘prik bo‘lib xizmat qiladi, tinglovchini tarixiy va ma’naviy ildizlariga qaytaradi. Ustoz san‘atkor sifatida yaratgan ijodiy maktabi izdoshlari tomonidan yangicha talqinlarda davom ettirilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Sherali Jo‘rayev ijodi o‘zbek musiqasining noyob fenomeni sifatida milliy musiqiy tafakkur, adabiyot, tarixiy xotira va ijtimoiy ong shakllanishida alohida o‘rin egallaydi. Uning ijodiy merosi xalq og‘zaki ijodi, klassik va zamonaviy adabiyot, maqom hamda estrada musiqasi an‘analari bilan uyg‘unlashgan murakkab madaniy qatlamni tashkil etadi. Qo‘shiqlari milliy identitet, ijtimoiy ong, tarixiy xotira va ma’naviy uyg‘onishning badiiy-musiqiy ifodasiga aylangan bo‘lib, poetikasida timsollar, ramzlar, tasavvufiy g‘oyalar va tarixiy

obrazlar orqali ma'naviy-falsafiy chuqurlik namoyon bo'ladi. San'atkor senzura sharoitida ham tinglovchi qalbidan mustahkam o'rin egallab, haqiqatni yashirin va estetik shaklda ifoda etishga muvaffaq bo'lgan. Uning musiqasi zamonaviy raqamli muhit va ijtimoiy tarmoqlarda, yosh avlod madaniyatida ham faol yashab, madaniy merosning uzluksizligini ta'minlamoqda. Bugungi kunda Jo'rayev ijodi ijtimoiy barqarorlik, ma'naviy uyg'onish va milliy o'zlikni mustahkamlashda kuchli madaniy-ma'naviy vosita sifatida ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN MANBALAR

1. Наим Каримов. Улуғ шоир ҳақида асар // Ойбек. Навоий. Т.: “Ўзбекистон” НМИУ. 2020.
2. Ravshan Jomonov. Uch ne'mat sohibi. (Hofiz, bastakor va shoir Sherali Jo'rayev ijodiga chizgilar). Toshkent: "Tammadun". 2018.
3. Sherali Jo'rayev. San'atim. G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti.



HIROT MINIATYURA MAKTABI - SHARQ SAN'ATI DURDONASI VA UNING BADIYY MEROSI

Sa'dullayeva Nilufar Shorasul qizi

Annotatsiya Ushbu maqolada Hirot miniatyura maktabining shakllanishi, rivojlanishi va uning Sharq san'ati tarixidagi o'rni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Hirot maktabining buyuk vakillari – Kamoliddin Behzod, Qosim Ali, Mirak Naqqosh va boshqa rassomlarning ijodi hamda ularning miniatyura san'ati taraqqiyotiga qo'shgan hissasi yoritiladi. Tadqiqotda tarixiy manbalar, san'atshunoslikka oid ilmiy adabiyotlar va zamonaviy tahliliy yondashuvlardan foydalanilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, Hirot maktabi nafaqat Movarounnahr va Xurosonda, balki butun Sharq san'ati rivojida beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan.

Аннотация В данной статье проводится научный анализ формирования и развития Гератской школы миниатюры, а также её роли в истории восточного искусства. Рассматривается творчество выдающихся представителей школы – Камолиддина Бехзода, Касым Али, Мирак Накаша и других художников, а также их вклад в развитие миниатюрного искусства. В исследовании использованы исторические источники, искусствоведческая литература и современные аналитические подходы. Результаты показывают, что Гератская школа имела огромное значение не только в Мавераннахре и Хорасане, но и в развитии всего восточного искусства.

Annatation This article provides a scholarly analysis of the formation and development of the Hirot school of miniature painting and its role in the history of Eastern art. The works of prominent representatives such as Kamoliddin Behzod, Qosim Ali, Mirak Naqqosh, and other artists are discussed, highlighting their contribution to the advancement of miniature art. The study is based on historical sources, art history literature, and modern analytical approaches. The results demonstrate that the Hirot school played a crucial role not only in Transoxiana and Khorasan but also in the overall development of Eastern art.

Kirish

Sharq miniatyura san'ati jahon madaniyati xazinasining eng yuksak badiiy yutuqlaridan biri hisoblanadi. Xususan, XIV–XV asrlarda Markaziy Osiyo hududida, xususan, Xuroson va Movarounnahrda vujudga kelgan badiiy maktablar keyinchalik butun Islom olamida san'at rivojiga ulkan ta'sir ko'rsatgan [1]. Miniatyura san'ati nafaqat nafis kitob bezaklari va qo'lyozmalar illyustratsiyasi bilan mashhur, balki xalqning ma'naviy hayotida ham muhim o'rin tutgan.

Hirot miniatyura maktabi ana shu badiiy rivojlanishning eng yuksak bosqichi sifatida maydonga chiqdi. Bu maktab XV asrning ikkinchi yarmida Temuriylar davlati poytaxti bo‘lgan Hirotida shakllanib, dunyo miqyosida tan olingan. Hirot maktabi vakillari orasida buyuk musavvir Kamoliddin Behzod alohida o‘rin tutadi. Uning ijodiy merosi miniatyura san’ati tarixida eng yuksak cho‘qqilardan biri bo‘lib, Sharq badiiy tafakkurining timsoliga aylangan [2; 5].

Shuningdek, bu davr miniatyuralari nafaqat estetik jihatdan, balki ilmiy va ma’naviy hayotni yoritishda ham muhim manba hisoblanadi. Ular orqali o‘sha davrdagi kiyim-kechak, me’moriy obidalar, turmush tarzi, urf-odatlar hamda tarixiy shaxslarning qiyofasi haqida qimmatli ma’lumot olish mumkin [3].

Adabiyotlar sharxi

Hirot maktabi haqidagi tadqiqotlarda Sharq va G‘arb olimlari turlicha ilmiy qarashlarni ilgari surganlar. O‘zbek olimlari orasida A. Ahmedovning Sharq miniatyura san’ati tarixi asari Hirot maktabining shakllanish jarayonlarini batafsil yoritadi [3]. Shuningdek, Sh. Shorahmedov o‘zining Naqqoshlik san’ati va uning an‘analari asarida Behzod ijodi va uning davr badiiy an‘analari haqida muhim ma’lumotlarni keltirib o‘tgan [4].

G‘arbiy tadqiqotchilar ham Hirot maktabiga alohida e’tibor qaratgan. UNESCO tomonidan chop etilgan *The Timurid Renaissance: Cultural Heritage of Central Asia* asarida Hirot miniatyura san’ati Temuriylar davrida yuzaga kelgan madaniy uyg‘onishning eng yorqin ko‘rinishi sifatida baholangan [8]. Shuningdek, Routledge nashriyotining *Journal of Islamic Art and History* jurnalida chop etilgan maqolalarda Hirot maktabining boshqa Sharq miniatyura maktablariga ta’siri chuqur ilmiy tahlil qilingan [10].

Shu bilan birga, M. Muxtorov va O. Roxmatovlarning tadqiqotlarida Hirot miniatyura maktabining Alisher Navoiy davri madaniy-ma’naviy muhitidagi o‘rni va uning badiiy merosga qo‘shgan hissi alohida ta’kidlangan [7; 9].

Metodologiya

Hirot miniatyura maktabini tadqiq etishda tarixiy-badiiy tahlil, qiyosiy o‘rganish va ikonografik metodlardan foydalanildi. Tarixiy-badiiy yondashuv miniatyuralarning yaratilish davri, ularning syujetlari va kompozitsion xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi [2]. Qiyosiy metod yordamida Hirot maktabi asarlari boshqa hududiy maktablar – Samarqand, Tabriz va Buxoro miniatyura maktablari bilan taqqoslanib, ularning o‘ziga xos jihatlari ko‘rsatildi. Ayniqsa, rang tanlashdagi nafislik, kompozitsiyada dinamikaga erishish hamda inson qiyofalarining psixologik ifodalanishi Hirot uslubining asosiy belgisi sifatida alohida ta’kidlandi [5; 7].

Ikonografik tahlil orqali miniatyuralarda tasvirlangan tarixiy shaxslar, diniy voqealar, me’moriy obidalar hamda madaniy atributlarning mazmuni o‘rganildi. Masalan, Alisher Navoiy asarlariga ishlangan miniatyuralar ijtimoiy-ma’naviy hayotni badiiy tasvirlagan bo‘lib, Navoiy davridagi madaniy uyg‘onishning bevosita badiiy ifodasi sifatida baholandi [6]. Shuningdek,

manbashunoslikka asoslangan yondashuv orqali Sharq qo‘lyozmalari, xususan, “Zafarnoma” va “Xamsa” nusxalariga ishlangan miniatyuralar ilmiy jihatdan solishtirilib tahlil qilindi [1; 9].

Natijalar

O‘rganish natijasida Hirot maktabining XV asrda Temuriylar homiyligi ostida shakllanganligi va Sharq miniatyura san‘atining eng yuqori bosqichini tashkil etgani aniqlandi. Bu davrda san‘atga davlat arboblari, xususan, Sulton Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy alohida e‘tibor qaratganlari manbalar orqali tasdiqlandi [2; 6]. Hirot maktabining eng yirik vakili Kamoliddin Behzod miniatyura san‘ati tarixida alohida o‘rin egallab, inson ruhiyati va xarakterini chuqur badiiy ifodalashda yuksak mahorat ko‘rsatgan. Uning “Layli va Majnun” hamda “Zafarnoma” qo‘lyozmalariga ishlagan miniatyuralari butun Islom dunyosida mashhur bo‘lib, keyingi rassomlarga katta ta‘sir ko‘rsatgan [4; 5].

Hirot maktabi rassomlari kompozitsiyada ko‘pfiguralilik, chuqur perspektiva va me‘moriy detallarning realistik tasviridan samarali foydalanganlar. Bu jihatlar uni boshqa maktablardan ajratib turadigan asosiy omillar sifatida ko‘rsatildi [7]. Shuningdek, Hirot miniatyuralari nafaqat badiiy asar, balki o‘z davrining “tarixiy hujjati” sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ularda XV asr ijtimoiy va madaniy hayotining ko‘plab tafsilotlarini qayta tiklash mumkinligi aniqlangan [3; 8].

Tadqiqot natijalari Hirot maktabi uslubining keyinchalik Buxoro, Hindiston (Boburiylar davri) va Eron miniatyura san‘atiga kuchli ta‘sir ko‘rsatganini ko‘rsatdi. Bu jarayon Sharq san‘ati rivojida Hirot maktabini “klassik model” sifatida shakllanishiga olib kelgan [9; 10].

Muhokama

Hirot miniatyura maktabi Sharq san‘ati tarixida eng yirik badiiy maktablardan biri sifatida qadrlanadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, uning shakllanishi bir necha omillar bilan bog‘liq. Birinchi navbatda, XV asrda Movarounnahr va Xuroson hududida yuzaga kelgan siyosiy barqarorlik va iqtisodiy yuksalish san‘at rivoji uchun qulay sharoit yaratgan. Sulton Husayn Boyqaro saroyi rassomlar, xattotlar va shoirlar uchun ijodiy muhitni ta‘minlagan, bu esa Hirot maktabining gullab-yashnashiga asos bo‘lgan [2; 6].

Hirot maktabining badiiy yutug‘i, avvalo, inson qiyofasini psixologik chuqurlik bilan tasvirlashda namoyon bo‘ladi. Kamoliddin Behzod asarlarida insonlarning ruhiy kechinmalari, sevgi va fidoiylilik, adolat va zulm kabi mavzular o‘z ifodasini topgan [4]. Shu bilan birga, miniatyuralardagi ranglar uyg‘unligi, dekorativlik va tasviriy tafsilotlarning mukammalligi san‘at asariga o‘ziga xos betakrorlik bag‘ishlagan.

Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat shuki, Hirot maktabi miniatyuralari faqatgina estetik qadriyat emas, balki madaniy merosning muhim qismi sifatida ham ahamiyat kasb etadi. Ular orqali XV asrning ijtimoiy-siyosiy hayoti, me‘moriy obidalari, kiyim-kechaklari va marosimlari haqida aniq tasavvur hosil qilish mumkin [7; 8]. Shu sababli Hirot maktabi asarlari bugungi kunda ham tarixiy manba sifatida qadrlanadi.

Hirot maktabining ta‘siri keng geografik hududlarga yoyilgani ham muhokama jarayonida alohida o‘rganildi. Ayniqsa, Buxoro miniatyura maktabi, Boburiylar Hindistonidagi san‘ati

hamda Eronning keyingi sulolalar davridagi miniatyura an‘analari Hirot uslubidan ilhomlangan holda rivojlangan [9]. Bu esa Hirot maktabini Sharq san‘ati rivojida umumiy badiiy tamoyillarni belgilagan maktab sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Xulosa

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagilarni ta’kidlash mumkin: Hirot miniatyura maktabi Sharq tasviriy san‘atining eng yuksak cho‘qqisi bo‘lib, XV asr Temuriylar davri madaniy uyg‘onishining yorqin ifodasidir. Uning shakllanishiga siyosiy barqarorlik, homiylik siyosati va ijodiy muhitning uyg‘unlashuvi asosiy zamin yaratgan [2; 6].

Hirot maktabining asosiy badiiy yutug‘i inson qiyofasining chuqur psixologik ifodasi, ranglar uyg‘unligi va kompozitsiyadagi mukammallikda namoyon bo‘ladi. Kamoliddin Behzod ijodi bu maktabning cho‘qqisi bo‘lib, u butun Sharq miniatyura san‘ati rivojiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatgan [4; 5].

Hirot maktabi asarlari nafaqat estetik go‘zalligi, balki tarixiy manba sifatidagi qimmatli jihatlari bilan ham ahamiyatlidir. Ularda o‘z davrining ijtimoiy hayoti, urf-odatlar va madaniy muhitining betakror ifodasi mujassam [7; 8].

Eng muhimi, Hirot maktabi keyingi asrlarda Buxoro, Hindiston va Eron miniatyura maktablariga kuchli ta’sir ko‘rsatib, Sharq san‘ati rivojida “klassik model” vazifasini bajargan. Shu sababli, bugungi kunda ham Hirot maktabi Sharq miniatyura san‘ati taraqqiyotining poydevori sifatida o‘rganilishi va qadrlanishi lozimdir [9; 10].

FOYDALANILGA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Begnazarov, S. M. (2023). Creative Activity of Kamoliddin Behzod and Aesthetic Culture of the Youth. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 17, 4–6.
2. Kholmamat, K. (2022). The Role of Kamoliddin Behzod in Eastern Miniature ART. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN*, 3(4), 61–63. DOI: 10.17605/OSF.IO/QPJRB.
3. Baimetov, B. B., & Tilapova, O. A. (2021). Life and Work of the Great Master of Miniature Art of the East, Kamoliddin Behzod. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(05), 4–12. DOI:10.37547/pedagogics-crjp-02-05-02.
4. Salehi, N. A. (2025). Hirot Girls Revive Ancient Miniature and Illumination Arts. *TOLOnews*.
5. Society.uz (2024). Features of the Hirot schools of miniatures in the 15th century.
6. UNESCO (2023). Miniature: art with a long history.
7. Britannica (n.d.). Herāt school. *Britannica Online*.
8. Rakhimova, Zh. (2010). The Early Hirot Miniature of the First Half of the 15th Century. *San‘at Magazine*.
9. San‘at (2015). Masters of the Contemporary Miniatures of Uzbekistan. *San‘at Magazine*.



MINIATYURA SAN'ATINING TARIXIY RIVOJLANISHI, ILMIY TADQIQI VA ZAMONAVIY AHAMIYATI

Sa'dullayeva Nilufar Shorasul qizi

Annotatsiya Ushbu maqolada miniatyura san'ati tarixiy rivojlanishi, ilmiy tadqiqi va zamonaviy ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda tarixiy manbalar, san'atshunoslik yondashuvlari va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan. Natijalarda miniatyura san'ati Sharq madaniyatining eng yuksak yutuqlaridan biri sifatida baholangan va uning zamonaviy madaniyatdagi o'rni ko'rsatib berilgan.

Аннотация В данной статье рассмотрено историческое развитие, научное исследование и современное значение искусства миниатюры. В исследовании использованы исторические источники, искусствоведческие подходы и методы сравнительного анализа. В результате установлено, что искусство миниатюры является одним из высших достижений восточной культуры и сохраняет свою актуальность в современной художественной среде.

Annotation This article analyzes the historical development, scholarly research, and contemporary significance of miniature art. The study employs historical sources, art criticism approaches, and comparative analysis methods. The results show that miniature art represents one of the highest achievements of Eastern culture and still maintains its importance in modern artistic practices.

Kirish

Miniatyura san'ati insoniyat madaniyatida alohida o'rin tutuvchi noyob badiiy yo'nalishlardan biridir. U asosan Sharq uyg'onish davrida yuksak darajada rivojlangan bo'lsa-da, uning ildizlari qadimgi tasviriy san'at shakllariga borib taqaladi. Miniaturalar qo'lyozmalarni bezash, ilmiy va diniy asarlarni vizual tarzda boyitish, shuningdek, tarixiy voqealarni tasvirlash vositasi sifatida keng qo'llanilgan. Uning o'ziga xos jihati — mayda, ammo nihoyatda nozik chizgilarda butun bir voqeani, falsafiy g'oyani yoki estetik qarashni mujassam qilish qobiliyatidadir.

Sharq miniatyurasi, xususan, O'zbekiston hududida vujudga kelgan maktablar jahon san'ati taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan. Temuriylar davri san'atida, ayniqsa, Hirot miniatura maktabi va Kamoliddin Behzod ijodida bu san'atning cho'qqisi namoyon bo'ladi. Miniaturalarda nafaqat inson va tabiat manzaralari, balki ijtimoiy hayot, urf-odatlar, axloqiy

qarashlar ham aks etgan. Shu bois ularni faqat badiiy namuna sifatida emas, balki tarixiy va madaniy manba sifatida ham o‘rganish mumkin.

Maqola dolzarbligi shundan iboratki, miniatyura san’ati bugungi kunda nafaqat tarixiy meros sifatida, balki milliy va madaniy merosimizning ajralmas qismi sifatida qayta tiklanmoqda. Miniatyura orqali biz ajdodlarimizning badiiy tafakkuri, dunyoqarashi va ijodiy mahoratini chuqurroq anglashimiz mumkin. Shu bois ushbu maqolada miniatyura san’atining tarixiy ildizlari, rivojlanish bosqichlari, estetik xususiyatlari hamda zamonaviy jarayonlardagi ahamiyati ilmiy tahlil etiladi.

Adabiyotlar sharxi

Miniatyura san’ati bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlarda ko‘plab san’atshunos va tarixchilar bu yo‘nalishni o‘rganishga alohida e‘tibor qaratgan. Masalan, Sharq miniatyurasi bo‘yicha Eron, Turkiya va Hindiston olimlarining asarlari, shuningdek, O‘zbekiston san’atshunoslari tomonidan yaratilgan ilmiy izlanishlar bu borada asosiy manba vazifasini bajaradi. Behzod ijodiga bag‘ishlangan tadqiqotlar, qo‘lyozmalarni o‘rganishga oid ilmiy ishlanmalar, muzey kataloglari ham miniatyura san’ati bo‘yicha ilmiy manbalarni tashkil etadi. Adabiyotlar sharxi shuni ko‘rsatadiki, miniatyura san’ati xalqaro miqyosda keng tadqiq qilinayotgan va dolzarbligini saqlab qolayotgan yo‘nalishdir.

Metodlar

Tadqiqot jarayonida tarixiy manbalarni tahlil qilish, san’atshunoslik metodlari, qiyosiy taqqoslash va tahliliy yondashuvlardan foydalanildi. Sharq miniatyura san’ati haqida yozilgan asarlar, qo‘lyozma manbalar, O‘zbekiston, Eron, Turkiya, Hindiston va boshqa mamlakatlarda yaratilgan miniatura asarlari ilmiy manba sifatida o‘rganildi. Zamonaviy tadqiqotlarda qo‘llaniladigan madaniy merosni saqlash metodlari, badiiy-estetik tahlil usullari ham maqola asosini tashkil etadi.

Natijalar

Miniatyura san’ati asosan IX–X asrlardan boshlab shakllanib, o‘zining yuksak cho‘qqisiga Temuriylar davrida erishdi. Xususan, Hirot miniatyura maktabi va Kamoliddin Behzod ijodi Sharq miniatyura san’atining eng yuqori cho‘qqisi hisoblanadi. Miniatyura san’ati nafaqat diniy qo‘lyozmalarni bezashda, balki tarixiy voqealarni, kundalik hayot manzaralarini, adabiy asar syujetlarini tasvirlashda ham keng qo‘llanilgan. O‘zbekiston hududida yaratilib, bugungi kungacha yetib kelgan ko‘plab miniatyuralar milliy madaniyatimizning boy merosini ifodalaydi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, miniatyura san’ati badiiy tafakkur, ramziy ifoda va estetik qarashlarni o‘zida mujassamlashtirgan ko‘p qirrali ijodiy yo‘nalishdir.

Muhokama

Miniatyura san’ati o‘z davrida nafaqat badiiy-estetik, balki ijtimoiy va madaniy ahamiyatga ham ega bo‘lgan. Unda o‘sha davr jamiyatining turmush tarzi, ijtimoiy munosabatlari, axloqiy qarashlari va ma’naviy qadriyatlari mujassam bo‘lgan. Miniatyura rassomlari ko‘pincha adabiy asarlar asosida ishlagan bo‘lib, ular Navoiy, Jomiy, Sa’diy, kabi

buyuk mutafakkirlarning asarlarini tasviriy san‘at orqali boyitganlar. Shu bilan birga, tarixiy voqealarni yoritishda ham miniatyuralar muhim o‘rin egallagan.

Sharq miniatyurasi rivojida yirik maktablar shakllandi. Xususan, Bag‘dod maktabi (XIII–XIV asrlar), Tabriz maktabi, Sheroz maktabi, Hirot maktabi va keyinchalik Buxoro miniatyura maktablari Sharq san‘ati tarixida katta iz qoldirdi. Har bir maktab o‘zining uslubiy xususiyatlari, ranglar uyg‘unligi va kompozitsion yechimlari bilan ajralib turadi. Masalan, Hirot maktabi tasvirlarning realizmi, inson qiyofasini berishda nozik psixologik ifodalarga boyligi bilan mashhurdir.

Miniatyurachilar orasida eng mashhurlaridan biri, shubhasiz, Kamoliddin Behzoddur. U o‘z davrida “Sharq Rafaeli” deb nom qozongan bo‘lib, inson qiyofasini, his-tuyg‘ularini tasvirlashda benazir mahorat ko‘rsatgan. Behzodning “Layli va Majnun”, “Yusuf va Zulayho”, “Shohnoma”ga ishlagan miniatyuralari nafaqat san‘at asari, balki o‘z davrining ijtimoiy-ma‘naviy ko‘zgusi sifatida ham qadrlanadi.

Bundan tashqari, Sharq miniatyurasi rivojiga katta hissa qo‘shgan boshqa mashhur rassomlarni ham tilga olish zarur. Masalan:

Ahmad Musavvir – ilk temuriy davrda faoliyat yuritgan, qalam mohirligi bilan mashhur musavvir;

Mirak Naqqosh – Hirot maktabining yetuk namoyandalaridan biri;

Sulton Muhammad va Ag‘a Mirak – Tabriz maktabining yorqin vakillari;

Qosim Ali – rang-barang miniatyuralari bilan mashhur rassom;

Muhammad Siyohqalam – ko‘proq xalq hayoti va realistik obrazlarni tasvirlashga e‘tibor bergan ijodkor;

Abduqodir Hisoriy va Mahmud Muzahhib – Buxoro va Samarqand hududlarida ijod qilgan mohir musavvirlar.

Shorasul Shoaxmedov- hozirgi kunda o‘zining falsafiy zamonaviy miniatyuralari bilan ajralib turadi.

O‘zbek miniatyura rassomlari orasida Shorasul Shoahmedovning miniatyura san‘ati bo‘yicha olib borgan tadqiqotlari alohida e‘tiborga loyiq. U Sharq miniatyurasi, xususan, Kamoliddin Behzod ijodi asosida o‘z miniatyura maktabini yarata olgan va bu san‘atni milliy madaniyatimizning ajralmas tarkibiy qismi sifatida asarlarida ko‘rsatib bergan. Shoahmedovning ishlari miniatyura san‘atining nazariy asoslarini yoritishda ham, ilmiy o‘rganishda ham katta ahamiyat kasb etgan.

Miniatyura san‘atining zamonaviy davrdagi ahamiyati ham muhimdir. Bugungi kunda u muzey va kolleksiyalarda saqlanib qolgan nodir asarlar orqali o‘rganilmoqda, shuningdek, ko‘plab rassomlar uni qayta tiklash, milliy an‘analarni davom ettirish yo‘lida ijod qilmoqdalar. Xususan, O‘zbekistonda zamonaviy miniatyura rassomlari orasida Shahnoza Qodirova, Davron Toshev, Nigora Toshpulatova kabi ijodkorlarning ishlari milliy va xalqaro ko‘rgazmalarda namoyish etilmoqda.

Muhokama natijalaridan ko‘rinib turibdiki, miniatyura san‘ati faqatgina tarixiy meros emas, balki bugungi kunda ham milliy o‘zlikni anglash, estetik didni shakllantirish va xalqaro miqyosda O‘zbekiston madaniyatini targ‘ib qilishning muhim vositasi hisoblanadi. Shu sababdan uni ilmiy jihatdan o‘rganish, asarlarni restavratsiya qilish, yosh avlodni bu san‘atga jalb etish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Xulosa

Miniatyura san‘ati Sharq xalqlari madaniy merosining eng yuksak namoyonalaridan biri sifatida qadrlanadi. Bu san‘at turi nafaqat estetik go‘zallik yaratish, balki tarixiy, ijtimoiy va falsafiy mazmunni o‘zida mujassamlashtirish imkoniyatiga ega bo‘lgani bilan ham ahamiyatlidir. Tadqiqot davomida aniqlanganki, miniatyura san‘ati kitobat madaniyatining ajralmas qismi bo‘lib, adabiy asarlarni yanada jozibador va mazmunan boy qilishda, ularning g‘oyaviy-estetik qimmatini oshirishda beqiyos o‘rin tutadi.

Kamoliddin Behzod, Ahmad Musavvir, Mirak Naqqosh, Sulton Muhammad, Qosim Ali, Muhammad Siyohqalam singari buyuk musavvirlarning ijodi miniatyura san‘atining nafaqat texnik, balki mazmuniy jihatdan ham yuksalishiga xizmat qilgan. Ularning asarlarida inson qiyofasi, ruhiy kechinmalari, tabiat manzaralari va tarixiy voqealar yuksak badiiylik va nozik did bilan tasvirlangan.

Bugungi kunda ham miniatyura san‘ati o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Aksincha, u milliy o‘zlikni anglash, yosh avlodni ma‘naviy tarbiyalash, estetik didini shakllantirishda, shuningdek, O‘zbekiston madaniyatini jahon miqyosida targ‘ib etishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Zamonaviy rassomlarning ijodida miniatyura an‘analari yangicha talqin etilib, zamonaviy san‘at bilan uyg‘unlashmoqda. Bu esa miniatyura san‘atining hayotiyliigi, davomiyligi va rivojlanish salohiyatidan dalolat beradi.

Shu bois, miniatyura san‘atini yanada chuqur o‘rganish, tarixiy namunalarni restavratsiya qilish, yosh rassomlarni ushbu san‘at turiga kengroq jalb etish, ilmiy tadqiqotlarni davom ettirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Miniatyura Sharq xalqlari, xususan, o‘zbek xalqining bebaho badiiy merosi bo‘lib, uni asrab-avaylash va kelajak avlodga yetkazish barchamizning muqaddas burchimizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov, K. Sharq miniatyura san‘ati tarixi. – Toshkent: Fan, 2010.
2. Gulomov, S. Kamoliddin Behzod va uning maktabi. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2015.
3. Grabar, O. Islamic Art and Its History. – London: Thames & Hudson, 2001.
4. Welch, S. Artists of the Persian Tradition. – New York: Oxford University Press, 1996.
5. Alpatov, M. Miniatyura i kniga. – Moskva: Iskusstvo, 1977.



UDC: 7.091.3

ORCID: 0000-0001-7744-6607

AKTYORLIK SAN'ATIDA DRAMATIK VA MUSIQIY IJRONING MUSHTARAKLIGI

Mamutov Paraxat Allambergenovich

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik
musiqali teatri direktori, San'atshunoslik fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tel: +99894-459-13-13*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatrida musiqali dramalarning sahnalashtirilishi, shakllanishi va teatrning o'z spetsifikasi – yo'nalish va uslublarini ishlab chiqishi, professionallik darajasiga erishishi hamda o'zbek teatrining bir qismi sifatida tomoshabinlar qalbidan o'rin egallashi, aktyorlik san'atida dramatik va musiqiy ijroning mushtarakligi, shuningdek, Teatrda sahnalashtirilgan spektakllarning yoshlarni ma'naviy tarbiyalashda ahamiyati va teatrning bugungi kunda erishayotgan yutuqlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: teatr, spektakl, aktyor, musiqali drama, rejissyor, musiqiy ijro

Аннотация: В данной статье рассматривается постановка музыкальных драм в Каракалпакском государственном академическом музыкальном театре имени Бердака, его становление, выработка собственных особенностей – направлений и стилей, достижение уровня профессионализма и признания зрителями узбекского театра, взаимодействие драматического и музыкального начала в актерском мастерстве, а также значение спектаклей театра в духовном воспитании молодежи и достижения театра сегодня.

Ключевые слова: Театр, спектакль, актёр, музыкальная драма, режиссёр, музыкальное представление

Annotation: This article discusses the staging of musical dramas at the Berdaq Karakalpak State Academic Musical Theater, its formation, the development of its own specifications - directions and styles, the achievement of a level of professionalism and the recognition of the audience as part of the Uzbek theater, the interplay of dramatic and musical performance in acting, as well as the importance of performances staged at the Theater in the spiritual education of young people, and the achievements of the theater today.

Keywords: Theater, play, actor, musical drama, director, musical performance

Kirish. Musiqali drama o‘zbek milliy teatr san’atining xalq hayoti va xalq ijodi bilan chambarchas bog‘liq holda paydo bo‘lgan va rivojlanib kelayotgan xalqchil turlaridan biri hisoblanadi. O‘zbek musiqali dramasi ko‘p tarmoqli, murakkab san’atdir. Drama janrida yozilgan asarlarni rejissyor rassom bilan bamaslahat bir o‘zi sahnalashtirishi mumkin. “Musiqali dramaning teksti tayyor bo‘lgani bilan ish yurishib ketavermaydi. Pyesa kompozitor ixtiyoriga o‘tib, musiqa yozilishi kerak bo‘ladi. Bu bir-biriga chambarchas bog‘langan va ayni chog‘da nisbatan mustaqil asarlar teatr “qozoniga” kelib tushadi. Rejissyor, dirijyor, konsertmeyster, baletmeyster, rassomlardan iborat ijodiy guruh tomonidan tekst ustida ishlash, orkestr bilan partituraning o‘zlashtirish, solistlar va xorga vokal qismlari talqinini singdirish, o‘yintalab o‘rinlarga shakl va to‘kis mazmunli xoreografik lavhalar o‘ylab topish va balet gruppasiga o‘rgatish, mavzu, davr va xarakterlarga mos va tayin sahnaviy bezaklar, liboslar, buyumlar yaratish bo‘yicha kattakon ish boshlab yuboriladi”[1]. Sahnalashtiruvchi rejissyor muayyan ijodiy reja asosida alohida-alohida olib borilgan ishlarni bir-biriga uzviy bog‘lab, yaxlit sahnaviy asar darajasiga olib keladi.

Musiqali dramaning o‘ziga xos mustaqil uch sohasi, ya’ni dramaturgiya, musiqa, teatrning bir maqsad yo‘lida uyushuvchi, bir-birini to‘ldiruvchi ijodiy vositalari bo‘ladi. Aniqroq qilib aytganda musiqali drama pyesa, shu asosda yozilgan musiqa va sahnaviy talqin kabi uch asosiy komponentdan iborat bo‘ladi.

Musiqali dramaning tarixiy yo‘li, janr va o‘ziga xos komponentlari mavjud. Musiqali drama janriga chetdan turib, mavhum yoki boshqa janrlar talabi bilan yondashish asosan yangisha va subyektiv xulosalarga olib keladi. Ayniqsa, bugungi kunda ham mutaxassislar orasida musiqali drama o‘z tarixiy rolini o‘ynab bo‘ldi, endi u opera yoki operetta janrlari bilan qo‘shilib ketishi kerak, degan qarashlar ham uchrab turadi. Bu esa mutlaqo noto‘g‘ri va asossizdir. Opera, operetta, drama kabi musiqali drama ham mustaqil janr, uning ham o‘z tabiati, shart-sharoiti va vazifalari bor.

Musiqali dramani operettaga ham qiyos qilib bo‘lmaydi. Sababi operetta musiqa, so‘z va spetsifik sahnaviy talqiniga asoslangan hamda ko‘pincha komedik vositalar bilan ish ko‘ruvchi o‘ziga xos san’atdir. Musiqali drama esa operettaga nisbatan qamrovi, imkoniyati keng, boy va murakkab san’at turi hisoblanadi. “O‘zbek musiqali dramasi deganda, birinchi galda drama va tragediya xususiyatlariga ega musiqali dramatik asarlar tushuniladi”[2]. Musiqali dramaning bir turi bo‘lgan musiqali komediyani ham operettaga qiyoslab bo‘lmadi. Ularning har biri o‘z ichki qonuniyatlariga ega bo‘lgan mustaqil sahna san’ati hisoblanadi. O‘zbek musiqali komediyasi xalq hayotidan olingan mavzularni kulgili voqealar va xarakterlar orqali ham milliy til, musiqa va raqsning o‘ynoqi va yorqin vositalari bilan yoritiladi.

Spektakldagi o‘zaro uyg‘unlikni ta’minlashda aktyorning xizmati muhim hisoblanadi. Zero, uyg‘unlikka qay darajada erishilganligi esa aktyor ijrochiligiga qarab baho beriladi. Shu sababli musiqali drama aktyori yangi obraz yaratishga kirishar ekan, o‘z qahramonlarining

yetakchi xatti-harakati va bosh maqsadini belgilab, shu asosda roldagi so‘z va musiqali qismlarning vazifalari, o‘rni va ahamiyatini aniqlab oladi. Aktyor, ayniqsa, so‘zdan kuyga yoki kuydan so‘zga o‘tishida uzviylikni yo‘qotmasligi lozim. So‘z yoki vokaldan birontasi kuchsiz ijro etilsa, so‘zdan kuyga yoki kuydan so‘zga o‘tishda uzviylik buzilsa, xatti-harakat izchilligi yo‘qoladi, sun‘iylik va yuzakilik paydo bo‘ladi, natijada uyg‘unlik vujudga kelmaydi.

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq teatrida musiqali drama Sovet hokimiyati yillarida paydo bo‘ldi, shakllandi, o‘z spetsifikasi – yo‘nalish va uslublarini ishlab chiqdi, professionallik darajasiga erishdi hamda o‘zbek teatrining bir qismi sifatida tomoshabinlar qalbidan o‘rin egalladi. Qoraqalpoq teatrida musiqali dramaning shakllanishida G‘ulom Zafariyning “Halima”, “Layli va Majnun”, A.Utepovning “Tengini topgan qiz”, Komil Yashin va M.Muhammedovlarning “Gulsara”, M.Doriboyevning “Koklen botir” kabi asarlari muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Qoraqalpoq teatrida birinchi bo‘lib A.Utepov spektaklning emotsional ta’sir kuchini oshirish maqsadida musiqa qo‘shiqlardan foydalandi. Asosan dramatik asarlarni sahnalashtirish jarayonida dastlab tayyor musiqalardan foydalandi. Xalqning boy musiqa merosiga murojaat qildi. U dastlab o‘zi yozgan “Tengini topgan qiz” asarini xalq musiqasidan foydalangan holda sahnalashtirdi. Ushbu spektakl qoraqalpoq teatrida musiqali spektakllarni yaratishdagi dastlabki qadam bo‘ldi.

Musiqali asarlarni sahnalashtirishdagi keyingi qadamni S.Majitov davom ettirdi. Qoraqalpoq davlat teatri repertuarida o‘zbek musiqali dramasini ta’siri ostida yangi yo‘nalish belgilangan paytda o‘zbek mualliflari tajribasini davom ettirdi va 1935-yili tarixiy mavzudagi “Bog‘dagul” musiqali dramasini sahnalashtirdi. Unda muallif o‘sha davrdagi xalq hayotini badiiy aks ettirishga intildi. Bunda muallif qahramonlarning shaxsiy taqdirini xalq taqdiri bilan uyg‘unlashtirgan holda ko‘rsatishga harakat qiladi. Spektakl mazmuni va g‘oyasi davr insonlarining xohish-intilishi hamda dunyoqarashini namoyon etdi.

“Bog‘dagul” spektakli muvaffaqiyatini yosh aktyorlarning ijro mahorati ta’minlaganligini kuzatish mumkin. Y.Sharipov va A.Kazimbetovlar ijrosi xalqqa yaqinlik tomoshabinlarni hayajonga soladi. Y.Sharipov sahnada o‘zini erkin tutadi va qahramoni Qojanning ichki kechinmalarini nozik xatti-harakatlarda ochib beradi. Bog‘dagul rolini ijro etgan A.Kozimbetovanning yoqimli, jarangli ovozi qahramonning lirik kechinmalarini ifodalashga yordam beradi. S.Majitov teatr jamoasiga spektaklga musiqa bastalashda yordam berdi. Bu paytda teatrdan teatrda musiqa rahbari ham, xormeyster ham yo‘q edi. Dramaturg tanlab olgan xalq musiqalarining nota yozuvi mavjud emas edi. Shuning uchun muallifning o‘zi musiqalar ketma-ketligini ishlab chiqdi. Spektakl musiqasi to‘laligicha milliy folklor materiallariga asoslandi. Xalq orasida keng tarqalgan musiqalardan obrazlar va voqealar rivojiga mos ravishda foydalanildi. Ushbu spektakl ba’zi kamchiliklardan holi bo‘lsada, qoraqalpoq teatrida musiqali spektakllar rivojini belgilab berdi. Qolaversa, ushbu spektakl teatrdan “Gulsara” spektaklining yaratilishiga zamin hozirladi.

Teatr jamoasi 1936-yili 8-mart xalqaro xotin-qizlar bayramiga bag‘ishlab K.Yashin va M.Muhammedovning “Gulsara” musiqali dramasini sahnalashtirdi. Spektakl qoraqalpoq tomoshabinlari e’tibori va e’tirofiga sazovor bo‘ldi. Shu bois ushbu asar teatrda qayta-qayta (1940, 1948) sahnalashtirildi.

“Gulsara” asarining sahna talqini muvaffaqiyati ijodiy jamoaning hamjihatligi va aktyorlar mahorati muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Bosh rol ijrochisi T.Rahmonova ham yaratgan obrazi bilan yirik muvaffaqiyatga erishdi. “Gulsara” spektaklidagi bosh qahramon – Gulsara roli aktrisa kelajakda o‘z ijro uslubi va yo‘nalishini topishiga yordam berdi. Shundan boshlab T.Rahmonova milliy truppaning yetakchi aktrisalar qatorida tan olinda va faoliyatini davom ettirdi. U.Layli, Oypari (“Koklen botir”), Gulparshin (“Alpomish”), Zuhra, Oftobxon, Oygul (“Oygul va Abat”) kabi rollarni ijro etdi. U yaratgan rollarning ichki va tashqi xususiyatlariga to‘la ma’noda to‘g‘ri kelishi yigirma yil davomida yetakchi aktrisa sifatida faoliyat yuritishiga imkoniyat tug‘dirdi. Ushbu spektakl aktyorlar jamoasi imkoniyatlarini mustahkamlashga, mahoratini o‘shirishga xizmat qildi.

1936-yili Milliy teatr rahbariyati taklifiga ko‘ra Toshkentdan To‘rtko‘lga taniqli rejissyor Zuhur Qobulov rahbarligida 16 nafar yosh aktyorlar tashrif buyuradi. U shu yili Qoraqalpoq davlat teatri rahbari sifatida faoliyatini boshlaydi. Bu tashrif qoraqalpoq teatrda yangi muhit paydo qilish bilan bir qatorda, musiqali spektakllarni professional darajada ijro eta oladigan jamoaning shakllanishiga zamin hozirladi. Truppa bilan musiqachi kompozitor B.Tumanyan, baletmeyster A.Tairov bilan birga bir qancha aktyorlar jamoa tarkibiga kelib qo‘shildi.

Jamoaga professional kadrlarni kelishi milliy teatr va musiqa san’atini rivojlanishiga sharoit yaratdi. Yosh ijodkorlarning professional tayyorgarligi qoraqalpoq teatrining rivojlanishiga zamin yaratdi. Ijodiy kuchga to‘lgan teatr jamoasi musiqali spektakllarni sahnalashtirishdagi izlanishlarini davom ettirib U.Gajibekovning “Arshin mol olon” musiqali komediyasiga qo‘l urdi. Ushbu spektakl teatr jamoasini musiqali asarlarni sahnalashtirishdagi imkoniyatlari kengayganligini namoyon eta oldi. Ushbu spektakldan so‘ng ijodiy jamoa “Koklen botir” tarixiy dramasiga va “O‘z qo‘li bilan o‘z boshiga” komediyasini musiqalashtirdi. Qoraqalpoq xalqining kuy-qo‘shiqlaridan unumli foydalanildi. Qoraqalpoq kuy – qo‘shiqlarini yig‘ish va yozib olish yangi professional asarlarni vujudga keltirdi. Bu esa teatrda musiqiy dramatik rivojlanishiga xizmat qildi.

Teatr rivojiga g‘amxo‘rlik musiqiy merosni o‘rganish bilan cheklanib qolinmadi. Teatr uchun qo‘shimcha mablag‘ ajratilishi truppa, orkestr tarkibini kengaytirish, davlat teatri qoshida balet truppasini tashkil qilish imkonini berdi. Bularning barchasi teatr ijodiy kuchlarini faollashtirish, spektakllarni badiiylik darajasini oshirish imkonini berdi.

Urush yillarda sahnalashtirilgan “Alpomish” spektakli aktyorlar mahoratini shakllanishida muhim rol o‘ynadi. Folklor asarlari ustida izlanish olib borayotgan N.Davkarayev tarixiy bo‘lsada, zamon bilan hamohang bo‘lib ketgan qahramonlik ruhidagi “Alpomish” musiqali dramani yaratadi. Vatanparvarlik mavzusidagi “Alpomish” asarida qalmoq xoniga qarshi bosh ko‘targan xalq qahramoni Alpomish haqida so‘z yuritiladi. Tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan

vatanparvarlik mavzusidagi spektaklning tomoshabinlar ko‘nglidan joy olishida J.Obidov va T.Allanazarov kabi rejissyorlarning hamda Y.Mamutov, T.Rahmonova, S.Qoraboyeva, E.Davletov, Y.Sharipov, X.Zaripov kabi teatrning keksa va iqtidorli yoshlarining xizmatlari katta bo‘ldi. Ular o‘zlariga topshirilgan rollarni yuksak mahorat bilan ijro etishdi.

“Alpomish” spektakli muvaffaqiyatida Moskvadan taklif qilingan kompozitor V.G.Shafrannikovning xizmatlari katta bo‘ldi. Kompozitor Qoraqalpog‘istonda yashagan xalq musiqa merosi bilan yaqindan tanishadi, bu u yozgan musiqada ham o‘z aksini topadi. Kompozitor xalq ohanglarini qayta ishlaydi, musiqani dramaning badiiy to‘qimasi bilan uyg‘unlashib ketishi esa spektaklning ta’sir kuchini oshiradi. Kompozitor erishilgan bu yutuqlar bilan chegaralanib qolmadi. “Alpomish”ni qayta sahnalashtirishda qoraqalpoq xalq ohanglari jarangini yanada kuchaytirdi.

“Alpomish” asari qayta sahnalashtirilganda baletmeyster Ali – Ardobus (A.Ibragimov) taklif etildi, u raqs nomerlarini qoraqalpoq xalq urf-odatlarini va o‘yinlarini hisobga olgan holda sahnaga qo‘ydi. “Alpomish” eposining asosiy g‘oyasi xalqning urush yillaridagi hayotiga mos bo‘ldi. Ana shu xususiyat rejissyor va aktyorlar tomonidan mahorat bilan berilishi spektakl muvaffaqiyatini ta’minladi”[3]. Spektaklda erishilgan yutuqlar uchun teatrning ko‘pgina ijodkorlariga (T.Rahmonova, Y.Mamutov, Y.Allamuratova, G.Shiraziyeva) Qoraqalpog‘iston xalq va xizmat ko‘rsatgan artisti unvonlari berildi. Teatr jamoasi ushbu spektakl muvaffaqiyatidan so‘ng S.Abdulla va T.Jalilovlarning “Tohir va Zuhra” (1943y.) musiqali dramasi, ozarbayjon dramaturgi Urduboduning “Besh so‘mli kelin” (1944 y.) musiqali komediyasi sahnalashtirildi.

S.Abdulla va T.Jalilovning “Tohir va Zuhra” musiqali dramasi badiiy pishiq, tarbiyaviy ahamiyatga ega, musiqasi xalqchil spektakllardan bo‘ldi. Bunga teatr repertuarida zamonaviy, xalqchil, dolzarb mavzudagi musiqali dramalarning kamligi ham sabab bo‘ldi. Spektakldagi kamchiliklar xususida teatrshunos olim T.Bayandiyev quyidagicha fikr bildiradi: “rejissyor Javod Obidov pyesadagi zamon bilan hamohang, dardkash motivlarni birinchi planga olib chiqolmadi. Ayniqsa, spektaklning yetakchi qahramonlari Tohir, Qorabotir, boboxon obrazlari ham yetarlicha ochilmadi. Bastakor To‘xtasin Jalilovning xalqchil, boy musiqasi ham spektaklning muvaffaqiyatini ta’minlay olmadi”[4]. Ammo ushbu spektakl musiqali asarlarni sahnalashtirishdagi muammo va kamchiliklarga yechim izlash zarurligini ko‘rsatdi.

Teatr ijodkorlari janr jihatidan turlicha bo‘lgan “Ravshan”, “Oshiq G‘arib” musiqali dramani, “Suymaganga suykalma” musiqali komediyani sahnalashtirdi. Ushbu spektakllarda Qoraqalpoq xalqi hayoti, tarixi, afsonaviy jarayonlari o‘z aksini topdi. Dramaturg S.Xo‘janiyozov kompozitorlar O.Xalimov va J.Shamuratovlarning “Suymaganga suykalma” musiqali komediyasining g‘oyaviy-badiiy ahamiyati tomoshabinlar hayotiga yaqinligi, xalq maqol va matallari, obrazli ifodalar, xalq urf-odatlaridan o‘rinli foydalanganligi bilan belgilandi. Rejissyor folklor xususiyatlariga xos xalqonalikni qahramonlar xarakteri va spektakl ruhiyatiga juda ustalik bilan singdiradi.

“Suymaganga suykalma” spektaklining musiqasi muvaffaqiyatli tanlandi. Kompozitor A.Xalimov va qoraqalpoq folklori bilimdoni Japaq baxshi Shamuratov dramaturg bilan ijodiy hamkorlikda ishlab pyesa muhitiga chuqur kirib boradi va xalq ohanglaridan unumli foydalanib ifodali musiqiy nomerlar tayyorlandi. Aslida so‘z va harakat uyg‘unli spektakl muvaffaqiyatini ta‘minlaydi. Spektakl davomida teatr jamoasi badiiy yaxlit sahna asari yaratganligiga guvoh bo‘lish mumkin.

Spektaklning asosiy qahramonlaridan biri Oysanam rolini G.Sheraziyeva ijro etadi va o‘z mahoratini ko‘rsata oladi. Tomoshabinlarning nigohi dastlab, sevib qolgan, orzular qanotida uchib yurgan Avezga ko‘zi tushadi. Hayot so‘qmoqlari, turmush tashvishlari uning uning hayolarini osmonga uchirib yuboradi. Ularning uyida boy Godalaqning paydo bo‘lishi yuragini bezovtalantiradi. Aktrisa qahramonining yoshiga-yosh qo‘shilish jarayonlarini ishonarli ifodalaydi. U yoshi ulg‘aygan sari jiddiylashib boradi. Dastlab orzusiga ishongan beg‘ubor qizning hayajonli qiyofasini aks ettirgan bo‘lsa, spektaklning ikkinchi yarmida otasining taklifiga qarshi chiqa oladigan, o‘z sevgisini qattiq turib himoya qiladigan qizga aylanadi.

Spektaklda Avez obrazini Y.Mamutov ijro etadi. Avez haqiqatni yoqtiradigan, sof qalbli, sevgisiga sodiq bo‘lgan yigit. Avez – Y.Mamutov ijrosini xalq maishiy ertaklaridagi qahramonga qiyoslash mumkin. O‘zining dono ustozlari Orolboy bilan birga Godalaqni fosh qilishga kirishadi va bu ishning uddasidan chiqadi. A.Sapargaliyev ijrosidagi Godalaq obrazi talqini spektaklning muvaffaqiyatli jihatlaridan biri bo‘ldi. Qurimsoq Godalaqning satirik qiyofasi tomoshabinlarda samimiy kulgu uyg‘otadi.

S.Allamuratova ijrosidagi Gulsanam obrazi bag‘ri keng, qalbi ochiq, qizini baxtli qilish uchun har narsaga tayyor, butun vujudini farzandiga baxshida qilishga tayyor mushtipar ona qiyofasida namoyon bo‘ladi. U shunchalar shijoatliki hatto farzandini qurumsoq boyga bermoqchi bo‘lgan zaharxanda turmush o‘rtog‘ining qarashlariga ham mardonavor qarshi tura oladi. R.Seitov esa davr sinovlari tufayli johillashib ketgan, qiziga boyish manbai sifatida qaraydigan, ochko‘z, kambag‘al Koshinboyning ayanchli qiyofasini tasvirlaydi. “Suymaganga suykalma” yaxlit, badiiy puxta, xalqchil, tomoshabob spektakl sifatida e‘tirof etildi va Toshkentda o‘tkazilgan qoraqalpoq san‘ati va adabiyoti dekadasida katta muvaffaqiyatga erishdi.

Qoraqalpoq teatrining yetakchi san‘atkorlari milliy san‘atni rivojlantirish yo‘lidagi xizmatlari uchun yuksak mukofotlarga sazovor bo‘ldilar. Y.Sharipov, G.Sheraziyeva, R.Seitov, Y.Mamutov, kompozitor A.Xolimov kabilar O‘zbekiston xalq artisti unvoniga sazovor bo‘ldilar. Yozuvchi va dramaturglarning yutuqlari uchun “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi” unvoni berildi. Rejissyor T.Allanazarov, artistlar O.Daletova, Z.Zaripov, S.Qoraboyeva, M.Matjonov kabilar O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist unvoni bilan taqdirlandi. Dekadadan keyin Respublika rahbariyati qarori bilan jamoa musiqali drama va komediya deb yuritila boshlandi. Orkestr, xor, va balet ham jamoaning asosiy qismiga aylandi.

Mustaqillik yillarida qoraqalpoq teatri jiddiy ijodiy o‘zgarishlar, siljishlar yuz berdi. Teatr sahnasida tarixiy, zamonaviy qahramonlarga keng yo‘l ochildi. Xalqimizning boy ma‘naviy

merosi – urf – odatlarimiz, udumlarimiz qayta tiklandi va bu jarayonlar musiqali dramalarda o‘z aksini topa boshladi. Jamiyatimiz, xalqimiz hayotida yuz berayotgan ijobiy o‘zgarishlar, ruhiy poklanishlar, inson ruhiyatidagi, dunyoqarashidagi o‘zgarishlar Qoraqalpog‘iston teatrlari sahnasida ko‘rsatilayotgan spektakllarda o‘zining to‘laqonli badiiy ifodasini topa boshladi.

Teatr jamoasi sahnalashtirgan musiqali spektakllari bilan ko‘pgina Respublika va xalqaro festivallarda ishtirok etib, munosib e‘tiroflarga sazovor bo‘ldi. 1993-yili Toshkent shahrida Qoraqalpoq madaniyati va adabiyoti kunlarida N.Muxammeddinovning “Ajiniyoz” operasi, A.Begimov, T.Allanazarovlarning “G‘arib oshiq” musiqali dramasi bilan qatnashdi va shu yili Turkmaniston Respublikasi Ashxobod shahrida o‘tkazilgan “Navro‘z” Xalqaro festivalida ishtirok etdi. 2013-yili Toshkent shahrida ijodiy safarda bo‘lib N.Davqarayevning “Alpomish” musiqali dramasi namoyish etishdi. 2016-yili Toshkent shahrida ijodiy safarda bo‘lib A.Navoiy nomidagi opera va balet katta teatrida Q.Zaretdinovning “To‘maris” operasini, N.Muxammeddinovning “Ajiniyoz” operasini Teatr simfonik orkestrining “Assallom Toshkent oqshomi” konsertini namoyish etishdi. 2017-yil o‘tkazilgan Respublika teatrlarining “Seni kuylaymiz Zamondosh!” ko‘rik festivalida K.Raxmanov, Q.Zaretdinovlarning “Muhabbat shamoli” musiqali dramasi bilan ishtirok etib faxrli 3-o‘rinni egallaydi. 2019-yil aprel oyida Toshkent shahrida Ch.Aytmatovning “Jamila” spektakli bilan gastrol safarida bo‘lib, Muqimiy nomidagi musiqali hamda O‘zbek milliy akademik drama teatrlarida namoyish etildi. 2002-yili teatr jamoasi Toshkent shahrida o‘tkazilgan “Sarhisob 2002” ko‘rik-tanlovida S.Xo‘janiyozovning “Suymaganga suykalma” musiqali komediyasi bilan ishtirok etdi. 2008-yili Turkmaniston Respublikasi poytaxti Ashxobod shahrida o‘tkazilgan “Qo‘shiq, musiqa, insoniyatning ruhiy boyligi” deb nomlangan festivalda teatr kamer orkestri bilan vokal artistlari ishtirokida katta konsert dasturini namoyish etdi. Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatri jamoasi 2021-yil Turkiyaning Trabzon shahrida bo‘lib o‘tgan XXI “Qoradengiz” xalqaro teatrlar festivalida Ch.Aytmatovning “Jamila” spektakli bilan, shuningdek, 2025-yil Turkiya va Gruziya Respublikalarida bo‘lib o‘tgan xalqaro teatrlar festivalida ishtirok etib, Turkiya Respublikasining Istanbul shahrida faoliyat yuritayotgan “Tiyatro Keyfi” teatri bilan, shuningdek, Gruziya davlatidagi Aleksandr Tsutsunava nomidagi Ozurgeti davlat professional drama teatri bilan ijodiy hamkorlikni mustahkamlovchi memorandumlar imzolandi.

Mazkur memorandum ikki teatr o‘rtasida sahna san’ati sohasida tajriba almashish, qo‘shma loyihalarni hayotga tatbiq etish, spektakllar almashinuvi, aktyor va rejissyorlar o‘rtasidagi ijodiy muloqotni kuchaytirish kabi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi.

Xulosa. Teatrdagi kichik ko‘lamdagi milliy asarlardan tortib jahon dramaturgiyasining klassik asarlari yorqin namoyish etildi, opera va balet spektakllarining sahnalashtirilishi jamoaning katta yutuqlari hisoblanadi. Albatta buning barchasiga aktyorlar, rejissyorlar, bastakorlar, rassomlar va boshqada teatr mutaxassislarining fidoyi mehnatlari tufayli erishildi.

Umuman olganda Qoraqalpoq teatri mustaqillik yillarida shaklan va mazmunan boyidi, milliy teatrning yangi repertuarini shakllantirish imkoniyati yuzaga keldi. Teatr jamoasi

o‘zining barcha imkoniyatlarini ishga solib g‘oyaviy va badiiy jihatdan mustahkam bo‘lgan asarlarni sahnalashtirib kelishmoqda.

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatrida bugungi kunda O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq artistlari, O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston san‘at arboblari, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artistlar qatori tajribali yosh aktyorlar ijod qilishmoqda.

Bugungi kunda teatrdavokal, drama artistlari bilan bir qatorda simfonik orkestr, balet, xor artistlari faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Bu esa kelgusida teatr spektakllari janrlarining rivojlanish salohiyati, istiqboli mavjudligini ko‘rsatadi.

Mustaqillik yillarida Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatri repertuarida asosan drama, tarixiy drama, musiqiy drama, psixologik drama, ertak drama, komediya, musiqiy komediya, tragediya, opera, balet janrlari o‘rin olib kelmoqda.

Teatr repertuaridan teatrlashtirilgan shou konsertlari ham o‘rin olgan. Teatr repertuarini janr nuqtai nazaridan tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, balet, opera janrlaridagi spektakllar repertuardan kam o‘rin egallagan. Zamonaviy qahramonlar obrazini yaratish masalasi teatr jamoasi oldida turgan dolzarb masalalardan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Qodirov M. Sehr va mehr. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi “Adabiyot va san‘at” nashriyoti, 1980.- 6 b.
2. Qodirov M. Sehr va mehr. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi “Adabiyot va san‘at” nashriyoti, 1980.-7 b.
3. Bayandiyev T. Qoraqalpoq teatri tarixi. - T.: “Fan va texnologiyalar markazi”, 2011.-60 b.
4. Bayandiyev T. Qoraqalpoq teatri tarixi. - T.: “Fan va texnologiyalar markazi”, 2011.-60 b.
5. Мамутов П. А. Обеспечение профессиональными кадрами каракалпасского государственного театра //Проблемы современной науки и образования. – 2023. – №. 3 (181). – С. 104-111.
6. Pirnazarov S. M., Mamutov P. A. History And Development Of Karakalpak National Ethnogenesis //Eurasian Scientific Herald. – 2022. – T. 7. – С. 193-195.



RAQAMLI SAN'ATNING RIVOJLANISHI VA UNING TURLARI.

O'razboyeva Ravshanoy Bahodir qizi

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti San'atshunoslik fakulteti,
Tasviriy san'at yunalishi 1-kurs magistranti ravshanoyorozbayeva@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli san'atning mohiyati, uning turlari, rivojlanish tarixi va zamonaviy san'atga ta'siri haqida so'z yuritiladi. Raqamli san'at, raqamli texnologiyalar va kompyuter dasturlari yordamida yaratilgan asarlarni o'z ichiga oladi. Maqolada raqamli rasmlar, 3D modellash, anematsiya, va video san'at kabi raqamli san'at turlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: modellash, anematsiya, interaktiv san'at, raqamli san'at, video san'at, 3D modellash.

Аннотация: в этой статье обсуждается природа цифрового искусства, его типов, историю развития и влияние развития и современного искусства. Цифровое искусство включает в себя работы, созданные с использованием цифровых технологий и компьютерных программ. В статье обсуждаются цифровые картины, такие как цифровые фотографии, 3D -моделирование, аниматика, интерактивное искусство и видеоарт.

Ключевые слова: моделирование, аниматика, интерактивное искусство, цифровое искусство, видеоарты, 3D -моделирование.

Annotation: This article discusses the nature of digital art, its types, the history of development and the influence of development and modern art. Digital Art involves the works created using digital technologies and computer programs. The article discusses digital paintings such as digital photos, 3D modeling, animations, interactive art and video art.

Keywords: modeling, animations, interactive art, digital art, video art, 3D modeling.

Shiddat bilan rivojlanayotgan bu zamonda turli sohalarda kundan kunga taraqqiy etmoqda, xususan san'at sohasi ham. San'at insonning moddiy va ma'naviy faoliyatidagi bilimi, tajribasi mohorati va qobiliyatini namoyon etuvchi badiiy ijodiyot mahsulidir. Bugungi kunda raqamli san'at rivojlanmoqda. Raqamli san'at (yoki digital art) bu san'atni yaratish va ifodalash raqamli texnologiyalarni qo'llashni anglatadi. Bunday san'at asarlari kompyuterlar, planshetlar, yoki boshqa elektron qurilmalar yordamida yaratiladi. Bu turdagi san'atda an'anaviy materiallar, masalan qog'ozlar, bo'yoq va qalamlar o'rniga raqamli vositalar va dasturlar ishlatiladi. Masalan Photoshop, Illustrator, Procreate, Blender (va boshqalar) ishlatiladi.

Raqamli san‘atning rivojlanishi san‘at va texnologiyaning o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga kelib, ijodkorlarga yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Raqamli san‘atning rivojlanishi 20-asrning oxiridan boshlangan, kompyuter texnologiyalarning rivojlanishi bilan bog‘liq. 1980-yillarda birinchi raqamli san‘at asarlari paydo bo‘la boshladi, va 1990-yillarda internetning keng tarqalishi bilan raqamli san‘at global auditoriyaga yetib bordi. Bugungi kunda raqamli san‘at, o‘zining inovatsion imkoniyatlari bilan san‘atning barcha sohalarida muhim o‘rin tutadi. Raqamli san‘at bu san‘atning bir turi bo‘lib, unda asarlar raqamli formatda yaratiladi. Raqamli san‘at, ananaviy san‘at shakllardan farqli o‘laroq, raqamli texnologiyalar va kompyuter yordamida yaratiladi, bu esa san‘atkorlarga yangi imkoniyatlar taqdim etadi. Raqamli san‘atning kata afzalliklardan biri shundaki, u an‘anaviy san‘atga qaraganda tezroq va osonroq tahrirlanishi, tarqatilishi va baholanishi mumkin.

Raqamli san‘at zamonaviy san‘atning eng qiziqarli va tez rivojlanayotgan sohalardan biri. Raqamli texnologiyalar va kompyuter dasturlari yordamida yaratilgan asarlar san‘atni yangi darajaga olib chiqmoqda. Raqamli san‘atning ham bir nechta shakllari mavjud bo‘lib ular orasida: Raqamli rasm, 3D modellashirish, animatsiya video san‘ati kabi ko‘plab turlarga bo‘linadi.

3D modellashirish bu dasturlari yordamida uch o‘lchovli modellar yaratish. Bu turli sohalarda jumladan film, va o‘yin dizaynida keng qo‘llaniladi. Animatsiya esa raqamli animatsiya yaratish jarayoni, bu esa harakatli tasvirlar va multfilm ishlab chiqarishga olib keladi. Interaktiv san‘atga kelsak bu san‘at o‘quvchilar yoki tomoshabinlar bilan o‘zaro aloqada bo‘ladigan san‘at asarlari. Bu turli interaktiv o‘yinlar va virtual haqiqat tajribalari desak bo‘ladi. Video san‘ati bu hozirgi kunda juda keng tarqalgan san‘at hisoblanadi, raqamli videolar va videoinstalyatsiyalar yordamida yaratilgan asarlar, turli video mantajlari va eksperimental filmlarni o‘z ichiga oladi. Raqamli rasmlar haqida to‘xtaladigan bo‘lsak bunday rasmlar kompyuter yoki boshqa raqamli qurilmalarda hosil qilingan, saqlangan va ko‘rsatilgan rasm turi hisoblanadi. U analitik rasmga nisbatan raqamli texnologiyalar yordamida ishlab chiqiladi va ko‘pincha piksellardan iborat bo‘ladi. Raqamli rasm ishlab chiqishda bu dasturlardan foydalansak bo‘ladi, Adobe Photoshop, Illustrator yoki gIMP kabi grafik muharrirlaridan foydalanilamiz. Raqamli san‘at, grafik dizayn, fotomanipulyatsiya va boshqa ko‘plab sohalarda raqamli rasmlar keng qo‘llaniladi. 3D modellashirish – bu kompyuter yordamida uch o‘lchovli ob’ektlarni yaratish jarayonidir. Bu jarayon raqamli muhandislik, animatsiya, o‘yin ishlab chiqish, arxitektura va boshqa ko‘plab sohalarda qo‘llaniladi. 3D modellashirishning asosiy maqsadi ob’ektning ko‘rinishini va shaklini yaratishdir. 3D modellashirish dasturlari: Maya, Blender, 3ds Max, Cinema 4D va ZBrush kabi dasturlar 3D modellashirishda keng qo‘llaniladi. Ular yordamida professional darajada 3D ob’ektlar, animatsiyalar va tasvirlar yaratish mumkin. Keying o‘rinda animatsiya bu tasvirlar yoki ob’ektlarning harakatini yaratish jarayonidir. U rasm yoki 3D modellarni harakatlantirib, har bir kadrda ularni o‘zgartirish orqali amalga oshiriladi. Natijada, bir-birini ketma-ket ko‘rsatilganda harakat hissi paydo bo‘ladi. Animatsiya multfilmlar, o‘yinlar va reklamalarda ishlatiladi.

Raqamli san’atning kelajagi texnologik inovatsiyarga bog‘liq bo‘lib ijodkorlar uchun yangi vositalarni taqdim etishda davom etadi. San’atning raqamli shakllari rivojlanib, ulardan foydalaninish imkoniyatlari kengaytirilmoqda.

Interaktiv san’at, O‘quvchilar yoki tomoshabinlar bilan o‘zaro aloqada bo‘ladigan san’at asarlari. Bu turli interaktiv o‘yinlar, virtual haqiqat tajribalari va interaktiv ko‘rgazmalarni o‘z ichiga oladi.

Shu o‘rinda yana bitta shakli ham mavjud bu Net Art san’ati bu san’at bu internetda va raqamli platformalarda yaratilgan san’at asarlari hisoblanadi. bu asarlar web-saytlar, onlayn ko‘rgazmalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali namoyish etiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, zamonaviy san’at ko‘p qirraliva jadal rivojlanayotgan san’at, raqamli san’atning rivojlanishi san’atning yangi shakllarini va g‘oyalarini yaratishga olib keldi. U turli turlarga bo‘linadi va zamonaviy texnologiyalar yordamida san’atkorlarga ijodiy imkoniyatlarni taqdim etadi. Raqamli san’at nafaqat san’atni rivojlantirish balki uni global darajada tarqatish va yangi auditoriyalar bilan birga bo‘lish imkoniyatlarini yaratmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Shavkat Mirziyoev. Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi.
2. Kompyuter texnologiyalari va san’atning o‘zaro bog‘liqligi (Yuldasheva G , Yigitaliyev J.)
3. InLIBRARY.uz
4. Qarshiboyeva Dilafruz, & Boqiyeva Tahmina. (2025). SAN’AT VA TEXNOLOGIYA: RAQAMLI SAN’ATNING RIVOJLANISHI. Ustozlar Uchun, 71(3), 25-29. <https://scientific-jl.com/uuc/article/view>
5. <https://xzendor7.com/site-art>
6. Damir Yalolov. Raqamli san’at maqolasi.

QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 8-son)



SAN'ATSHUNOSLIK
ART HISTORY

UDK:781.2.78.03.78.371.1

"MUSIQA TO'GARAKLARIDA IJODIY SALOHIYATNI RIVOJLANTIRISH JARAYONIDA 4K TEXNOLOGIYALARINING SAMARADORLIGI: MILLIY VA XALQARO TAJRIBALAR ASOSIDA "

Tokhirjon Shokirov

Farg'ona davlat universiteti

Musiqa ta'limi va madaniyat kafedrasi dotsenti

Toxir1304@gmail.com

Annotatsiya Ushbu tadqiqot O'zbekistondagi musiqa to'garaklari faoliyatiga 4K texnologiyalarini — ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, hamkorlik va kommunikatsiyani — integratsiya qilish jarayonini milliy ta'lim islohotlari hamda xalqaro pedagogik tajribalar bilan uyg'unlashtirgan holda o'rganadi. Umumta'lim maktablarida olib borilgan eksperimental tadqiqotlar asosida maqolada VR/AR texnologiyalari, gamifikatsiya va sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish o'quvchilarning musiqiy savodxonligi, ijodiy tafakkuri hamda cholg'u ijrochiligini sezilarli darajada rivojlantirishi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalarida nazorat va tajriba guruhlarida o'rtasida statistik ahamiyatli farq ($t=4.04$) qayd etilib, ushbu texnologiyalarning ijodkorlikni shakllantirishdagi samaradorligini isbotlaydi. Shuningdek, jahon miqyosidagi tajribalar bilan qiyosiy tahlil asosida O'zbekistonning musiqiy merosiga moslashtirilgan raqamli platformalar va mobil ilovalarni joriy etish bo'yicha mahalliy modellar taklif etiladi. Tadqiqot xulosalari shuni ko'rsatadiki, musiqa ta'limida 4K texnologiyalarini joriy etish nafaqat ta'lim jarayonini zamonaviylashtiradi, balki immersiv va inklyuziv strategiyalar orqali milliy musiqiy an'analarni saqlash va targ'ib qilishga ham samarali hissa qo'shadi.

Kalit so'zlar: 4K texnologiyalar, innovatsion o'qitish strategiyalari, musiqa ta'limi, musiqa to'garaklari, ijodiy rivojlanish, tanqidiy fikrlash, kreativlik, hamkorlik, kommunikatsiya, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, AR/VR texnologiyalari, 8D audio, milliy san'at, xalqaro san'at tajribasi, musiqa o'qitish metodikalari, ijodiy salohiyati, cholg'u sozlari.

"ЭФФЕКТИВНОСТЬ 4К ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОЦЕССЕ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА В МУЗЫКАЛЬНЫХ КРУЖКАХ: НА ОСНОВЕ НАЦИОНАЛЬНОГО И МЕЖДУНАРОДНОГО ОПЫТА"

Аннотация Данное исследование исследует процесс интеграции 4К — технологий — творчества, критического мышления, сотрудничества и коммуникации-в

деятельность музыкальных кружков в Узбекистане в сочетании с национальными образовательными реформами и международным педагогическим опытом. Основываясь на экспериментальных исследованиях, проведенных в средних школах, в статье будет научно проанализировано, как использование технологий VR/AR, геймификации и инструментов искусственного интеллекта значительно улучшает музыкальную грамотность, творческое мышление и игру на инструментах учащихся. Результаты исследования отмечают статистически значимую разницу ($t=4,04$) между контрольной и экспериментальной группами, доказывая эффективность этих технологий в формировании творческих способностей. Также на основе сравнительного анализа с мировым опытом будут предложены локальные модели внедрения цифровых платформ и мобильных приложений, адаптированных к музыкальному наследию Узбекистана. Результаты исследования показывают, что внедрение 4K-технологий в музыкальное образование не только модернизирует образовательный процесс, но и эффективно способствует сохранению и продвижению национальных музыкальных традиций с помощью иммерсивных и инклюзивных стратегий.

Ключевые слова: технологии 4K, инновационные стратегии обучения, музыкальное образование, музыкальные кружки, творческое развитие, критическое мышление, креативность, сотрудничество, коммуникация, современные педагогические технологии, технологии AR/VR, 8D аудио, национальное искусство, международный опыт в области искусства, методики преподавания музыки, творческий потенциал, инструментальные слова.

THE EFFECTIVENESS OF 4K TECHNOLOGIES IN THE PROCESS OF DEVELOPING CREATIVE POTENTIAL IN MUSIC CIRCLES: ON THE BASIS OF NATIONAL AND INTERNATIONAL EXPERIENCES"

Annotation This study explores the integration of 4K technologies — creativity, critical thinking, cooperation and communication — into the activities of music circles in Uzbekistan, harmonizing the process with national educational reforms and international pedagogical experiments. Based on experimental research conducted in secondary schools, the article analyzes scientifically how VR/AR technologies, gamification and the use of artificial intelligence tools significantly develop musical literacy, creative thinking and Instrumental Performance of students. In the results of the study, a statistically significant difference ($t=4.04$) between control and experimental groups is noted, proving the effectiveness of these technologies in the formation of creativity. Local models for the introduction of digital platforms and mobile applications adapted to the musical heritage of Uzbekistan are also offered based on a comparative analysis with world-class experiences. Research conclusions show that the introduction of 4K technologies in music education not only modernizes the educational

process, but also effectively contributes to the preservation and promotion of national musical traditions through immersive and inclusive strategies.

Keywords: *4K technologies, innovative teaching strategies, music education, music circles, creative development, critical thinking, creativity, collaboration, communication, modern pedagogical technologies, AR/VR technologies, 8D audio, National Art, international art experience, music teaching methodologies, creative potential, instrumental music.*

KIRISH

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasining ta’lim tizimi, ayniqsa musiqiy ta’lim sohasi bosqichma-bosqich chuqur va tizimli islohotlar jarayonini boshdan kechirmoqda. Xususan, 2024-yil 15-noyabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida musiqa madaniyati fani o‘qitilishini tubdan takomillashtirish hamda musiqa madaniyati fani o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori[1] hamda 2022-yil 2-fevraldagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-112-son qarori[2] mazkur sohada modernizatsiya jarayonlari uchun mustahkam huquqiy asos yaratdi. Shuningdek, 2024-yil 16-noyabrda tasdiqlangan PQ-391-son qarorda musiqa madaniyati fanini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng tatbiq etish, pedagoglarning malaka va salohiyatini yuksaltirish hamda ta’lim sifatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish masalalari belgilab berilgan. Bu kabi normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining tegishli qaror va farmoyishlari davlat siyosatining musiqiy ta’limni isloh qilishga qaratilgan strategik yondashuvini ifodalaydi hamda yoshlarning ijodiy, intellektual va ma’naviy rivojiga xizmat qilmoqda.

Mazkur islohotlar doirasida muallif 2024-yil 27-dekabr kuni Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-apreldagi “Ilmiy va innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanib kelayotgan iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 222-son qarorining 2-ilovasiga asosan tashkil etilgan “Bo‘lajak olim” tanlovida g‘oliblikni qo‘lga kiritdi. Ushbu ilmiy natija tadqiqot faoliyatining yangi bosqichini boshlab berib, musiqa to‘garaklarini samarali tashkil etishda zarur bo‘lgan innovatsion va texnologik yondashuvlarni joriy etish imkonini yaratdi. Shu asosda 4K texnologiyalariga tayanilgan o‘quv dasturlari ishlab chiqildi va ular musiqiy ta’limda milliy qadriyatlarni asrab-avaylash bilan bir qatorda ilg‘or xalqaro tajribalarni integratsiya qilish imkoniyatlarini kengaytirdi. Bu esa musiqiy ta’lim tizimini nafaqat zamonaviylashtirish, balki uni milliy merosni saqlash va global tajribalar bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan innovatsion darajaga ko‘tardi.

O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri — zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta’lim amaliyotiga keng tatbiq etish orqali yoshlarning raqobatbardosh, ijodiy va har tomonlama yetuk shaxs sifatida shakllanishi uchun sharoit yaratishdir. Ayniqsa, musiqiy ta’lim sohasida 4K konsepsiyasining (ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, hamkorlik va kommunikatsiya) tatbiqi mazkur jarayonni

mazmunan yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ushbu yondashuv nafaqat musiqiy savodxonlikni rivojlantirish, balki o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini kengaytirish, musiqiy idrokini mustahkamlash, shuningdek, ularning ijtimoiy va psixologik kompetensiyalarini shakllantirishga ham xizmat qilmoqda.

Biroq, musiqa to‘garaklarining samarali faoliyatini ta‘minlash uchun mavjud texnologik imkoniyatlardan kompleks tarzda foydalanish, o‘quv dasturlarini xalqaro talablar asosida yangilash va pedagoglarning kasbiy mahoratini muntazam oshirib borish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan hisoblanadi. Ushbu vazifalarning hal etilishi musiqiy ta‘lim jarayonida milliy qadriyatlarni zamonaviy pedagogik hamda raqamli yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish, jahon tajribasidan samarali foydalanish va yoshlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ilmiy asoslangan innovatsion mexanizmlarni shakllantirishni taqozo etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Musiqa ta‘limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, ayniqsa 4K konsepsiyasi (kreativlik, tanqidiy tafakkur, hamkorlik va kommunikativlik) asosida tashkil etilgan yondashuv, bugungi kunda ilmiy-pedagogik tadqiqotlarning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Bu jarayon musiqiy faoliyatda o‘quvchilarning ijodiy rivojlanishini ta‘minlash bilan birga, ta‘lim jarayonining samaradorligini ham sezilarli darajada oshiradi. Xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar esa mazkur yo‘nalishda musiqiy ta‘lim metodologiyasini boyituvchi muhim nazariy va amaliy asos sifatida xizmat qilmoqda.

Benham (2014) [4] o‘z izlanishlarida musiqiy ta‘lim jarayonida qo‘llaniladigan turli pedagogik texnologiyalar va ularning samaradorlik jihatlarini keng qamrovda tahlil qilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, interaktiv texnologiyalar musiqiy bilimlarni o‘zlashtirishni yengillashtirishi bilan birga, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik hamda musiqiy ifodaning shakllanishida muhim omil hisoblanadi. Ushbu ilmiy qarash 4K texnologiyalari asosida musiqiy to‘garaklarda ijodiy rivojlanish jarayonlarini o‘rganishda metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi va ularni chuqurroq tadqiq etish zaruratini keltirib chiqaradi.

Shuningdek, Janata (2019) [5] tomonidan olib borilgan izlanishlar musiqiy ta‘limda virtual haqiqat (VR) texnologiyalarining imkoniyatlarini yoritib bergan. Olimning fikricha, VR texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning musiqiy ko‘nikmalarini rivojlantirish, ijodiy tafakkurini faollashtirish va ta‘lim jarayonida motivatsiyasini oshirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, musiqiy faoliyatni immersiv muhitda sinovdan o‘tkazish o‘quvchilarning musiqiy idrokini yanada boyitishi ta‘kidlangan. Shu bilan birga, Janata tadqiqotida VR texnologiyalarining amaliy cheklovlari, texnik infratuzilma bilan bog‘liq muammolari hamda tizimga integratsiya jarayonidagi murakkabliklar yetarlicha yoritilmagan.

Mazkur mulohazalardan kelib chiqib, musiqiy ta‘limda 4K texnologiyalarini chuqur ilmiy tadqiq etish, ularning ijodiy rivojlanishga ta‘sirini kompleks metodlar orqali baholash hamda milliy ta‘lim tizimi sharoitlariga moslashtirish bugungi kunning dolzarb ilmiy vazifalaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Musiqiy ta'lim sohasida zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi nafaqat ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga, balki ijodiy rivojlanish dinamikasini ham yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilmoqda. Xususan, 4K texnologiyalari asosida yaratilgan innovatsion ta'limiy modellar ilmiy izlanishlarda keng tahlil etilmoqda. Benham va Janata kabi olimlarning tadqiqot metodologiyalari bu jarayonning nazariy asoslarini shakllantirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Ushbu xalqaro ilmiy yondashuvlarni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish, xususan, musiqiy to'garaklar faoliyatida qo'llash, o'quvchilarning musiqiy dunyoqarashini kengaytirish va ijodiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Gamifikatsiyalashtirilgan musiqiy ta'lim. Jahon tajribasida ta'limga o'yin elementlarini integratsiya qilish — *gamifikatsiya* metodologiyasi o'quvchilarni faol ishtirok etishga undash hamda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning samarali usullaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Masalan, *game-based learning* modeli musiqiy mashg'ulotlarda interaktiv topshiriqlar, musiqaga oid o'yin ssenariylari va musiqiy vazifalardan foydalanish orqali bilimlarni yanada samarali o'zlashtirish imkonini beradi [6].

Mahalliyashtirish istiqbollari: O'zbekiston sharoitida ushbu metodologiyani milliy musiqiy an'analarga uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xalq qo'shiqlari, maqom san'ati va zamonaviy musiqiy janrlarni uyg'unlashtiruvchi gamifikatsion dasturlar ishlab chiqish orqali o'quvchilarni milliy cholg'u asboblarga qiziqtirish, ularning musiqiy savodxonligini izchil rivojlantirish va ijodiy tafakkurini kengaytirish mumkin (1.1.1-rasm) [7].

VR va AR texnologiyalarining musiqiy ta'limdagi o'rni: So'nggi yillarda musiqiy ta'lim jarayonida *virtual reallik (VR)* va *kengaytirilgan reallik (AR)* texnologiyalaridan foydalanish ijodiy rivojlanishni jadallashtirishda muhim vosita sifatida qaralmoqda. Ushbu texnologiyalar yordamida virtual musiqiy asboblarni yaratish, immersiv muhitda musiqiy chiqishlarni kuzatish, tarixiy musiqiy merosni interaktiv modellashtirish orqali o'quvchilarning musiqiy idrokini yanada kengaytirish mumkin.

4K texnologiyalarini qo'llashdagi metodik qulayliklar: Bugungi kunda dasturlash bo'yicha chuqur tayyorgarlikka ega bo'lmagan foydalanuvchilar uchun ham mo'ljallangan maxsus platformalar ishlab chiqilgan. Masalan, *CoSpaces EduPro* [8], *Tinkercad* [9] va *Scratch* [10] kabi xalqaro ta'limiy dasturlar musiqiy mashg'ulotlarda qo'llanilganda, o'quvchilarni texnologiyalardan ongli foydalanishga, ijodiy tafakkurni shakllantirishga hamda mustaqil musiqiy faoliyat olib borishga yo'naltiradi.

Mahalliyashtirish istiqbollari: O'zbekiston musiqiy merosini, xususan, maqom va shashmaqom san'atini o'rgatishda VR/AR texnologiyalarini tatbiq etish katta metodologik ahamiyatga ega. Bu texnologiyalar yordamida o'quvchilar nafaqat milliy musiqiy shakllarni virtual muhitda o'rganadilar, balki ijro jarayonini ham real tarzda simulyatsiya qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Natijada ular milliy musiqa estetikasi va badiiy qadriyatlarini chuqurroq anglab, zamonaviy ta'lim muhitida yangicha talqin qilish imkoniyatiga erishadilar (1.1.1-rasm).

3. Interaktiv platformalarda musiqa dizayni va kompozitsiyani o‘qitish Jahon tajribasi ko‘rsatadiki, musiqiy kompozitsiya va dizayn jarayonida interaktiv platformalar – Soundtrap, GarageBand, Logic Pro X kabi dasturlar –



1.1.1 rasm. VR/AR texnologiyasiga asoslangan ta’lim

o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, musiqiy savodxonlikni chuqurlashtirish hamda kompozitsion uslublarni o‘zlashtirishda samarali vosita hisoblanadi. Ushbu platformalar taqdim etadigan raqamli muhit nafaqat musiqiy tajriba almashish va improvizatsiya qilish imkoniyatini beradi, balki zamonaviy musiqiy tafakkurni shakllantirish uchun innovatsion pedagogik sharoit yaratadi.

Mahalliyashtirish istiqbollari: O‘zbekiston sharoitida milliy musiqiy merosni zamonaviy texnologiyalar orqali uzatish maqsadida maxsus interaktiv platformalar ishlab chiqilishi mumkin. Masalan, doira, rubob, dutor, surnay singari an’anaviy cholg‘ularni virtual interfeys orqali chalish imkonini beruvchi tizimlar yaratilsa, o‘quvchilar milliy cholg‘u asosida zamonaviy musiqiy kompozitsiyalar yaratishlari mumkin bo‘ladi. Bu jarayon milliy musiqaning raqamli talqinda yosh avlod ongiga yetkazilishiga hamda xalq musiqasini zamonaviy kompozitsion yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi.

4. Onlayn kollaborativ musiqa ta’limi va performanslar So‘nggi yillarda xalqaro pedagogik amaliyotda kollaborativ onlayn musiqa ta’limi keng qo‘llanilmoqda. BandLab, Kompozit, Soundation kabi raqamli vositalar o‘quvchilarga geografik masofadan qat’i nazar, musiqiy asarlarni birgalikda yaratish, tahrir qilish va ijro etish imkoniyatini taqdim etadi. Bunday hamkorlik o‘quvchilarning musiqiy kreativligini kuchaytirish bilan birga, kommunikativ va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mahalliyashtirish istiqbollari: O‘zbekiston musiqiy ta’lim tizimida kollaborativ virtual jamoalarni shakllantirish orqali turli viloyat va hududlardan o‘quvchilarni yagona raqamli musiqiy hamjamiyatga birlashtirish mumkin. Bu hamjamiyatlarda o‘quvchilar o‘z ijodiy ishlanmalarini onlayn namoyish etib, tengdoshlari bilan tajriba almashadilar. Natijada, milliy musiqaning hududiy rang-barangligi raqamli makonda birlashib, yangi avlod musiqachilarining kreativ salohiyati yuksaladi.

5. Musiqa ta’limida mobil ilovalar va raqamli platformalar Xalqaro tajribada musiqiy ta’limni raqamlashtirishning samarali vositalaridan biri sifatida mobil ilovalar keng qo‘llanilmoqda. Masalan, Yousician va Flowkey dasturlari musiqani o‘rganish jarayonini interaktiv, qiziqarli va individual ehtiyojlarga mos shaklda tashkil etadi. Bu kabi platformalar o‘quvchilarda musiqiy savodxonlikni mustahkamlash, ritmik sezgirlikni rivojlantirish hamda ijodiy jarayonlarni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Mahalliyashtirish istiqbollari: O‘zbekiston sharoitida milliy musiqani interaktiv tarzda o‘rgatishga yo‘naltirilgan maxsus mobil ilovalar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir. Ushbu

ilovalar o‘quvchilarga o‘zbek xalq musiqasi namunalarini tinglash, notalarni o‘rganish, ritmik mashqlarni bajarish va virtual tarzda kompozitsiya yaratish imkonini berishi mumkin. Natijada, yosh avlod musiqiy savodxonlikni o‘zlashtirish jarayonida milliy musiqiy meros va zamonaviy texnologiyalar uyg‘unligidan samarali foydalanadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Mazkur tadqiqot doirasida 4K texnologiyalarining musiqa to‘garaklarida ijodiy rivojlanishga ta‘sirini aniqlash maqsadida Farg‘ona viloyatining uchta umumta‘lim maktabida eksperimental mashg‘ulotlar tashkil etildi. Tajriba Toshloq tumani 5-umumta‘lim maktabi hamda Farg‘ona tumani 1-umumta‘lim maktablarida amalga oshirilib, har bir ta‘lim muassasasidan 15 nafardan musiqa to‘garagi a‘zolari tadqiqotga jalb etildi. Eksperiment davomida 4K texnologiyalarining musiqa ijrochiligi, musiqiy idrok va ijodiy tafakkur rivojiga ta‘siri nazorat hamda tajriba guruhlarida misolida o‘rganildi. O‘quvchilarning cholg‘u ijrochiligi, ritmik sezgirlik, musiqiy eshitish qobiliyati va ijodiy faoliyatidagi dinamik o‘zgarishlar chuqur tahlil qilindi. Guruhlar o‘rtasidagi natijaviy farqlarning statistik ahamiyatini aniqlash uchun **Student T-test formulasi** qo‘llanildi.

Bu yerda:

1. X_2 – tajriba va nazorat guruhlarining o‘rtacha natijalari.
2. – ikkalasi guruhning dispersiyasi
3. N_2 – guruhlarining soni

Dispersiyalarni hisoblash:

Eksperimental guruhning dispersiyasi:

$$S_E^2 = \frac{1}{n_E - 1} \sum (X_{men} - \bar{X}_E)^2$$

Bu yerda eksperimental guruhdagi qiymatlar:

- 4 ta o‘quvchi – 3
- 5 ta o‘quvchi – 2 cholg‘u
- 6 ta o‘quvchi – 1 cholg‘u
- O‘rtacha: 1.87

Har bir qiymatning dispersiyaga ta‘sirini hisoblaymiz:

$$S_E^2 = \frac{(4(3 - 1.87)^2) + (5(2 - 1.87)^2) + (6(1 - 1.87)^2)}{15 - 1}$$

$$S_E^2 = \frac{(4 \times 1.27) + (5 \times 0.02) + (6 \times 0.76)}{14}$$

$$S_E^2 = \frac{5.08 + 0.10 + 4.56}{14} = \frac{9.74}{14} \approx 0.696$$

Nazorat guruhida barcha o‘quvchilar faqat 1 cholg‘u chalganligi sababli dispersiya nolga teng:

t-statistikani hisoblash:

$$t = \frac{1.87 - 1}{\sqrt{\frac{0.696}{15} + \frac{0}{15}}}$$

$$t = \frac{0.87}{\sqrt{0.0464}}$$

$$t = \frac{0.87}{0.2154} \approx 4.04$$

Yakuniy natija:

t-statistika = 4.04.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, tajriba va nazorat guruhlarida o‘rtasida sezilarli farq mavjud. Xususan, 4K texnologiyalari asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda qatnashgan eksperimental guruh o‘quvchilari bir nechta cholg‘u asboblari ijro etishda nazorat guruhiga nisbatan ancha yuqori samaradorlik namoyon qildilar. Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, tajriba guruhi a‘zolari musiqiy savodxonlik, ritmik idrok hamda ijodiy tafakkur sohalarida muhim yutuqlarga erishgan. Ushbu tadqiqot umumta’lim maktablari musiqa ta’lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni integratsiya qilishning samarali va istiqbolli yo‘nalish ekanini ilmiy asosda dalillab beradi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot O‘zbekiston ta’lim tizimida zamonaviy innovatsion pedagogik yondashuvlarni tatbiq etish istiqbollari ilmiy asosda yoritib berdi. Xususan, 4K texnologiyalari, AR/VR tizimlari hamda 8D audio formatidan foydalanishning musiqiy ta’lim jarayonida qo‘llanishi o‘quvchilarning ijodiy rivojlanishi, musiqiy idroki va milliy hamda xalqaro tajribalarni o‘zlashtirish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirishi aniqlandi.

Tadqiqotning asosiy natijalari va ilmiy xulosalari quyidagilardan iborat:

1. Eksperimental va nazorat guruhlarida natijalari.

- 4K texnologiyalaridan foydalanilgan tajriba guruhi o‘quvchilari musiqiy savodxonlik, ritmik tafakkur va ijodiy yondashuv ko‘rsatkichlari bo‘yicha nazorat guruhidan sezilarli darajada yuqori natijalarga erishdilar.
- O‘tkazilgan t-sinov natijalari ($t=4.04$) ushbu farqning statistik jihatdan ishonchli va ahamiyatli ekanligini tasdiqladi.

2. Pedagogik innovatsiyalarni qo‘llash samaradorligi.

- AR/VR texnologiyalarining musiqiy ta’limga joriy etilishi o‘quvchilarda musiqiy tajribani chuqurroq his qilish va ijodiy faoliyatni kengaytirishga imkon yaratdi.

- Gamifikatsiya metodlaridan foydalanish o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini oshirib, musiqiy faoliyatda motivatsiyani kuchaytirdi.
- 3. Milliy va xalqaro tajribalarni integratsiya qilish.
 - O‘zbek milliy cholg‘u san’ati bilan ilg‘or xalqaro musiqa texnologiyalarining uyg‘unlashtirilishi musiqiy ta’limda innovatsion o‘quv platformalarini yaratishda muhim metodik asos bo‘lib xizmat qildi.
 - Soundtrap, GarageBand kabi interaktiv ilovalar yordamida yaratilgan musiqiy kompozitsiyalar o‘quvchilarning musiqiy tafakkurini kengaytirib, ijodiy ko‘nikmalarini mustahkamladi.

Umumiy xulosa shuki, 4K texnologiyalarining musiqiy ta’limga kengroq integratsiyasi o‘quvchilarda nafaqat ijodiy salohiyatni rivojlantirish, balki milliy va xalqaro tajribalar asosida mukammal musiqiy kompetensiyalarni shakllantirish imkonini beradi. Bu esa O‘zbekiston ta’lim tizimida raqamli pedagogika va kreativ ta’limni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida musiqa madaniyati fani o‘qitilishini tubdan takomillashtirish hamda musiqa madaniyati fani o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori, 15.11.2024 yildagi PQ-391-son
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-112-son qarori. <https://lex.uz>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-noyabrdagi “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida musiqa madaniyati fani o‘qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-391-sonli qarori. <https://lex.uz>
4. Benham, A. D. (2014). *Technology in music education: The state of the art*. Journal of Music Technology & Education, 7(2), 169-188.
5. Janata, A. L. (2019). *The role of virtual reality in music education*. Music Education Research, 21(2), 172-184.
6. Miller, M. (2015). Music Melee: Game-Based Learning In The College Classroom. *Teaching of Psychology*, 42(3), 234-237. <https://doi.org/10.1177/0098628315580000>
7. A.Sultanov. “Musiqa o‘qitish metodikasi. Maktab repertuari” (Darslik). Classik nashriyoti 2025 y. 287 b



MILLIY IJROCHILIK SAN'ATIDA – XALFACHILIK.

Tojiboyev Sardor O'ktam o'g'li

*Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros
ilmiy-tadqiqot instituti katta ilmiy xodimi*

Xorazmda xalq qo‘shiqlari va epik asarlarni, ulardan olingan parchalar va ayrim termalarni kuylovchi ijodkorlarni xalfalar deb yuritiladi. Xalfachilik – Xorazm vohasida keng tarqalgan mahalliy og‘zaki ijod namunalarini maromiga yetkazib, ijro etuvchi ayollar san’ati. Xalfalar faoliyat ko‘rsatish sharoitiga ko‘ra ma’lum yo‘nalishga bo‘linadi: cholg‘u orqali kuylarni chaluvchi “xalfa soziy”, to‘y va bazmlarda qo‘shiqlar ijro etuvchi “xalfa yodog‘iy”, doston va undagi terma-qo‘shiqlarni ijrochisi “xalfa dostonchi”, raqs tushuvchi ayollar “xalfa raqqosa yoki o‘yinchi” hamda “xalfa kitobiy” - ta’ziya va marosimlarda kitob o‘quvchi ayol. Ular ijodkor sifatida she’r va qo‘shiqlar mualliyalari ham bo‘lishgan. Mashhur xivalik Ojiza xalfa¹⁵ (Onabibi Otajonova)ning 30 dan ortiq she’r-qo‘shiqlari ko‘pgina xalfalar tomonidan kuylanmoqda¹⁶¹⁷. O‘tmishda “ichkari”da ayollarga xizmat qilganlar.

Xalfachilik san’ati ikki turga bo‘linadi: ansamblli xalfalar (xalfa yodog‘i, sozi va raqqosa) va yakka xalfalar (xalfa kitobiy). Ansamblli xalfalar uch kishidan iborat, ya’ni ustoz xalfa (ayni vaqtda garmon (XIX asrda rus garmoni Xorazmda tarqalib, ommalashib ketgan va uni “qo‘l soz” deyiladi) chaladi va qo‘shiq aytadi), doirachi (qo‘shiqlarga jo‘r bo‘ladi, ba’zan raqs tushadi) va o‘yinchilar (raqs tushadi, qayroq bilan o‘ynaydi, yetakchi xalfaga qo‘shilib, qo‘shiq ham aytadi, ba’zan doira ham chaladi) birlashib, jamoani tashkil etadilar.

“Xalfa yodog‘iy” to‘y qo‘shiqlari, lapar va yallalarni; “xalfa dostonchi” xalq dostonlarini, ulardan olingan parchalarni va doston terma-qo‘shiqlarini, birgalikda o‘zlari yaratgan yoki boshqa ijodkorlar asarlarini talqin etadilar. Yakka xalfalar doston, she’rlarni va termalarni cholg‘usiz ijro etadilar. Ular dostonlarni yoddan og‘zaki yoki yozma an’anada, turli mavzudagi kitobdan yoqimli ohangda o‘qiydilar. Xalfalar mahalliy xalqning barcha to‘y-hashamlarida, turli marosimlarda, ayollar yig‘inlari va bayramlarda qatnashadilar, lachak va boshqa to‘y marosimlarni boshqaradilar, jumladan, nikoh to‘ylarini “To‘y muborak” yoki “To‘y boshlovi” qo‘shiqlari bilan ochib beradilar hamda “To‘y javobi” bilan yakunlaydilar.

Xonish qilish, kuylarni mohirona ijro etish, g‘azallarni kuyga solib o‘qish, tinglovchilarni rom qilish, badihago‘ylik xalfachilik san’atining xarakterli xususiyatlari. Xalfachilik jozibali va

¹⁵ <https://youtu.be/Jm-VgpKpCIU?si=YqbZoyLqdOlzP3Y8>

¹⁶ <https://youtu.be/ARLTUuVcHz0?si=E2QLg6xxUaXgyoew>

¹⁷ <https://youtu.be/BdUtoRhVSmU?si=OHHLswwrHHQkSgXm>

navqiron ayollar san‘ati sifatida Xorazm voxasida (hozirgi kunda Xorazm viloyati va Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ellikqal’a viloyati) shu kunlarda ham keng davom etmoqda. Xalfachilik namoyandalari Bibi shoira, Ojiza xalfa, Xonimjon xalfa, Onajon Safarova, Nazira Sobirova, Roziya Matniyoz qizi, Saodat Xudoyberganova, Poshsho Saidmamat qizi, Ambarjon Ro‘zimetova, Anorjon Razzoqova va b.

Xalfachilik nafaqat an‘anaviy “ustoz-shogird” maktablari, balki zamonaviy Xiva musiqa maktablari, Urganch va Ellikqal’a san‘at kollejlari, jumladan, Xivada shahrida tashqil etilgan “Xalfa” qizlar maktabi orqali o‘zlashtirilmoqda. Xalfa ijrochilari tanlovi Xorazmda va Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ellikqal’a viloyatida “Nafosat bo‘stonim manim” nomli festivali doirasida (2013 yildan) o‘tkazilmoqda. Xorazmlik xalfalar o‘z san‘ati va ijrochilik mahoratlarini “Boysun bahori” Ochiq folklor festivali, “Asrlar sadosi” An‘anaviy madaniyat festivali va “Sharq taronalari” Xalqaro musiqa festivallarida namoyish etmoqdalar. Xalfachilik san‘ati festivali Xiva shahrida o‘tkazilmoqda (2016). Ekspeditsiya jarayonida ham xalfachilik san‘ati bugungi kundagi saqlovchilar bilan suhbat olib borildi.

Xalfachilik ijro maktabini bugungi kumdagi davomchilaridan Madrimova Zumrat Boltaevna 1963-yil Xorazm viloyati Xiva shahrida tug‘ilgan¹⁸. Ustozoda san‘atkorimiz avlodida san‘atkorlar O‘zbekiston xalq baxshisi Baxshi ota Abdullaev Qurbonnazar (Bola baxshi) avlodidandir. O‘zbekiston xalq baxshisi Qurbonnazarov Abdulla (Norbek baxshi), Abdullaev Matyoqub kabilarni misol keltirishimiz mumkin.

1982-yil Samarqand Davlat Universitetining filologiya fakultetining “O‘zbek tili va adabiyoti” bo‘limiga sirtidan o‘qishga kirib 1988-yil tamomlagan. 1990-yildan musiqa san‘atiga qiziqishi tufayli kirib keladi. Shundan buyon elimizga xizmat qilib keladi. Xalfa ijrochilikni ilk bora singlisi Qurbonniyozova Dilorom bilan birga ijro qilgan. 2000-yildan ustози Nazira Sobirovadan xalfachilik sir-asrorlarini o‘rganib fotixa olib faoliyatini boshlaydi. Ijro qilish bilan birgalikda mustaqil kuy bastalash, qo‘shiq yozish sirlarini o‘rgangan.

Ustози Nazira Sobirova xalfachilik san‘atiga asos solgan va hozirgi kungacha kuy va qo‘shiqlari xalfalar tomonidan kuylanib kelayotgan ustози Ojiza Anabibi Otajonovanning shogirdi. Ustozining ustozlari Ojiza xalfa tomonidan yaratilgan g‘azallar to‘plami va xadya qilganlar. Ustozim Nazira Sobirova garmonlarini ustozlaridan qolgan g‘azallar to‘plami va garmonlarini hadiya qilganlar bugungi kunda madaniy meros sifatida asrab keladi.

O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosi obyektlari milliy ro‘yhati “Ijrochilik san‘ati” yo‘nalishi 02.04.04. raqami ostida ro‘yxatida saqlanib kelayotgan “Xalfachilik” qabul qilingan.¹⁹ Bugungi kunda bu yo‘nalishida “Xalfachilik” ijro san‘atini keng ommaga taqdim etib targ‘ibotchilik bilan 2003 yildan buyon faoliyat yuritib keladi. 2009-yilda Xiva tuman markaziy madaniyat uyi qoshidagi “Xiva” folklor ansambilida ijrochi, 2009-yilda Toshkentda bo‘lib o‘tgan 2-tur “Asrlar sadosi” festivalida ijrochi sifatida qatnashib 2-o‘ringa sozovor

¹⁸ Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy tadqiqot institute joriy arxivi.

¹⁹ Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy tadqiqot instituti joriy arxivi.

bo‘lgan. Xozirgi kunda Xiva tuman markaziy madaniyat uyi qoshidagi “Doston” folklor xalq ansambilida rahbaridir.

Shogirdlaridan 1984-yilda tug‘ilgan Xazaraspik Rayxona Jumaniyozova. 1983 yilda tug‘ilgan Xivalik Sarvinoz Kuryozova. Qo‘shko‘pirlik Nodirabegim bular xalfachilik va milliy estrada yo‘nalishida xalqimizga mashxur bo‘lgan taniqli shogirdlaridan. Doira chalish sirini Ro‘za Sobirovaga o‘rgatib, 1973-yilla tug‘ilgan Xivalik hozirgi kunda xalfalar yonida doirachi bo‘lib ishlab kelmoqda.

Ustozlarim ijro qiladigan ovoz yozish imkoniyatlari kam bo‘lganligi sababli xalfachilik sirlarini aytilish va chertishni o‘rganish qiyin bo‘lgan. Shu davrlarda ustozlarimdan o‘rgangan (1991 yil) barcha she‘r va g‘azallarni audio kasetalarga yozib olib targ‘ibotga berdim, - deb xotirlab o‘tdilar.²⁰

Shogirdlari yutuqlarini sanab berar ekan alohida Xaitmetova Zulayho 1994 yil avgust oyida Turkmaniston Respublikasida bo‘lib o‘tgan “Oshig‘ oydin-94” nomli xalqaro aytish-soz festivalida jonli ijroda, 2002-yil aprel oyida Koreya mamlakatida Ismoil Israilov, Feruza Jumaniyazova, Xurmat Allayorovlar bilan birga “Aprel gullari” festivalida qatnashib O‘zbekistonliklar II faxriy o‘rinni olib kelganliklari, 2002-yil may oyida Rossiyaning Moskva shaxrida Matrasul (surnaychi) Matyakubov va doirachi Gerakl Madrimovlar bilan katta konsert zalida jonli ijroda surnay va doira bilan konsert dasturiila qatnashganliklarini faxr ila esga oldilar.

2003 yil avgust oyida Qoraqalpog‘iston Respublikasining Bo‘ston shaxrida bo‘lib o‘tgan Otajon Xudashukurov xotirasiga bag‘ishlangan “Nafosat bo‘stonim manim” deb nomlangan respublika tanlovida II o‘rin, 2022-yilning. Mart oyida Xindistonda, Xunarmandlar festivalida qatnashib faxriy yutuqlar bilan taqdirlanadi. Asosiy ish uslubi baxshichilik va xalfachilik janrlarini rivojlantirish chet el sayyohlariga va xalqimizga xizmat qilib kelgusi avlodga yetkazish. 2003-yilda “Xiva xalfalari” ansambli tashkil etilib, 2018-yilda “Xiva xalflari” xalq ansamli unvonini oladi.

Qurbonniyozova Dilorom bilan Madrimova Zumrat xalfalar ijrosida 1996 yil uch soatlik video kaseta, 2001 yilda Zumrad Madrimova va Ro‘za Sobirova bilan uch soatlik video kaseta yangi qo‘shiqlar bilan, 2006-yilda Zumrad Madrimova audio kaseta, 2007 yilda Zumrad Madrimova DVD disk, 2008 yilda MP3 disk, 2009 yil “Navo” studiyasi tomonidan “Ojiza izdoshlari” disklari, 2010-yilda bir necha studiyalar tomonidan “Doniyor” studiyasi, “Xiva” studiyasi va hakoza CD, DVD disklari yozib olinib, “Ikbol” studiyasida tomonidan yangi qo‘shiqlarini xalqimizga taqdim ettilgan.

Xalfachilik san‘atida yetakchi cholg‘ulardan qayroq tosh, doyira, garmon(qo‘l soz) kabilardir. Qayroq - eng qadimiy cholg‘ulardan biri hisoblanadi. Chunki bu cholg‘uning tabiatning o‘zida mavjudligi, qolaversa, urma zarbli cholg‘ularning insonlar hayotidagi eng birinchi “sun‘iy cholg‘u”lari ekanligi buni isbotlaydi. Insoniyatning ibtidoiy davrda tabiatdagi

²⁰ Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy tadqiqot instituti tomonidan 2025-yil 17 - 23-iyunda Xorazm viloyatiga uyushtirilgan ekspeditsiya materiallari.

ne‘matlarni pishirmasdan, qanday bo‘lsa shunday iste‘mol qilganligi va o‘z navbatida qurol sifatida ham qo‘l ostidagi jismlardan foydalanganligini bilamiz. Xuddi shu jarayonning tabiiy davomi sifatida musiqiy ritm hosil qilishda foydalanilgan ilk moslamalarning biri sifatida dunyoga kelgan qayroq toshlar haligacha milliy cholg‘uchilikda foydalanib kelinayotgani ajablanarlidir. Qayroq odatda ikki juft silliq toshdan iborat bo‘ladi va har ikki qo‘lda ikkitadan ushlab ijro etiladi. Qo‘llarning to‘rt barmog‘i (ko‘rsatkich, o‘rta, nomsiz va jimjiloq) bitta toshni tutsa, ikkinchi toshni bosh barmoq boshqaradi va toshlarning bir-biriga urilishi natijasida hosil qilinadigan ritmning tezligi va kuchi mazkur barmoqlarning naqadar samarali ishlashiga bog‘liq bo‘ladi. Qayroq to‘rtta silliq toshdan iborat. U zarbli cholg‘ular tarkibiga kiradi va turli ritmik-usullarni chalish uchun qo‘llaniladi. Qayroq toshlarni har ikki qo‘lda bittadan tutib, ularning boshqalarining o‘rnida taxminan qayroqtoshlar kattaligidagi yassi metallardan foydalanish ham kuzatiladi. Bu holatda metallni barmoqlar bilan ushlab turish va boshqarish biroz osonlik tug‘diradi. Xorazm qayroqlarining ikkitasi temirdan va ikkitasi toshqayroqdan yasaladi. Qayroqni ijrochi har qo‘lida bir juftdan (bosh barmog‘iga bittasini va qolgan barmoqlariga boshqasini) ushlaydi va bir-biriga urishi natijasida quruq chaqqillagan tovush hosil bo‘ladi. Qayroq asosan raqs kuylarida asar koloritini boyitish maqsadida ishlatiladi.

Bulardan daslabki cholg‘u sifatida qaraladigan qayroqtosh kuyga usul berib, raqsga tushganlar, asarlarga joziba berib ijro etib kelingan. Lazgi, sarboz, qayroq o‘yini kabi asarlar Xorazm hududida keng tarqalganlar. Notasi yoq quloq orali eshitib ijro etiladi. Qayroq hozirda ko‘proq xorazmcha kuylarda ko‘proq qo‘llaniladi. Xorazmda raqs davomida erkak va ayol raqqoslar tomonidan ham qo‘llaniladigan holatlar uchraydi.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. <https://youtu.be/Jm-VgpKpCIU?si=YqbZoyLqdOlzP3Y8>
2. <https://youtu.be/ARLTUuVcHz0?si=E2QLg6xxUaXgyoew>
3. <https://youtu.be/BdUtoRhVSmU?si=OHHLswwrHHQkSqXm>
4. Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy tadqiqot instituti joriy arxivi.
5. Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy tadqiqot instituti tomonidan 2025-yil 17 - 23-iyunda Xorazm viloyatiga uyushtirilgan ekspeditsiya materiallari.

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 8-son)



SAN‘ATSHUNOSLIK
ART HISTORY

UDK: 7.091.5

ORCID: 0009-0000-8256-0287

MUSTAQILLIK DAVRI POYTEXT TEATRLARIDA ZAMONAVIY XORIJIY DRAMATURGIYANING SAHNA TALQINLARI

Qodirova Feruzaxon Farxod qizi

O‘zDSMI

Teatrshunos, san‘atshunos, pedagog-tadqiqotchi

feruzaxonqodirova99@gmail.com

Tel: +998996014035

Annotatsiya: Maqolada 1991-2024-yillar oralig‘ida poytaxt teatrlarida sahnalashtirilgan zamonaviy xorijiy asarlar o‘rganiladi, rejissyorlik talqini va aktyorlar ijrosidagi o‘ziga xoslik, zamonaviy xorij dramaturgyasining o‘zbek teatr san‘atiga bo‘lgan ta’siri tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: zamonaviy xorijiy dramaturgiya, poytaxt teatrlari, talqin, rejissyorlik yondashuvi, obraz, dekoratsiya.

СЦЕНИЧЕСКИЕ ИНТЕРПРЕТАЦИИ СОВРЕМЕННОЙ ЗАРУБЕЖНОЙ ДРАМАТУРГИИ В СТОЛИЧНЫХ ТЕАТРАХ ПЕРИОДА НЕЗАВИСИМОСТИ

Аннотация: В статье рассматриваются современные зарубежные произведения, поставленные в столичных театрах в 1991–2024 годах, анализируются особенности режиссёрской интерпретации и актёрского исполнения, а также влияние современной зарубежной драматургии на узбекское театральное искусство.

Ключевые слова: современная зарубежная драматургия, столичные театры, интерпретация, режиссёрский подход, образ, декорация.

STAGE INTERPRETATIONS OF CONTEMPORARY FOREIGN DRAMA IN THE CAPITAL THEATRES OF THE INDEPENDENCE PERIOD

Annotation: The article examines contemporary foreign works staged in the capital theatres between 1991 and 2024, analyzing the specifics of directorial interpretation and actors’ performance, as well as the influence of contemporary foreign drama on Uzbek theatre art.

Keywords: contemporary foreign drama, capital theatres, interpretation, directorial approach, character, set design.

KIRISH. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, madaniy hayotda, jumladan, teatr san’atida ham yangi bosqich boshlandi – teatr san’ati targ‘ibot vositasi sifatida muhim rol o‘ynadi. Erkinlik va milliy o‘zlikni tiklash jarayonida teatrga katta ijtimoiy va ma’naviy yuklama yuklandi, ayniqsa, sovet davrida cheklangan milliy tarixiy shaxslar va qadriyatlarni sahnaga olib chiqish vazifasi Toshkentdagi yetakchi teatrlarga topshirildi. Yangi siyosiy va madaniy muhitda milliy g‘urur, tarixiy xotira va mustaqil tafakkur g‘oyalarini ilgari suruvchi asarlarga talab keskin ortdi. Biroq milliy dramalar soni kamligi va mavjudlarining sahnaga mos kelmasligi teatr repertuarida bo‘shliqlarni yuzaga keltirdi. Shu sababli, teatr ijodkorlari e’tiborini xorijiy, ayniqsa, G‘arb dramaturgiyasining yuksak namunalari tomon qaratdilar. Shu yillarda F.Shiller, J.B.Molyer, V.Sheksir, Yevripid, Lope de Vega, K.Gotsi, K.Goldoni, N.Gogol, A.Kassona kabi g‘arb mumtoz dramaturglarining asarlari o‘zbek teatrlari tomonidan turli talqinlarda va turli yillarda sahnalashtirilib, milliy teatr repertuarining boyishi va xalqaro madaniy rivojlanish bilan uyg‘unlashuviga xizmat qildi.

Masala shundaki, o‘zbek teatri repertuarlarida doimo milliy mualliflarning sahna asarlari qatorida, g‘arb mumtoz dramaturgiyasi e’tiborli o‘rin egallab kelgan. Klassika doimo teatrlarimiz ijodiy faoliyatini belgilaydigan bir mayoq vazifasini o‘tagan. Ammo ko‘p hollarda xorijiy dramaturgiya haqida gap ketganda zamonaviy g‘arb dramaturgiyasi haqida gapirishni unutib qo‘yamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. M.Rahmonov[1], M.Qodirov[2,3], T.Tursunov[4,5], X.Abdusamatov[6], T.Islomov[7], T.Bayandiyev[8], I.Muxtarov[9], S.Qodirova[10,11], H.Ikromov[12], M.To‘laxo‘jayeva[13], O.Rizayev[14], D.Qodirova[15], M.Umarov[16, 17], Sh.Rizayev[18], S.Tursunboyev[19], F.Abduvohidov[20] kabi teatrshunos olimlarning asarlari, darsliklari, monografiyalari, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarida xorijiy dramaturgiya, xususan, G‘arb va Sharq klassik hamda mumtoz dramaturgiyasining o‘zbek teatriga kirib kelishi, sahnalashtirilgan davrlari, sahna talqinlari, rejissyorlik uslublari hamda aktyorlik mahorati hususida ko‘plab tahlillar, salmoqli fikrlar bayon etilgan. Lekin aytib o‘tilganidek zamonaviy xorij dramaturgiyasi haqida kam to‘xtalangan.

Maqolani tayyorlash jarayonida interpretatsiya nazariyasi, performans va semiotik yondashuvlar asos qilib olinadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR. Zamonaviy dramaturgiya jahonda XX asr boshlarida shakllanib, teatrga yangi shakl, uslub va yondashuvlar olib kirdi. Unda an’anaviy hamda klassik uslublardan voz kechib, inson hayoti, psixologiyasi va ijtimoiy muammolar chuqur yoritildi. Teatrlarda irqchilik, gender va ijtimoiy tengsizlik mavzulari ko‘tarildi. Absurd teatr hayotning maqsadsizliklarini aks ettirsa, epik teatr tomoshabinni voqealarni tahlil qilishga undadi. Bertolt Brext, Samuel Beckett, Eugen Ionesco, Artur Miller va Tennessee Villiams kabi dramaturglar bu davrga katta hissa qo‘shdi va ularning asarlari teatr san’atini yangi bosqichga olib chiqdi.

Nemis dramaturgi va rejissyori Bertolt Brext teatrni tomoshabinlarni faqat hissiyotlar uyg‘otadigan emas, balki jamiyatdagi muammolar haqida o‘ylashga undaydigan vosita sifatida

ishlatdi. U teatrni ijtimoiy tanqid qilish, jamiyatdagi noxush holatlar va adolatsizliklarni ko‘rsatish vositasi deb hisoblagan. Brext yaratgan epik teatri bu fikrni aniq ifodalovchi misoldir. Buyuk rus rejissyori Stanislavskiy esa teatrdan inson tabiatini va ruhiyatini chuqur o‘rganish orqali tomoshabinlarga jamiyatdagi hayotiy va ijtimoiy jarayonlarni ko‘rsatish uchun foydalandi.

Zamonaviy xorijiy dramaturgiya o‘zining estetik va dramatik yondashuvlari bilan xalqaro miqyosda muvaffaqiyat qozongani va o‘zbek teatr sahnasida ham unga bir necha bor murojaat etilganini inkor etib bo‘lmaydi. Jumladan, Toshkent teatrlarida yangi avlod dramaturglarining asarlari lokal kontekstda yangicha talqinda namoyon bo‘lgan. Bu esa tomoshabinga zamondosh xorijiy hayot haqiqatlarini anglash imkonini yaratish bilan birga milliy teatrlarda yangi uslub va yondashuvlarning shakllanishiga turtki bo‘lganini, zamonaviy texnik va ijodiy imkoniyatlardan foydalanish imkonini berganini hamda poytaxt teatrlari repertuarini, estetikasi va dramatik jarayonlarini yanada boyitganini e’tirof etish lozim.

Jumladan, **O‘zbek milliy akademik drama teatrida** g‘arb zamonaviy dramaturgiyasiga tegishli “Alla” (T.Minullin, rej. R.Hamidov, 1991), “Kuloyim” (Y.Shvarts, rej. M.Madazimova, 1994), “Tun albatta o‘tadi” (E.De Filippo. rej. A.Gamirov, 2007), “Chegara ustidagi uy” (S.Mrojek, rej. B.To‘raev, 2007), “Oqibat” (M.Ravenxill, rej. A.Gamirov, 2007), “Katta yutuq” (Marsel Bernye Marinye, rej. X.Oxunov, 2008), “Omon bo‘lgan azizim” (V.Delmar (ingliz), rej. O.Salimov, 2011), “Mehr-muhabbatli sakkiz ayol” (R.Toma, rej. M.Abdullayeva, 2012), “Keldi-yu ketdi” (Rey Kuni. rej. A.Xolmo‘minov, 2018), “Antigona” (Jan Anuy, rej. A.Xolmuminov, 2021) asarlar muvaffaqiyatli sahnalashtirilgan. Ularning barchasi bir necha yillardan buyon teatr ixlosmandlarining teatr tomoshalariga bo‘lgan ishtiyoqini oshirib kelmoqda.

2007-yilda O‘zbek milliy akademik drama teatri repertuari Eduardo de Filippining “Tun albatta o‘tadi” tragikomediyasi bilan boyidi. Asar Usmon Azim tarjimai va Aleksandr Gamirov rejissyorligida sahnaga olib chiqildi. Spektakl urush davrida Italiyadagi nochor odamlar, betartib, qashshoq turmush tarzi va insonlarning chorasizliklar botqog‘ida qanday jon saqlagani haqida bir oila misolida hikoya qiladi.

Bosh qahramon Amaliya obrazini Saida Rametova va Zuhra Ashurovalar talqin etgan. Alisher Uzoqov (Amedno), Sh.To‘xtayeva (Maria), Z.Solieva (Tereza), F.Solieva (Margaretta)lar ishtirokida yaxlit aktyorlik ansambli yuzaga kelgan.

Spektakl rassomi Shuhrat Abdumalikovning mehnatiga ham alohida to‘xtalish joiz. Sahna bezaklari davrga muhitiga mos ishlangan, mezansahna aktyorlar xatti-harakatiga halal bermaydi. Teatrshunos I.G‘ofurov shunday deydi: “Sahnadagi dekoratsiya va kostyumlar aktyorning harakatlarini cheklab qo‘ymasligi, balki uning obraz yaratishiga yordam berishi kerak. Ular o‘z o‘rnida obrazning ichki mazmunini ochib beruvchi vositaga aylanishi lozim.”[21] Spektakldagi liboslar davr va xarakterga mos bo‘lib, bunda rassom Sevara Zunnunovaning hissasi katta. Musiqalar esa tomoshabinni Italiya muhitiga olib kiradi. Xulosa qilib aytganda, bu spektakl o‘zbek sahnasini yana bir jahon klassikasi durdonasi bilan boyitdi.

Sahna talqini muvaffaqiyatli chiqqan zamonaviy xorij asarlaridan rejissyor A.Xolmo‘minovning “Keldi-yu ketdi” komediyasini ham tilga olish mumkin. Asar mavzusi oila, muhabbat, sadoqat va so‘nggi pushaymon haqida bo‘lib, Rey Kuni qalamiga mansub “Ishqi zo‘r taksi haydovchi” asari asosida sahnalashtirilgan. Komediya janrida yozilgan mazkur pyesa F.Fayziyev tomonidan tabdil qilingan. Teatrshunos O.Karimovning o‘zining “Teatr san‘ati asoslari” kitobida “Sahna asarining hayotga tatbiq qilinishi, uning tomoshabin ongida mustahkam o‘rnashuvi aktyorlik ijrosi, sahna bezagi va rejissorlik tafakkurining uyg‘unligiga bog‘liq. Agar bu unsurlar o‘zaro hamohang ishlamasa, spektakl o‘z ta‘sir kuchini yo‘qotadi,”[22] – degan fikrni bildirgan. “Keldi-yu ketdi” spektaklida esa bu so‘zlarning isbotini ko‘rish mumkin.

Spektaklning boshida rassom B.Qurbonov muhabbat ramzi sifatida qirmizi olmalarga urg‘u beradi, yakunda esa ular yo‘qoladi. Finalda esa yo‘lini topolmay, tiz cho‘kkan Keldiyor qorong‘ilikka singib boradi. Komediya janridagi spektaklda obrazlar tomoshaviy, syujet esa sodda, ixcham va qiziqarli tarzda qurilgan.

“Aktyor obrazi orqali sahna asarining ruhini ochib berolmasa, eng mukammal sahna bezaklari va rejissorlik yechimlari ham tomoshabinni qoniqtira olmaydi.”[23] Rejissyorning yutug‘i – sahnaga mos aktyorlar jamoasini tanlaganidadir. Keldiyor (A.Qodirov, S.Otajonov, D.Karimov), Qumri (L.Eltoyeva, A.Sharipova), Xumora (D.Kubayeva, Z.Nabiyeva), Tulpor (Sh.Abduvaliyev, F.Ziyoyev, G‘.Boymirzayev), Turdiyev, Boltayev va Muxbir obrazlari esda qolarli va hayotiy talqinda ijro etilgan. Ayniqsa, dramaturgiyada bo‘sh obraz bo‘lishiga qaramay Sh.Abduvaliyev ijrosidagi Tulpor obrazi spektakl kashfiyotiga aylangan, u bosh qahramon Keldiyordan ham ko‘proq e‘tibor qozongan.

Spektaklda aktyorlar plastika, mimika, harakat, nigoh va ohang orqali obrazlarni chuqur ifodalashga erishdi. Finalda Keldiyor ikki xotining ham farzand kutayotganini eshitib, kuchli ruhiy portlash yuz beradi. Bu sahna aktyorlar tomonidan shunchalik mahorat bilan ijro etilganki, tomoshabin sukutda qoladi. Spektaklni mukammal deb bo‘lmasa-da, aktyorlik va tomoshaviylik nuqtai nazaridan yuksak bahoga loyiq.

Zamonaviy xorijiy dramaturgiyaning yorqin namunalari **O‘zbek davlat drama teatri** sahnasida milliylik va zamonaviylik uyg‘unlashgan holda ko‘p bora talqin qilingan. 1992-yilda X.Qosimov rejissyorligida sahnalashtirilgan U.Bodiyevning “Besh so‘m” pyesasi ijtimoiy va psixologik muammolarni yoritgan bo‘lsa, 1994-yilda B.Yo‘ldoshev tomonidan sahnalashtirilgan Frederix Dyurenmatning absurd drama janridagi “Bir eshshak hangomasi” asari modernizmning yorqin namunasi hisoblanadi. 1999-yilda M.Xachaturov rejissyorligida sahnalashtirilgan Luigi Pirandelloning “Payvand” pyesasi absurdizm va surreallik elementlarini o‘zida mujassamlashtirdi. 2012-yilda S.Meliev rejissyorligida sahnalashtirilgan A.S.Pushkinning “Yevgeniy Onegin” asari romantizm va klassitsizm an‘analarini davom ettirib, shaxsiy azoblarni ham ko‘rsatdi. 2018-yilda R.Tog‘ayqulov rejissyorligida sahnaga olib chiqilgan Jan Koktoning “Senga intizorman” pyesasi modernizm va postmodernizm falsafiy yo‘nalishlarini o‘zida jamlagan. 2022-yilda O.Salimov va S.Lutfullayev rejissyorligida

sahnalashtirilgan Tennessee Uilyamsning “Bir kunlik baxt” dramasi postmodernizm ta’sirlarini ko‘rsatgan. 2023-yilda O.Salimov va R.Tog‘ayqulov rejissyorligida sahnaga qo‘yilgan F.Arabbelning “Piknik (Dala sayli)” asari esa postmodernizm va absurdizm elementlarini o‘zida mujassamlashtirgan drama sifatida o‘zbek teatr repertuarini boyitdi. Shu tariqa, zamonaviy xorijiy dramaturgiya asarlari O‘zbek davlat drama teatrida ijodiy yondashuv va milliy ruh bilan talqin qilinib, teatrdagi estetik va dramatik jarayonlarni boyitishda muhim o‘rin egalladi.

O‘zbekiston davlat satira teatri zamonaviy xorijiy asarlarni sahnalashtirish jarayonida poytaxt teatrlari orasida yetakchi o‘rinlarda kelmoqda. Mustaqillik yillaridan bugunga qadar teatrdagi “Qo‘sh arava yuki” (R.Kuni. rej. M.Xoliqov. 2016 y.), “Sehrli kursi” (F.Karinti. rej. Jo‘rabek Ro‘zmetov, 2018 y.), “Etik kiygan mushuk” (Sh.Perro. rej. S.Sattorov, E.Yo‘lchiboyev. 2019 y.), “Yetti gnom” (Andersen. rej. E.Yo‘lchiboyev. 2020 y.), “Sohibjamol va Maxluq” (Sh.Perro. rej. M.Nuraliyev. 2022 y.), “13 xona” (R.Kuni. rej. M.Xoliqov. 2023 y.), “Sohibjamol va Maxluq 2” (Sh.Perro. rej. J.Ro‘zmetov, 2023 y.) kabi asarlar sahna yuzini ko‘rdi.

2018-yil taniqli vengr dramaturgi Fridrex Karintining “Sehrli kursi” asari O‘zbek davlat satira teatrida ilk bor sahnalashtirilib, jamoatchilikka taqdim qilindi. O‘zbek teatri biror marta qo‘l urmagan asarga “panja urmoq” rejissyor va teatr ijodkorlaridan dadillikni talab qiladi.

Spektakldagi voqealar turmush uchun zarur ashyolar ishlab chiqaradigan korxonada yuz beradi. Korxonada ishlaydigan ixtirochining talanti rahbariyat tarafidan qadrlanmaydi. Bu esa ixtirochini kim o‘tirsas gapiradigan kursi yaratishga majbur qiladi.

Asar mobaynida kusiga o‘tirgan turli martabadagi mulozimlar pora olgani va pora bergani hamda yulg‘ichlik qilgani haqida bemalol gapiradilar. “Temir yo‘ldagi yulg‘ichliklarimiz tufayli kirib qolgan botqoqlik” kabi so‘zlar yoki kabinet derazasidan ko‘rinib turgan uylar tepasidagi “siti” degan yozuv bu asarning bugungi o‘zbek jamiyati uchun ko‘zgu bo‘lgani tushuniladi. Sehrli kursi bois butun kirdikorlari fosh bo‘lgan rahbar ixtirochini otib tashlaydi. Spektakl sehrli kursini yoqish sahnasi bilan yakunlanadi.

Ushbu spektaklda aktyorlar ijrosi anchayin mahoratli. Sahna dekoratsiyasi ham asar g‘oyasiga mos ishlangan. Toshkentlik munaqqid Akmal Rizaevning yozishiga ko‘ra: “25 yillik tanaffusdan keyin o‘zbek teatr ijodkorlarining Karinti, Gogol, Sofokl kabi umumbashar dramaturglari ijodiga murojaat qilgani o‘zbek teatri uchun ulkan ijobiy xodisa”. [24]

Poytaxt teatrlari sahnasida zamonaviy xorijiy dramaturgiyaning sahna talqinlari haqida gap ketganda Respublika yosh tomoshabinlar teatri ijodiy izlanishlarini ham unutmaslik lozim. Ushbu teatr mustaqillikdan keyingi yillarda haqiqiy erkin izlanishga kirishgan teatrlar reytingining cho‘qqisida turadi desak, mubolag‘a bo‘lmas. Bugunga qadar “Vijdon tarozisi” (M.Bayjiyev, rej. R.Obidov, 1991), “Oltin jo‘ja” (V.Orlov, rej. R.Obidov, 1992), “O‘z yoringdan ayrilmasin” (Suponin, rej. A.Volodin, 1995), “Xayrlashuv kechasi” (V.Tendryakov, rej. O.Salimov, X.Mahmudov, 1999), “Salom yangi asr” (N.Glubokina, rej. O.Salimov, 2000), “Sehrlangan shahzoda” (N.Glubokina, rej. G.Najidova, 2001), “Dala sayli” (F.Arabbel, rej. O.Salimov, 2003), “Vse myshi lyubiyat syr” (D.Urban, rej. A.Kudryavtsev, 2007), “Oskar va

Pushtirang xonim” (E.Shmit, rej. A.Gamirov, 2010), “Malikani kim qutqaradi?” (M.Votyshko, rej. A.Gamirov, 2011), “Qor malikasi” (G.Andersen, rej. A.Gamirov, 2011), “Maugli” (R.Kipling, rej. A.Gamirov, 2012), “Oppog‘oy va uning do‘stlari” (Aka-uka Grimmlar, rej. Sh.Ibragimov, 2012), “Mening o‘rdakcham” (G.Andersen, rej. M.Iskandarova, 2013), “Tuk-tuk! Kto tam?” (M.Bartenyev, rej. Sh. Akhmedov, 2015), “Schatliviy prints” (O.Uayld, rej. A. Patrushev, 2023), “Bremend so‘zandalari” (V.Levanov, Y.Entin, rej. U.Zokirov, 2020) kabi xorijiy asarlarning zamonaviy, quvnoq sahna talqinlari bilan yosh tomoshabinlarni qaysidir ma’noda tarbiya, ma’rifat va mulohaza yo‘liga boshlab kelayapti.

Mustaqillikdan keyingi davrda xorijiy dramaturgiya namunalariga milliy asarlarga nisbatan ko‘proq murojaat qilinayotgani teatr ijodkorlarining izlanuvchanligi va yangilikka intiluvchanligini ko‘rsatadi. Bunday izlanishlarning yorqin namunasi sifatida 2012-yilda Respublika yosh tomoshabinlar teatrida ingliz yozuvchisi R.Kiplingning mashhur “Maugli” asari asosida sahnalashtirilgan spektaklni tilga olish mumkin. Rejissyor Aleksandr Gamirov tomonidan sahnaga qo‘yilgan bu asar yosh tomoshabinlarga mo‘ljallangan bo‘lib, qiziqarli sahnalar, sho‘x musiqa va raqslarga boyligi bilan e’tiborni tortdi. Spektaklda O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artistlar hamda iqtidorli aktyorlar ishtirok etgan bo‘lib, asarning jonli sahna talqini bolalar tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi.

Shu yili yana bir mashhur asar – ingliz yozuvchilari aka-uka Grimmlarning “Oppog‘oy va uning do‘stlari” ertagi rejissyor Sh.Ibragimov tomonidan sahnalashtirildi. Bolalar va kattalar orasida yaxshi tanilgan ushbu ertakning teatr sahnasidagi talqini keng jamoatchilik e’tiborini tortdi. “Oppog‘oy va uning do‘stlari” spektakli bolalar auditoriyasiga mo‘ljallangan sahna asari sifatida teatr estetikasi va tarbiyaviy maqsadlarining uyg‘un namunasi bo‘la oldi. Rejissyorlik yechimi, aktyorlik ijrosi hamda sahna bezaklari bir butun holda ertakning dramatik mazmunini muvaffaqiyatli ifodalashga xizmat qilgan. Ayniqsa, tanlangan musiqiy va xoreografik vositalar asarning emotsional ta’sirchanligini kuchaytirgan. Oppog‘oy va Qirolicha obrazlari orqali yaxshilik va yomonlikning o‘zaro kurashi bolalar uchun tushunarli va ta’sirli shaklda sahnalashtirilgan. Spektakl asosining multfilm va ertak shaklida bolalarga avvaldan tanish bo‘lganini hisobga olsak, sahna versiyasining jonli ifoda orqali bolalarga o‘zgacha zavq va yangi taassurotlar baxsh etgani teatrning pedagogik va madaniy vazifalarini muvaffaqiyatli ado etganini ko‘rsatadi.

Tashkil topganiga bor yo‘g‘i yigirma yil to‘lgan bo‘lsa-da zamonaviy xorijiy asarlarning noodatiy va muvaffaqiyatli talqini borasida ko‘pgina teatrlarni ortda qoldirgan **“Diydor” teatr-studiyasi** “Qarg‘ildoq” (Irina va Yan Zlopolskiylar. rej. B.Yo‘ldoshev, 2012), “Maqtanchoq quyon” (V.Orlov. rej. S.Seduxin, 2014), “Ajab-ajab” (I.Cherkashev. rej. N.Xodjanova, 2008), “Egizaklar” (F.Lyudvig. rej. B.Yo‘ldoshev, 2011), “Oq mushuk haqida ertak” (Irina va Yan Zlotopolskiylar. rej. Shomurod Yusupov, 2020), “Kichkina shahzoda” (Antuan de Sent-Ekzyuperi. rej. X.Mamasharipov, 2021), “Qum maydonchasi” (Mixel Valchak. rej. V.Smironov, 2022), “O‘t qo‘yuvchilar” (M.Frish. rej. B.Abdurazzoqov, 2023), “Avtoxalokat” (F.Dyurrematt. rej. J.Qosimov, 2024), “Patriarx haqida afsona” (G.G.Markes.

rej. A.Patrushev, 2024) kabi zamonaviy xorij asarlarini yuksak mahorat bilan o‘z sahnasiga olib chiqdi.

“Hozirgi kunda Milliy teatr taraqqiyotini bir me‘yorda tekis rivojlanayotgan jarayonga o‘xshatib bo‘lmaydi. Turli uslubiy o‘zgarishlar, izlanishlar, eksperimentlarning guvohi bo‘lmoqdamiz. Sahna ijodkorlari erishilgan ijodiy erkinlik tufayli, ma'lum sanalarga bag‘ishlangan spektakllarni sahnalashtirishdan tashqari, o‘z intilishlari, qiziqishlari, ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda turli asarlarni sahnalashtirmoqdalar,”[25] – deydi teatrshunos S.Qodirova.

Jumladan, Shveysariyalik dramaturg Fridrix Dyurrenmattning asari asosida Jahongir Qosimov sahnalashtirgan “Avtohalokat” spektakli jazodan, vijdon tergovidan qochayotgan qotillar haqida falsafiy mushohada yuritadi. Bu rejissyorning teatr sahnasidagi ilk asari bo‘lishiga qaramay, muvaffaqiyatli chiqqan.

Spektakl Alfredo Traps ismli kishining mashinasi buzilib, notanish bir uyga tunash uchun kirib borishi bilan boshlanadi. Uy egalari – “eski do‘stlar” deb tanishtirilgan keksa kishilar, aslida kechasi sud o‘tkazadigan sobiq yuristlardir. Ular tarixiy shaxslar ustidan sud qilish bilan birga, “tirik jinoyatchilar bilan o‘ynash”ni ham ma‘qul ko‘radi. Trapsga “o‘yin”da jinoyatchi roli taklif etiladi. Avvaliga hayron qolgan mehmon, asta-sekin ichki kechinmalar ta’sirida o‘z qilmishlarini tan ola boshlaydi.

Spektakl voqealari dramatik taranglikda davom etadi. Dialoglar, xarakterlar, ijtimoiy va falsafiy qatlamlar tomoshabinni chalg‘itmaydi. Alfredo Traps rolini ijro etgan Karim Mirhodiyeu obrazning psixologik holatini mukammal ochadi. U o‘zini begunoh deb hisoblagan Trapsni bosqichma-bosqich jinoyatini tan oladigan darajaga olib chiqadi.

Prokuror rolidagi Abduhalil Mignorov spektakl dramaturgiyasini belgilovchi markaziy obrazlardan biri. U sovuqqonlik, topqirlik, mantiqiy tahlil orqali Trapsni fosh qiladi. Farhod Abdullayev (Sudya) va Egamberdi Rahimov (Advokat) ijrolari orqali haqiqat, adolat va insonparvarlik g‘oyalari talqin etiladi. Advokat nogiron bo‘lishiga qaramay, insoniyatga bo‘lgan ishonchni yo‘qotmagan obraz sifatida namoyon bo‘ladi.

Rejissyor sahna va tomoshabin orasidagi devorni buzgan. Verge sudni boshlayotganda tomoshabinlarga murojaat qilishi orqali ularni ham jarayon ishtirokchisiga aylantiradi. Spektakl yakunida Traps avtohalokatga uchrab halok bo‘ladi – bu “ilohiy hukm” sifatida talqin qilinadi.

Asar chuqur falsafiy qatlamlarga ega, tomoshabinni mushohadaga, o‘z vijdoniga qarashga undaydi. “Diydor” teatr-studiyasining bu kabi izlanishlari milliy sahna san’atining ma’naviy yukini oshiradi, teatrning ma’rifiy missiyasini yuksaltiradi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, mustaqillik davrida poytaxt teatrlari sahnasida G‘arb zamonaviy dramaturgiyasining talqini nafaqat milliy teatr san’atining estetik va badiiy imkoniyatlarini kengaytirdi, balki yangi ijodiy izlanishlarga ham turtki bo‘ldi. Bu jarayon o‘zbek sahna san’ati oldiga muhim vazifalarni qo‘ydi: bir tomondan, G‘arb dramaturgiyasining murakkab ijtimoiy-falsafiy g‘oyalarini tomoshabinga yetkazish mas’uliyati, ikkinchi tomondan milliy sahna madaniyatiga mos badiiy shakllarni izlab topish zarurati.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda teatrlar repertuar siyosatida xorijiy dramaturgiyaning badiiy-estetik ahamiyatini inobatga olib, zamonaviy xorijiy asarlarni, ayniqsa, bugungi ijtimoiy muammolar bilan uyg‘unlashadigan ilg‘or progressiv badiiy-g‘oyaviy pyesalarni topish, tanlash, tarjima qilish va sahnalashtirish o‘zbek teatri uchun yangi qirralarni ochish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Rahmonov M, To‘laxo‘jayeva M, Muxtorov I. O‘zbek milliy akademik drama teatri. – T.: 2003. (Rakhmonov M, Tulakhujayeva M, Mukhtorov I. The Uzbek National Academic Drama Theater. – Tashkent: 2003.)
2. Qodirov M. O‘zbek teatri an‘analari.-T.: G‘afur G‘ulom., 1976. (Qodirov M. Uzbek Theater Traditions. -T.: Gafur Gulyam., 1976.)
3. Qodirov M. An‘anaviy teatr dramaturgiyasi.-T.: Yangi asr avlodi, 2006. (Qodirov M. Traditional Theater Dramaturgy. -T.: Yangi asr avlodi, 2006.)
4. Tursunov T. Sahna va zamon.-T.:Yangi asr avlodi., 2007. (Tursunov T. The Stage and Time. -T.: Yangi asr avlodi., 2007.)
5. Tursunov T. XX asr o‘zbek teatri tarixi: 1900-2007. -T.: Art Press. 2010. (Tursunov T. History of 20th Century Uzbek Theater: 1900-2007. -T.: Art Press. 2010.)
6. Abdusamatov X. Drama nazariyasi. -T.: G‘afur G‘ulom, 2000. (Abdusamatov Kh. Theory of Drama. -T.: Gafur Gulyam, 2000.)
7. Islomov T. Tarix va sahna. -T.: G‘afur G‘ulom, 1998. (Islomov T. History and the Stage. -T.: Gafur Gulyam, 1998.)
8. Bayandiyev T. Ikromov H. Ahmadjonova M. O‘zbek teatrida milliy g‘oya talqini. -T.: Fan va texnologiya, 2009. (Bayandiyev T. Ikromov H. Ahmadjonova M. Interpretation of National Idea in Uzbek Theater. -T.: Fan va texnologiya, 2009.)
9. Мухтаров И. Узбекский театр. Страницы истории и современности.-Т.: Санъат, 2014. (Mukhtarov I. The Uzbek Theater. Pages of History and Modernity. -T.: San'at, 2014.)
10. Qodirova S. Teatrshunoslik. – T.: “Donishmand ziyosi”. 2023. (Qodirova S. Theater Studies. - T.: “Donishmand ziyosi”. 2023.)
11. Qodirova S. Komediya san‘ati tarixi. -T.: San‘at. 2008. (Qodirova S. History of Comedy Art. -T.: San'at. 2008.)
12. Ikromov H. Davr va teatr. -T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti., 2009. (Ikromov H. The Era and the Theater. -T.: State Scientific Publishing House of the National Encyclopedia of Uzbekistan., 2009.)
13. Туляходжаева М. Режиссура узбекского драматического театра (тенденции развития и современные проблемы). -Ташкент.: Гафур Гуляма, 1995. (Tulyakhodjaeva M. Directing of the Uzbek Dramatic Theater (development trends and contemporary problems). - Tashkent.: Gafur Gulyam, 1995.)

14. Rizayev O. Nabi Rahimov. -T.: G‘afur G‘ulom, 1997. (Rizayev O. Nabi Rahimov. -T.: Gafur Gulyam, 1997.)
15. Qodirova D. XX asr o‘zbek teatri ssenografiyasi. -T.: San‘at, 2009. (Qodirova D. Scenography of 20th Century Uzbek Theater. -T.: San'at, 2009.)
16. Umarov M., Yuldashev T. Rejissorlik va aktyorlik san‘ati asoslari. -T.: Konsalt, 2014. (Umarov M., Yuldashev T. Fundamentals of Directing and Acting. -T.: Konsalt, 2014.)
17. Umarov M. Mannon Uyg‘ur estetikasi. -T.: Musiqa, 2007. (Umarov M. Mannon Uygur's Aesthetics. -T.: Musiqa, 2007.)
18. Rizayev Sh. Jadid dramasi –T.: Sharq. 1997. (Rizayev Sh. Jadid Drama –T.: Sharq. 1997.)
19. Tursunboyev S. O‘zbek teatri sarxadlari. – T.: 2010. (Tursunboyev S. Frontiers of Uzbek Theater. – T.: 2010)
20. F.Abduvohidovlarning “Teatr tarixi. – T.: “Turon-iqbol”, 2018. (F. Abduvohidov’s “History of Theater. – T.: “Turon-iqbol”, 2018.)
21. G‘ofurov I. Teatr va san‘at. — Toshkent: “Fan” nashriyoti, 1996. 92-bet. (Gafurov I. Theater and Art. — Tashkent: “Fan” publishing house, 1996. — P. 92.)
22. Karimov O. *Teatr san‘ati asoslari*. — T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1990.45-bet (Karimov O. Fundamentals of Theater Art. — T.: Gafur Gulyam literature and art publishing house, 1990. P. 45)
23. Jo‘rayev A. *Teatr san‘ati va zamon*. — Toshkent: “Fan” nashriyoti, 2005. 63-bet. (Jo'rayev A. Theater Art and Time. — Tashkent: “Fan” publishing house, 2005. P. 63.)
24. Bobojonov Sh. Toshkentda o‘tirsang gapirtirvoradigan “Sehrli kursi” qo’yildi. <https://www.ozodlik.org> (Bobojonov Sh. "Magic chair" that makes you talk was placed in Tashkent. <https://www.ozodlik.org>)
25. Qodirova S. Teatrshunoslik. Toshkent: “Donishmand ziyosi” – 2003. 117-bet. (Qodirova S. Theater Studies. Tashkent: “Donishmand ziyosi” – 2003. P. 117.)



ҚОРАҚАЛПОҚ МИЛЛИЙ НАЪҚИШЛАРИДАГИ АСОСИЙ МОТИВЛАР

Даулетмуратова Меҳрибону Бектилеуовна
Ассистент-ўқитувчи, Ўзбекистон давлат санъат
ва маданият институти Нукус филиали

Аннотация Мақолада қорақалпоқ миллий нақшларининг тузилиши ва уларда учрайдиган асосий тўртта мотив – ўсимлик, ҳайвон, буюм ва геометрик шакллар илмий таҳлил қилинган. Археологик топилмалар, визуал таҳлил ва адабий манбалар асосида ушбу мотивларнинг шаклланиш манбалари, рамзий маънолари ҳамда маданий меросдаги аҳамияти ёритилган. Ҳар бир мотив турининг бадиий хусусиятлари, миллий эстетикадаги ўрни ва бошқа халқ орнаментлари билан умумий ва фарқли жиҳатлари аниқланган. Тадқиқот натижалари қорақалпоқ нақшларининг архаик белгиларини сақлагани ва уларни этнография, тарих ва санъатшунослик нуқтаи назаридан қимматли манба сифатида ўрганиш зарурлигини тасдиқлайди.

Калит сўзлар: қорақалпоқ нақшлари, миллий безак, ўсимлик мотиви, ҳайвон мотиви, буюм мотиви, геометрик мотив, маданий мерос, этнография.

ОСНОВНЫЕ МОТИВЫ В КАРАКАЛПАКСКИХ НАЦИОНАЛЬНЫХ УЗОРАХ

Аннотация В статье проводится научный анализ структуры каракалпакских национальных узоров и четырех основных мотивов, встречающихся в них - растительных, животных, предметных и геометрических форм. На основе археологических находок, визуального анализа и литературных источников выявлены истоки формирования, символические значения и роль этих мотивов в культурном наследии. Определены художественные особенности каждого типа мотива, его место в национальной эстетике, а также общие черты и различия с орнаментами других народов. Результаты исследования подтверждают сохранение архаических черт каракалпакских узоров и необходимость их изучения в качестве ценного источника с точки зрения этнографии, истории и искусствоведения.

Ключевые слова: каракалпакские узоры, национальный орнамент, растительный мотив, животный мотив, предметный мотив, геометрический мотив, культурное наследие, этнография.

MAIN MOTIFS IN KARAKALPAK NATIONAL PATTERNS

Abstract The article scientifically analyzes the structure of Karakalpak national patterns and the four main motifs found in them - plant, animal, object, and geometric shapes. Based on archaeological finds, visual analysis, and literary sources, the sources of formation, symbolic meanings, and significance of these motifs in cultural heritage are highlighted. The artistic features of each type of motif, its place in national aesthetics, and its commonalities and differences with other folk ornaments have been determined. The research results confirm the preservation of archaic features of Karakalpak patterns and the need for their study as a valuable source from the point of view of ethnography, history, and art history.

Keywords: Karakalpak patterns, national ornament, plant motif, animal motif, object motif, geometric motif, cultural heritage, ethnography.

Кириш

Қорақалпоқ миллий нақшлари қадим-қадимдан халқнинг бадиий ва маданий меросида муҳим ўрин тутиб келган. Тарихий даврларда ёзув кенг тарқалмагани сабабли, нақш ва безаклар қорақалпоқлар учун нафақат гўзаллик белгиси, балки муҳим ахборот ва алоқа воситаси бўлиб хизмат қилган. Улар орқали халқ ўзининг асрлар давомида шаклланган анъаналари, келиб чиқиши, дунёқараши ва қўшни маданиятлар билан муносабатини ифода этган [1, 62].

Қорақалпоқ безак санъатида турли халқлар билан ўхшашликлар ҳам мавжуд. Масалан, ўзбек ва туркман халқлари орнаментларида учрайдиган айрим шакллар қорақалпоқ нақшларида ҳам кўрилади. Шу билан бирга, қорақалпоқ безакларида муйиз (шоҳ) ва қувур каби мустақкам схемалар, оддий ва аниқ график тузилишлар кенг қўлланади. Ушбу шакллар авлоддан авлодга ўтиб, ўзининг қадимий маъносини сақлаб қолган.

Қорақалпоқ миллий безакларини илмий ўрганиш жараёни 1950-1960-йилларда фаоллашди. Нукус давлат санъат музейи асосчиси, rassom И.В. Савицкий қорақалпоқларнинг анъанавий безакли буюмларини йиғиб, музей фондига киритди [2]. Бугунги кунда бу коллекциялар, шунингдек, Кавказ ва Тожикистон олимларининг тадқиқотлари ҳамда турли этнографик фондлардаги материаллар қорақалпоқ нақшларини ўрганишда асосий манбалар ҳисобланади. Муминиев, Алламурастов каби фольклоршунослар ва Царева каби этнографлар ўз мақолаларида қорақалпоқ нақшларининг шакллари, маънолари ва тарқалиш ҳудудлари ҳақида бой маълумотлар берган.

Музей ва илмий тадқиқотлар маълумотларига кўра, Қорақалпоқ безак санъати бошқа халқлар безакларидан бир қатор жиҳатлари билан фарқ қилади. Масалан, қорақалпоқ маиший буюмлар ва қурол-жабҳаларининг устки қисмида кўпинча геометрик, ҳайвон шаклидаги (зооморф) ёки шоҳга ўхшаш мотивлар қўлланилади. Анъанавий услубда ишланган бу безакларда оддий ва қадимий (архаик) шакллар устувор

бўлиб, ҳар бир нақш муайян маъно ифодалайди, ортиқча безак ёки тасвирлар эса деярли учрамайди [3].

Қорақалпоқ аёлларининг анъанавий зиёватлари ва турли маиший буюмларида асрлар давомида шох шаклидаги мотивлар сақланиб келган. Парранда ва чорва ҳайвонларининг шохга ўхшаш безаги – “муйиз” – қорақалпоқ халқида кўпчилик томонидан ҳосилдорлик ва фаровонлик рамзи сифатида қабул қилинган [4]. Шунинг учун ҳам бу каби безак элементлари қорақалпоқ маданий меросининг муҳим ва қадрли қисми ҳисобланади.

Адабиётлар талқини

Мавзуга оид илмий адабиётларда қорақалпоқ миллий нақшлари тўғрисидаги илк изланишлар Т.Жданко, Х.Есбергенов, И.В. Савицкий, И.В. Богословская, Д.А. Кудайбергенова ва бошқа тадқиқотчилар ишларида ёритилган. Богословская асарларида орнаментнинг тасвирий ва маъноий қирралари чуқур таҳлил этилган. Савицкийнинг амалий фаолияти қорақалпоқ безакли буюмларини тўплаш ва уларни музей фондига киритиш билан боғлиқ. Кудайбергенова миллий заргарлик коллекциясини илмий жиҳатдан таҳлил қилган. Интернет манбалар орқали зооморф ва геометрик мотивларнинг турлари ва маънолари ҳақида қўшимча маълумотлар берилган. Ушбу манбалар орнаментнинг тарихий, маданий ва бадий аҳамиятини тўлиқ ёритишга хизмат қилади.

Материал ва методлар

Тадқиқот жараёнида бир неча йўналишдаги манбалар ва усуллар комплекс тарзда қўлланилди. Археологик тадқиқотлар асосида, хусусан, 1950-1960-йилларда Қорақалпоқистон ҳудудида олиб борилган қазималар ва илмий экспедициялар натижалари таҳлил қилинди. Нукус шаҳридаги И.В. Савицкий номидаги давлат санъат музейи ҳамда бошқа музей ва архивларда сақланаётган қорақалпоқ миллий меросига оид артефактлар кўздан кечирилиб, визуал таҳлил қилинди. Шу билан бирга, мавжуд ижтимоий-этнографик ва санъатшунослик адабиётлари – этнографик ҳисоботлар, музей каталоглари, илмий монографиялар ва мақолалар – чуқур ўрганилди. Қўлланилган ушбу усуллар орқали безак мотивларининг шакллари, рамзий маънолари ва тарқалиш ҳудудлари илмий асосда аниқланди.

Натижалар

Тадқиқот натижаларига кўра, Қорақалпоқ миллий безаклари Савицкий томонидан белгиланган тўртта асосий мотив – **ўсимлик, ҳайвон (зооморф), буюм (предмет)** ва **геометрик шаклли** мотивлар – асосида шаклланган. Ҳар бир мотив тури ўзининг бадий ва маънавий қиймати билан ажралиб туради [5].

- **Ўсимлик мотивлари.** Қорақалпоқ нақшларида табиат манзараларини, хусусан, дарахт, барг ва гул шаклидаги элементларнинг кенг қўлланиши кузатилади. Уларда сув ўсимликлари, ирис, лола каби дала гуллари ҳамда мева дарахтларининг стилизация қилинган образлари акс этган. Бундай нақшлар ҳаётбахшлик, қайта тикланиш, баҳор ва табиат билан уйғунлик рамзи сифатида қабул қилинади.

- **Ҳайвон мотивлари.** Зооморф нақшлар турли ҳайвон ва қуш образларига асосланади. Улар ичида қўй ва буқа шохини ифодаловчи «муйиз» мотиви алоҳида аҳамиятга эга бўлиб, ҳосилдорлик, фаровонлик ва ҳимоя рамзи сифатида талқин қилинади. Шунингдек, «ит табан», «қарға тырнак», «жылан баўыр» каби элементлар ҳам кенг тарқалган. Ҳайвон мотивлари кўпинча маросимий буюмлар, миллий кийимлар ва театр безакларида учрайди. Улар халқнинг ҳайвонларга бўлган сакрал муносабати ва улар орқали ифода этилган қадриятларини акс эттиради.
- **Буюм мотивлари.** Бу турдаги нақшлар кундалик ҳаётда ишлатиладиган анъанавий буюмлар образларига асосланган. Масалан, чойнак, тарақ, қопқон, саб-аяк (кўкат идиши) каби предметлар шакллари нақш сифатида стилизация қилинади. Улар миллий турмуш тарзи, ҳунармандчилик ва иш фаолияти билан боғлиқ маъноларга эга. Буюм мотивлари кўпроқ уй-рўзғор буюмлари, оқ жегде, қоржун ва баъзи кийим безакларида учрайди.
- **Геометрик мотивлари.** Бу турдаги нақшлар асосан ромб, тўртбурчак, учбурчак, зигзаг, спирал, розетка каби шакллардан ташкил топган. Геометрик нақшлар кўпинча композиция маркази ёки чегара қисмида жойлаштирилиб, бошқа мотивлар билан уйғунлаштирилади. Улар космогоник қарашлар, ҳаёт даврийлиги ва фалсафий тушунчаларни ифода этади. Масалан, «ўн икки муйиз» (12 бурчакли ромб) мотиви қадимги халқлар тақвими эслатади ва вақт даврийлиги рамзи сифатида қабул қилинади.

Ушбу натижалар қорақалпоқ миллий нақшларининг тузилишида турли мотивлар уйғунлиги ва уларнинг семантик бойлиги маданий мерос сифатида қанчалик муҳим ўрин тутишини тасдиқлайди.

Муҳокама

Қорақалпоқ миллий безакларида учрайдиган асосий мотивлар миллий эстетикада ўзига хос ва ўта аҳамиятли ўрин эгаллайди. Уларда халқнинг табиатга бўлган чуқур муҳаббати, дунёқараши ва ҳаёт фалсафаси рамзий ифодада намоён бўлади. Қорақалпоқ халқининг анъанавий турмуш тарзида деҳқончилик, чорвадорлик, овчилик ва қушчилик кенг тарқалган бўлиб, ҳар бир нақш элементи табиат ва миллий қадриятларга оид кўп қиррали маъноларни ўзида мужассам этади. Масалан, «муйиз» мотиви бир вақтнинг ўзида ҳосилдорлик (фертилитет), ҳимоя ва фаровонлик рамзи сифатида талқин қилинади.

Қорақалпоқ нақшларига хос яна бир муҳим жиҳат – уларнинг кўпинча икки томонлама кўринишга эга бўлиши ва устувор симметрия асосида қурилиши ҳисобланади. Фигуралар айна ёки акс-горизонтал композицияда жойлаштирилиб, мукамал мувозанат яратади. Бу хусусият қорақалпоқ орнаменти бошқа халқларнинг содда безакларидан ажратиб туради.

Безакларда сақланиб келаётган қадимийлик белгиси эса алоҳида эътиборга лойиқ. Кўплаб мотивлар Марказий Осиёнинг илк давлатчилик ва маданият босқичларига,

айниқса сармат ва даҳ даврларига бориб тақалади. Масалан, «қарға тирноғи» (карғатырناق) мотиви сарматлар давридаги бронза идишлар безагида ҳам учрагани археологик топилмалар орқали тасдиқланган. Бу эса қорақалпоқ безак санъатининг илдизлари жуда қадим эканлигидан далолат беради.

Геометрик шакллар – зигзаг, спирал, S-қатор каби элементлар – бир қатор бошқа халқларда ҳам мавжуд, аммо қорақалпоқларда уларга хос миллий номлар ва махсус маънолар берилган. Масалан, S-шакли сув белгиси сифатида талқин қилиниб, нақш фонида сув оқими ёки ҳаёт манбаи сифатида ифодаланади.

Шу билан бирга, қорақалпоқ орнаментида кўшни халқлар билан муайян умумийликлар ҳам кузатилади. Масалан, Ҳоразм (Ҳива) ҳунармандчилигида учрайдиган айрим гул ва қайиқ шакллари қорақалпоқ нақшларида ҳам қўлланилган. Бироқ қорақалпоқ усталари бу элементларни миллий услубда қайта ишлаб, содда, уйғун ва мукаммал композицияларни ярата олган.

Умуман олганда, қорақалпоқ безакчилиги ўзининг архаик услуби, семантик жиҳатдан бой мотивлар тизими ва симметрик таркибланиши билан ажралиб, замонавий халқлар безак санъатидан фарқ қилади. Бу жиҳатлар уни нафақат маданий мерос, балки этнографик ва санъатшунослик нуқтаи назаридан ҳам ноёб тадқиқот объектига айлантиради.

Хулоса

Хулоса қилиб айтганда, қорақалпоқ миллий безаклари халқнинг маданий меросининг ажралмас қисми сифатида бебаҳо аҳамиятга эгадир. Уларда нафақат бадиий гўзаллик ва эстетик завқ, балки халқнинг асрлар давомида шаклланган тарихий хотираси, маънавий-ахлоқий қадриятлари ва дунёқараши ўз ифодасини топган. Қорақалпоқ безакларида учрайдиган тўртта асосий мотив — ўсимлик, ҳайвон, буюм ва геометрик шакллар — халқнинг табиат билан уйғун ҳаёт кечирганлиги, урф-одатларига садоқати ва ижодий тафаккурининг чуқурлигини намоён этади.

Бу мотивлар ўзининг архаик белгиларини сақлаб қолгани, рамзий маъноларга бойлиги ва миллий эстетикада тутган ўрни билан этнография, тарих, санъатшунослик каби соҳалар учун қимматли манба ҳисобланади. Улар қорақалпоқ халқининг табиатга муҳаббатини, турмуш тарзи ва анъаналарини, шунингдек, тарихий жараёнлардаги маданий алоқаларини очиқ беради. Шу тариқа, Қорақалпоқ миллий нақшлари нафақат бадиий мерос, балки турли соҳалардаги илмий изланишлар учун бой хазина сифатида миллий ўзлигимизни асраб-авайлаш ва келажак авлодларга етказишда муҳим ўрин тутди.

АДАБИЁТЛАР:

1. Богословская И.В. Каракалпакский орнамент: образ и смысл. – Алматы: МИЦАИ, 2019. – 220 с.

2. Мкртычев Т. «Лувр в пустыне»: как Игорь Савицкий собирал коллекцию русского авангарда в Нукусе. URL: <https://www.forbes.ru/forbeslife/542856-luvr-v-pustyne-kak-igor-savickij-sobiral-kollekciu-russkogo-avangarda-v-nukuse>
3. Кудайбергенова Д.А. Ювелирная коллекция Государственного музея искусств Республики Каракалпакстан имени И.В. Савицкого // Историческая этнология. 2023. Т. 8. № 2. С. 234–244. DOI: 10.22378/he.2023-8-2.234-244
4. Традиционный текстиль. URL: <https://karakalpakstan.travel/traditional-crafts/textile-art>
5. Богославская И. Зооморфные мотивы каракалпакского орнаментального искусства. URL: <https://uzor.uz/narodnie-ramesla/zoomorfnie-motivi-karakalpaskogo-ornamentalynogo-iskusstva>

MUNDARIJA	
PSIXOLOGIYA	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СОЦИАЛЬНЫХ РОЛЕЙ И ОЖИДАНИЙ: СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ВЗАИМОСВЯЗИ ОПТИМИЗМА И ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ СТАБИЛЬНОСТИ У ЖЕНЩИН РАЗНОГО ВОЗРАСТА <i>Дилфуза Пулатова</i>	4
INTERNET QARAMLIGI VA REGRESSIV PSIXOLOGIK JARAYONLAR ZAMONAVIY MAUGLI SINDROMINING KLINIK KO'RINISHLARI <i>Polvanov Rasulbek Baxtiyarovich</i>	11
BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA BADIY TAFAKKURNI RIVOJLANISH DINAMIKASIGA TA'SIR ETUVCHI PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLAR <i>Shaxobiddinov Hayotbek Xakimjon o'g'li</i>	18
ALFRED ADLERGA KO'RA SHAXS VA UNING STRUKTURASI <i>Arabov Is'hoq</i>	21
THE PSYCHOLOGY OF LEADERSHIP AND OBEDIENCE PROCESSES IN SMALL GROUPS <i>Jo'rayeva Kaniza Akbarali qizi</i>	28
ZO'RAVONLIKKA UCHRAGAN AYOLLARDA POSTTRAVMATIK STRESS BUZILISHINING SHAXSLARARO MUNOSABATLARGA TA'SIRI <i>Nazarova Muharram Yunus qizi</i>	34
THE PSYCHOLOGICAL IMPACT OF PARENTAL DIVORCE ON CHILDREN'S MENTAL HEALTH <i>Jo'rayeva Kaniza Akbarali qizi</i>	39
SUBMADANIYAT VAKILLARI SHAXS XUSUSIYATLARINING TAHLILI OLIMLAR TALQINIDA <i>Otamuratova Sarvinoz Abdurazakovna</i>	43
TALABALAR JAMOASIDAGI NIZOLI VAZIYATLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH <i>Vaxobova Muxtabar Nurmuxammat qizi</i>	48
TALABALARDA HAYOTIY STRATEGIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA PSIXOLOGIK MEKANIZMLARNING NAZARIY ASOSLARI <i>Xudoyberganov Doniyorbek Yangiboy o'g'li</i>	53
JISMONIY MADANIYAT	
12-14 YOSHLI BOKSCHI QIZLARNI TEXNIK-TAKTIK TAYYORGARLIGINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI <i>Ishankulov Baxodir Muratovich</i>	61
TALABA QIZLARDA JISMONIY TARBIYA VA SOG'LOM TURMUSH TARZIGA QIZIQISHNI OSHIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI <i>Esanova Gulchehra Boybo'ri qizi</i>	67
SPORTCHINING SATURATSIYA DARAJASINI BAHOLASH ALGORITMINI LOYIHALASH VA ISHLAB CHIQISH <i>Abdullayeva Nazokat Isayevna, Saydullayev Zafar Erkinovich</i>	71
МАЛАКАЛИ БОКСЧИЛАРДА ТЕХНИК-ТАКТИК САМАРАДОРЛИКНИНГ ДИНАМИКАСИ <i>Валихан Джумахонович Анашов</i>	78
YAKKAKURASH SPORT TURLARIDA GIMNASTIKA VOSITALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI NAZORAT QILISH VA BAHOLASH <i>Ravshanov Golibjon Xamrakulovich</i>	83

OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING JISMONIY TAYYORGARLIGI DARAJASI VA UNI BAHOLASH USULLARI <i>Samadov Sardor Sodiqovich</i>	89
SOG'LOMLASHTIRUVCHI MASHG'ULOT JARAYONIDA TURLI YOSHDAGI AYOLLARNING SALOMATLIK HOLATIGA FITNES-AEROBIKA MASHQLARINI TA'SIRI <i>Shaxriddinova Laylo Nurxonovna</i>	98
SAN'ATSHUNOSLIK	
ADIBLAR XIYOBONIDA QAD ROSTLAGAN BUYUK SIYMOLAR <i>Qodirova Zilola Ro'ziboyevna</i>	103
SHERALI JO'RAYEV XALQ QALBIDA MANGU YASHAYDI <i>Kamola Abidova</i>	108
SHERALI JO'RAYEV IJODINING RUHIYAT OLAMI <i>Tojiboyev Sardor O'ktam o'g'li</i>	112
HIROT MINIATYURA MAKTABI - SHARQ SAN'ATI DURDONASI VA UNING BADIY MEROSI <i>Sa'dullayeva Nilufar Shorasul qizi</i>	119
MINIATYURA SAN'ATINING TARIXIY RIVOJLANISHI, ILMIY TADQIQI VA ZAMONAVIY AHAMIYATI <i>Sa'dullayeva Nilufar Shorasul qizi</i>	123
AKTYORLIK SAN'ATIDA DRAMATIK VA MUSIQIY IJRONING MUSHTARAKLIGI <i>Mamutov Paraxat Allambergenovich</i>	127
RAQAMLI SAN'ATNING RIVOJLANISHI VA UNING TURLARI <i>O'razboyeva Ravshanoy Bahodir qizi</i>	135
"MUSIQA TO'GARAKLARIDA IJODIY SALOHİYATNI RIVOJLANTIRISH JARAYONIDA 4K TEXNOLOGIYALARINING SAMARADORLIGI: MILLIY VA XALQARO TAJRIBALAR ASOSIDA" <i>Tokhirjon Shokirov</i>	138
MILLIY IJROCHILIK SAN'ATIDA – XALFACHILIK <i>Tojiboyev Sardor O'ktam o'g'li</i>	147
MUSTAQILLIK DAVRI POYTAXT TEATRLARIDA ZAMONAVIY XORIJIY DRAMATURGIYANING SAHNA TALQINLARI <i>Qodirova Feruzaxon Farxod qizi</i>	151
ҚОРАҚАЛПОҚ МИЛЛИЙ НАЪҚИШЛАРИДАГИ АСОСИЙ МОТИВЛАР <i>Даулетмуратова Мехрибону Бектилеуовна</i>	160

**«Qo‘qon DPI. ILMIY XABARLAR»JURNALIDA CHOP ETILADIGAN MAQOLALARGA
QO‘YILADIGAN
TALABLAR:**

1. Jurnal tahririyatiga taqdim etilayotgan maqolaga:

a) ekspert hayati dalolatnomasi – 2 nusxada;

b) maqola yozilgan ilmiy yo‘nalish bo‘yicha tahrir hay'atiga kiritilgan fan doktori hamda filolog mutaxassis imzolagan (imzo tegishli tartibda tasdiqlangan bo‘lishi lozim) taqriz-tavsiya ilova qilinadi.

2. Maqolalar o‘zbek, rus yoki ingliz tillarida yozilgan bo‘lishi mumkin.

3. Maqola qaysi tilda yozilishidan qat'iy nazar unga uch til – o‘zbek, rus va ingliz tillarida mavzu, qisqa annotatsiya, tayanch so‘z va iboralar (kalit so‘zlar) ilova qilinadi.

4. Maqola jurnal tahririyatiga “Microft Word” dasturida (“Times New Roman” 14 o‘lchamli shriftda, satrlar orasi bir yarim intervalda) terilgan holda ikki nusxada, qog‘oz va elektron varianti bilan topshiriladi.

5. Maqolaning umumiy hajmi (rasm, jadval va diagrammalar bilan birgalikda) 8-10 sahifadan, qisqa xabarlarning hajmi 4-5 sahifadan oshmasligi talab etiladi. Maqolaning bir nusxasi muallif(lar) tomonidan imzolanadi.

6. Muallifning familiyasi, ismi-sharifi, ish joyi, lavozimi, manzili (uy va xizmat telefon raqamlari, elektron pochta) ko‘rsatiladi.

7. Agar maqolaga rasm, jadval, diagramma, sxema, chizma, turli grafik belgilar kiritilgan bo‘lsa, ular aniq va ravshan tasvirlanishi, qisqartmalarning to‘liq izohi yozilishi lozim. Formulalar matnga maxsus kompyuter dasturlarida kiritilishi kerak.

8. Iqtibos olingan yoki foydalanilgan adabiyot satr osti izohi tarzida emas, balki maqola oxirida asosiy matndagi ketma-ketligi asosida umumiy ro‘yxatda ko‘rsatiladi. Matn ichidagi ko‘chirmadan so‘ng iqtibos olingan asarning ro‘yxatdagi tartib raqami va sahifasi kvadrat qavs ichida beriladi. Bu o‘rinda kitob, to‘plam, monografiyalar uchun mualliflarning ism-familiyalari, manbaning to‘liq nomi, nashr ko‘rsatkichi (shahar, nashriyot va nashr yili) ko‘rsatiladi. Jurnal maqolalari va boshqa davriy nashrlar uchun mualliflarning ism-familiyalari, maqola nomi, jurnal nomi, yili va soni, sahifa raqami ko‘rsatiladi.

9. Tahririyatga taqdim qilingan maqolalar tahririyat tomonidan taqrizga beriladi. Maqola taqrizdan qaytgach, agar zarur bo‘lsa, barcha savol va e‘tirozlar bo‘yicha muallifga qayta ishlash uchun taqdim etiladi. Maqola nusxalari qaytarilmaydi.

10. Ijobiy taqriz berilgan maqola tahririyat tomonida qabul qilingan sanaladi. Jurnal tahririyati maqola matnini qisqartirish va unga tahririy o‘zgartirishlar kiritishga haqlidir.

11. Institut professor-o‘qituvchilari tomonidan taqdim qilingan maqolalar muayyan yo‘nalishlar bo‘yicha tahririyat a‘zolarining yoki fan doktorlarining taqriz-tavsiyasi (tegishli tartibda rasmiylashtirilgan bo‘lishi lozim) asosida qabul qilinadi.

12. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan qabul qilinmaydi va ko‘rib chiqilmaydi.

Требования, предлагаемые к статьям для издания в журнале:

1. Для статьи, предъявляемой на издание, представленной в редакцию журнала требуется:
 - 1) акт экспертной комиссии - в 2-х экземплярах;
 - 2) рецензия-рекомендация, подписанная доктором наук и специалистом-филологом (подпись должна быть заверена надлежащим образом), входящими в редколлегию научного направления, в котором написана статья.
2. Статьи могут быть написаны на узбекском, русском или английском языках.
3. Независимо от языка, на котором написана статья, она сопровождается заголовком, короткой аннотацией, ключевыми словами и фразами (ключевыми словами) на трех языках - узбекском, русском и английском.
4. Статья, предоставляемая в редакцию журнала, должна быть в редакции «Microsoft Word» (шрифт Times New Roman 14-мерный, межстрочный интервал 1,5) в двух экземплярах, в бумажной и электронной версии.
5. Общий объем статьи (включая рисунки, таблицы и схемы) не должен превышать 8-10 страниц, размер коротких сообщений не должен превышать 4-5 страниц. Копия статьи подписывается автором (авторами).
6. Указываются фамилия, имя, место работы, должность, адрес автора (домашний и служебный телефоны, электронная почта).
7. Если в статью включены рисунки, таблицы, схемы, диаграммы, различные графические обозначения, они должны быть четко и ясно описаны, полное объяснение сокращений. Формулы необходимо вводить в текст в специальных компьютерных программах.
8. Упомянутая или использованная литература указывается в общем списке в конце статьи в соответствии с последовательностью в основном тексте, а не в виде подзаголовков. После копии в тексте в квадратных скобках указывается порядковый номер и страница в списке цитируемых работ. Здесь указываются имена авторов книг, сборников, монографий, полное название источника, индекс издания (город, издатель и год издания). Для журнальных статей и других периодических изданий указываются имена авторов, название статьи, название журнала, год и номер, номер страницы.
9. Статьи, поступившие в редакцию, рецензируются редакционной коллегией. По возвращении из рецензирования статья будет передана автору на доработку по всем вопросам и возражениям, если это необходимо. Копии статей не возвращаются.
10. Положительно рецензированная статья считается принятой редакцией. Редакция журнала имеет право сокращать текст статьи и вносить в него редакционные изменения.
11. Статьи, представленные профессорами и преподавателями Института, принимаются на основании рецензий (рекомендованных в соответствующем порядке) членами редакционной коллегии или докторами наук по отдельным направлениям.
12. Статьи, не соответствующие вышеуказанным требованиям, не принимаются и не рассматриваются редакционной коллегией.

REQUIREMENTS FOR PUBLISHED ARTICLES IN THE JOURNAL “SCIENTIFIC NEWS” UNDER THE KOKAND STATE PEDAGOGICAL INSTITUTE

1. To the article submitted to the editorial board of the magazine
 - 1) act of the expert board - in 2 copies;
 - 2) a review-recommendation signed by a doctor of sciences and a philologist (the signature must be duly certified) included in the editorial board of the scientific direction in which the article was written.
2. Articles can be written in Uzbek, Russian or English.
3. Irrespective of the language in which the article is written, it is accompanied by three languages - Uzbek, Russian and English, subject, short annotation, key words and phrases (keywords).
4. The article is submitted to the editors of the magazine in Microsoft Word (Times New Roman 14-dimensional font, one-and-a-half line spacing) in duplicate, paper and electronic version.
5. The total size of the article (including pictures, tables and diagrams) should not exceed 8-10 pages, the size of short messages should not exceed 4-5 pages. A copy of the article is signed by the author (s).
6. The author's surname, name, place of work, position, address (home and service telephone numbers, e-mail) are indicated.
7. If the article includes pictures, tables, diagrams, schemes, diagrams, various graphic symbols, they should be clearly and clearly described, a full explanation of the abbreviations. Formulas must be entered into the text in special computer programs.
8. The referenced or used literature is listed in the general list at the end of the article based on the sequence in the main text, not in the form of subheadings. After the copy in the text, the serial number and page in the list of the cited work are given in square brackets. The names of authors for books, collections, monographs, the full name of the source, the index of publication (city, publisher and year of publication) are indicated here. For journal articles and other periodicals, the names of the authors, article title, journal title, year and number, page number are indicated.
9. Articles submitted to the editorial board will be reviewed by the editorial board. Upon return from review, the article will be submitted to the author for revision on all questions and objections, if necessary. Copies of articles will not be returned.
10. A positively reviewed article is considered accepted by the editors. The editors of the magazine have the right to shorten the text of the article and make editorial changes to it.
11. Articles submitted by professors and teachers of the Institute are accepted on the basis of reviews (recommended in the appropriate order) by members of the editorial board or doctors of science in certain areas.
12. Articles that do not meet the above requirements will not be accepted or considered by the editorial board.

Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar

Кокандский ГПИ. Научный вестник

“Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar” ilmiy jurnali OAK Rayosatining 2021-yil 31-martdagi qarori bilan OAK ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kimyo, biologiya, filologiya, tarix hamda 2023-yil 5-maydagi №337/6 sonli Rayosat qarori bilan Pedagogika fan tarmoqlari bo‘yicha milliy nashrlar sifatida kiritilgan.

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma’lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

Bosishga ruxsat etildi: 2025-y. Nashriyot bosma tabog‘i –16,375.

«Poligraf Super Servis» МЧЖ

150114, Farg‘ona viloyati, Farg‘ona shahar, Aviasozlar ko‘chasi 2 –uy

Elektron manzil: kspi_info@edu.uz

№8/2025